

Far RASULLOVA



17 000 savolga  
17 000 javob

# ADABIYOTDAN MUKAMMAL SAVOL-JAVOBLAR

o'qituvchilar, abituriyentlar, o'quvchilar,  
olimpiada, bilimlar bellashuvi ishtirokchilari uchun



ADABIYOTSHUNOSLIK

ADABIY TUR VA JANRLAR

SHE'RIY SAN'ATLAR

XALQ OG'ZAKI IJODI

ENG QADIMGI DAVR YODGORLIKLARI

XI - XV ASRLAR ADABIYOTI

---

**Nilufar RASULOVA**

---

**ADABIYOTDAN  
MUKAMMAL  
SAVOL-JAVOBLAR**

**1-kitob**

---

o'qituvchilar, abituriyentlar, o'quvchilar,  
olimpiada, bilimlar bellashuvi ishtirokchilari uchun

---

Toshkent  
“Nurafshon ziyo yog'dusi”  
2018-vil

UO'K 821(079.1)

KBK 83.3v6

R 25

**Rasulova, Nilufar.**

Adabiyotdan mukammal savol-javoblar [Matn] K.1. [Matn] / N.Rasulova. – Toshkent: «Nurafshon ziyo yog'dusi», 2018. – 448 b.

*To'rt qismdan iborat adabiyot fanidan savol-javoblar kitobi amaldagi umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji darsliklari asosida tayyorlandi. Ushbu qo'llanmadan o'qituvchilar, abituriyentlar, o'quvchilar, olimpiada, bilimlar bellashuvi ishtirokchilari foydalanishlari mumkin.*

**Tuzuvchi:**

*Nilufar Rasulova*

**Taqrizchilar:**

*Hoshimjon Ahmedov,  
filologiya fanlari nomzodi,*

*Donoxon Usmonova,  
ona tili va adabiyot fani muallimasi, oliy toifali o'qituvchi,*

*Jamoliddin Shermuhammad o'g'li,  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Abdulla Qodiriy nomidagi**

**viloyat AKM**

**INV № 869268 - 2020u**

## ADABIYOT – SO'Z SAN'ATI

1.	Obrazli fikrlash hodisasi qanday yuzaga keladi?	Odamlar fikrlar ekan, bir narsani boshqasiga solishtiradi. Bunda ular nafaqat oqni qoradan, yaxshini esa yomondan ajratadi, balki narsalar orasidagi o'xhash, bir-birini takrorlovchi jihatlarni ilg'aydi. Mana shu solishtirish jarayonida obrazli (timsolli) fikrlash hodisasi yuzaga keladi	5
2.	Adabiyotning asosiy ifoda vositasi nima?	Badiiy so'z	5
3.	<p><i>"Shodon kunim gul otgan sen, Chechak otgan izimga, Nolon kunim yupatgan sen, Yuzing bosib yuzimga. Singlim deymi, Onam deymi, Hamdard-u hamxonam deymi, Oftobdan ham o'zing mehri Ilig'imsan, Vatanim"</i></p> <p>Ushbu she'r nomi va muallifi...</p>	"Vatanim", Muhammad Yusuf	5
4.	Poytaxtimiz Toshkentning markazida joylashgan O'zbekiston Milliy bog'ida Alisher Navoiyning haykalini o'rab turgan moviy gumbaz ostiga shoirning qaysi misralari bitilgan?	"Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig', Yor o'lung bir – biringizgaki, erur yorlig' ish".	5
5.	"Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi". Ushbu fikrlar kimning qaysi asaridan olingan?	I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridan	5

6.	Odam bolasi boshqa mavjudotlardan eng muhim qaysi jihat bilan farqlanadi?	Fikrlay olishi bilan	5
7.	Gyote qaysi millat yozuvchisi?	Nemis millati	5

**Quyidagi xususiyatllar qaysi hayvonlarga nisbatan qo'llaniladi?**

8.	Yalqovlik, temsa-tebranmaslik	Ayiqqa	
9.	Dovyuraklik, chapdastlik	Yo'lbarsga	
10.	Ayyorlik	Tulkiga	

**Quyidagi janrlar adabiyotning qanday turini tashkil qiladi?**

11.	Katta-kichik she'rlar, she'riy masallar, ballada va dostonlar...	She'riyatni	5
12.	Ertak, hikoya, ocherk, qissa va romanlar...	Nasrni	5
13.	Intermediya (kichik sahna asarlari) drama, tragediya, komediya...	Dramaturgiya	5
14.	Dramatik asarlar qanday shaklda yoziladi?	She'riy va nasriy	5

**Quyidagi asarlar mualliflarini aniqlang**

15.	"Odissey"	Homer (qadimgi yunon adibi)	5
16.	"Boburnoma"	Zahiriddin Muhammad Bobur	5

## MA'NAVIYAT XAZINASI

1.	O'zbekiston Respublikasining madhiyasi qaysi shoir qalamiga mansub?	Abdulla Oripov	6
2.	O'zbekiston Respublikasining madhiyasi musiqasi muallifi...	Mutal Burhonov	6
3.	O'zbekiston Respublikasining madhiyasi qanday boshlanadi?	Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot...	6
4.	"Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa, inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta". Ushbu fikrlar qaysi asardan olingan?	Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridan	6
5.	"Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir". "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida berilgan ushbu fikrlar qaysi shoir haqida?	Alisher Navoiy haqida	6

### Ushbu fikrlar mualliflarini aniqlang

6.	"Adabiyot yashasa, millat yashaydi"	Cho'lpoxon	6
----	-------------------------------------	------------	---

7.	"Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiylari tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak..."	Islom Karimov ("Yuksak ma'naviyat – yengilmash kuch" asaridan)	6
8.	"Adabiyot – atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak"	Abdulla Qahhor	6

### BADIY SO'Z QUDRATI

1.	Ilohiy kitoblarda aytishicha dunyodagi barcha narsalarning asosi nima?	So'z	7
2.	O'n sakkiz ming olam va undagi jamiki narsalar qanday paydo bo'ldi? "Yaral" so'zi arabcha qanday ma'noni anglatadi?	Ilohiy kitoblarda aytishicha, SO'Z dunyodagi barcha narsalarning asosidir. Rivoyat qiladilarki, Tangri o'zining qudrati va go'zalligiga ko'zgu bo'ladigan yaratiq barpo etishni istaydi-yu, kunlarning birida: "Yaral" (arabchasi "Kun!") degan so'zni aytadi. Yaratgan amrining ifodasi bo'lmish ana shu birgina SO'Zning kuchi bilan o'n sakkiz ming olam va undagi jamiki narsalar dunyoga keldi. Demak so'z olam va undagi jamiki narsalardan oldin paydo bo'lgan ekan. So'zning cheksiz qudratini shundan ham bilsa bo'ladi	7

3.	Adabiyot – nima uchun so'z san'ati?	Badiiy adabiyot san'atning murakkab va serqirra turi, insonda yuksak ma'naviyat shakllantirishning eng ta'sirchan vositasidir. Badiiy adabiyotning asosiy quroli – so'z. Yaratgan amrining ifodasi bo'lmish ana shu birgina SO'Zning kuchi bilan O'n sakkiz ming olam va undagi jamiki narsalar dunyoga keldi. Demak so'z olam va undagi jamiki narsalardan oldin paydo bo'lgan ekan. So'zning cheksiz qudratini shundan ham bilsa bo'ladi. Har qanday inson hayotida juda katta ahamiyat kasb etadigan badiiy adabiyot ana shunday qudratga ega so'z bilan ish ko'radigan san'at turidir	7
4.	Adabiyot so'z yordamida insondagi qanday holatlarni ifoda etadi?	Insondagi ismsiz tuyg'ular, nozik kechinmalar, ko'z bilan ko'rib, qulqo bilan eshitib, qo'l bilan ushlab, til bilan totinib, burun bilan hidlab bo'l-maydigan ruhiy holat jilvalarini faqat so'z yordamida ifoda etish mumkin	7
5.	Adabiyot san'atning boshqa turlaridan so'zdan tashqari yana qaysi jihat bilan ajralib turadi?	San'atning adabiyotdan boshqa har qanday turi inson hayoti yoki hissiyotining faqat birgina holatini ifoda eta oladi. Badiiy adabiyot esa tasvirlanayotgan narsa yoki kimsaning holatini qanchalik ishonarli aks ettirsa, uning o'tmishini ham, kelajagini ham shunchalik ta'sirchan va jonli tasvirlay oladi. (Har qanday spektakl, kino yoki telefilmlarning asosida ham badiiy so'z turadi)	7

6.	Badiiy asarlar ilmiy asarlarga o'xshab aqlingizni o'stirishga xizmat qiladi, undan tashqari yana qanday vazifalarni bajaradi?	Badiiy asar hissiyotlaringizga, tuyg'ularingizga ta'sir qiladi, yuragingizni bezovta qiladi. Sizni loqaydlikdan xalos etadi. O'zgalarning tuyg'ulariga sherik bo'lishga odatlantiradi. Kitobdag'i qahramonlarning holatiga befarq bo'lmaydigan odam atrofidagi tirik kishilarning quvonch-u g'amlariga loqayd qarab tura olmaydi	7
7.	Badiiy obraz deb nimaga aytiladi?	Ijodkorning fikr, tuyg'u, hissiyot va kechinmalari singdirilgan manzara tasviri badiiy obratzdir	7
8.	Badiiy adabiyotning ilmdan farqini tushuntiring.	Badiiy adabiyotning ilmdan tub farqi shundaki, u ma'naviy haqiqatlarni aks ettiradi, fan esa ilmiy haqiqatlarni ifoda etadi. Ilmiy haqiqatning haqiqatligini isbotlash orqali, ma'naviy haqiqatni esa his qilish, tuyish yo'li bilan anglash mumkin. Ma'naviy haqiqatlar inson mavjudligining maqsadini belgilab bersa, ilmiy haqiqatlar ana shu maqsadga erishishga xizmat qiladigan vositalarni topib beradi. Bu holat ko'rsatadiki, inson faoliyatida ma'naviyat birlamchi ahamiyatga ega, ammo ilmsiz uni shakllantirish mumkin emas. Chunki ma'naviyatsiz fan bo'limganidek, ilmsiz ma'naviyat ham yo'qdir	7
9.	Badiiy asarlar-ning insonda tuyg'u, hissiyot uyg'otishiga sabab nimada?	Badiiy asarlarning insonda tuyg'u, hissiyot uyg'otishiga sabab shundaki, har qanday badiiy asar, avvalo, kechinmaning, hissiyotning, munosabatning mahsulidir.	

		Adabiyotdan bo'lak o'quv fanlarida hissiyot bo'rtib, ko'zga tashlanib turmaydi. Adabiyotda esa, to'lig'icha tuyg'ular bilan ish ko'rildi. Hamisha ta'sirlar og'ushida, munosabatlar va kechinmalar qurshovida bo'linadi. Chunki yozuvchilar o'z kechinma va hissiyotlarini kitobxonlardan berkitmaydi, aksincha, yuqtirishga intiladi. Mana shuning uchun ham badiiy asarlarning qahramonlari xuddi tirik odamlarday, go'yo yaqin kishilarimizday bizlarni bezovta qiladi, o'yantiradi	7
10.	Badiiy asarlarning qaysi jihatlari kitobxonni o'ziga rom etadi?	Yozuvchining tuyg'ulari, nechog'liq kuchli, nigohi o'tkir, dardlari salmoqli, tili biyron bo'lsa, o'quvchi uning asarlariga qattiq beriladi. Buning ustiga badiiy asarlarning o'ziga xos musiqiyligi, ohangdorligi, so'zlarning ajib bir mahorat ila ishlatalishi, tufayli paydo bo'lgan holat, ijodkorning dunyoni tasvirlashdagi o'ziga xosligi kitobxonni rom etadi	7
11.	So'zning timsoliy (obrazli) ligini ta'minlash uchun nima qilish kerak?	Badiiy adabiyotning asosiy belgisi va uning odamga chuqur ta'sir etishi sababi obrazli ekanidir. Ijodkor fikr, tuyg'u, hissiyot va kechinmalarini obrazga singdirishi kerak	7
12.	Badiiy adabiyot qachon paydo bo'lgan?	Insoniyat paydo bo'lgandan buyon	7

13.	Dunyodagi birinchi she'rn'i kim nima sababdan to'qigan?	Rivoyat qilishlaricha, birinchi she'rni hazrati Odam Ato o'g'li Hobilning o'ldirilishi munosabati bilan to'qigan ekan	7
14.	Og'zaki va yozma adabiyotning o'ziga xos belgilarini ko'rsating.	Qay tarzda yaratilganligi va kishilik xotirasida qaysi shaklda saqlanib qolganligiga ko'ra badiiy adabiyotni ikki turga ajratishadi: og'zaki va yozma adabiyot. Og'zaki adabiyot qadimiy, yozma adabiyot esa undan keyinroq paydo bo'lgan. Og'zaki adabiyot namunalari kim tomonidan yaratilganligi ma'lum emas. Bu xildagi asarlar ajdodlardan avlodlarga, og'izdan og'izga o'tib yetib keladi	7
15.	Badiiy adabiyot ifoda xususiyatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?	Lirik, epik, dramatik turlarga	7
16.	San'at yordamida inson qanday fazilatlarga oshno bo'ladi?	San'at yordamida inson ko'ngli ezgulik va go'zallikka oshno bo'ladi. "Dunyon go'zallik qutqaradi", – deyishadi donolar	7
17.	Ushbu fikrni davom ettiring. Adabiyot hayotning in'ikosi (surati)...	Ammo uning suratga tushirilgan ayni nusxasi emas	7

**Quyidagi misralar qaysi ijodkorlar qalamiga mansub?**

18.	"Tong otmoqda. Tong o'qlar otar, Tong otmoqda, Quyosh – zambarak. Yaralangan Yer shari yotar – Boshlarida yashil chambarak"	Rauf Parfi	7
-----	--	------------	---

19.	"Ko'm-ko'k, go'zal o'tloqlaring bosing'on, Ustlarida na poda bor, na yilqi. Poda 'nilar qaysi dorga osilg'on? Ot kishnashi, qo'y ma'rashi o'rniga Oh, yig'i. Bu nega?!"	Cho'Ipon	7
-----	---	----------	---

## ADABIYOTGA E'TIBOR – MA'NAVIYATGA E'TIBOR

<b>Ushbu fikrlar mualliflarini aniqlang</b>			
1.	O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qanday misralar bilan boshlanadi?	"Serquyosh hur o'lкам, elga baxt najot..."	8
2.	"Menga qilsa ming jafo, bir qatra faryod aylamom, Elga qilsa bir jafo, ming qatla faryod aylaram"	Alisher Navoiy	8
3.	"Hayotda ko'rayotganlarim go'yo yuragimning ustini shilib tashlagandek bo'ldi. Shundan buyon mening qalbim har bir nohaqlikdan,adolatsizlikdan ta'sirlanib, achishadigan bo'lib qoldi". Ushbu fikrlar muallifi...	Maksim Gorkiy	8
4.	"Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatni ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulik, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni yozuvchi: "Ey odamzod, ko'zingni och, sen nima	"Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga e'tibor"	8

	uchun yashayapsan, inson degan yuksak nomga munosib bo'lish uchun nima qilyapsan?" degan savollarni kitobxon oldida, jamiyat oldida qat'iy qilib qo'ya olsagina, o'ylaymanki, o'zining insoniy va ijodiy burchini bajargan bo'ladi". Ushbu fikrlar Islom Karimovning qaysi kitobidan olingan?		
5.	"Shum bola" asaridagi Sariboyni mot qilgan Shum bolaning ma'naviy otasi...	G'afur G'ulom	8
6.	"Agar siz yaxshi narsalarni ko'rib xursand bo'lsangiz va, aksincha, yomon narsalarni ko'rib ranjisangiz, haqiqiy mo'min ekansiz". Ushbu parchaning manbasi...	Hadisi sharif	11

#### Quyidagi misralarni sharhlang. Muallifini aniqlang

7.	"Qut belgisi – bilig" (Maqol)	Mahmud Koshg'ariy asaridan. Ma'nosi: har qanday fazilatning boshlanishi – bilimdir	11
8.	"Elig bir kun o'ldurdi yangluz o'zun, Kemishti kitab, o'tru baqtி ko'zun"	Elig bir kun yolg'iz o'zi o'tirdi, Kitobni qo'ydi, ko'zini uzoqqa tikdi	11
9.	"O'z vujudingg'a tafakkur aylagil, Har ne istarsen – o'zungdin istagil". Ushbu bayt qaysi asardan olingan?	Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidan	11

## RUHIY KAMOLOT VOSITASI

No	Savollar	Javoblar	S
1.	<b>"Tong o'rniga qayg'ular otar Kimni?" misrasi muallifi...</b>	Faxriyor	9
2.	<b>Adabiyot atamasining tor va keng ma'noda qo'llanishini tushuntiring</b>	Tor ma'noda badiiy adabiyot, keng ma'noda esa ijtimoiy ahamiyatga ega har qanday asar tushuniladi	9
3.	Kishilarning faqat aqliga emas, balki tuyg'ulariga ham ta'sir qilib, ularning hissiyotini boyitish, ruhiyatini sog'lomlashтирishга xizmat qiladigan bitiklar...	Badiiy adabiyot hisoblanadi	9
4.	Rivoyat qilishlaricha, birinchi she'r kim tomonidan aytildi?	Odam Ato tomonidan	9
5.	<b>Badiiy adabiyotning ish quroli...</b>	So'z	9
6.	San'atning adabiyotdan boshqa turlarida qanday holat aks ettiriladi? Adabiyotning boshqa turlardan farqi nimada?	San'atning adabiyotdan boshqa turlarida inson hayotining muayyan bir holati, ya'ni yo buguni, yo bolaligi, yo quvonchi, yoxud xafaligi aks etadi. Adabiyot shunday san'atki, unda odam hayotining hoziri qanday tasvirlansa, o'tmishi ham, kelajagi ham shunday aks ettirilishi mumkin	9
7.	Yozuvchi so'z orqali nimalarni ifoda etadi?	Yozuvchi insonning eng yuksak fikrlarini, murakkab tuyg'ularini, ko'z bilan ko'rishning, qulqoq bilan eshitishning, qo'l bilan ushlab ko'rib bilishning imkonini bo'lmagan sezimlarni ham so'z orqali ifoda etadi	9

8.	<b>"Azal ham sen, abad ham sen, na avval birla oxirkim, Unda yo'q ibtido paydo, bunda yo'q intiho paydo"</b> misralari muallifi...	Alisher Navoiy (Allohnning azalligi, abadligi hamda avvalining boshi bo'limganidek, oxirining adog'i yo'qligi so'zlarning joylashtirilishi va muayyan tovushlarning takrori tufayli g'oyat jozibali, kishi e'tiborini tortadigan tarzda aks etgan. Shuningdek, bu misralar o'qiyotgan kishidan bir qadar aqliy zo'riqishni talab qiladi. Ehtimol, bu satrlarda ifodalangan fikrlar o'zga kishilar tomonidan ham aytilishi mumkindir. Lekin Navoiy singari hissiyotni qo'zg'aydigan yo'sinda aytish boshqa kishining qo'lidan kelmaydi va ayni shu jihat misralarning ta'sirchanligini ta'min etadi)	9
9.	Badiiy adabiyotning eng qadimi shakli...	Xalq og'zaki ijodi	9
10.	Doston, ertak, qo'shiq, maqol, topishmoq kabi janrlar qaysi umumiyy nom ostida birlashadi?	Folklor (xalq og'zaki ijodi)	9
11.	Millat hayotida badiiy adabiyotning tutgan o'rnnini izohlang	Har bir millatning qiyofasini belgilashda uning adabiyoti hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki milliy adabiyot milliy ruhni aks ettiradi. Bu borada biror-bir vosita adabiyotga teng kelolmaydi. Shuning uchun ham adabiyoti bo'limgan millat unutilishga mahkumdir. Turli bosqinchilar uzoq yillar mobaynida turkiy millatlarni o'zlariga qo'shib, singdirib olish yo'li bilan yo'qotib yuborishga urindilar. Ular chegaralarni, saltanatlarni yo'qota oldilar. Lekin tilimizni yo'q qilolmadilar.	9

		O'z ruhiyatiga ega millat hech qachon o'zligidan voz kechmaydi	
12.	Badiiy asarlar qanday maqsadda yaratilishiga (kuylash uchunmi, sahnada 'ko'r-satisf uchunmi yoki o'qish uchunmi) va nimani ifoda etishiga (tuyg'uni, tuyg'uni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan voqeani yoki surazlarning bevosita harakatlariga) qarab qanday turlarga bo'linadi?	Lirik, epik, dramatik tur	9

## BADIY ADABIYOT NAMUNALARI TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

1.	Badiiy asarni o'qishning ahamiyati...	O'quvchi badiiy asarlarni o'qish orqali inson hayotining mazmuni, mohiyati, dunyo voqealarini haqiqatini anglab boradi. Badiiy asarlar ezgu insoniylar maqsadlar yo'lida umr kechirishga undaydi, badiiy so'zdan ta'sirlanish tuyg'usini shakllantiradi. O'quvchida dunyoga jism ko'zi bilan emas, ko'ngil ko'zi bilan boqish, voqealar va narsalarning zamiridagi haqiqatlarni ko'ra bilish qobiliyati yuzaga keladi	7
----	---------------------------------------	---	---

## DIDAKTIK ADABIYOT HAQIDA TUSHUNCHА

1.	Nasihat, o'git, ibrat ruhidagi asarlar...	Didaktik adabiyot hisoblanadi	8
2.	Didaktika so'zi qaysi tildan olingan?	Yunonchadan olingan, ibratli degan ma'noni bildiradi	8

3.	Pand-nasihat ruhidagi asarlarni adabiy shakliga ko'ra qanday tasnif qilish mumkin?	1. Nasriy didaktik asarlar. 2. Nasriy-she'riy didaktik asarlar. 3. She'riy didaktik asarlar	8
----	--	---	---

### Quyidagi adabiy shakllarga misollar keltiring

4.	Nasriy didaktik asarlar...	"Kalila va Dimna" ("Panchatantra", IV asr), "Ming bir kecha", Kaykovusning "Qobusnama", Xojaning (Podshoxo'ja binni Abdulvahhobxo'janing, XVI asr) "Gulzor" hamda "Miftoh ul-adl" ("Adolat kaliti"), Shukrulloning "Javohirlar sandig'i" asarları	8
5.	Nasriy-she'riy didaktik asarlar...	Sa'diy Sherioziyning "Guliston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarları	8
6.	She'riy didaktik asarlar...	Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Haydar Xorazmiyning (Nizomiy Ganjaviyning "Mahzan ul-asror" i asosida bitilgan) "Gulshan ul-asror", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asarları	8
7.	Didaktik ruhdagi zamonaviy nasriy asar...	Shukrulloning "Javohirlar sandig'i" asari	8
8.	IV asrda Hindistonda sanskrit tilida mashhur bo'lgan asar...	"Kalila va Dimna" ("Panchatantra")	8
9.	Arab ertaklari asosida shakllangan asar...	"Ming bir kecha"	8
10.	"Sharq ko'proq nasihat yo'li bilan, G'arb esa hayotni real ko'rsatish orqali kishini tarbiyalaydi". Ushbu fikr kimga qarashli?	Abu Ali ibn Sinoga (XI asr)	8

11.	"Sharqqa she'riyatni o'rnatib bo'lmaydi", – degan ijodkor...	Abdulla Oripov
-----	--	----------------

## HIKMATLI SO'ZLAR

1.	Hikmatli so'z (grekcha aforizm)...	Chuqur va o'tkir mazmunli, qisqa, aniq va lo'nda ibora, bayt, jumla
2.	Hikmatli so'z bilan maqolning farqi...	Hikmatli so'zlarning muallifi aniq, uning qaysi manbadan kelib chiqqani, kim tomonidan aytilgani ma'lum bo'ladi. Hikmatli so'zlar shakl jihatidan mukammal holga kelib, ko'pchilik tomonidan qo'llana boshlagach, maqolga aylanib ketadi
3.	Hikmatli so'zlar o'zicha mustaqil janr hisoblanadimi?	Hikmatli so'zlar o'zicha mustaqil janr hisoblanadi, ya'ni ular alohida yaratilishi mumkin. Lekin ko'p hollarda ular turli ilmiy, falsafiy, tarixiy va badiiy asarlar tarkibida uchraydi. Ba'zida butun asar hikma so'zlardan tarkib topgan bo'lishi hamumkin
4.	Hikmatli so'zlar qanday mazmunda bo'ladi?	Asosan tarbiyaviy yo'sindagi pand-nasihat, o'git, tanbeh mazmunida bo'ladi

**Quyidagi asarlarda hikmatli so'zlar uchraydi.  
Ushbu asarlarni adabiy shakliga ko'ra turini aniq!**

5.	IV asrda Hindistonda sanskrit tilida mashhur bo'lgan "Panchatantra" ("Kalila va Dimna")	Nasriy dida asar
6.	Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari	She'riy didaktik asar

7.	Sa'diy Sheraziyning "Guliston" asari	Nasriy-she'riy didaktik asar	8
8.	Haydar Xorazmiyning Nizomiy Ganjaviy "Maxzan ul-asror"i asosida bitgan "Gulshan ul-asror" asari	She'riy didaktik asar	8
9.	Arab ertaklari asosida shakllangan "Ming bir kecha" asari...	Nasriy didaktik asar	8
10.	Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari	Nasriy-she'riy didaktik asar	8
11.	Kaykovusning "Qobusnoma" asari	Nasriy didaktik asar	8
12.	Alisher Navoiyning "Xamsa" siga birinchi asar sifatida kiritilgan "Hayrat ul-abror" dostoni	She'riy didaktik asar	8
13.	Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari	Nasriy-she'riy didaktik asar	8
14.	O'zbekiston xalq shoiri Shukrulloning "Javohirlar sandig'i" asari	Nasriy didaktik asar	8
15.	Sharq adabiyotida- gi faqat hikmatli so'zlar va ibratl hikoyatlar asosiga qurilgan asarlarga misollar keltiring	Sa'diy Sheraziyning "Guliston" va "Bo'ston", Nosir Xisravning "Sadoqatnoma", Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir", "Mahbub ul-qulub", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarlari...	6

### ADABIYOT – MA'NAVIYATNI YUKSALTIRISH VOSITASI

#### Quyidagi hikmatli fikrlar muallifini aniqlang

1.	"Sen bu kun sinfda shod yurak bilan Sinov navbatini kutib turasan, A'llo mamlakatning a'llo farzandi, Bilib qo'yki, seni vatan kutadi!".	G'afur G'ulom	10
----	---	---------------	----

2.	“Qone’ (qanoatli) darveshning quruq noni tome’ (ta’magir – birovning narsasiga ko’z tikuvchi) shohning xitoyi xoni (dasturxoni)din xo’broqdur”	Alisher Navoiy	10
3.	“Haq berilmas, olinur”	Mahmudxo’ja Beñbudiy	10
4.	“So’z so’zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak”	Abdulla Qodiriy	10
5.	“Har kimsadaki bo’lsa qanoat, g’am yo’q”	Alisher Navoiy (“Nazm-ul javohir”)	10
6.	“Chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o’z milliy qadriyatlarini, milliy o’zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o’ziga munosib o’rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin”	Islom Karimov	10
7.	“Kitob – tafakkur qanotidir”	Oybek	10

### BADIY ASAR TILI HAQIDA

1.	Yurtimizdagи o’zbek tilida so’zlashuvchi-larning barchasi – ularning yashash huddi, qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligi, hayotda bajarayotgan mashg’ulot turi va boshqalaridan qat’i nazar, foydalanadi-gan til...	Umumxalq tili	6
2.	Umumxalq tilining leksik, grammatick, imlo va talaffuz jihatdan me’yorlashtirilgan shakli...	Adabiy til	6

3.	Bir tomondan, umumxalq tili va adabiy tilga tayanadigan, boshqa jihatdan esa ularning har ikkisidan farqlanib turadigan alohida san'at hodisasi...	Badiiy til	6
4.	Kundalik so'zlashuvimizda ishlataladigan til...	So'zlashuv tili	6
5.	Badiiy tasvir vositalariga boy, umumxalq tili boyliklariga murojaat qiluvchi til...	Badiiy til	6

## BADIY ASARDA MILLIY RUH IFODASI

1.	Badiiy asardagi milliylik tushunchasi...	Ota-onani tanlab bo'Imaganidek, millatni ham tanlamaydilar. Uni boricha qabul qilish, avaylash, uning har jihatdan yuksalishiga hissa qo'shish lozim. Ayni shu holatlarning badiiy adabiyotda aks etishi badiiy asarning milliyligi bo'ladi	
2.	"O'tkan kunlar" asaridagi milliy ruh aks etgan manzaralarga misollar keltiring	Otabek o'ziga mutlaqo yoqmaydigan qaror qabul qilgan onasiga qo'pollik qilmaydi, yuziga tik qaramaydi. Shuningdek, o'g'il biror o'rinda o'zining Kumushni yaxshi ko'rishini ota-onasiga ochiq aytmaydi. Otabek bunday harakatlardan andisha qiladi, o'ziga nomunosisib hisoblaydi...	

## BADIY ADABIYOTDA RUHIYAT TAHLILI

1.	Ruhiyatga dahldor narsalarni qanday his qilish mumkin?	Ruhiyatni sezgi muchalarining birortasi bilan his qilish mumkin emas. Uni ko'ngil bilan tuyish mumkin xolos. Ruh odamning ko'ngliga tegishli. Inson aqli ruhni to'la tushunishga ojizlik qiladi	9
2.	Qur'oni Karimda ruh haqida qanday fikrlar bor?	Bu muqaddas kitobda ruhning izohini odam tushunolmasligi ta'kidlangan	9

**Quyidagi qahramonlarning ruhiy holatlari qaysi asarlarda tasvirlangan?**

3.	Raqibini yiqitolmagan Alpomishga qarata Oybarchinning: Yiqmasangiz, to'ram, navbat tilayin, Erkak libosini o'zim kiyayin, Bor kuchimni bilagimga jiyayin... Qizlar sizni narmoda deb aytadi... Mardlar olishmaydi siltab otadi" degan gaplari yigit ruhiyatini ostin-ustun qilib yuboradi va shu vaqtgacha eplolmagan dushmanini ko'kka otadi	"Alpomish" dostonida	9
4.	Birovga qo'pol gapirishni bilmaydigan Otabek uch yovuz dushmaniga qarshi yolg'iz jangga kirishadi	"O'tkan kunlar" romanida	9
5.	Qanchalar yovuz va shuhratparast bo'lmasin, otasiga tig' ko'tarish Abdullatif uchun ham oson kechmaydi	"Ulug'bek xazinasi" romanida	9

## BADIY ASAR PAFOSI

1.	Pafos so'zining lug'aviy ma'nosi...	Pafos yunoncha "ehtiros", "hissiyot", "iztirob" ma'nolarini anglatuvchi "pathos" so'zidan olingan	9
2.	Adabiy atama sifatida pafosga ta'rif bering	Asarga singib ketgan, undagi badiiy tasvirning yo'nalishini belgilab beradigan jo'shqin tuyg'u va ko'tarinki ruhni anglatadi	9
3.	"Asrga tatigulik kun" romanida kuchli pafos bilan tasvirlangan lavhalarga misollar keltiring	Oddiy temiryo'lchi Edigeyning o'ylari, so'zlari, qilgan ishlari kitobxonni o'ziga rom etadi; Sobitjonning xatti-harakatlari, gaplari, tutumi adib tomonidan jo'shqinlik bilan inkor etilgani uchun o'quvchi bu timsolni yomon ko'rib qoladi; Nayman ona timsoli tasvirida yaqqol bo'y ko'rsatadigan Manqurt haqidagi afsonada insонning asosiy belgisi bo'lmish o'zlikdan ayirish, odamni xotirasidan mahrum qilish cheksiz nafrat bilan tasvirlangan	9

## HAJVIY ASAR HAQIDA

1.	Qanday badiiy asarlar hajviy asar hisoblanadi?	Tanqidiy va kulgi uyg'otadigan, jamiyat hayotidagi kamchiliklar, ayrim shaxslar fe'l-atvorigagi, xatti-harakatidagi qusurlar tanqid qilinadigan, ya'ni kulgili qilib tasvirlanadigan badiiy asarlar hajviy asar hisoblanadi	6
----	--	---	---

2.	Hajviy asarlar jamiyat va kishilardagi salbiy jihatlarni tanqid qilish va fosh etish darajasiga qarab necha turga bo'linadi?	Ikki turga: satirik va umoristik	6
3.	Hajviy asarlar mazmuni va shakliga ko'ra qanday turga bo'linadi?	2 turga: satirik va umoristik	6

**Quyidagi ta'riflardan satira va yumorga  
xos xususiyatlarni aniqlang**

4.	Yunoncha "turli", "aralash" degan ma'nolarni anglatadi	Satira	6
5.	Ingliz tilidagi "namlik", suyuqlik" so'zlaridan olingan?	Yumor	6
6.	Badiiy adabiyotda yengil kulgi qo'zg'atib, hazil mutoyiba sifatida qo'llaniladi	Yumor	6
7.	Badiiy asarda kishilardagi yoki ma'lum bir jamiyatdagi nuqson va kamchiliklarni keskin tanqid qilish, masxaralab bartaraf etish maqsadida qo'llaniladi	Satira	6
8.	Ijodkor ayrim nuqsonlar ustidan kinoya-kesatiqsiz do'stona, xayriyohlik bilan kuladi	Yumor	6
9.	Voqeа-hodisalarining, jamiyatdagi insonlarning hech bir nuqsonsiz bo'lishini istab, ularni inkor etmagan holda zukkolik, topqirlik, hozirjavoblik, hazil-askiya bilan munosabat bildiriladi	Yumor	6
10.	Yozuvchi o'z asarida qalamga olgan jamiyatdagi illatlarni yo'q bo'lib ketishini xohlaydi?	Satira	
11.	Adib badiiy asarda tasvirlangan voqeа-hodisalarining, jamiyatdagi insonlarning nuqson va kamchiliklari tuzalishini xohlaydi	Yumor	

12.	Said Ahmadning "Qoplon", "Sobiq" hajviy hikoyalarini satirik va yumoristik kabi turlarga ajrating	"Qoplon" satirik, "Sobiq" yumoristik hikoya	6
13.	Said Ahmadning kishilardagi xushomadgo'ylik, laganbardorlik, o'z manfaati yo'lida andisha-mulohazaga bormay surbetlarcha ish tutishi, odamlarning amal kursisiga qarab munosabat ko'rsatishi kabi yaramas illatlar tanqidiga bag'ishlangan satirik asari...	"Qoplon"	6
14.	"Qoplon" hikoyasida Qurbonboy obrazi misolida Said Ahmad qanday shaxs qiyofasini ko'rsatib beradi?	O'zini hali tanimagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo'llarini topib olgan, hech bir istiholasiz laganbardorligini oshkora ko'rsatib, xo'jayinning polini yuvib, gilamini ham qoqib berishdan orlanmaydigan, vaqtি kelganda shartta yangi boshliqqa xizmat qilib ketaveradigan, o'z manfaati uchun orini, vijdonini qurbon qiladigan oriyatsiz, ablah bir shaxs	6
15.	"Qoplon" hikoyasida qanday g'oya ilgari surilgan?	Qurbonboy kabi buqalamun kimsalar, ablah odamlarni jamiyatda, insonlar orasida o'rni bo'lishi kerak emas, degan g'oynani ilgari suradi	6
16.	"Sobiq" hikoyasining mavzusi...	Sho'rolar davrining turg'unlik zamonlarida har narsani mafkuraga bog'lash odat tusiga kirganligi, hikoya qahramoni paxta terishda jonbozlik ko'rsatib, hech kutilmaganda dabdababozlikning nishoniga aylanishi, eng ilg'or paxtakor deb, asosiy ishini yig'ishtirib, turli kerak-nokerak	6

		majlis, kengash, yig'ilishlarga borishga majbur bo'lishi tasvirlangan	
17.	"Sobiq" hikoyasida qanday g'oya ilgari surilgan?	Jamiyatimizda halol kishilarning xatti-harakatlarida paydo bo'layotgan dabdababozlik	6

**Quyidagi hajviy asarlar qanday janrda yozilgan?**

18.	"Maskovchi boy ta'rifida", "Saylov", "Dodhohim", "Tanobchilar" (Muqimiyy)	She'riy hikoya	6
19.	"Maysaraning ishi", "Tuhmatchilar jazosi" (Hamza)	Pyesa	6
20.	"Yovuz niyatli kishi", "Chiqdi", "Qiyshiq oyna" (Chexov)	Hikoya	6
21.	"Og'riq tishlar" (A.Qahhor)	Pyesa	6
22.	"Adabiyot muallimi" (A.Qahhor)	Hikoya	6
23.	"O'n ikki stul", "Oltin buzoqcha" (Ilf va Petrovlar)	Roman	6
24.	"Revizor"(Gogol)	Pyesa	6
25.	"Yelvizak" (Ne'mat Aminov)	Roman	6
26.	Hajviy yo'nalishni taraqqiy etirgan hajvchi adiblar...	Gulxaniy, Maxmur, Muqimiyy, Zavqiy, Said Ahmad, Ne'mat Aminov, Anvar Obidjon...	6

**BADIY OBRAZ VA MUBOLAG'ALI TASVIR**

1.	Badiy obraz deb nimaga aytildi?	Keng ma'noda: Ijodkorning fikr, tuyg'u, hissiyot va kechinmalari singdirilgan manzara tasviri badiy obrazdir. Tor ma'noda: inson tushunchasidir	7
----	---------------------------------	--	---

2.	Adabiyotning tasvir mavzusi, avvalo...	Insondir	7
3.	Adabiyotshunoslik ilmida markaziy o'rinni egalovchi tushuncha ...	<i>Obraz, qahramon, yoki personaj</i> tushunchasidir	7
4.	Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati...	Badiiy obrazdir	7
5.	Asarning boshidan oxirigacha qatnashib, tasvirda muhim o'rin tutuvchi ishtirokchi...	Bosh qahramon	7
6.	Asarning bir-ikki o'rnidagi qatnashib, keyin tushib qoladigan ishtirokchilar...	Epizodik qahramon-lardir	7
7.	"Ravshan" dostonidagi bosh qahramonlar...	Ravshan, Zulkumor, Hasanxon	7
8.	"Ravshan" dostonidagi epizodik obrazlar...	Shirvonlik kampir ena, aka-uka kallar, Oqqiz	7
9.	Badiiy asarlarning ta'sir darajasini oshirish uchun unda tasvir etilgan odam, narsa yoki hodisaga xususiyatni orttirib ko'rsatilishi	Mubolag'a	7
10.	Mumtoz adabiyotda behad ortuylgan mubolag'a...	Bulug' yoki ifrot	7
11.	Aqlga sig'maydigan darajadagi mubolag'a	G'ulu (mubolag'aning uch turi mavjud: tablig', ig'roq, g'uluv – Anvar Hojiahmedov ma'ruzasidan)	7

## RAMZIY OBRAZLAR

1.	Badiiy adabiyotda keng foydaliladigan tasvir usullaridan biri bo'lib, aniq tasavvur etish qiyin bo'lgan hodisa yoki tushunchalarni odamning ko'z oldiga yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalash...	Ramz – simvol	7
2.	Simvol so'zi qaysi tildan olingan, qanday ma'noni ifodalaydi?	Grekcha "siymbolon" so'zidan olingan bo'lib, qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a'zolarining bir-birini tanib olishi uchun qo'llanilgan shartli belgini anglatgan	7
3.	Shoxdor ona bug'u	Ezgulik, yaxshilik, oliyanoblik, mehr-oqibat, shuningdek, xalq timsoli	7
4.	Oq kema	To'kislik, mehr-u oqibat, diydor ramzi	7
5.	Baliq	Erk va qudrat ramzi	7
6.	Tulki	Ayyorlik	7
7.	Sariq gul	Ayriliq	7
8.	Tun	Hasrat	7
9.	Kabutar	Tinchlik	7

## KOMIL INSON G'OYASI

1.	Tasavvuf tushunchasi...	Tasavvuf – musulmon olamida keng tarqalgan islom diniga asoslanuvchi buyuk ta'lilot. Tasavvuf orqali insoniyat Islom dinining ichki va tashqi go'zalligini, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetdi	9
2.	Tasvvufning maqsadi...	Insonni ruhiy, ma'naviy jihatdan poklash, ya'ni komil insonni tarbiyalashdir	9

3.	Qalb pokligiga erishgan, yuksak ma'naviyatli, barkamol shaxs...	Komil insondir	9
4.	Poklanishning yo'li...	Nafsni yengishdir	9
5.	Nafs nima? Nafs deganda yemoq, ichmoq, kiymoqlikdan tashqari, yana johillik, ilmsizlik, manmanlik, kibr-u havo, dunyoparastlik, zulm, o'g'rilik, tanballik, g'urur, tama, ko'rolmaslik, baxillik, mansabparastlik; shahvat, ko'ngil torlik, g'azab, umuman, inson ruhini, qalbini bulg'aydigan, uni Olohdan uzoqlashtiradigan barcha illatlar yig'indisi tushuniladi		9

6.	Nafsni yengish quroli...	Ishq	9
----	--------------------------	------	---

### Quyidagi fikrlar kimlarning qalamiga mansub?

7.	"Yo Ali, valoyat (avliyolik) maqomiga yetishgan zotlar ko'p-ko'p ibodat qilganlaridan emas, o'z nafslarini yengganliklaridan bunday ulug' darajaga erishganlar"	Muhammad alayhissalom ("Hadis"dan)	9
8.	"Nafs itin qilsang zabun Olamda yo'q senday shijo"	Navoiy	9
9.	"Bir nafsning ishini yetmish shayton qilolmaydi"	Rabg'uziy	9
10.	Insonning eng xavfli, qudratli dushmani...	Nafs	9

11.	"Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod olishib yenggan ajdaho, Axraman dev, temir odam qanday obrazlar?	Ular shunchaki xayoliy, afsonaviy obrazlar emas, balki Farhodning ichki olamidagi nafsoniy istak, shaytoniy intilishlarning ramziy timsollaridir	9
12.	Nafsni yengish quroli...	Nafsni yengish quroli – ishq. Farhodning oshiqligi uni nafs lashkari bilan	9

		kurashga otlantirdi, ishq una kuch, sabot va iroda ato etdi	
13.	Tasavvufda ishq tushunchasi deganda nima tushuniladi?	Mehr, sevgi tuyg'ulari, ulardan tashqari, yana iroda, sabot, ilm, ibodat, oqillik, xokisorlik, sabr, qanoat, g'ayrat, kamtarinlik,adolat, saxiylik, halimlik, mardlik, hayo, pokizalik, shirinso'zlik, shafqat, umuman, inson qalbini, ruhini poklashga xizmat qiladigan, uni Ollohunga yaqinlashtiradigan barcha ezguliklar, pokliklar yig'indisi tushuniladi	9
14.	Ishqni o'rni...	Ishqning o'rni ko'ngilda bo'ladi. Ko'ngil poklansa, ishq yanada o'tli, nurli bo'ladi, ilohiy mohiyat kasb etadi	9
15.	Tasavvufga ko'ra, ko'ngilni poklash ham bir ilmdir. Ilm esa ustozlardan o'rganiladi. Farhodning ustozlari kimlar edi?	Boniy, Moniy, Quran. Ular shunchaki hunarmand ustalar obrazi emas	9
16.	Farhod yana kimlardan ishq sirlarini o'rgangan?	Suhaylo, Suqrotdan	9
17.	"Farhod va Shirin"dagi Boniy, Moniy, Quran kabi qahramonlar qanday obrazlar hisoblanadi?	Ramziy obrazlar	9
	<b>Quyidagi sifatlar qaysi obrazlarda mujassam?</b>		
18.	Farhod ko'nglidagi toshdan ham qattiq nafsoniy istaklarni parchalash ilmini o'rgatgan murshid...	Quran	9
19.	Farhod ko'ngliga ishq binosini qurban va qurishni o'rgatgan piri komil...	Boniy	9
20.	Ollo ishqini qalbga naqshlash sirlarini anglatgan ustoz...	Moniy	9

21.	Farhod olishib yenggan ajdaho, Axraman dev, temir odam qanday obrazlar?	Farhodning ichki olamidagi nafsoniy istak	9
22.	"Farhod va Shirin"dagi odam qiyofasidagi shaytonlar...	Xisrav, Sheruya	9
23.	Poklanishga erishgan komil inson ayni paytda yuksak axloq va odob timsoliga aylanadi. Shu ma'noda o'zbek adabiyotida mukammal yaratilgan komii inson obrazi...	Farhoddir	9

## TASAVVUF

1.	Komil insonlikka intilish, ham ruhan, ham jisman bularga maxsus riyozat bosqichlari orqali yetib borish, ma'naviy kamolotga erishish yo'li...	Tasavvuf	9
2.	Komillikka birinchi qadamni qo'yish uchun tasavvufning qaysi bosqichidan o'tish kerak?	Shariat	9
3.	Tasavvufning bosqichlari...	Shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat	9
4.	Tavassufning ilk bosqichi...	Shariat (islomiy hukmlar, yo'riqlar majmuyi, shariatni qabul qilmagan kishi musulmon bo'lmaydi)	9
5.	Ikkinch bosqich...	Tariqat ("yo'l", tasavvufning amaliy qismi. U, albatta, ustoz (pir, murshid) bilan egallanadi)	9
6.	Uchinchi bosqich...	Ma'rifat (ar. "bilmoq", bu bosqichga erishgan zohid dunyoning hamma jismida, har bir voqeа-hodisada Alloh iroqasini, uning sifatlarini ko'ra oladi. Ammo bu hali o'zlashtirishning aql bilan bog'langan bosqichi)	9

7.	To'rtinchi bosqich...	Haqiqat (tasavvufning eng yuqori – oliv bosqichi, Alloh bilan birlik hosil qiladi)
8.	Tariqatga kirgan odamni qanday atashadi?	So'fiy, solik, murid, darvesh, qalandar, devona, oshiq
9.	Tasavvufning qaysi bosqichi "yo'l" degan ma'noni anglatadi?	Tariqat
10.	Turkiy adabiyotda tasavvuf ta'limoto kimning qaysi asaridan boshlab ifodalana boshlandi?	Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u biling" asaridan
11.	Tariqat bosqichining o'ziga xosligi...	So'fiy tariqatda pir (murshid)ga qo'l beradi
12.	Ilmda tasavvuf tarixidagi bosqichlar...	Ikki bosqich: zohidlik va oriflik ajratiladi, oriflik davri IX asr o'talaridan boshlangan
13.	Nasroniy diniga mansub kishi ma'nosini bildiruvchi <b>tarso</b> istilohi...	Tasavvufda o'zini Olloh ishqiga yetishmoqqa baxshida etgan inson
14.	So'fiylikda inson fe'lining eng katta qusurlaridan biri...	Kibr-u havo, manmanlik
15.	Musulmonlarning muqadas sajdagohi – Ka'baga asos solgan kishi...	Ibrohim Xalilulloh
16.	Sharq tasavvuf adabiyotida kuylanadigan ishq nechaga ajratiladi?	Ikkiga: haqiqiy (Ollohga bo'lgan ishq) va majoziy ishq (insonning insonga muhabbati, Payg'ambar Muhammad alayhissalomga, tariqat peshvolariga...)
17.	"Ishq o'zingdan xalos bo'lib, sevgiling sifatlari bilan yashamoqlikdir", – degan so'zlar kim tomonidan aytildi?	Mansur Halloj

**Tasavvuf adabiyotida quyidagi timsollar qanday  
ma'nolarni ifodalaydi?**

18.	Yusuf payg'ambar	Adabiyotda go'zallik timsoli	
19.	Ayub alayhissalom	Mumtoz adabiyotda Ayub alayhissalom sabr-toqatning ramzidir	
20.	Zikriyo (Zakariyo)	Kofirlar zułmidan qochib daraxt ichiga yashiringan, kofirlar daraxt bilan birga uni arralaganlarida ham, Xudoni tilidan qo'yмаган payg'ambar	
21.	Vahdat	Tasavvufdagi birlik, Alloh bilan birlashish yo'li	9
22.	Darvesh	Haqqa oshiq bo'lgan, uning visoliga erishmoqni o'ziga vazifa qilib qo'ygani tufayli asosiy maqsadni Allohnini izlashga bag'ishlagan kishi	
23.	Boda (may), sharob	Mumtoz adabiyotda Alloh ishqisi	9
24.	Suluk	Tasavvuf ta'limotida haqiqat yo'li	
25.	Solih	Tasavvufda haqiqat yo'liga kirgan xudojo'y, taqvodor inson	
26.	Piri mug'on	Tasavvufda tariqat rahbari, ilohiyot sari boshlovchi ustoz	
27.	Tajalli	Tasavvuf ta'limotida butun olamdagи harakat, ko'karish va yangilanish, husn-u jamol, hayotning o'zi ham ruhi mutlaq nurining taralishi. Zarradan koinotgacha shu nur fayzidan yaratilgan, degan g'oya	
28.	Kosa, jom, qadah, idish	Tasavvufda ko'ngil (so'fiy qalbi) ramzi...	9
29.	Mayxona, butxona, xarobot	Ishqi borlar to'planadigan joy, pirlar dargohi	9

30.	Mahbuba, mashuqa, jonon, do'st, rafiq	Tasavvuf adabiyotida Yor – Olloh	9
31.	So'fiylar	Ishq ahli, oshiqlar...	9
32.	Vasl ahli...	Komillikka yetishgan, avliyolik siyratini kasb etgan zotlar	9
33.	Soqiy...	Ishq sirlarini talqin etuvchi piri komil	9
34.	Lab...	Haqiqiy yoki majoziy yorning kalomi	9
35.	Bo'sa...	Oshiqning yor visolidan bahramandligi	9
36.	Xaloyiq (xalq, mardum, el)	Haqiqiy ishqidan bexabar kimsalar yoki dunyoga ko'ngil bergen nafs bandalari	9
37.	Dunyo	So'fiylar nazdida nafsoniy huruj, shaytoniy istaklar jamlangan voqelik	9
38.	Dard ahli	Oshiqlar	9

## SHE'R HAQIDA TUSHUNCHА VA SHE'RIY VAZNALAR

1.	She'r deb nimaga aytildi?	Shoirning fikri va ichki kechinmalari ifodasi bo'lib, ma'lum bir tartibga solingan ritmik nutq she'r deb ataladi	7
2.	Ijodkorning qalbida ma'lum bir voqeа-hodisaga nisbatan paydo bo'lgan munosabat...	Ichki kechinma deyiladi	7
3.	Nutqning qolipga, o'l-chamga solinishi, she'riy nutqni nasriy nutq-dan farq ettiruvchi she'riyat asoslарidan biri...	Vazn yoki she'riy tizim deb ataladi	7
4.	Vaznning turlari...	Shakliga ko'ra she'rning aruz, barmoq, erkin (sarbast), oq she'r, erkin	7

		she'r, nasriy she'r kabi ko'plab vaznlari mavjud	
5.	O'zbek she'riyatida asosan qaysi vaznlar qo'llanib kelingan?	Aruz, barmoq, erkin vaznlar	7
6.	O'zbek she'riyatida eng ko'p o'rin egallagan vazn...	Barmoq vazni	7
7.	Vazn qanday unsurlar- dan paydo bo'lgan?	Bo'g'in (hijo), turoq (rukun, sutun), pauza, urg'u ...	
8.	She'rning har bir satr yo'li...	Misra (ar. "eshikning bir tabaqasi")	
9.	Bayt (ar. "uy")...	Ikki misra she'r	
10.	She'rning muayyan qo- fiya tartibiga ega bo'lgan, mazmun va ohang jiha- tidan tugallangan, mu- siqiylikni yuzaga keltiruv- chi yirik ritmik bo'lagi...	Band (strofa)	
11.	O'zbek mumtoz she'riyatini asosan qaysi vaznda yozilgan she'rlar tashkil etadi?	Aruz (arabcha "arz qilmoq") vaznida	

**Quyidagi vaznlarning o'ziga xos  
xususiyatlarini aniqlang**

12.	Aruz vazni	Misralarda hijolarning qat'iy miqdori, qat'iy guruhanishidan tashqari qat'iy sifati, ya'ni qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziqligi ham muhim ahamiyatga ega	7
13.	Barmoq vazni	She'r misralaridagi bo'g'inlar miqdori asosiy o'Ichov hisoblanadi. Barmoq she'r tizimida misralarda bo'g'inlar soni bir xil miqdori takrorlanadi va bir xil guruhanadi	7
14.	Erkin she'r	Erkin vaznda bir o'Ichamdan boshqasiga erkin o'tib ketilaveradi. Unda na bo'g'inlar va na turoqlar sonining bir xilligiga	

		rioya qilinadi. Erkin she'rda shoirning badiiy niyati, fikr-u tuyg'uni qay shaklida ifodalash istagi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi	7
15.	Oq she'r	Vazn saqlansa-da, biroq qofiyalar bo'l-maydi, qofiya talab etilmagani uchun ham shoirning imkoniyatlari ancha keng bo'ladi, ya'nı o'z fikrlarini erkin ifodalay oladi	
16.	Nasriy she'r	1. Ma'lum vazn, izchil qofiyaga ega emas. 2. Ramziy tasvir uslubi ustun, fikriy umumlashma kuchli. 3. His-hayajon baland, ritorik qaytariqlar ko'p 4. O'ziga xos ritmik tuzilishga ega, pauzalar ko'p	
17.	Misralardagi hijolar miqdori, ularning cho'ziq yoki qisqaligi hech qanday ahamiyat kasb etmasligi qanday vazn hisoblanadi?	Erkin vazn	
18.	Vazndan vaznga ko'chishga asoslangan she'riy tizim...	Erkin vazn sanaladi	
19.	Verlibr qanday tushuncha?	Erkin vazn (erkin she'r – sarbast she'r)	
20.	Erkin she'r qachon paydo bo'lgan?	XX asrda	
21.	Ayrim misralardagi so'zlarni ma'no va intonatsiyani kuchaytirish maqsadida bir necha qatorga zinapoya tartibida joylashtiriladigan she'r...	Sarbast (erkin) she'r	
22.	Lirik kechinmalar sochma nutq shaklida ifodalanib, jo'shqin ritmi she'rga monand bo'ladi...	Sochma (nasriy) she'r	
23.	Nasriy she'r yana qanday nomlanadi?	Nasrdagi nazmlar, mansur she'rlar, mansuralar, sochmalar	

24.	O'zbek she'riyatiga sarbast vazni qaysi shoir ta'sirida kirib keldi?	Mayakovskiy ta'sirida	
25.	M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi, Sofoklning "Shoh Edip", V.Shekspirning "Otello", "Gamlet", "Qirol Lir", "Romeo va Julyetta" asarlari qaysi vaznda yozilgan?	Oq she'rda	
26.	Usmon Nosirning "Yurak" she'ri qaysi vaznda yozilgan?	Oq she'rda	

### Barmoq vazni

27.	She'r misralaridagi hijolarning bir miqdorda, turoqlarning bir tekisda takrorlanib kelishiga va shu tarzda ritm hosil qilishga asoslangan she'r tuzilishi tizimi...	Barmoq vaznidir	
28.	O'zbek adabiytida dastlab kimning asarlari barmoq vaznida yozilgan	Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari, undan keyin Ahmad Yassaviy hikmatlari	
29.	O'zbek she'riyatida barmoq vazni qachon ommalashgan?	XX asrning 20 – 30-yillarida	
30.	Vaznlar nimani vujudga keltiradi?	Ritmni	
31.	She'r misralaridagi bir-biriga teng nutq bo'laklarining bir tekisda izchil takrorlanib kelishidan paydo bo'ladigan ohangdoshlik (zarb)...	Ritm	
32.	Barmoq vaznidagi asosiy mezon...	She'r misralaridagi bo'g'inlar miqdori	7
33.	Barmoq vazni necha xil?	2 xil: sodda vazn, qo'shma vazn	7

34.	She'rnинг бoshidan oxirigacha misralardagi bo'g'inlar miqdori bir xil bo'lsa...	Sodda vazn	7
35.	Misralardagi bo'g'inlar miqdori ikki-uch xil ko'rinishda bo'lsa...	Qo'shma vazn	7

**Quyidagi misralar barmoq vaznining qaysi turiga mansub?**

36.	Alisherga alla aytib uxlatgan 11 bo'g'in Sen – ona. 3 bo'g'in Og'ushida Bobur kamolga yetgan 11 bo'g'in Sen – ona. 3 bo'g'in	Qo'shma vazn	7
37.	Ketayotir tubsiz moziyga 9 bo'g'in ko'lankasiz yigitlar safi, 9 bo'g'in qizlar qolar kuz og'ushida 9 bo'g'in unutilgan mevalar kabi 9 bo'g'in	Sodda vazn	7
38.	Qubbon sohilida qomating bukib, 11 bo'g'in Oltin barglaringni ko'l uzra to'kib, 11 bo'g'in Nimalar haqida surasan xayol, 11 bo'g'in So'yla, majnuntol? 5 bo'g'in	Qo'shma vazn	7
39.	Yuqoridagi "Majnuntol" she'rining muallifi...	Erkin Vohidov	7
40.	Barmoq she'r tizimida misralardagi bo'g'inxarning muayyan guruhlarga bo'linishi...	Turoq deb ataladi	7
41.	Ketayotir tubsiz moziyga ko'lankasiz yigitlar safi, qizlar qolar kuz og'ushida unutilgan mevalar kabi. She'rnинг turoqlarini aniqlang	4 + 5 = 9	

42.	She'rdagi turoqlar, misralar yoki bandlar orasidagi to'xtalishlar...	Pauza deb ataladi	7
43.	Turoqlar va misralar orasidagi juda qisqa to'xtalish...	Kichik pauza deyiladi	7
44.	Bandlar orasidagi to'xtalishlar...	Katta pauza deyiladi	7

**Quyidagi parchalar qaysi vaznda yozilgan?**

45.	Ko'm-ko'k, Ko'm-ko'k, Ko'k. Ko'klam quyoshidan ko'kargan qirlar... (G'.G'ulom) She'r qaysi vaznda yozilgan?	Erkin vaznda	
46.	Dengizning oppoq yuzi ustida qora bulutlarni yig'moqda shamol. Bulutlar bilan dengiz oralig'ida mag'rur uchib borayotir Bo'ron qushi misoli qora yashinday... (Maksim Go'rkiy)	Nasriy she'r	
47.	Cho'chima, jigarim, O'z uyingdasan. Bu yerda na g'urbat, na ofat, na g'am. Bunda bor: harorat, muhabbat, shafqat. Va mehnat nonini ko'ramiz baham. (G'.G'ulom)	Sarbast (erkin) she'r	
48.	"Tingla, hayot! Tingla, qirg'oqsiz dengizday cheksiz koinot... Soz kuylaydi..." (Mirtemir)	Sochma (nasriy) she'r	

**Aruz vazni**

**Quyidagi g'azal va boshqa janrdagi asarlar aruzning qaysi vaznida yaratilgan?**

49.	Lutfiyning "Xoh inon, xoh inonma" g'azali	Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (yoki maqsur), ya'ni maf'uvlu – mafoiylu – mafoiylu – faulun (yoki mafoiyl). Taqtesi: – V / V – – V / V – – V / V – – (yoki V – Ҷ)	8
50.	Lutfiyning "Bu ko'nguldur, bu ko'ngul" g'azali	Ramali musaddasi mahzuf (yoki maqsur), ya'ni foilotun – foilotun – foilotun – foilun (yoki foilon) – V – – / – V – – / – V – – / – V – – (yoki V Ҷ)	8
51.	Lutfiyning "Ayoqingg'a tushar har lahza gisu" g'azali	Hazaji musaddasi mahzuf (yoki maqsur), ya'ni mafoiylun, mafoiylun, faulun (yoki mafoiyl) vaznida, taqtesi: V – – – / V – – – / V – –	8
52.	Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni	Mutaqoribi musammani mahzuf yoki mutaqoribi musammani maqsur V – – V – – V – – V – Faulun – faulun – faulun – faul yoki V – – V – – V – – V ~ Faulun – faulun – faulun – faol	8
53.	Lutfiyning "Haq ul kunkim, jamoling bor etibdур" g'azali	Hazaji musaddasi mahzuf, ya'ni mafoiylun, mafoiylun, faulun vaznida, taqtesi: V – – – / V – – – / V – –	8

54.	Navoiyning "Qilg'il" radifli g'azali	Mujtassi musammani maxbun va maxbuni maqtu, ya'ni mafoilun-failotun-mafoilun-fa'lun vaznida bitilgan. Taqtesi: V – V – / V V – – / V – V – / – –	8
55.	Navoiyning "Kelmadi" radifli g'azali	Ramali musammani mahzuf (yoki maqsur) – foilotun – foilotun – foilotun – foilun (yoki foilon) – Taqtesi: V – – / – V – – / – V – – / – V – – (yoki – V τ)	8
56.	Navoiyning "Jong'a chun derman: "Ne erdi o'lmakim kayfiyat?.." g'azali	Ramali musammani maqsur (yoki mahzuf) – foilotun – foilotun – foilotun – foilun (yoki foilon) – Taqtesi: V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V τ)	8
57.	Navoiyning "Yo'q" radifli g'azali	Ramali musammani maqsur (yoki mahzuf) – foilotun – foilotun – foilotun – foilun (yoki foilon). Taqtesi: – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V τ)	8
58.	Navoiyning "Bo'ldum sanga" radifli g'azali	Ramali musammani maqsur (yoki mahzuf) – foilotun – foilotun – foilotun – foilun (yoki foilon). Taqtesi: – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V τ)	8
59.	Navoiyning "Bo'l" radifli g'azal	Ramali musammani maqsur (yoki mahzuf) – foilotun – foilotun – foilotun – foilun (yoki foilon). Taqtesi: – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V τ)	8

60.	Nodiraning "Eshit" radifli g'azali	Ramali musammani mahzuf yoki maqsur, ya'ni foilotun – foilotun – foilotun – foilun (yoki foilon). Taqtesi: - V- - / -V- - / - V- - / - V - (yoki - V)	8
61.	Nodiraning "Vasl uyin obod qildim..." g'azali	Ramali musammani mahzuf yoki maqsur, yani foilotun – foilotun – foilotun – foilun (yoki foilon) Taqtesi: - V- - / -V- - / - V- - / - V - (yoki - V)	8
62.	Nodiraning "Kel dahrni imtihon etib ket..." g'azali	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf, ya'ni ma'fulu mafoilun faulun. Taqtesi: -- V / V – V – / V – –	8
63.	Aruz vazni haqida ma'lumot bering	Aruz vazni hijolarning cho'ziq va qisqaligiga, ya'ni hijolarning sifatiga asoslana-di. Misra baytlarda cho'ziq va qisqa hijolarning o'zaro mutanosib ravishda takror-lanib kelishi o'ziga xos mu-siqiylikni ta'minlaydi, ohang-dorlik juda kuchli bo'ladi	
64.	Aruz vazni turkiy adabiyotda qaysi davrdan, kimning ijodidan boshlab keng qo'llana boshlanadi?	XI asrdan, ya'ni Yusuf Xos Hojib ijodidan boshlab	
65.	Aruz she'riy tizimi asoschisi kim?	Xalil ibn Ahmad (719 – 791) bo'lib, "aruz" atamasi ham u yashagan joy yaqinidagi vodiy nomidan olingan	

66.	G'azalning birinchi bayti...	Matla' (ar. "chiqish joyi" (oy va quyosh haqida )	
67.	G'azalning oxirgi bayti...	Maqta'	
68.	Juzv ...	Hijo (bo'g'in)	
69.	Hijo...	Hijo qisqa (V) va cho'ziq (-) bo'ladi	
70.	Qisqa va cho'ziq hijolarning birikuvidan qanday bo'laklar tashkil topadi?	Sabab, vatad, fosila	
71.	Aruz vazniga asos solgan Xatil ibn Ahmad ta'kidlashicha, quyidagi sharhlar qaysi atamalarni anglatadi?		
72.	O'tov – uy	Bayt (o'tov – uylarini qurishda ip, qoziq va o'tov ustiga yopiladigan palos asosiy rol o'ynagan)	
73.	Ip	Sabab	
74.	Qoziq	Vatad	
75.	Palos	Fosila	

### Quyidagi atamalarni sharhlang

76.	Sabab...	Sabab – mustaqil hijo, ya'ni bir cho'ziq yoki ikki qisqa hijodan tuziladi. Hosil bo'lishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: a) sababi hafifning paradigmasi: (-). Masalan: dil, til, tur, yur, zar, har, kel, bul kabi; b) sababi saqiylning paradigma: (VV). Masalan: yana, mana, uni, buni, seni, meni kabi	
77.	Vatad ...	Vatad – bir cho'ziq bo'g'in bilan bir qisqa bo'g'inning birikuvidan tashkil topadi. Vatad ikki turli bo'ladi: a) vatadi majmu – jamlovchi. Paradigmasi: V – . Ka-ram, a-lam, ta-ram, va-tan; b) vatadi mafruq – ajratuvchi. Paradigmasi: – V. Xan-da, kan-da, ol-ma, ham-ma, no-ma	

78.	Fosila	Fosila – ikki yoki uch qisqa hijoning o'zidan keyin keladigan cho'ziq hijo bilan birikuvidan paydo bo'ladi. Fosila ikki xil bo'ladi: a) fosilai sug'ro – ikki qisqa va bir cho'ziq hijoning birikishidan hosil bo'lgan. Paradigmasi: V V – Ke-la-man, bi-la-man, ki-shi-dan, yu-ra-gim; b) fosilai qubro – uch qisqa va bir cho'ziq hijoli so'z. Paradigmasi: V V V – . Yi-qi-la-man, si-qi-la-man, qa-ra-shi-dan, ta-la-shi-dan	
79.	Vasl (ar. "ulanish")	Vasl (ar. "ulanish") – hijolarning bir – biriga ulashib ketish hodisasi	
80.	Rukn	Rukn (sutun, barmoq vaznida turoq-qa to'g'ri keladi) – baytda cho'ziq va qisqa hijolarning ma'lum bir tartibda takrorlanib keluvchi bo'lagi. U sabab, vataf va fosilalarining birikib kelishidan hosil bo'ladi	
81.	Aruz vaznida qisqa va cho'ziq hijo qanday aniqlanadi?	(V) belgisi – qisqa hijo, ( – ) belgisi – cho'ziq hijo. Agar bo'g'in i, u, o', a, e qisqa unlilari bilan tugasa, qisqa hijo; agar bo'g'in o unlisi va undosh tovushlar bilan tugasa, cho'ziq hijo hisoblanadi	
82.	Na bo'lg'ay bir nafas men ham yanog'ing uzra xol bo'lsam, Labing yaprog'idan tomgan ki go'yo qatra bol bo'lsam. (H.Olimjon) Ushbu baytning rukni va bahrini aniqlang. Qisqa va cho'ziq hijolarga ajrating	Na bo'lg'ay bir nafas men ham V — V — yanog'ing uz ra xol bo'lsam, V — V — Labing yapro g'idan tomgan V — V — ki go'yo qat ra bol bo'lsam V — V —	10

83.	Qisqa va cho'ziq hijolar har doim yuqoridagi (79-raqamdagи) qoidaga ko'ra amalga oshiriladimi?	Yo'q. Chunki aruz vazni bahrlari 45 xilcha zihofga (ya'ni o'zgarishga) uchraydi ("Aruz vaznini yaxshiroq tushunish uchun arab tilini o'rganish kerak" (Professor, aruzshunos olim Anvar Hojiahmedov ma'rzasidan)	
84.	Sabab, vatad, fosila juzvlarining turlituman chatishuvidan aruzda nechta asl rukn tug'iladi?	Sakkizta	
85.	<b>Quyidagi bahrlarning ruknlari va taqtelarini aniqlang</b>		
86.	Mutaqorib	Fa-u-lun, V -- (1 qisqa, 2 uzun)	
87.	Mutadorik	Fo-i-lun, - V -	
88.	Ramal	Fo-i-lo-tun, - V --	
89.	Hazaj	Ma-fo-iy-lun, V ---	
90.	Rajaz	Mus-taf-i-lun, -- V -	
91.	Vofir	Ma-fo-i-lo-tun, V - V V -	
92.	Komil	Mu-ta-fo-i-lun, V V - V -	
93.	-----	Mafulotun, --- V -	
94.	Zamona kulfatidin bu ko'ngil dog' o'ldi, dog' o'ldi, Bu charxi bemuruvvatdin ko'ngil dog' o'ldi, dog' o'ldi. Ushbu bayt nechta rukndan iborat? Taqtelarini aniqlang	Za-mo-na-kul / fa-ti-din- bu/ V --- V --- ko'-ngul-do-g'o'l / di-do-g'o'l-di, V --- V --- Bu-char-xi-be / mu-ruv-vat-din/ V --- V --- ko'-ngul-do-g'o'l / di-do-g'o'l-di. V --- V --- Bu baytning misrasi 4 rukndan iborat	
95.	Aruz vaznidagi ruknlarning o'zar munosabati va takrori asosidagi ko'rinishlari...	Bahr	

96.	Aruz vaznida nechta bahr mashhur?	19 ta	
97.	Aruz vaznining murakkabligi nimada?	Aruz vaznining murakkablik-laridan biri shundaki, 8 asosiy rukn she'r misralarida, bahrlarda ko'pincha turli o'zgarishlar bilan qo'llanadi. Bu o'zgarishlar aruz ilmida zihof deb yuritiladi. Sakkiz rukn hammasi bo'lib 45 xilcha zihofga uchraydi	

### Aruz vazniga doir atamalarni sharhlang

98.	Taqte	She'r misralarini hijolar(rukn)ga ajratib, vaznini aniqlash usuli (ruknlarni ko'rsatuvchi asosiy qoliplar)	
99.	Sadr	Birinchi misraning birinchi rukni	
100.	Ibtido	Ikkinchi misraning birinchi rukni	
101.	Aruz	Baytning birinchi misrasidagi oxirgi rukni	
102.	Zarb	Ikkinchi misradagi oxirgi rukn	
103.	Hashv	Hashv – "sadr" bilan "aruz" va "ibtido" bilan "zarb" o'ttasidagi ruknlar "sadr" bilan "aruz" va "ibtido" bilan "zarb" o'ttasidagi ruknlar	
104.	Solim	Asl ruknlarning o'zgarishga uchramagan holati	
105.	Afoil	Rukn	

106.	Hajaz bahrining axrab shajarasining birinchi rukni taqte'si...	Maf'ulu	
107.	Hajaz bahrining axram shajara-sining birinchi rukni taqte'si...	Maf'ulun	

108.	Tazmin...	Mumtoz adabiyotda boshqa bir shoir she'ridan bir misra yoki bir baytni olib, shu vaznda she'r yozish	
109.	Shohlar haqidagi asarlar qaysi vaznda yoziladi?	Mutaqorib vaznida	

110.	"Qutadg'u bilig", "Shohnoma" asarlari, "Xamsa"ning oxirgi dostonlari qaysi vaznda yaratilgan?	Mutaqorib vaznida	
------	---	-------------------	--

**Aruzning quyidagi vaznlarining bahr nomi  
va ruknini aniqlang**

111.	Aruz tizimining ramali musammani mahzuf vazni	– V – / – V – / – V – / – V – Fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lun	
112.	Hazaji musammani solim vazni	Ma-fo-iy-lun / ma-fo-iy-lun / ma-fo-iy-lun / ma-fo-iy-lun V – / V – / V – / V –	
113.	Hazaji musaddasi mahzuf	Ma-fo-iy-lun / ma-fo-iy-lun / fa-u-lun V – / V – / V –	

**Quyidagi g'azallar aruzning qaysi bahrlarida yozilgan?**

114.	Komil Xorazmiyning "Ravshan etmas mash'ali xurshid komil kulbasin", Hamzaning "Dardiga darmon istamas", Alisher Navoiyning "Mehr ko'p ko'rguzdim, ammo mehribone topmadim...", "O'n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur...", "Ko'rgali husningni zoru mubtalo bo'ldum sango...", Nodiraning "Doda keldim, ey salotin sarvari dodim eshit...", Furqatning "Surmadin ko'zlar qaro...", Boburning "Charxning men ko'rмаган jabru jafosi qoldimu...", Mashrabning "Hech kima ma'lум emas holi parishonim mening...", "Nafsi sarkash muddaosidin xudo bersun panoh...", Erkin Vohidovning	Aruz tizimining ramali musammani mahzuf vazni	
------	---	---	--

	"Barcha shodlik senga bo'lsin, bor sitam, zorlik menga..." g'azallari		
115.	Nodiraning "Fig'onkim gardishi davron...", Hamid Olimjonning "G'azal" ("Na bo'lg'ay bir nafas men ham", deb boshlanuvchi), Sayfi Saroyining "Topulmas husn mulkinda ..." "Urkin Vohidovning "Seni yotlar tugul hatto qilurman rashk o'zimdan ham", Mashrabning "Ne qattiq kun ekan, dilbar, visolingdan judo bo'lmoq, Mening ohim o'tiga bul zaminu osmon o'rta", "Azaldin to abad ko'nglum qutulmas ishq balosidin", Ogahiyining "Yuzing ochkim, quyosh sadqang bo'lub, boshingdin aylansun..." g'azallari	Hazaji musammani solim vazni	
116.	Atoyining "Jamoling vasfini qildim chamanda, qizordi gul uyottin anjumanda", Xorazmiyning "Bo'yung sarvu sanobardek, beling qil, Vafo qilgan kishilarga vafo qil", Sayfi Saroyining "Jahon shoirlari ey gulshani bog', Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog" kabi g'azallar	Hazaji musaddasi mahzuf	

## IJTIMOIY VA INTIM LIRIKA

1.	Lirika mazmun va mohiyatiga ko'ra necha xil bo'ladi?	Ikki xil: intim lirika, ijtimoiy lirika	
2.	Shoirning ruhiy kechinmalari va hissiy olami aks ettiriladigan asarlar...	Intim lirika	

3.	Real hayotda ro'y bergan voqeal va hodisalar tasvirlanadigan she'rlar...	Ijtimoiy lirika	
4.	Ijtimoiy lirikani yuzaga keltiruvchi omillar...	Jamiyatdagi adolatsizlik, zo'ravonlik, bosqinchilik, odamlarning beburdligi, riyokorlik, sotqinlik va boshqa ijtimoiy illatlar oqibatida tug'yonga kelgan sezimlar ifodasi	

**Quyidagi she'rlar mazmun va mohiyatiga ko'ra lirikaning qaysi turiga mansub?**

5.	"Qalandar ishqisi"	Intim lirika	
6.	"Ko'ngil", "Buzilgan o'lkaga", "Yong'in" she'rlari	Ijtimoiy lirika	

## LIRIK QAHRAMON

1.	Lirik asarda tuyg'u va o'ylari tasvirlangan shaxs obraz...	Lirik qahramondir	9
2.	Lirik asarlardagi qahramonlar haqida ma'lumot bering	Lirik qahramon ko'pincha shoirning o'zini anglatadi. She'lda shoirning o'ylari, sezimlari, tuyg'ulari, kayfiyati namoyon bo'ladi. Lirik asarlarda ba'zan shoirdan boshqa qahramon ham ishtirok etadi	9
3.	A.Oripovning "Bahor" nomli she'rida: "Ravon yo'llar qarshingizda turibdi mushtoq", – Derdi bizga harf o'rgatgan yosh bir muallim" misralaridagi lirik qahramon...	Muallim	9
4.	Lirikadagi qaysi timsollar <u>lirik qahramon</u> darajasiga ko'tarila olmaydi?	"Raqib", "rind", "soqiy", "ag'yor"	9
5.	Lirik qahramon tushunchasi ilk bor adabiyotga qachon kim tomonidan kiritilgan?	1921-yilda rus olimi Y.N.Tinyanov tomonidan	9

## QOFIYA VA RADIF

1.	Ohangdosh so'zlarning she'r misralarida tizimli bo'lib kelishi...	Qofiya (arabcha, ergashmoq, izidan bormoq)	
2.	Qofiya so'zi qaysi tildan olingan?	Arabcha so'zdan olin-gan bo'lib, ergashish, izidan borish degan ma'noni anglatadi	8
3.	She'riy misralarning muayyan o'rnida o'zaro ohangdosh so'z yoki so'zlarning izchil takrorlanib kelishi...	Qofiya	8
4.	So'z yoki so'zlar o'tasida ohangdoshlik qanday yuzaga keladi?	O'zak bilan o'zak yoki qo'shimcha bilan qo'shimcha o'tasida yuzaga keladi	8
5.	Mumtoz adabiyotshunosligimizda qofiya qoidalarini o'rganadigan soha...	Ilmi qofiya deb yuritiladi	8
6.	Misralardagi so'zlarning ohangdoshligi...	Qofiya	
7.	Qofiyaning she'rdagi vazifasi...	She'r ritmi va musiqiyligini ta'minlaydi, g'oyaviy mazmunni kuchaytirib ifodalashga xizmat qiladi	8
8.	Aslida qofiya ham alohida bir badiiy san'at. Qofiya san'atining boshqa badiiy san'atlardan farqi...	Biror badiiy san'atni ishlatish yoki ishlatmaslik – tamoman shoirning inon-ixtiyorida. Ammo qofiya shunday san'atki, Sharq mumtoz adabiyotida qofiyasiz she'r bo'lmaydi. Boshqa birorta badiiy san'atga bunday shart qo'yilmaydi	8
9.	Nima sababdan qofiya ilmini olim-lar shoir va she'r-xonning alifbesi hisoblashadi?	Mumtoz she'riyatda qofiya qoidalari buzilmaganligi uchun	8

10.	Qofiyaning o'ziga xosligi...	Qofiya matnda yarq etib ko'zga tashlanadi, eshitilishida ham boshqa so'zlardan ajralib turadi, she'rning musiqiyligini, jozibasini ta'minlaydi, shuning uchun shoirlar asarlarida asosiy fikrni tashuvchi so'zlarni qofiyada berishga harakat qiladilar	7
11.	Qofiya bir so'z bilan yuzaga chiqadimi?	Qofiya – bir so'z bilan yuzaga chiqmaydigan badiiy hodisa	7
12.	Ikki va undan ortiq ohangdosh so'zlar uyg'unligi...	Qofiyadosh so'zlar deyiladi	7
13.	Raviy so'zining ma'nosi...	Raviy so'zi arabcha "rivo" so'zidan olingan bo'lib, yukni tuyaga bog'laydigan arg'amchi ma'nosini bildiradi	
14.	Raviy haqida ma'lumot bering	Qofiyadagi asosini tashkil qiluvchi tovush. Aruz vaznida yaratilgan she'rlarda raviy harfi qofiyalanuvchi so'zlar tarkibida aynan takrorlanib kelishi shart. Raviy tub so'zlarda o'zak oxirida, yasama so'zlarda esa, negiz so'ngida keluvchi cho'ziq unli yoxud undosh harfdir	8
15.	So'z o'zagidagi, yasama so'zlarda esa negizdagagi oxirgi undosh, cho'ziq unli, ba'zi hollarda esa qisqa unli sifatida aynan qaytariladigan tovush...	Raviy hisoblanadi	8
16.	Ohangdoshlikni tashkil etuvchi qofiyalardagi unli yoki undosh bo'lgan tirkak tovush...	Raviy	7
17.	Qofiyadosh so'zlarda raviyning o'rni...	Raviy qat'iy bir o'rinda keladi	7

18.	Raviyning belgilari...	Raviyning belgilari... 1. Raviy bir harfdan iborat bo'ladi. 2. So'z negizi yo o'zagidagina mavjuddir. 3. Har bir qofiyadosh so'zda takrorlanadi. 4. Baytdagi misralar oxirida ritmik jihatdan bir o'rinda keladi. 5. Bu harf olib tashlansa, so'z o'z ma'nosini yo'qotadi	
19.	Qofiyalardagi raviyni aniqlang.  Orzumande – xursande; ibtilosidin – qarosidin; Jodu – ohu; shaydo – paydo; lola – g'azola; Gul – bulbul; or – zor; vafo – jafo; bahona – zamona	Orzumande, xursande; ibtilosidin, qarosidin; jodu, ohu; shaydo, paydo; lola, g'azola; gul, bulbul; or, zor; vafo, jafo; bahona, zamona	8
20.	Erkin Vohidovning "O'zbegim" she'ri qofiyalaridagi raviyni aniqlang	N tovushi	6
21.	Uvaysiyning "Anor" chistonidagi <i>nishon</i> , <i>makon</i> , <i>qon</i> qofiyadosh so'zlaridagi raviyni aniqlang	N tovushi	7
22.	Uvaysiyning "Yong'oq" chistonidagi <i>boshida</i> , <i>qoshida</i> qofiyadosh so'zlaridagi raviylarni aniqlang	Sh tovushi	7
23.	Uvaysiyning qaysi she'rida raviy qoidasi talabi buzilgan?	"Kun va tun" chistonida Qofiyadosh so'zlar: <i>ko'rmagan</i> , <i>sig'magan</i> .  Mumtoz she'r ilmiga ko'ra raviy so'zning asosida (o'zagida) bo'lishi talab etilgan. Lekin <i>ko'rmagan</i> , <i>sig'magan</i> qofiyadosh so'zlarida raviy (n tovushi) o'zakda emas, qo'shimchaning tarkibida joylashgan	7
24.	Qanday tovushlar raviy bo'la olmaydi?	Qisqa unlilar	7

25.	<i>Lola – piyola; banda – xanda qofiyadosh so'zlaridagi raviyni aniqlang</i>	Ushbu qofiyadosh so'zlardagi a qisqa unli hisoblanib, raviy bo'la olmaydi. <i>Lola – piyola; banda – xanda so'zlaridagi I hamda d tovushlari raviydir.</i>	7
26.	Jahon Otinning "Uvaysiyman" radifli g'azalidagi <i>mubtalo, oshno, muddao, mosivo</i> so'zlaridagi raviyni aniqlang	O unlisi raviydir. Chunki cho'ziq unli raviy bo'la oladi	7
27.	Qofiyalar tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi?	4 turga bo'linadi: mujarrad, murdaf, muqayyad va muassas qofiyalardir	

### Quyidagi xususiyatlar qofyaning qaysi turiga taalluqli?

28.	O'zbek she'riyatida keng qo'llangan qofiya turlaridan biri hisoblanadi. Raviy cho'ziq unlidan iborat bo'lgan qofiya bo'lib, unda cho'ziq unlidan boshqa biron harf ishtirok etmaydi. Raviy o'rnida esa cho'ziq unlilardan istalgani kela oladi. <u>Navodur, ravodur; jafo, havo; qaroni, baloni; xabar, asar; mehnat, furqat; tish, qish; hamro, zebo</u>	Mujarrad qofiya	
29.	Raviy harfidan oldin cho'ziq unlilardan biri kelgan qofiya murdaf (ridfli) qofiya deb nomланади. Cho'ziq unlining o'zi esa <b>ridf</b> deb ataladi. She'riyatimizda raviydan oldin "o" cho'ziq unlisi kelgan murdaf qofiya juda ko'p qo'llangan. <u>Jinon, ravon; ishtiyog, firog; holim, majolim; moh, oh; dod, bedod; kabob, xob</u>	Murdaf (ridfli) qofiya	

30.	<p>Qofiya raviy bilan tugallanadi. Qo'sh undosh qisqa unlidan so'ng keladi. Qisqa unli <b>hazv</b>, raviydan oldingi undosh <b>qayd</b> deb ataladi.</p> <p><b>Bazm</b>, <b>razm</b>; <b>mast</b>, <b>poybast</b>; <b>dahr</b>, <b>shahr</b>; <b>siym</b>, <b>biym</b>; <b>bahr</b>, <b>zahr</b>; <b>barg</b>, <b>g'arg</b>; <b>jahd</b>, <b>ahd</b></p>	Muqayyad qofiya	7
31.	<p>Qofiya raviydan so'ng davom etadi: <b>boshida</b>, <b>qoshida</b></p>	Mutlaq qofiya	7
32.	<p>Cho'ziq "o" unlisi (faqt cho'ziq "o" unlisi) bilan raviy o'tasida bir undosh va undan keyin bir unli keladigan qofiya. Cho'ziq "o" unlisi ta'sis, undan keyingi undosh daxil, raviy oldidagi qisqa unli esa ishbo' deb ataladi.</p> <p>Jarohat – rohat qofiyasida cho'ziq "o" unlisi ta'sis, "h" undoshi daxil, "a" qisqa unlisi ishbo', "t" undoshi esa raviydir.</p> <p><b>Xaloyiq</b>, <b>loyiq</b>; <b>tojir</b>, <b>muhojir</b>; <b>dilovar</b>, <b>jafogar</b>; <b>g'olib</b>, <b>tolib</b>; <b>nazokat</b>, <b>tarovat</b>; <b>g'oyib</b> <b>vojib</b></p>	Muassas (ta'sisl) qofiya	
33.	<p>Qofiyalar raviydan keyin ham harflar kelishi mumkin. Bu qofiya tarkibida raviydan keyin turuvchi undosh yoki cho'ziq unli <b>vasl</b> deb, ikkinchi, ya'ni vasldan keyin turuvchi undosh yoki cho'ziq unli <b>huruj</b> deb, uchinchi, ya'ni hurujdan keyin turuvchi undosh yoki cho'ziq unli <b>mazid</b> deb, to'rtinchi, ya'ni maziddan keyin turuvchi undosh yoki cho'ziq unli <b>noyira</b> deb yuritiladi.</p> <p>Raviydan keyingi qisqa unli <b>major</b> deb, <b>vasl</b>, <b>huruj</b>, <b>mazid</b> noyiradan keyin turuvchi qisqa unlilar nafoz deb yuritiladi</p>	<p>Mutlaq qofiya. Raviydan keyin harflar kelgan qofiyalarni mutlaq qofiya deb atash qabul qilingan</p>	

34.	She'rda qofiyadosh so'zlar orasida ay-nan takrorlanib keladigan so'z yoxud so'zlar birikmasi...	Hojib (arabcha, "darvozabon; pardali") Biri ulki yuz lutf <b>erur</b> zotig'a, Ki "Farhodu Shirin" <b>erur</b> otig'a. (A.Navoiy, "Xamsa"dan)	
35.	Sharq poeziyasida qofiyaning nechta turi mavjud?	25 ta	

### Berilgan ta'riflar qofiyaning qaysi turlariga taalluqli?

36.	Bayt misralarida ikki so'zni ohangdosh qilib keltirish san'ati...	Zulqofiyatayn	
-----	---	---------------	--

## G'AZAL

1.	<b>G'azal</b> so'zi qaysi xalq tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?	Arab tilidan olingan bo'lib, <b>oshiqona so'z, ayollar-ga xushomad</b> degan ma'nolarni anglatadi	9
2.	Sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan hamda eng ko'p qo'llangan lirik janr. Ko'pincha, ishqiy mavzuda yaratilgan, shu bilan birga ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiylar mavzularda ham yozilgan janr...	G'azal	9
3.	G'azalga xos alohida xususi-yatlarni aniqlang	1) bir g'azal boshdan-oxir bir vaznda bitiladi; 2) g'azalda bitta qofiya tizimiga amal qilinadi: aa, ba, da...; 3) g'azalda taxallus qo'llash majburiy emas; 4) barmoq vaznida bitilgan g'azallar ham uchraydi; 5) g'azalda uchta baytning alohida nomi bor:	8

		1-bayt – matla, oxirgi bayt – maqta, maqtadan oldingi bayt – begona bayt	
4.	G'azalning hajmi...	G'azal hajm jihatidan o'rtacha 3 baytdan 19 baytgacha bo'ladi, hatto 27 baytgacha bo'lgan g'azallar ham uchraydi	9
5.	Navoiy va boshqa ko'p shoirlar ijodida asosan g'azalning necha baytli namunalari uchraydi?	7, 9 baytli	8
6.	G'azalning eng mukammal hajmi...	7 va 9 baytli	8
7.	G'azal boshidan oxirigacha har xil vaznda yozilishi mumkinmi?	Bir g'azal bir vaznda yoziladi	8
8.	G'azallar asosan aruzning qanday bahrlarda yoziladi?	Asosan, ramal, bir qismi esa hazaj bahrida, boshqa bahrlarda juda kam yozilgan (Navoiy ijodida aruzning turli bahrlarida yozilgan g'azallar uchraydi)	8
9.	G'azal baytlardan tashkil topadi. Bayt so'zi arab tilida qanday ma'noni anglatadi?	Uy degan ma'noni	9
10.	Bayt necha misradan iborat?	Ikki misra (2 qator)	9
11.	G'azallar asosan qanday mavzuda yoziladi?	Ishqiy mavzuda	8

### Quyidagi bahrlarning ruknlari va taqtelarini aniqlang

12.	Mutaqorib	Fa-u-lun, V -- (1 qisqa, 2 uzun)	
13.	Mutadorik	Fo-i-lun, - V -	
14.	Ramal	Fo-i-lo-tun, - V --	
15.	Hazaj	Ma-fo-iy-lun, V ---	
16.	Rajaz	Mus-taf-i-lun, -- V -	
17.	Vofir	Ma-fo-i-lo-tun, V - V V -	
18.	Komil	Mu-ta-fo-i-lun, V V - V -	
19.	-----	Mafulotun, --- V -	

20.	Aruz vaznida qisqa va cho'ziq hijo qanday aniqlanadi?	(V) belgisi – qisqa hijo, ( – ) belgisi – cho'ziq hijo. Agar bo'g'in i, u, o', a, e qisqa unlilari bilan tugasa, qisqa hijo; agar bo'g'in o unlisi va undosh tovushlar bilan tugasa, cho'ziq hijo hisoblanadi	
21.	"Na bo'lg'ay bir nafas men ham yanog'ing uzra xol bo'lsam, Labing yaprog'idan tomgan ki go'yo qatra bol bo'lsam". (H.Olimjon) Ushbu baytning rukni va bahrini aniqlang. Qisqa va cho'ziq hijolarga ajrating	Na bo'lg'ay bir nafas men ham V —— V —— yanog'ing uz ra xol bo'lsam, V —— V —— Labing yapro g'idan tomgan V —— V —— ki go'yo qat ra bol bo'lsam V —— V ——	
22.	Qisqa va cho'ziq hijolar har doim yuqoridagi qoidaga ko'ra amalga oshiriladimi?	Yo'q. Chunki aruz vazni bahrlari 45 xilcha zihofga (ya'ni o'zgarishga) uchraydi ("Aruz vaznni yaxshiroq tushunish uchun arab tilini o'rganish kerak" (Professor, aruzshunos olim Anvar Hojamedov ma'rzasidan)	
23.	G'azaldagi asosiy qofiya tizimi...	aa, ba, da, ea, fa	8
24.	G'azalning birinchi bayti...	Matla	8
25.	G'azalning oxirgi bayti...	Maqta	8
26.	G'azalning qofiyalanishi...	Birinchi bayt matla' (mabda') deb atalib, undagi misralar o'zaro qofiyalanadi, qolgan baytdagi juft misralar matla'ga qofiyadosh bo'ladi	9
27.	Asosan g'azalning qaysi baytida shoir taxallusi qo'llanadi?	Maqtada – oxirgi baytda	9

28.	G'azalda taxallus qo'llash majburiymi?	Ixtiyoriy	8
29.	Maqtadan oldingi bayt...	Begona bayt	8,9
30.	G'azal atamasi qaysi asrlarda paydo bo'lgan?	G'azal atamasi dastlab VI – VII asrlarda arab she'riyatida paydo bo'lgan. X asrda fors adabiyotida, XIV asr boshlarida turkiy adabiyotga kirib kelgan	8
31.	G'azal qaysi asrlarda to'la shakl-langan va mukammal holga kelgan?	XIII – XIV asrlarda	8
32.	Turkiy adabiyotda ilk g'azal qaysi asarda uchragan?	Rabg'uziyning "Qisas ar-Rabg'uziy" asarida uchraydi	9
33.	G'azalning turkiy tildagi dastlabki namunalari qaysi shoirlarning ijodida uchraydi?	Xorazmiy va Rabg'uziyning	9
34.	G'azallar asosan qanday mavzuda yoziladi?	Ishqiy mavzuda. Ammo ma'nomazmun jihatidan Allohniga maqtashga (hamd), Muhammad (s.a.v)ni ta'riflashga (na't) bag'ishlangan, shuningdek, rindona, orifona, peyzaj tasviridagi va boshqa mavzularda ham g'azallar yozilgan	8
35.	May va mayxona bilan bog'liq tasvirlarga asoslangan g'azallar...	Rindona g'azallar deyiladi	8
36.	Pand-nasihat ruhidagi g'azallar...	Orifona g'azallar hisoblanadi	8
37.	Yana qanday mavzularda g'azallar yozilgan?	Tabiat tasviri haqida (peyzaj), odam va olam, tabiat va jamiyatning turli-tuman murakkab tomonlari ham g'azallarda yoritilgan	8

38.	Mumtoz adabiyotda ichki qofiyalarga ham ega bo'lgan g'azal... "Hatting aro <u>uzoring</u> sabza ichida lola Ul chashmi pur <u>xumoring</u> loladagi g'azola". (Bobur)	G'azali musajja	8
39.	Tuzilishi jihatidan g'azallar qanday turlarga bo'linadi?	1) parokanda g'azallar; 2) musalsal g'azallar; 3) yakpora g'azallar; 4) voqeaband g'azallar	8

### Quyidagi ta'riflar g'azalning qaysi turlariga berilgan?

40.	Har bir baytida alohida-alohida mazmun yaxlit holda bayon etilganligi bunday turdag'i g'azalning g'oyaviy mundarijasini tashkil etadi. G'azal kompozitsiyasi tarqoq bo'ladi. Ba'zan bir g'azalning o'zida ikki, uch hatto besh xil mavzular ko'tarilib, bu mavzu o'zaro bog'lanmagan bo'ladi. Alisher Navoiy bu turdag'i g'azallarni ma'qul ko'rmaydi. Unga yakpora g'azallar yoqadi	Parokanda g'azallar (mustaqil baytlardan tuzilgan g'azal)	8
41.	G'azal baytlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'ladi, ma'no-mantiq jihatidan kuchli tarzda biri ikkinchisini <del>taqozo</del> etib keladi. Tarkibida lirik voqe'a, manzara, fikr va kechinma salbar silsilasida darajama-daraja rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan g'azal...	Musalsal g'azal	8
42.	G'azal baytlari mantiqan ketma-ketlikka ega bo'ladi. Har bir baytning mazmuni o'zidan oldingi va keyingi baytlarga izchil bog'langan g'azal...	Yakpora g'azal	8

43.	Voqelikning bir bo'lagi ifodalanadi, hamma baytlari bir mavzuni yoritishga, bir g'oyaviy mazmunni ilgari surishga qaratilgan bo'ladi. Bu syujetli g'azal bo'lib, "voqeaband" atamasi bilan birga "lirk hikoya", "lirk novella" istilohlari нанын чарнилари	Voqeaband g'azal	8
44.	Navoiy qanday turdag'i g'azallarni qattiq tanqid qilgan?	Barokanda g'azallari	8

### Quyidagi g'azal turlarini aniqlang

45.	Navoiyning "Qaro ko'zum" g'azali	Yakpora g'azal	8
46.	Navoiyning "Jong'a chun derman...", "Yo'q" radifli g'azallari	Musalsal g'azal	8
47.	Navoiyning "Orazin yopqach..." g'azali	Voqeaband g'azal	8
48.	G'azallar faqat aruz vaznida yoziladimi?	Ba'zan barmoq vaznida yozilgan g'azallar ham uchrayotir	8
49.	"Shashmaqom" tarkibidagi ashulalar matnni asosan qanday janrdagi she'rlar tashkil qildi?	G'azallar	8
50.	G'azaldagi uchta baytning alohida nomi bor. Ular...	G'azalning birinchi bayti – matla, oxirgi bayti – maqta, maqtadan oldingi bayt – begona bayt	8
51.	Matlaning o'ziga xosligi...	Birinchidan, matlaning ikkala misrasi o'zaro qofiyadosh bo'ladi, ikkinchidan, shu bayt vazni va qofiyasi (yoki radifi bo'lsa, radifi ham) g'azalning oxirigacha qat'iy saqlanadi	8
52.	G'azalning qaysi baytida lirk chekinish kuzatilishi mumkin?	Begona baytida	8

53.	Maqtaning o'ziga xosligi...	Birinchidan, ko'pincha unda shoirning taxallusi qo'llanadi (ba'zan taxallus maqtadan oldin-gi baytda ham kelishi mumkin), ikkinchidan, mantiqan u xuddiki, asar xulosasi yanglig' jaranglaydi		8
54.	G'azalning qaysi bayti oldin kelgan baytlardagi umumiy tasvir yoki bayonga bevosita bog'lanmasligi, nisbatan erkin-roq fikr-mulohazani ifodalashi mumkin?	Begona bayt		8
55.	Begona bayt haqidagi quyidagi fikrlar qaysi shoir qalamiga mansub? "Bu baytda shoir kimni maqtagisi kelsa, maqtaydi, kimni yomon ko'rsa, undan alamini oladi, g'azal umumyo'nalishiga u qadar bog'lanmaydiganroq gapi bo'lsa ham, shu yerda aytib qoladi".	A.Oripov		8
56.	Asarda lirik qahramon qo'qqisdan mavzudan biroz chetga chiqqanday bo'lib, kutilmagan bir fikr yoki mulohazani aytadi, bayon yo tasvirni kiritadi, ilmiy tilda ifodalansa, nimagadir simpatiya yoki antisimpatiyasini bildiradi. Asardagi bu tushuncha qanday nomlanadi?	Lirik chekinish		8

**Navoiy g'azallaridagi begona baytni quyidagi navoiyshunos olimlar qanday nomlashgan?**

57.	A.Hayitmetov	"Lirik chekinish"	8
58.	Y.Is'hoqov	"Begona yoki qistirma baytlar"	8
59.	N.Komilov	"Gardish", "bozgasht" ("qaytish")	8

**QIT'A**

1.	Juft misralari qofiyalanib, toq misralari ochiq qoladigan she'r, ko'pincha to'rt misradan tashkil topadi, hajmi chegaralanmagan. Uni matla'siz g'azalga o'xshatish mumkin. Bu janr ikki xil bo'ladi: birinchi xili mustaqil asar shaklida, ikkinchi xili esa g'azal, qasida, tarje'band kabi boshqa janrdagi she'rlar tarkibidan ajratib olish tarzida	Qit'a (ar. "qism", "bo'lak", "parcha")	8
2.	Qit'a qaysi janrlardan oldin paydo bo'lgan?	G'azal va qasidadan	8
3.	Qit'aning qofiyalanishi qaysi janrga o'xhash?	G'azalga	8
4.	Qit'anning qofiyalanish taribi...	ab, db, eb, fb...	8
5.	G'azalning qofiyalanish tartibi...	aa, ba, da, ea, fa...	8
6.	Qit'aning hajmi...	Chegaralanmagan: eng kami ikki bayt, 19 baytilari ham bor	8

**Qit'a bilan g'azalning farqini tushuntiring.  
Quyidagi xususiyatlar qaysi janrlarga xos?**

7.	Matla' bo'lmaydi	Qit'ada	8
8.	Baytlarning hammasi bir xil qofiyalanmaydi	G'azalda	8
9.	Hajmi qat'iy emas	Qit'a	8
10.	Mavzular chegaralanganroq	G'azalda	8
11.	Eng kami ikki baytdan tashkil topadi	Qit'a	8
12.	Shakl va mazmun jihatidan erkinlik ko'p	Qit'ada	8
13.	Baytlarning hammasi bir xil qofiyalanadi?	Qit'ada	8
14.	Sarlavha qo'yilmaydi	G'azalda	8
15.	Mavzu doirasi chegaralanmagan	Qit'ada	8
16.	Shoir taxallus qo'llashi kamdan-kam uchraydi	Qit'ada	8
17.	Navoiy qit'alariga taxallus qo'yanmi?	Navoiy ba'zi qit'alaridagina taxallus ishlataladi	8

18.	Qit'alarda sarlavha qo'yilishini tushuntiring	Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilgan barcha qit'alariga nasriy sarlavha qo'yilgan. Sarlavhalarda qit'a mazmunining bosh g'oyasi yoki yo'nalishi bayon etib qo'ya qolingga
19.	G'azal yaratish niyati bilan o'rta baytlari yozilgan, ammo matla' va maqtasi tugallanmagan parchalarni ayrim shoirlar devonlariga qaysi janr sifatida kiritishgan?	Qit'a janri sifatida kiritaverishgan, binobarin, "qit'a" so'zi (arabcha) "qism", "bo'lak", "parcha" ma'nalari anglatadi
20.	Qit'ada qanday mavzular qalamga olinadi?	Ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, axloqiy-ta'llimiylar va boshqa yo'nalishlardagi muayyan mavzuga bag'ishlanadi. Qit'alarda, umuman olganda, pand-nasihat ruhi ustunlik qiladi. (Shoirlar bu janr namunalarida ba'zan hajv, hazil-mutoyiba, jiddiy tanbeh tarzida, ba'zi hollarda esa o'z hayotining turli lahzalari, ko'rgan kechirganlari ta'sirida paydo bo'lgan mulohazalari va hukm-xulosalari sifatida fikr bayon etadi)
21.	O'zbek adabiyotida qit'aning ilk namunasi qaysi shoirning qanday asarida uchraydi?	Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida. Shuningdek, Xorazmiy, Yusuf Amiri, Gadoiy, Lutfiy ijodida ham uchraydi
22.	Qit'aning yetuk namunalarini yaratgan shoir...	Alisher Navoiy
23.	"Xazoyin ul-maoniy"da nechta qit'a bor?	210 ta

**"Xazoyin ul-maoniy" devonlaridagi qit'alar miqdorini aniqlang**

24.	"G'aroyib us-sig'ar"da	50 ta
25.	"Navodir ush-shabob"da	50 ta

26.	"Badoye' ul-vasat"da	60 ta	8
27.	"Favoyid ul-kibar"da	50 ta	8
28.	Navoiyning yana qaysi asarlarida qit'a janri uchraydi?	"Mahbub ul-qulub", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Pahlavon Muhammad" va boshqa asarlarida	8
29.	Barmoq vaznida ham qit'a yozish mumkinmi?	Hozirgi paytda barmoq vaznida ham qit'alar yozilyapti	8

### RUBOIY JANRI HAQIDA

1.	O'zbek mumtoz adabiyotida keng qo'llanib kelingan, hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida yoziladigan, to'rt misradan iborat ishqiy, axloqiy, siyosiy-falsafiy mavzulardagi she'r. Forsiylarda "Dubaytiy" (ikki baytli) deb ham atalgan janr...	Ruboiy (ar, to'tlik)	
2.	Ruboioining qofiyalanishi...	a-a-b-a, a-a-a-a tarzida	
3.	Ruboiylar necha xil bo'ladi?	Ruboiylar ikki xil bo'ladi: 1. Ruboysi xosa, qofiyalanishi: a-a-b-a. 2. Taronai ruboiy, qofiyalanishi: a-a-a-a	

### Quyidagi ruboilyarning qofiyalanish tartibini ayting

4.	Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen, Sen shu'lasen, ul shu'lag'a men kuldurmen. Nisbat yo'qdur, deb ijtinob aylamakim, Shahmen elga vale senga quldurmen (Bobur)	a-a-b-a	
----	--	---------	--

5.	Bizlar bo'imasak ham, jahon bo'lg'usi, Bizlardan na nom-u nishon bo'lg'usi. Avval-ku yo'q edik, yetmovdi xalal, Yana bo'imasak ham, hamon bo'lg'usi. (U.Hayyom)	a-a-b-a	
6.	Ishqingda ko'ngul xarobdur, men ne qilay? Hajringda ko'zum purobdur, men ne qilay? Jismim aro pech-u tobdur, men ne qilay? Jonimda ko'p iztirobdur, men ne qilay? (Bobur)	a-a-a-a	

### Quyidagi so'zlarni izohlang

7. Ijtinob...	Uzoqlanish, saqlanish, tortinish, chekinish	
8. Purob	Lim-lim to'la ko'z yosh	
9. Pech-u tob	To'Ig'anmoq	

## TUYUQ VA TAJNIS

1.	Bevosita turkiy adabiyotda shakllangan bo'lib, qat'iy ramali musaddasi maqsur (foilotun, foilotun, foilun) vaznida yoziladigan to'rt misradan iborat bo'lgan, misra oxirida radiflar omonim so'zlardan iborat bo'lgan she'r. Unda qofiya omonim so'zlardan tuziladi yoki shoir "so'z o'yini" qo'llaydi. Quyidagi ta'rif qaysi janr haqida?	Tuyuq	8
2.	Tuyuq va tajnisning farqi...	Tuyuq – she'riy janr, tajnis – she'riy san'at	8
3.	Faqat turkiy adabiyotga xos mumtoz lirik janr...	Tuyuq faqat turkiy adabiyotga xos, u arabiylari va forsiyatda yo'q	8
4.	"Tuyuq" so'zi qanday ma'nolarni anglatadi?	"Tuyuq" sof turkcha so'z bo'lib, "yechilmaydigan qilib tuymoq", "chigal-lashtirmoq" ma'nolarini anglatadi	

5.	“Turk shuarosining xossasi”, “Birisi tuyug'dirkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytig'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdir...” Tuyuq haqidagi ushbu fikrlar muallifi...	Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida yozgan	
6.	Turkiy yozma adabiyotda dastlabki tuyuq namunalarini qaysi shoir yaratgan?	Yusuf Xos Hojib	
7.	Navoiy, Bobur, Lutfiy, Ogahiy, Habibiy ijodida nechtadan tuyuqlar mavjud?	Navoiy 13 ta, Bobur 17 ta, Lutfiy 70 ta, Ogahiy 8 ta, Habibiy 9 ta tuyuq yozgan va h.k.	
8.	Misralar miqdori va qofiyalanish tartibi jihatidan bir xil janrlar	Tuyuq va ruboiiy	8
9.	Faqat turkiy she'riyatgagina xos janr...	Tuyuq. U arabiylar forsiy adabiyotda yo'q. Bu janr faqat turkiy she'riyatgagina xos	8
10.	Tuyuq janrining asosiy qoidalari...	<p>1. Tuyuq, albatta, to'rt misradan iborat bo'lishi kerak.</p> <p>2. Tuyuq misralari, xuddi ruboiiydagি kabi, a-a-a-a yoki a-a-b-a tarzida qofiyalanishi zarur.</p> <p>3. Tuyuq, albatta, ramali musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida, ya'ni “foilotun - foilotun - foilun (yoki foilon)” tarzida bo'lishi shart. Taqtesi: – V – / – V – / – V – (yoki – V ~)</p> <p>4. Tuyuqda qofiyaga olingan so'zlar, albatta, tajnisli bo'lishi, ya'ni omonim so'zlardan tashkil topishi darkor. Ilgari tuyuqlar janrning dastlabki uch talabiga javob bergan, xolos. Lekin keyinchalik janrning to'rtinchchi sharti yuzaga kelgan. Shu tariqa tuyuqlarni tajnissiz tasavvur qilib bo'lmay qolgan</p>	8

11.	Tuyuq janriga qo'yilgan hozirgi talablardan qaysi biri ilgari qo'llanishi shart bo'lмаган?	Tuyuqlar tajnissiz ham yozilgan	8
12.	Tig'i ishqing yorasidur butmagan, Dardini har kimga aytib butmagan. Hajr sahrosidur ohim o'tidin, Anda gul yoxud giyohe butmagan. (Navoiy) Ushbu tuyuqning tajnislарини sharhlang	Tig'i ishqing yorasidur butmagan, (tuzalmagan) Dardini har kimga aytib butmagan. (tugatmagan) Hajr sahrosidur ohim o'tidin, Anda gul yoxud giyohe butmagan. (unmagan, o'smagan) (Navoiy)	L
13.	Yo Rab, ul shahd-u shakar yo labmudur, Yo magar, shahd-u shakar yolabmudur, Jonima payvasta novak otqali G'amza o'qin qoshиг'a yolabmudur? (Navoiy) Ushbu she'rning janri...	Tuyuq	L
14.	Qaysi janarda qofiyaga olingan so'zlar omonim bo'lishi shart?	Tuyuqda	8
15.	Shakldosh va omonimga o'xshash so'zlarni qo'llash san'ati...	Tajnis	8
16.	Tajnisni yuzaga keltirish uchun omonim so'zlar bo'lishi shartmi?	Tajnisni yuzaga keltirish uchun qofiyaga olingan so'zlar aynan omonim bo'lishi shart emas. Muallif bir necha so'zlar ishtirokida ohoriy shakldoshliklar yaratishi mumkin. Masalan, <i>ul Oy, u loy, uloy (ulay)</i>	8
17.	Tajnis she'riy san'atning qaysi turiga mansub?	Tajnis ham lafziy, ham ma'naviy san'at hisoblanadi. Chunki bunda so'zlarning shakli ham, ular anglatgan ma'no ham birday ahamiyatga ega	
18.	Tajnis san'atiga asoslangan she'riy janr...	Tuyuq	8

<b>Lutfiy tuyuqlaridagi tajnis san'atini yuzaga ketiruvchi shakldosh va omonimga o'xshash so'zlarni izohlang</b>		
19.	<p>Ko'ngluma har yonki boqsam <b>dog'i bor</b>. Har necha dardimni desam <b>dog'i bor</b>. Qilcha tanga bori ishqing yor edi, Bir sori bo'ldi firoqing. <b>dog'i bor</b></p>	<p>1. Dog'i bor. 2. Otashi bor. 3. Yana (tag'in) bor</p>
20.	<p>Men sening ilkingdin, ey <b>dil, bandamen</b>. Vah, qachon yetkaymen ul <b>dilbanda men</b>. Bevafolarga meni qilding asir, Sen menga sultonsen, ey <b>dil, banda men</b></p>	<p>1. Yurak, (men) bandaman (bog'lanib qolganman). 2. Dilbandga (dilimni asir qilib olgan yorga) men. 3. Yurak, banda (inson) man</p>
21.	<p>Charxi kajraftor elidin <b>yozamen</b>. Chiqmadim hijron qishidin <b>yoza men</b>. Bir meni yorliq bila yod etmas ul, Har necha ul shahg'a qulluq <b>yozamen</b></p>	<p>1. Yozg'iraman (shikoyat qilaman). 2. Yozga men. 3. Yozaman (bitaman)</p>
22.	<p>Qomatimni necha qoshing <b>yo qila</b>. Necha hajr o'ti jonimda <b>yogila</b>. G'amza birla to'kti qonim ul sanam, To hinotek qon elina <b>yogila</b></p>	<p>1. Yoym (kamon) qiladi (bukadi, egiltiradi). 2. Yoqiladi. 3. Surtiladi</p>
23.	<p>Ey ko'ngul, yorsiz sanga ne <b>bor, bor</b>. Qaydakim ul zulfi anbar<b>bor, bor</b>. Chek jafo-u javr-u nozin borini, Bir kun o'lq'aykim, degayiar: <b>"Bor-bor!"</b></p>	<p>1. Mavjud, mavjud. 2. (anbar hidli bo'lsa) bor, (yoniga) bor (gin). 3. "Jo'na, jo'na!"</p>

24.	Qoshlaring xush lojuvard-u <b><u>toq erur</u></b> . Xush ichinda benazir-u <b><u>toq erur</u></b> . Torta olmasman firoqing, netayin, Qilcha tanga bori ishqing <b><u>toq erur</u></b>	1. Toqdir (yolg'izdir). 2. Yakka-yu yagonadir. 3. (Toqatim) toqdir	
-----	--	--	--

## CHISTON HAQIDA

1.	Nomi yashirilgan narsa yoki tushuncha belgi ishoralariga qarab topiladigan savol yoki topshiriqlar...	Topishmoq deyiladi	7
2.	Mumtoz adabiyotda she'riy topishmoq qanday nomlanadi?	Chiston	7
3.	<i>Chiston</i> so'zi qaysi tildan olingan?	Fors tilidan olingan bo'lib, "nima u?" degan ma'noni anglatadi – "chist" (nima) "on" (u)	7
4.	Uning hajmi...	Uning hajmi cheklanmagan, lekin ko'pincha bir yoki ikki baytdan iborat bo'ladi	7
5.	Adabiyotda qanday nom bilan ataladi	Adabiyotda "lug'z" nomi bilan yuritiladi (Keyinchalik <i>chiston</i> hamda <i>lug'z</i> atamalari turkiy va fors adabiyotida baravar qo'llanavergan)	7
6.	Turkiy adabiyotda ilk chistonlar qachon yaratilgan?	XV asrda Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan	7
7.	Navoiy lirik merosida 10 ta lug'z mavjud. Qalam, tanga, igna, miqroz, o'q, anor, bel, yumurtqa, poki, parvona kabi jism va jonivorlarga bag'ishlangan		

<b>Quyidagi chistonlarning muallifi va javobini aniqlang</b>			
8.	Ul na gumbazdur: eshigi, tuynugidin yo'q nishon, Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon. Sindirub gumbazni, qizlar holidin olsam xabar, Yuzlarida parda tortig'liq, turarlar bag'ri qon	Uvaysiy, "Anor" chistoni	7
9.	Ne mijmardur, to'la axgar, vale ul mijmar andomi, Erur sun' ilgidin gohe musaddas, gah musamman ham...	Navoiy, "Anor" chistoni	
10.	Ul nadurkim, sabzto'nlik yoz yog'ochning boshida, Qish yalong'och aylagay barcha xaloyiq qoshida. Barcha qushlarning so'ngoki ichida, Ul na qushdurkim, so'ngoki toshida	Uvaysiy, "Yong'oq" chistoni	7
11.	Ikki mahbubni ko'rdim, bir-birisin ko'magan, Ikkisining o'ttasida, do'stlar, qil sig'magan	Uvaysiy, "Kun va tun"	7
12.	She'riy topishmoq, yani chistonlar qanday turlarga bo'linadi?	Oddiy va majoziy: "Anor" chistoni majoziy, "Yong'oq", "Kun va tun" chistonlari oddiy chistonlardir	7

## QASIDA

1.	Mashhur tarixiy shaxslar va voqealarini madh etuvchi tantanavor uslubdagi she'r qanday nomlanadi?	Qasida	6
2.	Qasida qaysi janrdek qofyalanadi?	G'azaldekk	6

3.	Sakkokiy Mirzo Ulug'bekka atab nechta qasida yozgan?	4 ta	6
4.	"Tuhfatul afkor" ("Fikrlar sovg'asi") qasidasining muallifi kim?	Alisher Navoiy	6
5.	Alisher Navoiy "Hiloliya" qasidasini kimga bag'ishlab yozgan?	Husayn Boyqaroga	6
6.	Zamonaviy adabi-yotda qasidachilik janrida qaysi ijod-korlarning asarlari mashhur bo'ldi?	Maqsud Shayxzodaning "Toshkentnoma", Erkin Vohidovning "O'zbekbegim", Abdulla Oripovning "O'zbekiston" qasidalari	6

### SAYOHATNOMA JANRI

1.	Sayohat taassurotlarini aks ettiradigan sayohatnomalar qanday yo'lda yaratilgan?	She'riy va nasriy yo'lda	5
2.	O'zbek adabiyotida sayohatnoma janrining asoschisi...	Muqimiy	5
3.	Safar sayohatlari aks ettirilgan lavhalar qaysi shoirlar ijodida uchraydi?	Navoiy va Bobur	
4.	Sayohatnoma yozgan shoirlar?	Zavqiy, Muqimiy, Furqat, Tajalliy, Maxmur...	5
5.	Sayohatnomaning ichki tuzilishi...	1. Kirish, ya'ni sayohatga chiqish ehtiyoji, sabablari aytildi. 2. Yo'l xotiralari batafsil bayon etiladi. 3. Sayohatlardan muayyan xulosalar chiqariladi	5
6.	Qaysi adiblarning yo'l xotiralari adabiyotimizda sayohatnoma janrining boyishida xizmat qilmoqda?	Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov	

7.	XVIII asrning oxiri – XIX asrning birinchi yarmida yashab ijcd etgan qaysi shoirning sayohatnomasi yozgani ma'lum?	Maxmuring	
----	--	-----------	--

## BALLADA JANRI

1.	Shoir o'z his-tuyg'ularidan tashqari ana shu tuyg'ularga sabab bo'lgan voqealarni tasvirlagan, hajman u qadar katta bo'Imagan asar...	Ballada	7
2.	Ballada qanday adabiy turga mansub?	Liro-epik turga	
3.	Ballada ko'pincha qanday xarakterda bo'ladi?	Tarixiy-fantastik va qahramonlik xarakterida	7
4.	Ballada so'zi qaysi tildan olingan, qanday ma'noni anglatadi?	Fransuz tilidan olingan, "raqs qo'shig'i" ma'nosini anglatadi	7

**Quyidagi balladalar qaysi adiblar qalamiga mansub?**

5.	"Mardlik afsonasi"	Shuhrat	7
6.	"Kapitan Gastello"	Maqsud Shayxzoda	8
7.	"Uch qiz afsonasi"	Shuhrat	7
8.	"Jangchi Tursun"	Hamid Olimjon	
9.	"Guldursun"	Shuhrat	7
10.	"Qora va oq aravacha haqida ertak"	Shuhrat	7

## MEMUAR ASAR

1.	"Memuar" so'zi-ning lug'aviy ma'nosisi...	Fransuzcha "esdalik" ma'nosini anglatadi	9
2.	Muallifning o'zi qatnashgan yoki ko'zi bilan ko'rgan real voqealar haqida hikoya qilingan asar...	Memuar asar	9

3.	Memuar asarlar materialning tabiatini, tasvirlanayotgan voqealarning haqqoniyligi, badiiy to'qimanining yo'qligiga ko'ra qanday asarlarga yaqin turadi?	Ilmiy asarlarga	9
4.	Memuar asarlar qaysi jihatiga ko'ra kundaliklarga o'xshaydi?	Bayon qilish shakli, zamonaviy izchilligi jihatidan	9
5.	Avtobiografik ocherklarni eslatuvchi voqeiy hikoyalardan iborat asar...	"Boburnoma"	9
6.	Memuar asarlarga misollar keltiring	Boburning "Boburnoma", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asari...	9
7.	O'zbek adabiyotida memuar asarlarning qanday turlari mavjud?	Tarixiy memuarlar va badiiy memuarlar	9
8.	Memuar asarlarning asosiy qirrasi...	Unda muallif ishtirokchi yoxud guvoh sifatida tasvirlanayotgan voqealar markazida turadi	9
9.	"Boburnoma"da qaysi mamlakatlarda ro'y bergan voqealar hikoya qilinadi?	Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston, Hindistondagi voqealar	9

## HIKOYA JANRI

1.	Yozuvchi tomonidan kuzatilgan, idrok etilgan ibratli voqe va hodisalarni ixcham shaklda badiiy ifoda etuvchi nasriy asar...	Hikoya
2.	Jahonning hikoyanavis yozuvchilari...	Prosper Merime, Gi de Mopassan, O.Genri, A.P.Chexov, Jek London, I.Bunin, S.Sveyg, D.Djoys, A.Morua...

3.	O'zbek adabiyotidagi hikoya janrining ustalari sifatida e'tirof etiladigan ijodkorlar...	Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Erkin A'zamov...
4.	"O'g'ri", "Bemor", "Boshsiz odam", "Anor" hikoyalari muallifi...	Abdulla Qahhor

## QISSA JANRI

1.	Badiiy asarlar qanday turga bo'linadi?	Lirik, epik, dramatik turga	6
2.	Lirik, epik, dramatik asarlar, avvalo, qaysi jihatdan bir-biridan farqlanadi?	Yozilish uslubi jihatidan	6
3.	Sochma – nasriy yo'l bilan yozilgan asarlar...	Epik asarlar	6
4.	Hayot hodisalarini badiiy qam-rash ko'lami nuqtayi nazaridan epik janrlar qanday tasniflanadi?	1. Kichik epik janrlar 2. O'rta epik janrlar 3. Katta epik janrlar	6

### Quyidagi epik turning darajalariga qanday janrlar mansub?

5.	Kichik epik janrlar	Latifa, masal, hikoya, rivoyat, ertak, afsona, badia, etud, ocherk, esse	6
6.	O'rta epik janrlar	Qissa (povest)	6
7.	Katta epik janrlar	Epos, epik doston, roman, epopeya	6
8.	Epos haqida ma'lumot bering	Epos keng ma'noda qadimda qabila yoki urug'ning maishiy hayotini hikoya qiluvchi og'zaki va yozma shakldagi badiiy asar. Tor ma'noda – xalq eposi – og'zaki yaratilgan va biror cholg'u asbobi jo'rligida ijro etiladigan, xalqning qahramonona o'tmishini, orzu-umidlarini ifodalovchi katta epik asarlar	

### Quyidagi asarlarning janrini aniqlang

9.	G'afur G'ulomning "Shum bola", Oybekning "Bolalik" asarlari	Qissa janriga mansub	6
10.	Abdulla Qodiriyning "Uloqda", G'afur G'ulomning "Mening o'g'rígina bolam" asarlari	Hikoya janriga mansub	6

### SARGUZASHT ASAR HAQIDA

1.	Sarguzasht asarlarda qanday voqealar ko'proq uchraydi?	Favqulodda qiziq va g'aroyib voqealar, o'quvchini hayajonga soladigan tasvirlar, kechinmalar ko'p bo'ladi	6
2.	Sarguzasht asarlarga misol keltiring	Jonatan Swiftning "Gulliverning sayohatlari", Daniyel Defoning "Robinzon Kruzo", Jyul Vernning "O'n besh yoshli kapitan", Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari	6

### ROMAN SHAKLLARI

1.	Yirik epik tur janrlari...	Roman, doston	
2.	Biror milliy adabiyotning darajasi qaysi janrning rivojlanishi bilan belgilanadi?	Romanchilikning	9
3.	Nasr usulida yozilib, hayot keng qamrovda ko'rsatiladi-gan, keng hajmli (qahramon uzoq vaqt faoliyat ko'rsatadi-gan) asar...	Roman (fr. "roman guruhiga mansub tillar – fransuz, nemis va boshqalarda yozilgan asar", "yangi")	6, 9

4.	Roman so'zining dastlabki lug'aviy ma'lumi...	Roman tillarida (o'rta asrlarda roman tillarida yaratilgan har qanday asarni anglatadi) yaratilgan adabiy asar	8, 9
5.	Ilk romanlar qachon yozilgan?	Bundan ikki yarim ming yillar oldin	9
6.	Ilk romanlar qanday yozilgan?	Sochma yo'lda qora so'z bilan	9
7.	Mukammal romanlar dastlab qayerda qachon yaratilgan?	Roman janrining dastlabki namunalari Yevropa davlatlarida Uyg'onish davrining oxirlarida (XVI – XVII asrlarda) yaratila boshlangan	6
8.	O'zbek adabiyotida romanning yuzaga kelishida qaysi adiblarning xizmatlari katta?	Ma'rifatparvarlik harakatining yirik namoyandalari: Hamza, Abdulla Qodiriy, Sadreddin Ayniy, Cho'lpion kabi adiblarning xizmatlari katta	6
9.	Qahramonlarning boshqalarga o'xshamaydigan, o'ziga xos jihatlarini biror muhim voqeahodisa asosida ko'rsatib berishga bag'ishlangan katta hajmli asar...	Roman	9
10.	Necha kitobdan iborat bo'lishiga qaramaydi, uning asosiy belgisi hayotni katta oqim sifatida ko'rsatilishi, bosh qahramon butun xalq bo'lishidir. Ushbu ta'rif qaysi janr haqida?	Epopeya	7
11.	Inson hayotini jamiyat bilan bog'lab, keng tasvirlovchi yirik epik asar...	Roman	8
12.	Romanning millat, jamiyat yoki mamlakat hayoti uchun o'ta muhim voqealar xalqning ijtimoiy ongi va tuyg'ularidagi tub o'zgarishlar bilan uyg'unlikda tasvirlangan g'oyat murakkab bir turi...	Epopeya	9

13.	Roman-epopeya janrida yozilgan asarlarga misollar keltirir	Fransuz adibi Balzakning "Insoniyat komediyasi", L.Tolstoyning "Urush va tinchlik", M.Gorkiyning "Klim Samgining hayoti, M.Sholoxovning "Tinch Don", A.Serafimovichning "Temir oqim", S.Ayniyning "Qullar", M.Avezovning "Abay", Oybekning "Qutlug' qon", A.Nurpeisovning "Qon va ter", Muhammad Alining to'rt kitobdan iborat "Ulug' saltanat" romanlari...	7, 8, 9
14.	Romanlar faqat nasriy yo'l bilan yoziladimi?	Keyinchalik she'riy romanlar ham yozilgan	9
15.	Romanning hikoya va qissadan farqi...	Roman hayotni keng qamrovda ko'r-satganligi, sujeti ko'ptarmoqli bo'lganligi, inson taqdiri va ruhiyati tasvirining ko'lamdorligi, shundan kelib chiqqan holda katta hajmga ega bo'lishi bilan hikoya va qissadan ajralib turadi	7

### Quyidagi romanlar mualliflarini aniqlang

16.	"Yangi saodat"	Hamza Hakimzoda Niyoziy	6
17.	"Qullar"	Sadriddin Ayniy	6
18.	"Uchrashuv"	Hamza Hakimzoda Niyoziy	6
19.	"Doxunda"	Sadriddin Ayniy	6

### Quyidagi asarlar mavzu jihatidan qanday romanlar hisoblanadi?

20.	Qodiriyning "O'tgan kunlar", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo", Oybekning "Navoiy", P.Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovonii" ...	Tarixiy romanlar	6, 8, 9
21.	Oybekning "Quyosh qoraymas", Shuhratning "Shinelli yillar" ...	Harbiy romanlar	6, 8

22.	P.Qodirovning "Olmos kamar", Odil Yoqubovning "Diyonat", Said Ahmadning "Jimjitlik" ...	Zamonaviy romanlar	6, 8
23.	X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari	Sarguzasht va fantastik roman	6, 8
24.	Asqad Muxtorning "Davr mening taqdirimda"	Ijtimoiy-falsafiy roman	8
25.	Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari", Daniyel Defoning "Robinzon Kruzo", Jyul Vernning "O'n besh yoshli kapitan", Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarlari	Sarguzasht asarlar...	

**Quyidagi ta'riflar hajm va shakl jihatidan qanday tarixiy romanga nisbatan berilgan?**

26.	Birgina tarixiy shaxs hayoti tasvirlangan roman...	Tarixiy-biografik roman	
27.	Yozuvchining o'z hayoti asos qilib olingan roman...	Tarixiy-avtobiografik roman	
28.	Inqilobi davr voqealari asos qilib olingan roman...	Tarixiy-inqilobi roman	
29.	Romanlar mavzu yo'nalishiga ko'ra qanday turlarga ajraladi?	Tarixiy, falsafiy, siyosiy, maishiy, biografik, fantastik detektiv	9

30.	O'zbek adabiyotidagi birinchi roman...	Hamza Hakimzoda Niyoziyining "Yangi saodat", "Uchrashuv" romanlari	6
31.	O'zbek roman-chiligining asoschisi	Abdulla Qodiriy (Hamza romanlari g'oyaviy jihatdan yetuk bo'limgan deb baholangan)	9
32.	Romanlar shakliga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?	She'riy va nasriy	9

33.	She'riy romandagi epik va lirik xususiyatlar...	Epik va lirik xususiyatlar aralash keladi	9
34.	O'zbek adabiyotidagi birinchi she'riy roman...	Mirmuhsinning "Ziyod va Adiba" asari	9
35.	Rus adabiyotidagi birinchi she'riy roman...	Pushkining "Yevgeniy Onegin" asari	9
36.	O'zbek adabiyotidagi she'riy romanlar...	Mirmuhsinning "Ziyod va Adiba", Muhammad Alining "Boqiy dunyo", Husniddin Sharipovning "Bir savol" asarlari	9
37.	She'riy romanning o'ziga xos xususiyatlari...	She'riy romanda epik jihatlar: sujetning ko'p tarmoqli va bayonning xolis ekanida ko'rinsa, lirik belgilari: tasvirga muallifning bemalol aralashuvi, uning o'z tuyg'ularini erkin ifoda etaverishida namoyon bo'ladi	9
38.	O'zbek adabiyotidagi birinchi epopeya...	Sadriddin Ayniying "Qullar" romani	
39.	To'rtdan ortiq kitobdan iborat roman shakllari...	Romanlar turkumi	9
40.	Muhammad Alining to'rt kitobdan iborat "Ulug' saltanat" epopeyasida qanday mavzu qalamga olingan?	Amir Temurning shaxsiyati va o'zbek millatining o'sha davrlardagi uyg'onishi va ko'tarilishini qalamga olgan	9
41.	"Ufq" romanining qaysi bo'limida Katta Farg'ona kanalining qurilishi qalamga olingan?	Romanning birinchi kitobi – "Qirq besh kun" asarida	8

42.	Roman tasvir qamrovi, tuzilishi va hajmiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?	Dilogiya, trilogiya, tetralogiya, epopeya kabi	7
-----	---	--	---

**Romanning quyidagi turlarida qanday asarlar yaratilgan?**

43.	Roman-dilogiya va	"Tutash olamlar" (Hojakbar Islom Shayx), "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" (P.Qodirov), "Mash'al" (H.G'ulom), "Farg'ona tong otguncha" (M.Ismoiliy), "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" (X.To'xtaboyev), H.No'mon va A.Shorahmedovning "Ota"	9 7
44.	Roman-trilogiya	"Ufq" – "Qirq besh kun", "Hijron kunlarida", "Ufq bo'sag'asida", (Said Ahmad), "Forsaytlar haqida qo'shiq" (Nobel mukofoti laureati ingliz yozuvchisi Jon Golsuorsi), "Xan al-Xalili" (Najib Mahfuz), "Chingizzon", "Botu", "So'nggi dengizgacha" (Vasiliy Yan), "Ulug' sultanat" – "Jahongir Mirzo", "Umarshayx Mirzo", "Mironshoh Mirzo" (Muhammad Ali)	7 9
45.	Roman-tetralogiya	"Qora dengiz to'lqinlari" – "Oqarib ko'rinxur yolg'iz bir yelkan", "Cho'ldagi xutor", "Qishki shamol", "Sovetlar hokimiyati uchun" (V.Katayev), "Shaytanat" (Tohir Malik)	9
46.	Romanlar turkumi	Xalqaro Nobel mukofotlari laureatlari Romen Rollanning o'n jildlik "Jan Kristof", Roje Martin dyu Garning sakkiz jildlik "Tibo oilasi" kitoblari	9
47.	Xotira asarlar	Habibulla Qodiriyning "Otam haqida", Olmosning "Ta'zim", Said Ahmadning "Yo'qotganlarim va topganlarim", Zarifa Saidnosirovaning "Oybegim mening", Kibriyo Qahhorovaning "Chorak asr	

		hamnafas", Shukrulloning "Javohirlar sandig'i" kabi yodnomalari...	
--	--	--	--

**Quyidagi romanlarning barcha kitoblaridagi voqealarda ishtirok etadigan asosiy qahramonni aniqlang**

48.	"Farg'ona tong otguncha" dilogiyasida	G'ulomjon	7
49.	"Ulug' sultanat" trilogiyasida	Temur	7
50.	"Ufq" trilogiyasida	Ikromjon	7
51.	Romen Rollan va Roje Martin dyu Gar qaysi asarlari uchun Xalqaro Nobel mukofotini olishgan?	Romen Rollan o'n jildlik "Jan Kristof", Roje Martin dyu Gar sakkiz jildlik "Tibo oilasi" kitoblari uchun ushbu mukofotni olishgan	8

**SHE'RIY ROMAN HAQIDA**

1.	Romanlar shakliga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?	She'riy va nasriy	9
2.	She'riy romanga ta'rif bering	She'riy romanda qahramon hayotidagi sarguzashtlar bilan birga, undagi personajlarning xatti-harakatiga shoir munosabati ham yaqqol ifoda etiladi	9
3.	She'riy romanning o'ziga xos xususiyati...	Unda epik va lirik xususiyatlar aralash kelishi	9
4.	She'riy romandagi epik jihatlar...	Sujetning ko'ptarmoqli, bayonning xolis ekanida ko'rindi	9
5.	She'riy romandagi lirik belgilar...	Lirik belgilari tasvirga muallifning bemalol aralashuvi, uning o'z tuyg'ularini erkin ifoda etaverishida ko'rindi	9
6.	Dastlabki she'riy romanlarda qanday odamlarning taqdiri tasvirlangan?	Dastlabki she'riy romanlar jamiyat axloqining buzilishi sababli ma'naviyati nuqsonli, baxti kemtik bo'lib qolgan iste'dodli shaxslar taqdiri ko'rsatilgan	9

7.	Rus adabiyotdagi birinchi she'riy roman...	Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asari	9
8.	Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asari qaysi she'riy roman ta'sirida yaratilgan?	"Don Juan" ta'sirida	9
9.	Birinchi o'zbek she'riy romani...	"Ziyod va Adiba". Mirmuhsin qalamiga mansub	9
10.	O'zbek adabi-yotida yaratilgan she'riy romanlar...	Muhammad Alining "Boqiy dunyo". Husniddin Sharipovning "Bir savol" singari she'riy romanlari	9
11.	Qaysi asarda kuchi, g'ayrati, aqlini sarflashi mumkin bo'l-gan ezgu mo'ljalning, ulug' maqsadning yo'qligidan qiy-nalayotgan yigit iztiroblari aks etgan?	"Yevgeniy Onegin" asarida	9

### ERTAK-DOSTON HAQIDA

1.	Qanday asarlarga doston deyiladi?	Voqealarni ma'lum bir syujet asosida bayon qilib beruvchi yirik she'riy asarlar	6
2.	Dostonlar qaysi xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi?	Yaratilishiga ko'ra	6
3.	Dostonlar yaratilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?	Xalq dostonlari va adabiy dostonlar	6
4.	Xalq dostonlari-ning adabiy dostonlardan qanday farqi bor?	Xalq dostonlarining muallifi aniq bo'lmaydi, baxshilar tomonidan kuyylanadi, og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tganda biror o'zgarishga uchrashi mumkin. Adabiy dostonlarning esa muallifi	6

		aniq bo'ladi, ya'ni ular ijodkorlar tomonidan yaratiladi	
5.	Ertak-dostonlar asosan qanday yaratiladi?	Asosan shoir, yozuvchilar tomonidan	5
6.	Ertak-dostonlar mazmunan va shaklan qaysi janrlarga yaqin turadi?	Mazmunan ertakka, shaklan dostoniga yaqin turadi	5
7.	Ertak-dostonning ikkinchi nomi nima?	She'riy ertak	5
8.	Ertak-dostonning o'ziga xos xususiyati...	Voqealar xuddi ertakdagagi kabi boshlanma, voqealar rivoji va tugallanmadan tashkil topadi. Ammo bu voqealar nasriy usulda emas, balki she'riy usulda bayon etiladi	5
9.	Barcha ertak-dostonlar xalq ertak va afsonalari asosida yaratiladimi?	Ertak-dostondagi voqealarni shoirning o'zi o'ylab topishi, ya'ni xalq og'zaki ijodi yoki yozma adabiyotda ma'lum bo'limgan mutlaqo yangi asar yaratilishi ham mumkin	5
10.	Jahon adabiyotida qaysi ijodkorlar ertak dostonning ajoyib namunalarini yaratishgan?	Ubayd Zokoniy, Pushkin, Korney Chukovskiy, Samuil Marshak kabi ijodkorlar	5
11.	O'zbek adabiyotida ertak-doston janrining rivojiga hissa qo'shgan ijodkorlarni ayting?	Abdulla Avloniy, Qudrat Hikmat, Zafar Diyor, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min	5

## MASAL JANRI HAQIDA

1.	Masalga ta'rif bering	Majoziy xarakterdagи qisqa hikoyacha	5
2.	Masal janridagi asarlarning asosiy qahramonlari...	Hayvonlar, qushlar, narsa-buyumlar	5
3.	Masalning ahamiyati...	To'liq ma'noda tarbiyaviy maqsadga yo'naltiriladi	5
4.	Majoziy, ko'chma ma'nodagi asar hisoblanib, unda jamiyat, insonlar hayotidagi voqealar, ular o'rtaсидagi munosabatlar hayvonlar qushlar, buyumlar, o'simliklar vositasida tasvirlanadigan didaktik, ya'ni axloqiy-ta'limiylar...	Masal	6
5.	Masal so'zi qaysi tildan olingan?	Arab tilida <i>namuna, misol</i> degan ma'noni anglatadi	6
6.	Masallar qanday shaklda yoziladi?	She'riy va nasriy shaklda, kichik hajmda bo'ladi	6
7.	Masalga xos xususiyatlari...	Hajviy tasvir, mutoyiba, kinoya ustun bo'ladi. Masaldagi voqealar bayoni xuddi ertak, latifalarga o'xshasa-da, asar yakunida ta'limiylar xulosa chiqariladi	6
8.	Dunyodagi birinchi masalchi shoir...	Ezop	5
9.	Masal janrida ko'plab asarlar yozgan ijod-korlarni ayting	Farididdin Attor, Alisher Navoiy, fransuz adibi Lafonten, ispaniyalik adib Lope de Vega, rus adiblari I.Krilov, S.Marshak, S.Mixalkovlar, o'zbek adabiyotida Sami Abduqahhor, Olim Qo'chqorbekov, Muxtor Xudoyqulov, Yamin Qurbon	
10.	I va II asrda yashab o'tgan grek masalchilar...	Fedr, Babriy	5

11.	Ezop masallarini she'riy yo'l bilan lotin tiliga tarjima qilgan ijodkor...	Fedr	5
12.	O'zbek mumtoz adabiyotida majoziy shakldagi ibratli hikoyatlarning eng sara namunalari qaysi ijodkor asarlarida uchraydi?	Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi odamlarning hayratlanishi") va maxsus shu yo'nalishda yaratilgan "Lison ut-tayr" ("Qush tili") dostonida	5
13.	XVIII asrning oxiri – XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan qaysi ijodkor o'z asari bilan o'zbek adabiyotida masalchilik rivojiga ulkan hissa qo'shgan?	Gulxaniy, "Zarbulmasal" asari bilan	5

#### **Masal janrida barakali ijod qilgan adiblarni aniqlang**

14.	XVII asrda Fransiyada	Lafonten	5
15.	XVIII asrda Germaniyada	Lessing, Gellert	5
16.	XVIII – XIX asrlarda Rossiyada	Krilov	5
17.	Ispaniyada	Lope de Vega	6
18.	Rus adabiyotida	I.Krilov, S.Marshak, S.Mixalkov	6
19.	XX asr o'zbek adabiyotida	Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Yamin Qurbon, Sami Abduqahhor, Olim Qo'chqorbekov, Muxtor Xudoyqulov, Yamin Qurbon	5, 6
20.	Masal janridagi hikoyatlardan iborat hind adabiyotining nodir namunasi bo'lgan asarlar...	"Panchatantra", "Kalila va Dimna"	5
21.	"Mantiq ut-tayr" asarining muallifi	Farididdin Attor	

## TRAGEDIYA (FOJIA)

1.	Adabiyotning boshqa turlariga qaraganda xarakterlarning yorqin, konfliktning esa o'tkir bo'lishini taqozo etuvchi adabiy tur qaysi?	Dramatik tur	
2.	Dramatik turning janrlari...	Drama, tragediya, komediya	

### Quyidagi ta'riflar qaysi janrlar haqida?

3.	Xarakterlarning yorqin, konfliktning esa o'tkir bo'lishini taqozo etuvchi asar... Bunday asarlarda yozuvchi voqeani hikoya qilish usulidan foydalanmaydi	Drama (yun. "harakat")	
4.	Voqealar, xarakterlar, kolliziya (to'q-nashuylar) kulgi, hajv, humor asosida tasvirlanadigan dramatik asar	Komediya (yun. "xushchaqchaq to'da qo'shig'i")	
5.	Qahramonlarning boshiga tushadigan eng og'ir holatlarni bo'rttirib ko'rsatish yo'li bilan hayotda hamisha mavjud bo'lgan fojiaviylikni yorqin tasvirlaydigan dramatik asar. <u>Bunday asarlar qahramonlar o'rtasidagi kuchli ziddiyatlar asosiga quriladi.</u> <u>qahramonlar taqdiri fojia bilan yakun topadi,</u> ular o'rtasidagi konfiliqt (ziddiyat) shiddatli va keskin tus oladi. Fojiaviy asar qahramonlar xarakterining yorqinligi, ichki kolliziya (qaramaqshilik) kuchliligi, personajlar o'rtasidagi ziddiyatning o'ta kuchli ekanligi bilan farqianadi.	Tragediya (yun. "echki qo'shig'i")	8

6.	Dramatik turning (jiddiy komediya) deb atalmish turi ham borki, unda tragediya xususiyatlari va komediya elementlari birgalikda aks ettiriladi. Misol: Sh.Boshbekovning "Temir xotin" asari va boshqalar.	Tragikomediya	
7.	Tragediya so'zining kelib chiqishi...	Yunonistonda milodgacha bo'lgan antik davrda har yil fevral oyida hosil va may xudosi (uzum xudosi) – Dionis sharafiga xalq bayramlari o'tkazilgan. O'sha tantanalarda Dionis kiyimidagi kishi tushgan aravaning orqasidan bir to'p qiziqchilar ergashib, o'sha davr odatiga ko'ra echki terisini yopinib olishgan. Bularni "tragoslar" deb atash rasm bo'lgan ekan. Keyinchalik bu atama adabiyotga ko'chib, o'zining asl ma'nosidan uzoqlashgan	8
8.	Tragediya so'zining lug'aviy ma'nosи...	Tragediya – echki qo'shig'i: tragos – echki, ode – qo'shiq	8
9.	Dramaning qanday ko'rinishlari mavjud?	Lirk drama, ertak-drama, fantastik drama	
10.	Birinchi tragediyaning vatani...	Yunoniston	
11.	Tragediya otasi...	Esxildir (er. Av. VI – V asr)	
12.	Yunonistonda Esxildan keyingi ikkinchi buyuk fojianavis, 120 dan ortiq asar yozgan ijodkor...	Sofokl	

**Quyidagi ijodkorlar tragediya janrida qanday asarlar yaratishgan?**

13.	Mahmudxo'ja Behbudiy	"Padarkush" (1911-y)	8
-----	----------------------	----------------------	---

14.	Abdurauf Fitrat	"Abulfayzxon" (1926-y)	8
15.	Maqsud Shayxzoda	"Jaloliddin Manguberdi" (1944), "Mirzo Ulug'bek" (1961)	8

### Quyidagi asarlar qaysi janrda yozilgan?

16.	Abdulla Qahhorning "Tobutdan tovush" asarlari	Komediya	
17.	Sh.Boshbekovning "Temir xotin" asari	Tragikomediya	
18.	Qaysi janrda hayot haqiqatiga erishish uchun asosan makon, zamon, qahramon uzviy birligiga amal qilish kerak?	Tragediyada	
19.	O'zbek adabiyotidagi birinchi tragediya...	Behbudiyning "Padarkush" asaridir (1911)	L
20.	Dramatik asarda avtor tomonidan berilgan izoh. Bu izohlar asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, xulqi, xatti-harakati, qiliqlari, intonatsiyasi, sahna manzarasi va hokazolar...	Remarka	
21.	Haqiqiy tragik asarlar yaratish qaysi davrga kelib o'zining kamolot bosqichiga ko'tarildi?	Miloddan avvalgi beshinchi asrga kelib	

### Quyidagi tragediyalar qaysi dramaturglarning qalamiga mansub?

22.	"Zanjirband va Prometey"	Esxilning	
23.	"Romeo va Julyetta"	V.Shekspir	9
24.	"Mirzo Ulug'bek"	Maqsud Shayxzodaning	9
25.	"Shoh Edip"	Sofoklning	
26.	"Padarkush"	Mahmudxo'ja Behbudiyl	8
27.	"Elektra"	Evridning	

28.	"Oresteya"	Esxilning	
29.	"Otello"	Shekspirning	9
30.	"Boris Godunov"	Pushkinning	9
31.	"Medeya"	Evrpidning	
32.	"Antigona"	Sofoklning	
33.	"Hamlet"	Shekspirning	9
34.	"Gerakl"	Evrpidning	
35.	"Motsart va Salyeri"	Pushkinning	
36.	"Abulfayzxon"	Fitratning	8
37.	Jaloliddin Manguberdi"	Maqsud Shayxzodaning	8

**Quyidagi ijodkorlar qaysi xalq dramaturglari hisoblanadi?**

38.	Lope de Vega, Calderon	Ispan dramaturglari	8
39.	V.Shekspir	Ingliz yozuvchisi	8
40.	Gyote, Shiller	Nemis dramaturglari	8
41.	A.S.Pushkin	Rus shoiri	8

## TRAGIK OBRAZLAR VA HAYOT HAQIQATI

1.	Qanday timsollar tragediyaning qahramoni yoki qurboni bo'la oladi?	Kundalik hayotning mayda-chuydalardan baland turadigan, turmush tashvishlarini hal qilish to'g'risida emas, balki umr ma'nosini anglash haqida o'ylaydigan boshqacharoq odamlar fojianing qahramoni yoki qurboni bo'la oladi	9
2.	"Otello" tragediyasida fojiani nima kuchaytirdi?	Otelloning to'g'riso'zligi, odamlarga ishonishi, tinimsiz ravishda haqiqatga intilishi. Otellodan boshqa oddiyroq odam bo'lganida Dezdemona haqidagi gaplarning tagiga yetish uchun tekshirishlar o'tkazgan, odamlardan so'rab-	

		surishtirgan bo'lardi. Otello bunday maydalikni o'ziga ep ko'rmaydi. Chunki u Yagoning yolg'on gapirishini tasavvur ham qilolmaydi	9
3.	Otello nima uchun o'zini o'lirdi?	Otello ulug' inson bo'lganligi uchun ham haqiqatning tagiga yetgach, o'ziga o'zi eng og og'ir jazo belgiladi va uni ijro etdi	9
4.	Tragik timsollar hayot haqiqatiga amal qiladimi?	Fojiaviy timsollardagi boshqachalik ularning xatti-harakatlari ham, gapso'zlari ham o'zgacharoq bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham tragediyalarda, ayniqsa, yirik timsollar tasvirida hayot haqiqatiga to'la amal qilinmasligi, shartlilikka yo'l qo'yilishi mumkin	9
5.	Tragediyalarda nima uchun fojia dahshatli bo'ladi?	Tragik timsollar duch kelgan nohaqlikning ko'lami yirik bo'lgani uchun bunday obrazlarning halokati tufayli tug'iladigan fojia ham dahshatli bo'ladi	9

## SHE'RIY SAN'ATLAR

1.	Badiiy asarda so'z yoki so'z birikmasining ko'chma ma'noda qo'llanishi...	Trop – majoz – ko'chim deb yuritiladi	7
2.	Badiiy tasvir vositalari yana qanday nomlanadi?	She'riy san'atlar deb ham yuritiladi	7
3.	Badiiy tasviriy vositalarning vazifasi...	2 xil: mazmuniy vazifa, shakliy vazifa	
4.	She'riy san'atlarning badiiy asarda ifodalangan g'oyani, shu g'oyani tashuvchi obrazlarni hayotiyroq va ta'sirliroq ifoda qilishi...	Mazmuniy vazifa	

5.	Badiiy tasviriy vositalarning misralar, baytlar, bandlarning lafziy musiqiyligini, jilosini, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilishi...	Shakliy vazifa	
6.	So'zlarning tovush jihatni bilan bog'liq barcha she'riy san'atlarni o'z ichiga olgan soha...	Lafziy san'atlar	
7.	So'zlarning ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, asardagi g'oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalantirish, ularning ma'naviy qiyofalari, his-tuyg'ularini ta'sirchanroq aks ettirishga xizmat qiluvchi she'riy san'at...	Ma'naviy san'atlar	
8.	So'zning ham tovush, ham ma'no jihatlari bilan bog'liq badiiy san'atlar...	Lafziy-yu ma'naviy san'atlar	

**Quyidagi badiiy san'atlar she'riy san'atning qaysi turiga mansub?**

9.	Iyhom, tazod, tazmin, tadrij, tajohul-u orif, talmeh	Ma'naviy san'atlar	
10.	Tajnis, mulamma, tardi aks, takrir, mu-karrar, muvozana, musoviyattarafayn, ishtiqoq, tasdir, tasbe, aks, rad...	Lafziy san'atlar	10
11.	Tanosib, tajnis, tashbeh, tamsil, qalb...	Lafziy-yu ma'naviy san'atlar	

**She'riy san'atlarning qaysi turlariga quyidagicha ta'rif beriladi?**

12.	Tasvirla-nayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo'rttirib,	Mubolag'a – giperbola (mubolag'a turlari: 1) tablig'; 2) ig'roq; 3) g'uluv) 1) mubolag'aning bu turida she'rda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatiga aql bovar qilsa bo'ladi va hayotda ham kuzatilishi mumkin:	
-----	--	---	--

	kuchaytirib ifodalash san'ati...	"Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro' kelmadi, Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi"; 2) she'rda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatiga aql bovar qilsa bo'ladi, ammo hayotda ro'y bermagan: "Farhod va Shirin" dostonida Farhod Shirinni oti bilan birga ko'tarib 1,5 – 2 km joygacha yugurib boradi; 3) she'rda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatiga aql bovar qilmaydi va hayotda ro'y bermaydi: "Shumurti shoxalab (yoqalab) har tomon ketgan, Ichida sichqonlar bolalab yotgan, Izidan tushgan pishak olti oyda yetgan". ("Alpomish" dostonidagi Qo'shqulog tasviri)	9
13.	"Misol keltirish " ma'nosini bildirib, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'at...	Tamsil: "Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har lahma yosh, Bo'ylikim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lgach quyosh". (Navoiy) – (Yor yuzini yopsa (ya'ni ketsa), ko'zimdan lahma-la yosh sochiladi. Quyosh yashirinsa, yulduzlar paydo bo'ladi, go'yo ular osmonning ko'z yoshlaridir)	

14.	<p>Arabcha "chiroyli dalillash" ma'nosini bildiradi. Adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biron sabab ko'rsatish san'ati shu nom bilan ataladi. Bu fikrni asoslash san'atidir. Ammo bu asoslash real, hayotiy bo'lmasdan faqat shoirona asoslash bo'ladi</p> <p>Erkin Vohidovning "Kamtarlik haqida" she'ri ham bu badiiy san'atga misol bo'la oladi.</p>	<p>Husni ta'lil:</p> <p>"Ul parivash ishqidinki, telbadurman, goh sog', Chunki bordur oramizda goh sulk-u, gohi jang". (Furqat)</p>	10
15.	<p>"Bilib turib bilmaslikka olish" ma'nosini ifodalovchi ushbu she'riy san'at shoirning baytda aks ettirilayotgan biron obrazli iborani aniq aytmasdan o'zini bilib bilmaslikka olgandek ko'rsatishini nazarda tutadi. Bu san'at qo'llagan baytlarda ko'pincha mahbuba qiyofasi qiyosiy holda tasvirlanadi, bir yoki bir necha narsaga o'xshatiladi, lekin uzil-kesil fikr bildirilmaydi. Shoirning o'zini bilib bilmaslikka solishi shartli bo'lib, asl maqsad ta'rif yoki tavsifdan, yor qiyofasini mubolag'ali tarzda gavdalantirishdan iborat bo'ladi.</p> <p><b>Bu san'at mohiyatini bilib bilmaslikka olish tashkil etadi.</b></p> <p><b>Adib o'zi bilgan narsani yana boshqalardan so'rab turgandek bo'ladi</b></p>	<p>Tajohul ul-orif:</p> <p>"Malaksan yo bashar yo huru g'ilmonsan bilib bo'limas,</p> <p>Bu lutfu nazokat birla sendin ayrilib bo'limas". (Mashrab)</p> <p>"Nargis ko'zungning o'xshashi qaysi chamanda bor?</p> <p>Yuzung tarovati qachon, ey gul, sumanda bor?" (Lutfiy)</p>	10

16.	She'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, masal, shaxs, mashhur asar, qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham ifodalash san'ati...	Talmeh (arabcha – "chaqmoq chaqilishi", "bir nazar tashlash"): "Qani Layli, qani Majnun, qani Shirin bilan Farhod, Alar o'tdi bu olamdin, bu olam bevafo derlar". (Mashrab)	10
17.	"Yig'ish" va "yoyish" ma'nosini ifodalovchi ushbu san'at she'r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini ketma-ket keltirib, keyin ular haqidagi hukmlarni ketma-ket bayon qilishni nazarda tutadi. Bundan asosiy maqsad esa nomlari keltirilgan narsa yoki tushunchalarini bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlashdir	Laff va nashr: "Xating bila yuzungu, kokulung, ey jon, Biri binafsha, biri yosuman, biri rayhon". (Bobur)	
18.	Shoir oldingi misra yoki baytda ifodalagan fikri, qo'llagan badiiy tasviriy vositasidan qaytgandek bo'ladi, lekin keyingi misra yoki baytda unga qaraganda yana ham kuchliroq ifoda, she'riy san'atni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish, to'ldirish usulida ifodalaydi	Ruju (arabcha "qaytish" ma'nosini bildiradi): "Kirdi ikki jism bir kafang'a, Yo'q, yo'q, iki ruh bir badang'a". (Navoiy. "Layli va Majnun")	10
19.	Ushbu san'at she'rda tasvirlanayotgan shaxs yoki narsaga xos belgilarni ketma-ket keltirish, ularni bir necha jihatdan tasvirlashni nazarda tutadi	Tansiq as-sifat: " <b>Xush tabassum, xush kalom-u, xush ravish raftor ham Andalibi bo'stondek xush navo</b> dildorsiz". (Muqimiy)	

20.	She'rga o'zga bir shoir asari-dan biron misra, yoki bir necha bayt kiritish san'ati...	Tazmin: "Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang, G'ozadin yuzlarda tobu o'smadin qoshlar tarang". (Furqat) ("Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang" misrasi Fuzuliyning mashhur g'azalidan olingen)	
21.	Ikki shaxs o'rtasidagi savol-javobni aks ettirish usuli...	Savol-u javob Dedi: "Qaydin, ser ey, majnuni gumrah". Dedi: "Majnun vatandin qayda ogah". (Navoiy)	
22.	She'r misralarining boshida yo o'tasida bir necha harf yoki so'z qo'llab, kishi yoki joy nomini keltirish. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari adabiyotida keng qo'llangan	Tavshih (muvashshah): <u>Chiroyli</u> qizcha ko'rdim Baxtiyorlar bog'ida. <u>Atirgullar</u> sochadi, Tabassumi chog'ida. <u>Ra'</u> no qiz shuncha so'lim, Bir ko'rgan unga shaydo. <u>Oy</u> yuzi porlab turar, Qora ko'zları shahlo. <u>So'</u> radim: Oting nadir? Dedi: Har baytdadur	
23.	Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislarini she'r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she'rda ifodalash san'ati...	Iqtibos ("ilm o'zlashtirmoq" ma'nosidagi so'z): "Onalarning oyog'i ostidadur Ravzayi jannat-u jinon bog'i. Ravza bog'in visolin istar ersang Bo'l onanining oyog'i tufrog'i". (Navoiy)	

24.	Lirik va liro-epik she'riyatda so'zlovchi shaxsning ko'chishini ifodalaydi (1-shaxsdan 2-shaxsga, ikkinchidan birinchi yo uchinchiga, 3-dan birinchi yo ikkinchiga ko'chishi)	Iltifot: <b>"Ey Navoiy,</b> boda birla <b>xurram et</b> ko'ngling uyin Ne uchunkim boda kelgan uyg'a qayg'u kelmadi". (Navoiy)	
25.	Ma'nosi berkitilgan so'z degan mazmunni ifodalovchi bu san'at bir baytda u yoki bu ismni yashirib, uni topish uchun turlicha imo-ishoralarni bayon qilishni nazarda tutadi	Muammo: Bu gulshan ichra yo'qtur baqo guliga sabot, Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot. (Navoiy) (Arab yozuvidagi "sa-odat" so'zidan "o" va "t" harflari chiqarilsa "sa'd" so'zi hosil bo'ladi va muammo yechiladi)	
26.	She'r baytida ma'no jihatidan har xil, ammo shakli bir xil (omonimga o'xshash) yoki shaklan bir-biriga yaqin ikki so'zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash san'ati... Atama sifatida u talaffuz va shaklda bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarni turli ma'nolarda qo'llashni anglatadi	Tajnis: Yo rab, shahd-u shakar <b>yo labdurur</b> , Yo magar shahd-u shakar <b>yolabdurur</b> . Jonima payvasta novak otqali G'amza o'qin qoshig'a <b>yolabdurur</b> . (Navoiy)	10

27.	Badiiy san'at sifatida mohiyati shundan iboratki, she'rda ikki ma'noli so'z qo'llanadi, ammo bu ma'nolardan biri aniq sezilsa-da, ikkinchi ma'no payqalmasligi mumkin. Shoir aslida ikkinchi ma'noni ko'zda tutsa ham, dastlab birinchi ma'no e'tiborni tortadi	Iyhom (shubhaga solish, adashtirish): "Kishi aybing desa dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu, Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?" (Navoiy) "Chin so'yla, Xito xo'blarig'a kim bo'lursan?" (Lutfiy)	8
28.	She'rda bir-biriga zid tushunchalarni qo'llash san'ati...	Tazod (muqobala, antiteza): " <b>Visoli lazzatidin zavq topmog'liq erur dushvor,</b> <b>Firoqi shiddatinda yo'qsa jon bermog'liq osondur</b> ". (Bobur)	10
29.	She'r baytlarida o'zakdosh so'zlarni qo'llash san'ati...	Ishtiqoq: "Qilsa <b>zulm</b> ul <b>zolim</b> elni qilmag'il, yo rab, zabun, <b>Chun tazallumdir</b> ishim, doim meni <b>mazlum</b> qil". (Navoiy)	10
30.	She'rda sodda otlarni yoki boshqa so'z turkumlarini tartib bilan keltirish san'ati... Bu she'riy san'atning muhim xususiyatlaridan biri shuki, u fikrli rivojni, ketma-ketlikni, tadrijiylikni anglatadi	Ta'did ("to'g'rilamoq" ma'nosidagi so'z): " <b>Rangu ruxsoru bu zulfu xolu xatkim</b> sendadur, Ko'rsa har kim bog'da <b>sunbul</b> birla <b>rayhon</b> xushlamas". (Muqimiy)	10

31.	She'rnning birinchi misrasida keltirilgan ikki so'z yoki so'z birikmalarini keyingi misrada o'rnini almashtirib qaytarishdan iborat bo'lgan she'riy san'at...	Tard-u aks ("teskari qilib takrorlash" ma'nosida): "Ko'ngulga bo'ldi ajoyib <b>balo qaro</b> soching, Shikasta ko'ngluma ermish <b>qaro</b> <b>balo</b> soching". (Bobur)	10
32.	Narsa va tushunchalarni biron belgi bo'yicha baytda jamlab, ular o'rtasidagi munosabat asosida biron obrazli fikrni ifodalash san'ati...	Jam: "Gul-u gulzor sening bog'i jamolingga fido, Sarv-u shamshod dog'i toza niholingga fido". (Navoiy)	
33.	Tasvirlanayotgan narsalar, tushunchalarni bir-biridan farqlash san'ati...	Tafriq (farqlash): "Yangi oy emasdur hilolingcha xo'b, Quyosh bo'lmagandek jamolingga xo'b, Qizil gulki xushrangu nozik erur, Emas toza ruxsori olingcha xo'b". (Munis) "Qading oldida sanovbarda nazokat qaydadur, Gulda ruxsoringni borida tarovat qaydadur". (Muqimiy) "Yuzung guldin musaffodir, labing rangi xinodin ham, Xating xushbo chaman rayhonidin, mushki Xitodin ham". (Furqat)	
34.	She'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi. Takrorlash vositasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish ushbu san'atning asosiy xususiyatidir	Takrir: "Dema ishqim nayladikim ro'zgoringdur qaro, <b>O'rtadi</b> , ey qotili nomehribonim, <b>o'rtadi</b> ". (Navoiy)	

35.	Baytning har ikki misrasida takroriy so'zlarni qo'llash san'ati...	Mukarrar: “ <b>Dam – badam</b> ko'nglum berib jon naqdi istar vaslini, <b>Oolloh – Oolloh</b> , telba ko'nglumning ajab savdosi bor”. (Navoiy) “Bodadin <b>gul – gul</b> ko'rub ul yuzni, oning hajridin <b>Chok – chok</b> o'lg'an ko'nguldek <b>tah – batah</b> qon bo'ldi <b>gul</b> ”. (Navoiy)	
36.	Tarkibi ohangdosh va o'zaro qofiyadosh bo'lgan bir xil so'zlarni yonma-yon qo'llash san'ati...	Tazmini muzdavaj: “ <b>Aylamay naylay</b> xayoli kipringing oxir aso, Kim meni yodida doim notavon aylar ko'zung”. (Furqat)	
37.	Ushbu san'at arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar chizishda foydalanishni nazarda tutadi	Kitobot (kitob): “Ul <b>alifdek</b> qomatining hasrati <b>Dol</b> yanglig' ayladi qaddim duto”. (Furqat) “Jonimdag'i “ <b>jim</b> ” ikki “ <b>dol</b> ” ingg'a fido. Andin so'ng “ <b>alif</b> ” toza niholingga fido. “ <b>Nuni</b> ” dag'i anbarin hilolingga fido, Qolg'an ikki <b>nuqta</b> ikki holingga fido”. (Navoiy)	9
38.	She'r misralarini turli tillarda bitishni nazarda tutadigan san'at...	Talmi – mulamma (“rang-barang qilmoq” ma'nosini ifodalovchi so'z): “Medin salome ba so'yi jonon, (fors – tojikcha) Ey bod, yetkur arzi g'aribon. (o'zbekcha) Ham dardmandam, bexonumonam, Jono, tu budi dardimga darmon”. (Mashrab)	

39.	Misralaridagi barcha so'zlarning vazn (o'lchov) jihatidan o'zaro teng bo'lishini nazarda tutadigan san'at...	Muvozana ("vazn (o'lchov) jihatidan tengdoshlik" ma'nosini ifodalovchi so'z): "To'rt sadaf gavarining durji ul, Yetti falak axtarining burji ul". (Navoiy)	
40.	She'riyatimizda muhim tarixiy voqealar sanasini abjad hisobi bilan ifodalovchi kichik lirik she'rlar yaratish an'anasi mavjud.  A (alif) – 1 I (yo) – 10 Q (qof) – 100 B (be) – 2 K (kof) – 20 R (re) – 200 J (jim) – 3 L (lom) – 30 Sh (shin) – 300 D (dol) – 4 M (mim) – 40 T (te) – 400 H (hoi havvoz) – 5 N (nun) – 50 S (sod) – 500 V (vov) – 6 S (si) – 60 X (xo) – 600 Z (zany) – 7 ՚ (ayn) – 70 Z (zol) – 700 H (he) – 8 F (fo) – 80 Z (zod) – 800 T (to) – 9 S (se) – 90 Z (ze) – 900 G' (g'ayn) – 1000.  She'rda abjad hisobini qo'llovchi badiiy tasviriy vosita...	Ta'rix.  Alisher Navoiy vafoti munosabati bilan zamondoshlari tomonidan yozilgan she'rda ta'rix san'ati qo'llangan: "Besh harf dedi-yu bo'ldi taslim, "Alif", "be", "te", "sod", "jim"  Bunda "Alif" – 1, "be" – 2, "te" – 400, "sod" – 500, "jim" – 3 ni ifodalaydi.  Bu raqamlarni bir – biriga qo'shsak, 906 – hijriy yil paydo bo'ladi. 906-hijriy yilni milidiyga aylantirilsa, 1501-yil kelib chiqadi	
41.	Ushbu san'at ko'pincha g'azalning birinchi misrasini yoki baytini asar oxirida takrorlashni nazarda tutadi	Raddi matla ("matla'ni takrorlash"): "Qoshi yosinmu deyin, Ko'zi qarosinmu deyin" (Navoiy)	

42.	<p>Ramzning bir ko'rinishi bo'lib, voqe-a-hodisa yoki narsa-buyumning mavhum tushunchasi o'rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so'z (obraz)ni qo'llash, ya'ni adabiy asarda o'quvchiga noaniq bo'lgan tushunchani ko'pchilikka ma'lum bo'lgan narsalarga xos belgilarn bilan ifodalash usuli...</p>	<p>Allegoriya (majoz): tulki – ayyor va aldamchi, bo'ri – ochko'z, chumoli – mehnatkash kishi ramzi</p>	
43.	<p>She'r misralaridagi gaplarning boshidagi so'z yoki so'z birikmasining boshqa misralar boshida aynan takrorlanib kelishi...</p>	<p>Anafora (takror):  <b>"Endi</b> odam quldek sotilmas,  <b>Endi</b> odam o'tga otilmas.  <b>Endi</b> unga qafas bo'limas jon,  <b>Endi</b> dunyo bo'limaydi zindon". (H. Olimjon "Zaynab va Omon")</p>	
44.	<p>Jonlantirishning bir ko'rinishi bo'lib, jonsiz narsa yoki hodisaga jonli narsa hodisadek murojaat qilish yohud yo'q shaxsga xuddi bordek qarash san'ati</p>	<p>Apostrofa: "<b>Go'zal oy</b>, senga bir gap Demakka ko'p hayronman.  Bemalol to'lganingdan Toza ham pushaymonman". (H. Olimjon)</p>	
45.	<p>She'rda, jumladan, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi</p>	<p>Alliteratsiya (Tavze):  <b>Qaro qoshing, qalam qoshing,</b>  <b>Qiyiq qayrilma qoshing qiz.</b>  <b>Qilur qatlimga qasd qayrab</b>  <b>Qilich qotil qaroshing qiz.</b>  <b>Qafasda qalb qushin qiynab,</b>  <b>Qanot qoqmoqqa qo'ymaysan.</b>  <b>Qarab qo'ygil qiyo,</b>  <b>Qalbimni qizdirsin quyoshing qiz.</b>  (Erkin Vohidov)</p>	

46.	Badiiy asarda aks ettirilgan joy va tabiat tasviri...	<p>Peyzaj (fr. "mamlakat, joy"):</p> <p>"Bugun erta turib tongni ko'rdim:      Oq shohi ro'moli boshida,      Ufq kiyintirib go'zal falak      Sochini taraydi qoshida.      Suqlanib qaradim tongning yuziga      Bir qarashda oppoq shoxiga o'xshar.      Bir qarashda marmar, bir qarashda zar,      Bir qarashda esa sadafga o'xshar.      Tong ajoyib bir payt, tengi yo'q husn,      Go'zal tabiatning dilbar lavhasi,      Yil kitob, har kunduz undan bir varaq,      Tong esa varaqning gul sarlavhasi.      Tabiat saharda misli bir g'uncha,      Tong esa g'unchaning ochilgan chog'i,      Yoki taxmin qiling, tabiat bir qiz,      Tong esa u qizning marmar yanog'i.      Tongning tasviriga rang bisotidan      Eng go'zal, eng yorqin mato sayladim,      Chunki tong saodat va nur keltirar,      Unga ilhomimni hadya ayladim.      Xo'rozlar qichqirdi uzoq-yaqindan,      Ohista bo'zardi kechaning tusi,      Ming xil jilva bilan ko'tarildi tong,      Go'yo qanot yoydi eram tovusi.      Tongni ko'rib hissim, hayajonlarim      Bahor qushlariday qanot qoqdilar,      Ajoyib lavhalar, soz manzaralar      Tovlana, tovlana sekin oqdilar..."      (Uyg'un)</p>
47.	Odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari,	<p>Jonlantirish. Jonlantirishning ikki xil ko'rinishi bor: 1. Tashxis – jonsiz narsalarni jonlantirish. 2. Intoq – nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash:</p> <p>"Tong qushlari kuylab sevgidan,      baxtdan,</p>

	hayvon, parranda, kabilarga ko'chirish orqali hosil bo'ladigan tasvir usuli	Dilga ezgu bir o't yoqib o'tdilar. O'ynoq shabodalar: "Yur men bilan", – deb Derazalarimni qoqib o'tdilar. Boshimni chiqarsam derazamdan men Ular sochlaramni tarab o'tdilar. Ketar chog'larida so'nggi yulduzlar Egilib yuzimga qarab o'tdilar" (Uyg'un)	9
48.	Bayt misralarida ikki so'zni qofiyadosh qilib keltirish san'ati...	Zulqofiyatayn ( qo'sh qofiya keltirish): <b>"Boqay</b> desa dog'i <b>quvvati</b> yo'q, <b>Boqmay</b> desa dog'i <b>toqati</b> yo'q". (Navoiy "Sab'ayi sayyor")	
49.	Ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlik- ka asoslan- gan she'riy san'at...	Istiota (arabcha – "qarz olish) – unda tashbehdan farqli ravishda o'xshatish vositasi va o'xshatish sababi qo'llanmaydi, yani o'xshamish, asos, vosita qo'llanmaydi. Bu usulni istiora yoki kinoya tashbeh (qisqartirilgan o'xshatish) nomi bilan yuritiladi: "Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum, Kishi bilmas oni kim, qoldi qanda". La'l – qimmatbaho tosh, bu baytda <i>lab</i> so'zi o'rnida qo'llangan	10
50.	Ikki tushuncha o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadigan qayta nomlash san'ati...	Metonimiya – o'xshashsiz ko'chim: <b>"Fuzuliyni oldim</b> <b>qo'limga</b> Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi" (H.Olimjon)	

51.	Tasvir obyektini ataylab kichraytirib, zaiflashtirib tasvirlash usuli...	Litota (tafrit, ifroq): “Turfa qishlog'i g'azab kardaki parrandalari: Tovug'i ignachi-yu, o'rdagi, g'ozi kapalak. Yo'rgagida onasi ul o'ragan lattalari To hanuz ustidadur uch ming-u yuz yetti bo'lak” (Maxmur)	
52.	She'rda pand-nasihat qo'llash...	Mav'iza: Kimki bir eksa, o'zi ming topar, Barcha mayibni saxovat yopar. (H.Xorazmiy)	
53.	Badiiy asarda kishining tashqi qiyofasi, siymosi, kiyim- kechagi, o'zini tutishi va hokazolar tasviri....	Portret: “Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to'lgan oyday ikki qoshi hiloli... yasangan hurday, tishlari durday, ko'zları yulduzday, qoshları qunduzday, lablari qirmizday, og'izlari o'ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig'ay uchadigan qushday, muhrlangan qog'ozday yalt-yult etib o'tiribdi. Zulxumoroyning bu yog'ida to'qson besh, bu yog'ida to'qson besh – o'n kam ikki yuz kokili bor, bir yog'ini tilla suviga botirgan, bir yog'ini kumush suviga botirgan, tong shamolida qotirgan” ("Ravshan" dostonidan)	
54.	Majozning bir turi. Narsa va hodisalarning asl nomi yondosh nomi bilan birga ishlatalishi...	Perifraz: <b>“Vataning – onang</b> Zaminday vazminu, Mehnatkash mushfiq Istagan narsangni tayyorlaguvchi	

		<b>Xalq bor – otang bor". (G'.G'ulom)</b>	
55.	So'z va so'z birikmalarini shartli ravishda qo'llash...	Ramz (simvol, allegoriya): Kabutar – tinchlik, sariq gul – ayrılıq, tun – hasrat ramzi, tulki – ayyor va aldamchi odam, bo'ri – ochko'z, chumoli – mehnatkash kishi ramzi va h.k.	
56.	Nasriy asardagi qofiya...	Saj: "Zulxumorning <b>kamoli</b> , oyday jamoli, oq yuzida <b>xoli</b> , yangi to'lgan oyday ikki qoshi <b>hiloli</b> ... yasangan <b>hurday</b> , tishlari <b>durday</b> , ko'zlar <b>yulduzday</b> , qoshlari <b>qunduzday</b> , lablari <b>qirmizday</b> , og'izlari <b>o'yemoqday</b> , lablari <b>qaymoqday</b> , ikki yuzi <b>oyday</b> , tarlon-qarchig'ay uchadigan <b>qushday</b> , muhrlangan <b>qog'ozday</b> yalt-yult etib o'tiribdi. Zulxumoroyning bu yog'ida to'qson besh, bu yog'ida to'qson besh – o'n kam ikki yuz kokili bor, bir yog'ini tilla suviga <b>botirgan</b> , bir yog'ini kumush suviga <b>botirgan</b> , tong shamolida <b>qotirgan</b> ". ("Ravshan" dostonidan)	
57.	Achchiq zaharxanda, istehzoli ta'na, pichingdan iborat tasvir usuli...	Sarkazm: "Do'ppi qo'lida, kayf-u tarallo takasaltang, Doim ko'chada safsata, yallo takasaltang". (Sobir Abdulla)	
58.	Narsa voqeа-hodisa, tushuncha va kishilarning belgi-xislatlarini aniqlovchi, izohlovchi, tavsiflovchi so'zlar bilan qo'llash san'ati	Sifatlash (epitet): "Kumush qishdan, zumrad bahordan Qolishmaydi kuzning ziynati". (Uyg'un)	

59.	<p>Voqea, ma'no yoxud vaziyatni asta-sekinlik bilan dara- jama-daraja rivojlanish jarayonida ko'rsatish san'ati...</p>	<p>Tadrij:</p> <p>"Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro' kelmadi, Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.</p> <p>Lahza-lahza chiqdim-u, chekdim yo'lida intizor, Keldi jon og'zimga-yu, ul sho'xi badho' kelmadi". (Navoiy)</p>	
60.	<p>She'r bayt- idagi birin- chi so'zni bayt oxirida takrorlash san'ati...</p>	<p>Tasdir:</p> <p>"<b>Men</b> bu yuz mushtoqidurmen, bog'-u bo'stonkim bo'lur, Bo'limasun nasrin-u lola, arg'uvon sizsiz <b>menga</b>". (Atoiy)</p>	10
61.	<p>She'rda birinchi misra so'zлari bilan ikkinchi misra so'zлarining bir-biriga ohangdosh, vazndosh, qofiyadosh, bo'lib kelishi...</p>	<p>Tarse:</p> <p>"<b>Yod</b> etmas emish <b>kishini g'urbatda kishi</b>, <b>Shod</b> etmas emish <b>ko'ngulni mehnatda</b> kishi". (Bobur) "Osh ichida tosh, Tosh ichida osh". (Topishmoq)</p>	
62.	<p>Baytdagi birinchi misra oxiridagi so'zni ikkinchi misra boshida takrorlash...</p>	<p>Tasbe:</p> <p>"Kuchim yetguncha ko'p qildim <b>vafolar</b>, <b>Vafoli</b> qulni asrar podsholar". (Xorazmiy)</p>	10
63.	<p>Yozuvchi yoki shoirning o'z ahvolini bayon qilishi, o'z turmushining qandayligidan hisob berish...</p>	<p>Hasb-u hol:</p> <p>"Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi, Ne ishnikи ayladim, xatolig' bo'ldi, O'z yerni qo'yub,</p>	

		Hind sori yuzlandim, Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi". (Bobur)																										
64.	Ikki tomonlama teng, bir xil shaklda yozilgan she'r. She'rni ikki xil – odatdagি yon tarafga hamda yuqorida pastga tomon o'qisangiz, bir xil ma'no hosil bo'laveradi	Musoviyattarafayn:	9																									
		<table border="1"> <thead> <tr> <th></th><th>1</th><th>2</th><th>3</th><th>4</th></tr> </thead> <tbody> <tr> <td>1</td><td>Ul sho'x-ki</td><td>ochildi</td><td>xat-u</td><td>ruxsori</td></tr> <tr> <td>2</td><td>Ochil-di</td><td>rayho-ninda</td><td>yuzi</td><td>gulnori</td></tr> <tr> <td>3</td><td>Xat-u</td><td>yuzi</td><td>besabr-u qarori</td><td>man -man</td></tr> <tr> <td>4</td><td>Rux-sori</td><td>gulno-ri</td><td>man-man</td><td>zori</td></tr> </tbody> </table> <p>(Ogahiy)</p>		1	2	3	4	1	Ul sho'x-ki	ochildi	xat-u	ruxsori	2	Ochil-di	rayho-ninda	yuzi	gulnori	3	Xat-u	yuzi	besabr-u qarori	man -man	4	Rux-sori	gulno-ri	man-man	zori	
	1	2	3	4																								
1	Ul sho'x-ki	ochildi	xat-u	ruxsori																								
2	Ochil-di	rayho-ninda	yuzi	gulnori																								
3	Xat-u	yuzi	besabr-u qarori	man -man																								
4	Rux-sori	gulno-ri	man-man	zori																								
65.	Bayt yoki baytdagi biror so'zni o'ng va teskari holatlarda bir xil o'qilishi bilan bog'liq san'at...	Qalb: qovoq, non																										
66.	She'r baytarida ma'no jihatidan bir-biriga ya-qin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obratzli ifodalar, lavhalar yaratish san'ati...	<p>Tanosub: "Sen husn ila boysan, senga chun farz durur haj, Qil Tengri uchun Ka'bai ko'nglumni ziyyorat" (Lutfiy) (Boy odam hajga boradi, Sen husnda boysan, hajga borishing zarur. Tangri uchun mening ko'nglumning Ka'basiga haj ziyyoratiga kelgin) Baytda haj voqeasi bilan aloqador tushunchalarni bildiruvchi <b>haj, farz, Tengri, Ka'ba, ziyyorat</b> so'zlarining bir o'rinda keltirilishi shoirga oshiq va mahbuba munosabatlarini ta'sirchan ifodalashga yordam bergen</p>	7, 10																									

### Irsoli masal

67.	Irsoli masal san'atiga ta'rif bering	Gapda yoki she'rda xalq og'zaki ijodida mashhur bo'lib ketgan biror maqol, matal, ibora yoxud hikmatli	7, 8
-----	--------------------------------------	--	---------

		so'z keltirib, nutq ta'sirchanligini oshirish usuli	
68.	"Irsol" masal so'zini izohlang	Irsol – keltirish, masal – misol, tamsil, maqol, matal, ibora ma'nolarini anglatadi	8
69.	Eski o'zbek tilida maqol, matal va iboralar qanday atalgan?	Masal yoki zarb ul-masal	8
70.	Hozirgi tilshunosligimizda maqol, matal va iboralar umumiy qanday nomlanadi?	Frazeolo-gizmlar	
71.	Boshidan oxirigacha irsolı masal san'atiga asoslangan Lutfiyning g'azali....	"Ayoqingg'a tushar har lahza gisu..."	8
72.	"Ayoqingg'a tushar har lahza gisu..." g'azalida keltirilgan maqollarni ketma-ketlikda aytin	1. "Charog' tubi qorong'u". 2. "Oqqan ariqqa oqar su(v)". 3. "Kishining ko'zidur, ore, tarozu". 4. "Qo'rqrar, qaydakim qon ko'rsa hindu". 5. "Tiloganni – tilogu"	8
73.	Yozma adabiyotning eng qadimgi asarlaridan qaysilarida irsolı masalning yetuk namunalariga duch kelamiz?	Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlarida	8
74.	Lutfiy ijodiyotining yetakchi uslubiy fazilatlaridan biri...	She'rlerida irsolı masal badiiy san'atini qo'llash	8

**Tashxis**

75.	Jonlantirish haqida ma'lumot bering	Odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisaları, hayvon, parranda, kabilarga ko'chirish orgali hosil bo'ladigan tasvir usuli	
-----	-------------------------------------	---	--

76.	Jonlantirish-ning necha xil ko'rinishi bor?	Ikki xil: 1. Tashxis – jonsiz narsalarni jonlantirish. 2. Intoq – nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash	
77.	Hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish san'ati...	Tashxis – jonlantirish	9
78.	"Tashxis" so'zining kelib chiqishi haqida ma'lumot bering	"Tashxis" arabcha so'z bo'lib, "shaxs" o'zagidan hosil bo'lgan (-ta – old qo'shimcha)	9
79.	"Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli, Ango bo'ldi magarkim doya navro'z" baytida nechta tashxis bor?	3 ta: shodlik (tushuncha, kun) tug'ilmoqda; dahr zoli (borliq, dunyo, kampir) tug'moqda; navro'z (tabiat) doyalik qilmoqda	9
80.	"Noz-u adou g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam, Vah muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina?!" Baytdagi tashxis uchun nima asos bo'lgan?	Insonning o'zidagi holat, xislat va fazilatlar	9

### Tashbeh

81.	Tashbeh san'ati haqida ma'lumot bering	Tashbeh hozirgi adabiyotshunoslikda o'xshatish deb yuritiladi. Unda so'zlarda ifodalangan xususiyatlar o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshashlik qiyoslanadi	10
82.	Tashbehda nechta qism ishtirok etadi?	4 ta: o'xshamish, o'xshatilmish, asos, vosita	7
83.	Tasvirda fikr qaratilgan narsa yoki tushuncha...	O'xshamish (mushabbahbih)	7, 10
84.	Tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha...	O'xshatilmish (mushabbah)	7, 10
85.	Nimaga yoki kimga ko'ra o'xshatishning yuzaga chiqqanligi...	Asos (vahi shaboh)	7, 10

86.	O'xshatilish belgisi...	Vosita (holati tashbeh)	7, 10
87.	"Yuzing go'zallikda gul kabidir". Misradagi tashbehni yuzaga keltiruvchi qismlarni aniqlang	O'xshamish – yuz, o'xshatilmish – gul, asos – go'zallikda, vosita – kabi	7
88.	Qaysi holatda she'rda tashbeh aniq ko'rini, bilinib turadi?	Vosita ishtirok etganda	7
89.	Tashbeh san'atini yaratishda qaysi qo'shimcha va so'zlar vosita bo'lib keladi?	-dek, -day, -cha, -simon, -vor, -saro, -oso, -vash, -iy, -oyin kabi qo'shimchalar, <i>kabi, singari, misli, go'yo, yanglig', xuddi, o'xshab, nechukki</i> kabi so'zlar	7
90.	Asos va vositaning qo'llanish yoki qo'llanmasligidan qat'i nazar o'xshamish bilan o'xshatilmish ishtirok etgan o'xshatish san'ati...	Mutlaq tashbeh (aniq o'xshatish)	7
91.	O'xshamish ham tushib, o'xshatilmishning o'zigina saqlanadigan she'riy san'at...	Kinoya tashbeh (Ishora o'xshatish)	7
92.	"Bo'rini dag'i galadin dur qil, Suv beribon bog'ni ma'mur qil". Baytdagi tashbehning turi va sonini aniqlang	To'rtta kinoya tashbeh mavjud	7
93.	"Bo'rini dag'i galadin dur qil, Suv beribon bog'ni ma'mur qil" baytidagi kinoya o'xshatishni mutlaq o'xshatishga aylantiring	Bo'ridek amaldorlardan galadek xalqni ozod qil, suvdek zarur adolatni berib, bog'dek mamlakatni obod qil	7
94.	O'xshatish-larning xususiyati...	1) tashbehlar g'oya, fikr va istaklarni badiiy ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi;	10

		2) tashbehlar ko'zda tutilgan har qanday fikrning aniqlashishida, shu obrazni to'liq tasavvur etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi; 3) turli obrazlarni yoritishda qo'llanadi	
--	--	---	--

**Badiiy asarlarda quyidagi qahramonlar qanday ma'noda qo'llaniladi?**

95.	Yilqi (hayvon)	Yilqi (hayvon) obrazi qora xalqqa, nodon, bilimsiz, zakovatsiz, ochko'z, umuman, yomon xulqli yaramas odatli kimsaga nisbatan qo'llanadi	10
96.	Bo'ri	Bo'ri obrazi lashkarboshiga, yov-dushmanga, mard erga, o'limga ham nisbatan qo'llanadi	10

**Quyidagi so'z va birikmalar tashbihning qaysi turiga mansub?**

97.	"Qoshi hiloldek egik", "qomati sarvdek tik"	Mutlaq tashbeh	7
98.	"Qoshi hilol", "sarvqomat", "yuzi oy"	Mutlaq tashbeh	7
99.	"Hilol", "sarv", "oy", "gul" (ko'chma ma'noda)	Kinoya tashbeh	7

**Insho**

100.	Insho she'riy san'ati necha turdan iborat?	4 ta: tamanni, nido, istifhom, amr va nahiy	
------	--	---	--

**Quyidagi ta'riflar insho san'atining qaysi turlariga berilgan?**

101.	"Orzu qilish" ma'nosini ifodalovchi bu badiiy usul she'rda lirik qahramonning tilagini ifodalaydi	Tamanni (Nigoro gulbadanaimni tushumda ko'rsam edi, Labi shakarshikanimni tushumda ko'rsam edi). (Nodira)	
------	---	---	--

102.	Bu usul lirik qahramonning boshqa shaxslarga, narsalarga xitob qilishi, ularga murojaat etgan holda o'zining ichki kechinmalari, tuyg'ulari, tilaklari, mulohazalarini bayu · ailishni nazarda tutau	Nido: (Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpion edim, <u>do'stlar</u> . Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku) (Cho'lpion)	10
103.	"So'ramoq" ma'nosini ifodalovchi bu usul she'riy asarlarda lirik qahramonning ichki olami, qalbida mavjlanayotgan tuyg'ulari, pokiza orzularini kimgadir yoki nimagadir murojaat etib so'rash orqali, savollar vositasida aks ettirishni nazarda tutadi	Istifhom. (Kongul olding, begin, yoshurmog'ing ne? Jafoni haddidin oshurmog'ing ne?)	
104.	Bu usulda lirik qahramon kimgadir yoki nimagadir buyuradi yoki biron narsadan qaytaradi	Amr va nahiyl. (Yana, <b>jono</b> , meni dilxastani hayron qilib ketmang, Firoq anduhidin kuy-gan yurakni qon qilib ketmang). (Furqat)	
105.	"Maylni qo'yki, vola-u zor ul, Jon berib vasliga xaridor ul" baytidagi uyadosh so'zlarni aniqlang	Mayl, vola, zor, vasi, xaridor	7
106.	"Anda bir shoh hokim-u voliy, Mulki ma'mur-u himmati oily" baytidagi uyadosh so'zlarni aniqlang	Shoh, hokim, voliy (hukmdor), mulk, ma'mur	7

107.	"Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli, Ango bo'ldi magarkim doya navro'z" baytida nechta tashxis bor?	3 ta: shodlik (tushuncha, kun) tug'ilmoqda; dahr zoli (borliq, dunyo, kampir) tug'moqda; navro'z (tabiat) doyalik qilmoqda	
108.	"Noz-u adou g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam, Vah muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina?!" Baytdagi tashxis uchun nima asos bo'lgan?	Insonning o'zidagi holat, xislat va fazilatlar	
109.	"Ko'ngluma har yonki boqsam, dog'i bor, Har necha dardimni desam, dog'i bor. Qilcha tanga bori ishqing yor edi, Bir sori bo'ldi firoqing, dog'i bor". (Lutfiy). Tuyuqdagi "dog'i bor" so'zlarining ma'nosini ayting	Birinchi misrada ko'nglidagi dog', ikkinchi misrada otashi bor, to'rtinchi misrada yana (tag'in) bor	

**Quyidagi misralarda she'riy san'atning qaysi turi ifodalangan?**

110.	Oh ursa olamni tutar tovushi, To'qson molning terisidan kovushi. ("Alpomish"dan)	Mubolag'a	9
111.	Necha kun, necha tun orada o'tdi, Rustamga Sultonxon u so'zni aytdi: – Quloq solgin xon otangning tiliga, Qo'zim, ketaylik-da Oqtosh eliga. ("Rustamxon")	Nido	10
112.	Bo'yung sarv-u sanubartek, beling qil, Vafo qilg'on kishilarga vafo qil. (Xorazmiy)	Tajnis, tashbeh, tanosub	10

113.	<p><b>Menga</b> dushvor erur <b>sensiz</b> tirilmoq. <b>Senga men</b> bo'lmasam, ey jon, ne g'amdur. (Atoyi)</p>	Tardi aks	10
114.	<p>Manga sensiz tirilgandin o'lum yuz qatla ortuqdur, Bu so'zda, haq bilur, ko'nglum tilim birla muvofiqtur</p>	Tazod	10
115.	<p>Dardga to'lding, g'amga to'lding, telba bo'lding, Ishq dardini so'rsang, hargiz darmoni yo'q. (Ahmad Yassaviy)</p>	Ta'did	10
116.	<p>Labing g'uncha, yuzing ikki qizil gul, Qading sarv-u, soching go'yoki sunbul. (Furqat)</p>	Tashbeh, tanosub	10
117.	<p>Anda bir shoh hokim-u voliy, Mulki ma'mur-u himmati oliy. (Navoiy)</p>	Tanosub	7
118.	<p>Har kishikim birovga qozg'oy choh, Tushgay ul choh aro o'zi nogoh. (Navoiy)</p>	Irsoli masal	7
119.	<p>Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har lahza yosh, Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lgach quyosh. (Navoiy)</p>	Tamsil	
120.	<p>Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur Kim, jong'a qaro balo bo'lubtur. (Navoiy)</p>	Tardi aks	10
121.	<p>Olma yanoqing ko'rgach, men bandi nechuk o'lmay? Bodom ko'zi fitna, pista dahani nozik. (Lutfiy)</p>	Tanosub, tashbeh	10
122.	<p>Ul parivash ishqidinki telbadurman, goh sog', Chunki bordur oramizza goh sulh-u, gohi jang. (Furqat)</p>	Husni ta'lil	10
123.	<p>Ermas alar tufrog'-u, sen nuri pok, Xilqat alarg'a-u sanga – tuyra xok</p>	Tashbeh	10
124.	<p>Maylni qo'yki, vola-u zor ul, Jon berib vasliga xaridor ul</p>	Tanosub	7

125.	Ey bag'ritosh, ko'nglum evin aylama xarob, Kim surating chizilmish aning ich-u <b>tosh</b> inda	Tajnis, tazod,	10
126.	Bu kun vaslingni tark ayla, tilar jannat zohidlar, Berurlar nasyaga naqdni, u ne nodon xaloyiqtur? (Atoyi)	Tazod	10
127.	Malaksan yo bashar yo huru g'ilmonsan bilib bo'imas, Bu lutfu nazokat birla sendin ayrilib bo'imas (Mashrab)	Tajohul ul-orif	10
128.	Sanga binafsha kibi qaddi nigin, Bosh ko'tara olmay uyotdin zabun	Tashbeh	7
129.	Sensiz u jahon ayshi alamdur manga, ey do'st, Shodlig'i ham mehnat-u g'amdur manga, ey do'st. (Atoyi)	Nido	10
130.	Qatra qonlarkim tomar ko'ksumga urgan toshdin, Zaxmdindur demakim, <b>qon</b> <b>yig'lar ahvolimga tosh.</b> (Navoiy)	Tashxis (jonlantirish) (Bayt mazmuni: Sen otgan tosh tufayli ko'ksimdan qon chiqqani yo'q, O'sha tosh qalbimdag'i dardni ko'rib qon yig'ladi)	9
131.	Ketar chog'larida so'nggi yulduzlar Egilib yuzimga qarab o'tdilar. (Uyg'un)	Tashxis (jonlanti-rish)	9
132.	Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidan, tovus so'zi: Men qushemen qasru gulshan ziynati, Naqshu rangim ahli olam hayrati. Suratim gulshanga oroyish durur, Hay'atim ko'rganga osoyish durur	Intoq	9
133.	Majmu'i <b>davoni dard</b> qildi. <b>Dardinki</b> , manga <b>davo</b> bo'lubtur. (Navoiy)	Tardi aks	10

134.	Ul ulus jondin ayru yel yanglig', Sayr etib suv yuzida yel yanglig'. (Navoiy)	Tashbeh	7
135.	Sen husn ila boysan, senga chun farz durur haj, Qil Tengri uchun Ka'bai ko'nglumni ziyorat. (Lutfiy)	Tanosub	7
136.	Qani Layli, qani Majnun, qani Shirin bilan Farhod, Alar o'tdi bu olamdin, bu olam bevafo derlar. (Mashrab)	Talmeh	10
137.	Xating bila yuzungu, kokulung, ey jon, Biri binafsha, biri yosuman, biri rayhon. (Bobur)	Laff va nashr	
138.	Qutlug' oyog'ing yerga tegibdur, oning uchun, El yerga qo'yub bosh, qilur barcha ibodat. (Lutfiy)	Husni ta'lil	10
139.	Kirdi ikki jism bir kafang'a, Yo'q, yo'q, ikki ruh bir badang'a. (Navoiy. "Layli va Majnun")	Ruju	
140.	Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg'a ayt, Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt. (Navoiy)	Nido, istiora	10
141.	Mengizlari gul-gul, mijjalari xor, Qaboglari keng-keng, og'izlari tor. (Navoiy)	Tazod, tanosub	10
142.	Ishq ichra oning <b>fidosi</b> yuz <b>jon</b> . Har <b>jonki</b> , sango <b>fido</b> bo'lubtur. (Navoiy)	Tardi aks	10
143.	Sulaymon sultanatlilik podshosen, Masih anfoslik, Yusufliqosen. (Xorazmiy)	Talmeh	10
144.	Nargis ko'zungning o'xshashi qaysi chamanda bor? Yuzung tarovati qachon, ey gul, sumanda bor? (Lutfiy)	Tajohul ul- orif	10

145.	Muhabbat o'tini jismimga yoq, bag'rim kabob o'lsun, Ko'zum husningda serob ayla andog'kim purob o'lsun. (Uvaysiy)	Istiora	10
146.	Xush tabassum, xush kalom-u, <b>xush ravish raftor ham</b> Andalibi bo'stondek <b>xush navo</b> dildorsiz. (Muqimiy)	Tansiq assifat	
147.	Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri	Istiora ("Vatan" tushunchasi "ko'kragim", "ozod yurt" tushunchasi "erk yeri")	10
148.	<b>Qarosi ko'zlarning oqi birla Ajab kufredur, imon</b> birla hamroh. (Atoiy)	Tazod	10
149.	Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni, Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda. (Atoyi)	Tanosub	10
150.	<b>Visoli lazzatidin zavq topmog'liq erur dushvor,</b> <b>Firoqi shiddatinda yo'qsa jon bermog'liq osondur.</b> (Bobur)	Tazod	10
151.	Bo'ldi bag'rim suv g'ammingdin "Yaxshilik qil sol suvg'a", Oxir ey gul xirmani albatta, "har ekkan o'rар". (Atoiy)	Irsoli masal	7
152.	Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang, G'ozadin yuzlarda tobu o'smadin qoshlar tarang. (Furqat)	Tazmin ("Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang" misrasi Fuzuliyning mashhur g'azalidan olingan)	
153.	O'qi bu Lutfiy mungluq niyoznomasini, Savob-u, olqish-u yuz ming duo kerak bo'lsa	Ta'did, tanosub	10

154.	Dedi: "Qaydin, sen ey, majnuni gumrah". Dedi: "Majnun vatandin qayda ogah". (Navoiy)	Savol-u javob	
155.	Har kishikim birovg'a qozg'ay choh, Tushgay ul choh aro o'zi nogoh (Navoiy)	Irsoli masal	7
156.	Solib borma meni, ey Yusufi husn, Bukun Ya'qubtek bayt ul-hazanda. (Atoyi)	Talmeh	10
157.	<u>Ch</u> iroyli qizcha ko'rdim Baxtiyorlar bog'ida. <u>A</u> tirgullar sochadi, Tabassumi chog'ida. <u>R</u> a'no qiz shuncha so'lim, Bir ko'rgan unga shaydo. <u>Q</u> y yuzi porlab turar, Qora ko'zları shahlo. <u>S</u> o'radim: Oting nadir? Dedi: Har baytdadur	Tavshih (muvash-shah)	
158.	Yuz ochg'il, ko'z seni to'yguncha ko'rsin, Necha bo'lg'ay bu ko'zim muntazir, och. (Lutfiy)	Tajnis. 1) och – ko'rsatmoq; 2) och – tashna	10
159.	Onalarning oyog'i ostidadur Ravzayi jannat-u jinon bog'i Ravza bog'in visolin istar ersang Bo'l onaning oyog'i tufrog'i. (Navoiy)	Iqtibos ("ilm o'zlashtirmoq" ma'nosidagi so'z)	
160.	Ta'lim gulchehra nargis ko'zlilar bor, Shakar dudog'li, shirin so'zlilar bor. (Xorazmiy)	Ta'did	10
161.	<b>Ey Navoiy,</b> boda birla <b>xurram et</b> ko'ngling uyin Ne uchunkim boda kelgan uyg'a qayg'u kelmadi. (Navoiy)	Iltifot	

162.	Begona <b>bo'lubtur oshnodin.</b> Begonag'a <b>oshno bo'lubtur.</b> (Navoiy)	Tardi aks	10
163.	Labingdan chun suchuklik qand o'g'urlar, Solurlar el ani suvg'a yalong'och. (Lutfiy)	Husni ta'lil	10
164.	Bu gulshan ichra yoqtur baqo guliga sabot, Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot. (Navoiy)	Muammo Arab yozuvidagi “saodat” so'zidan “o” va “t” harflari chiqarilsda “sa'd” so'zi hosil bo'ladi va muammo yechiladi.	
165.	Yo rab, shahdu shakar <b>yo labdurur,</b> Yo magar shahdu shakar <b>yolabdurur.</b> Jonima payvasta novak otqali G'amza o'qin qoshig'a <b>yolabdurur.</b> (Navoiy)	Tajnis	10
166.	Kishi aybing desa dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu, Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu? (Navoiy)	Iyhom (shubha- ga solish, adashti- rish)	8
167.	Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni, Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda. (Atoyi)	Tanosub	10
168.	Mengiz yo ravzayi rizvonmidur bu? Og'iz yo g'unchayi xandonmidur bu? (Atoyi)	Tajohil ul-orif, tanosub	10
169.	Rahm qilg'il <b>bandag'a, ey shoh,</b> ul tengri uchun Kim etar bizni <b>gado ul sizni sulton</b> aylagan. (Lutfiy)	Tazod	10
170.	Qilsa zuim ul zolim elni qilmag'il, yo rab, zabun, Chun tazallumdir ishim, doim meni mazlum qil. (Navoiy)	Ishtiqoq	

171.	<b>Rangu ruxsoru bu zulfa xolu xatkim sendadur, Ko'rsa har kim bog'da sunbul birla rayhon xushlamas.</b> (Muqimiy)	Ta'did ("To'g'rila'moq" ma'nosidagi so'z)	10
172.	<b>Gul chog'i yori safar aylab Navoiy jonig'a, Har biri bir toza qonlig' dog'i hijron bo'ldi <b>gul.</b> (Navoiy)</b>	Tasdir – radd ul- sadri ilal- ajuz	10
173.	<b>Ko'ngulga bo'ldi ajoyib <b>balo</b> <b>qaro</b> soching, Shikasta ko'ngluma ermish <b>qaro balo</b> soching.</b> (Bobur)	Tard-u aks ("teskari qilib takrorlash" ma'nosida)	10
174.	<b>Gul-u gulzor sening bog'i jamolingga fido, Sarv-u shamshod dog'i toza niholingga fido.</b> (Navoiy)	Jam	
175.	<b>Yangi oy emasdur hilolingcha xo'b, Quyosh bo'l magandek jamolingga xo'b, Qizil gulki xushrangu nozik erur, Emas toza ruxsori olingcha xo'b.</b> (Munis) <b>Qading oldida sanovbarda nazokat qaydadur,</b> <b>Gulda ruxsoringni borida tarovat qaydadur.</b> (Muqimiy) <b>Yuzung guldin musaffodir, labing rangi xinodin ham,</b> <b>Xating xushbo chaman rayhonidin, mushki Xitodin ham.</b> (Furqat)	Tafriq (farqlash)	
176.	<b>Nozuklik ichra belicha yo'q tori gesuyi, O'z haddini bilib belidin o'lturur quyi.</b> (Lutfiy)	Husni ta'lil	10
177.	<b>Dema ishqim nayladikim ro'zgoringdur qaro, O'rtadi, ey qotili nomehribonim, o'rtadi.</b> (Navoiy)	Takrir "takrorlash" ma'nosini ifodalovchi lafziy san'at bo'lib	

178.	<b>Dam – badam</b> ko'nglum berib jon naqdi istar vaslini, <b>Olloh – Olloh</b> , telba ko'nglumning ajab savdosi bor. (Navoiy) <b>Bodadin gul – gul</b> ko'rub ul yuzni, oning hajridin <b>Chok – chok</b> o'lg'an ko'nguldek <b>tah – batah</b> qon bo'ldi gul. (Navoiy)	Mukarrar	
179.	Zulfing cheriki jamol mulkin Oldi ko'zing ittifoqi birla. (Atoyi)	Tanosub, istiora, husni ta'lil	10
180.	<b>Aylamay naylay</b> xayoli kipringing oxir aso, Kim meni yodida doim notavon aylar ko'zung. (Furqat)	Tazmini muzdavaj	
181.	Ul <b>alifdekk</b> qomatining hasrati <b>Dol</b> yanglig' ayladi qaddim duto. (Furqat) Jonimdag'i "jim" ikki " <b>dol</b> " ingg'a fido. Andin so'ng " <b>alif</b> " toza niholingga fido. " <b>Nuni</b> " dag'i anbarin hilolingga fido, Qolg'an ikki <b>nuqta</b> ikki holingga fido. (Navoiy)	Kitobot (kitob)	9
182.	Medin salome ba so'yi jonon, (fors – tojikcha) Ey bod, yetkur arzi g'aribon. (o'zbekcha) Ham dardmandam, bexonomonam, Jono, tu budi dardimga darmon. (Mashrab)	Talmi ("rang- barang qilmoq" ma'nosini ifodalovchi so'z)	
183.	To'rt sadaf <b>gavharining</b> <b>durji</b> ul, Yetti falak <b>axtarining</b> <b>burji</b> ul. (Navoiy)	Muvozana ("vazn (o'Ichov) jihatidan tengdoshlik" ma'nosini ifodalovchi so'z)	

184.	Ko'z yoshim tuproq ila gar <b><u>gotila</u></b> , Kelmagayman javridin, <b>Haqgo, tila</b> . G'amzasi o'lturdi-yu ul bexabar, Men agar o'lSAM, ne g'am ul <b><u>gotila</u>?</b>	Tajnis. 1) qo'shiladi, qoriladi; 2) Xudodan tilasang ham; 3) qotilga	L, 8, 10
185.	Besh harf dedi-yu bo'ldi taslim, "Alif", "be", "te", "sod", "jim". (Navoiy zamondoshlari)	Tarix san'ati. Bunda "Alif" – 1, "be" – 2, "te" – 400, "sod" – 500, "jim" – 3 ni ifodalaydi. Bu raqamlarni bir-biri ga qo'shsak, 906-hij- riy yil paydo bo'ladi. 906-hijriy yilni milodiy- ga aylantirilsa, 1501-yil kelib chiqadi	
186.	Ashkima kanora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun netay Ohima ham shumora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun netay (Ogahiy)	Raddi matla ("matla'ni takrorlash")	
187.	Xo'blarda seningdek bir mahbub qani nozuk? Boshdin oyoqi zebo, bel-u badani nozuk. (Lutfiy)	Tajohil ul-orif, tanosub	10
188.	Menga <b>nomehribon</b> yor o'zgalarga <b>mehribon</b> emish, Mening <b>jonim olib</b> , ag'yorga <b>oromijon</b> emish. (Navoiy)	Tazod (antiteza – qarshilan- tirish)	10
189.	<b>Endi</b> odam quldek sotilmas, <b>Endi</b> odam o'tga otilmas. <b>Endi</b> unga qafas bo'lmas jon, <b>Endi</b> dunyo bo'lmaydi zindon. (H.Olimjon "Zaynab va Omon")	Anafora (takror)	

190.	<b>Go'zal oy</b> , senga bir gap Demakka ko'p hayronman. Bemalol to'lganingdan Toza ham pushaymonman. (H.Olimjon)	Apostrofa	
191.	Quyosh oydek yuzungning xijlatidin Qochib to'tinchi ko'k uzra chiqibdur. (Lutfiy)	Husni ta'lil	10
192.	<b>Qaro qoshing</b> , qalam qoshing, <b>Qiyiq qayrima qoshing qiz.</b> <b>Qilur qatlimga qasd qayrab</b> <b>Qilich qotil qaroshing qiz.</b> <b>Qafasda qalb qushin qiynab,</b> <b>Qanot qoqmoqqa qo'ymarysan.</b> <b>Qarab qo'ygil qijo,</b> <b>Qalbimni qizdirsin quyoshing qiz.</b> (Erkin Vohidov)	Alliteratsiya (Tavze)	
193.	Bunda qorning taglarida qish, Bahor uchun so'zlaydi olqish. (H. Olimjon)	Tashxis (jonlanti-rish)	9
194.	<b>Boqqay</b> desa dog'i <b>quvvati</b> yo'q, <b>Boqmay</b> desa dog'i <b>toqati</b> yo'q. (Navoiy. "Sab'ayi sayyor")	Zulqofiyatayn (qo'sh qofiya kel-tirish)	
195.	Sher yurakli bu <b>Lochin</b> Qoqib qanot qulochin, <b>Quzg'unlardan</b> asradi Elning xotin – xalochin. (M. Shayxzoda "Kapitan Gastello")	Istiora	10
196.	<b>Fuzuliyni</b> oldim qo'limga... (H.Olimjon)	Metonimiya – o'xshashsiz ko'chim	
197.	Turfa qishlog'i g'azab kardaki parrandalari: Tovug'i ignachi-yu, o'rdagi, g'ozи kapalak. Yo'rgagida onasi ul o'ragan lattalari To hanuz ustidadur uch ming-u yuz yetti bo'lak. (Maxmur)	Litota (tafrif, ifroq)	

198.	Kimki bir eksa, o'zi ming topar, Barcha mayibni saxovat yopar. (H.Xorazmiy)	Mav'iza	
199.	"Ravshan" dostonidan:  Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to'lgan oyday ikki qoshi hiloli... yasangan hurday, tishlari durday, ko'zлari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og'izlari o'ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig'ay uchadigan qushday, muhrlangan qog'ozday yalt- yult etib o'tiribdi. Zulxumoroyning bu yog'ida to'qson besh, bu yog'ida to'qson besh – o'n kam ikki yuz kokili bor, bir yog'ini tilla suviga botirgan, bir yog'ini kumush suviga botirgan...	Portret	
200.	<b>Vataning – onang</b>  Zaminday vazminu, Mehnatkash mushfiq Istagan narsangni tayyorlaguvchi <b>Xalq bor – otang bor.</b> (G'.G'ulom)	Perifraz	
201.	Kabutar – tinchlik, sariq gul – ayriliq, tun – hasrat ramzi, tulki – ayyor va aldamchi odam, bo'ri – ochko'z, chumoli – mehnatkash kishi ramzi va h.k.	Ramz (simvol, allegoriya)	
202.	Do'ppi qo'lida, kayf-u tarallo takasaltang, Doim ko'chada safsata, yallo takasaltang. (Sobir Abdulla)	Sarkazm	
203.	<b>Kumush qishdan, zumrad bahordan</b> Qolishmaydi kuzning ziynati. (Uyg'un)	Sifatlash (epitet)	
204.	Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro' kelmadi, Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.	Tadrij	

	Lahza-lahza chiqdim-u, chekdim yo'lida intizor, Keldi jon og'zimga-yu, ul sho'xi badho' kelmadi. (Navoiy)		
205.	<b>Men</b> bu yuz mushtoqidurmen, bog'-u bo'stonkim bo'lur, Bo'lmasun nasrin-u lola, arg'uvon sizsiz <b>menga</b> . (Atoiy)	Tasdir	10
206.	<b>Yod</b> etmas emish <b>kishini</b> g'urbatda kishi, <b>Shod</b> etmas emish <b>ko'ngulni</b> mehnatda kishi. (Bobur)	Tarse'	
207.	Kuchim yetguncha ko'p qildim <b>vafolar</b> , <b>Vafoli</b> qulni asrar podsholar	Tasbe	10
208.	Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi, Ne ishnikи ayladim, xatolig' bo'ldi, O'z yerni qo'yub, Hind sori yuzlandim, Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi. (Bobur)	Hasbu hol	
209.	"Chin, so'yla, Xito xo'blarig'a kim bo'lur-san?" – misrasida qanday she'riy san'at qo'llangan?	Iyhom	8
210.	Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum, Kishi bilmas oni kim, qoldi qanda	Istiora	10
211.	Ul sanamkim, suv yaqosinda <b>paritek</b> o'lturur, G'oyati nozikligidin suv bila yutsa bo'lur	Tashbeh	10
212.	<b>Rahmi kelib</b> bulutning <b>Yig'lab to'kar yoshini.</b> Qushlar qochar <b>Majnuntol ko'taradi boshini.</b> Bulutning orasidan <b>Quyosh kulib qaraydi,</b> <b>Majnuntolning yuvilgan</b> <b>Sochlarini taraydi.</b> (E.Vohidov)	Metafora	

213.	"Tilar el mansabi oliy va lekin, Atoiy <b>sarvi ozodingg'a banda</b> "	Istiora	10
<b>Navoiy qalamiga mansub quyidagi baytlarda qanday she'riy san'atlar qo'llangan?</b>			
214.	<u>Ul oy o'tlug'</u> yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin de ko'z, <u>Muhabbat tuxmidin</u> o'zga ul o't uzra sipand emas	Istiora	10
215.	Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom, Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'l dum sanga	Talmeh	8
216.	G'ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro, To Navoiydek asir-u benavo bo'l dum sanga	Ishtiqoq (o'zakdosh so'zlarni qo'llash)	8
217.	Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngil, Vahki, kun-kundin battarroq mubtalo bo'l dim sanga	Tazod	8
218.	Men qachon dedim: "Vafo qilg'il, manga", – zulm aylading, Sen qachon deding: "Fido bo'lg'il manga", – bo'dum sanga	Tazod	8
219.	Garchi sabrim uyi yanglig' aylading vayron meni, Doimo, Yo Rabki, husning mulkidek obod bo'l	Tazod	8
220.	Tuttum o'lmaqdin tirilmak hajrida, tengdur manga Emdi gar bergil ziloli Xizr, agar jallod bo'l	Tazod	8

**Boburning quyidagi band va baytlarida qanday  
she'riy san'atlar qo'llangan?**

221.	Bahor-u bog' sayrin ne qilaykim, dilistonimning Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarv-u xiromondur	Tashbeh, ta'did, tanosub	10
222.	<b>Visoli lazzatidin zavq topmog'liq erur dushvor,</b> <b>Firoqi shiddatinda yo'qsa jon bermaklik osondur</b>	Tazod	10
223.	Sendek menga bir yori jafokor topilmas, Mendek senga bir zori vafodor topilmas	Tarse, tazod, tanosub, tashbeh, tard-u aks	10
224.	Bu shakl-u shamoyil bila xud xur-u parisen Kim, jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas	Tashbeh	10
225.	<b>Aq'yor</b> ko'z olida-u ul <b>yor</b> ayon yo'q. <b>G'am xori</b> ko'ngul ichra-yu <b>a'mxor</b> topilmas	Tajnis, tazod	10
226.	Ey gul, meni zor etmaki husnung chamanida, Ko'zni yumub ochquncha, bu gulzor topilmas	Tajnis, tashbeh, istiora (metafora)	10
227.	Qadimni firoq mehnati yo qildi, Ko'nglum g'am-u anduh o'tig'a yoqildi. Holimni sabog'a aytib erdim, ey gul, Bilmon, sanga sharh qilmadi, yo qildi	Tajnis (jinios)	10
228.	Ko'ngulga bo'ldi ajoyib <b>balo qaro</b> soching. Shikasta ko'ngluma ermish <b>garo balo</b> soching	Tard-u aks	10

229.	Qani Shirin bilan Layliki sendin noz o'rgansa, Qani Farhod-u Majnunkim, alarg'a ishq o'rgatsam	Talmeh	10
230.	Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa, Ne g'am yuz muncha xam bo'lsa, seningdek g'amgusorim bor	Tanosub	10
231.	Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur, Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur	Tashbeh, sifatlash	10
232.	Bahor-u bog' sayrin ne qilaykim, dilistonimning Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromondur	Tashbeh, tanosub	10
233.	Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur, Sening birla chiqishmoqlik dag'i bisyor mushkuldur	Tazod	10

**Mashrab qalamiga mansub quyidagi baytlarda  
qanday she'riy san'atlar qo'llangan?**

234.	Ishq vodiysidan bir kecha men hay-haylab o'ttum, Monandi nayiston guliga o't qalab o'ttum	Tashbeh – o'xshatish	9
235.	Ofoqni bir lahzada kezdim na ajabdur, Mino tog'idin akkasifat hakkalab o'ttum"	Tashbeh, mubolag'a	9
236.	Ottim fash-u dastorini devonalig' aylab, Parvonasifat jonimi o'tqa qalab o'ttum	Tashbeh	9
237.	Dunyo yasanib, jilva qilib oldimga keldi, "Borg'il nariga!" – deb ketig'a shattalab o'ttum	Tashxis – jonlantirish	9
238.	Bildimki, oni dushmani makkorayi ayyor, "Lo!" – tirnog'i birla yuzini tirmalab o'ttum	Kitobot	9

239.	Mardonи Xudo dediki: "Dunyo mayi achchig", Achchig'ini bilmak uchun bir yalab o'ttum	Tashbeh	9
240.	Nafs kofiri birla tun-u kun qildim urushni, Tanho qilichi birla urub, qiymalab o'ttum. Xomush pichog'in har dam oning bo'g'zig'a qo'ydum, Cho'g' nayzasi birla ko'zini nayzalab o'ttum	Tashbeh	9
241.	Devonayi Mashrab, bu so'zung dardga davodur, Oshiq elining ko'nglig'a bir o't qalab o'ttum	Istiora – metafora	9
242.	Agar oshiqlig'im aytsam, kuyub jon-u jahon o'rtar, Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar	Tadrij	9
243.	Kishiga ishq o'tidin zarraye yetsa, bo'lur giryon, Bo'lub besabr-u betoqat, yurak-bag'ri chunon o'rtar	Tanosub, tadrij, metafora	9
244.	Nechuk toqat qilay, do'stlar, bu dard ila bo'lub hayron, G'amim boshqa, alam boshqa, yuragimni fig'on o'rtar	Tanosub	9
245.	Qay-u yil birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay, Tilim lol-u ko'zum giryon, so'ngaklarni nihon o'rtar	Tanosub	9

**Nodira qalamiga mansub quyidagi baytlarda qanday she'riy san'atlar qo'llangan?**

246.	Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit, Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit	Tazod ("shah" bilan "benavo" – muhtoj, bechora)	8
247.	Sarvi nozim, sendin ayru naxli ohim bo'ldi xam, Qomating hajrida sindi shoxi shamshodim, eshit	Tazod ("sarvi noz" bilan xam (egilgan)	8

248.	Har nechakim sabr ta'mirini bunyod ayladim, Ashk selobida vayron o'ldiobodim, eshit	Tazod (vayron bilan obod)	8
249.	Barcha yor-u oshnodin aylading begonalig', Necha kunlar bo'ldi, hargiz qilmading yodim, eshit	Tazod (oshno bilan begona)	8
250.	Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat, Seli g'amdin bu imorat bo'ldi vayron oqibat	Tazod ("vasl uyi" bilan "hijron"; "obod qildim" bilan "buzdi" va "vayron")	8
251.	Qildi choki piyrahan dog'i dilimni oshkor, Qolmadi ko'nglimda zaxmi ishq pinhon oqibat	Tazod ("oshkor" bilan "pinhon")	8
252.	Ahd-u paymonlar qilib erdi: "Vafo qilg'um", – debon, Ayladi tarki vafo ul ahdi yolg'on oqibat	Tazod ("ahd-u paymonlar" bilan "tarki vafo"; "vafo qilgum" bilan "yolg'on")	8
253.	Orzu qildim: "Tutarmen", – deb visoli domanin, Pora bo'ldi hajr ilgida giribon oqibat	Tazod ("orzu qildim: "Tutarmen", – deb visoli domanin" bilan "Pora bo'ldi hajr ilgida giribon oqibat")	8
254.	Baski qon bo'ldi yurokim gavhari ashk o'rninga, Qatra-qatra ko'zlarimdin tomdi marjon oqibat	Tazod ("qon" bilan "gavhari ashk")	8
255.	Ohkim, bo'ldi yana subhi nashotim shomi g'am, Chehra pinhon etti ul Xurshidi tobon oqibat	Tazod ("subhi nashotim" bilan "shomi g'am")	8

256.	Garchi bor erdi musaxxar devlar farmonida, Poymoli xayli mo'r o'ldi <b>Sulaymon oqibat</b>	Tazod ("devlar" bilan "xayli mo'r" – chumolilar to'dasi)	8
257.	Nodira, bulbul kabi to nola insho ayladim, Navbaher o'tti, <b>xazon</b> o'ldi guliston oqibat	Tazod ("navbahor" bilan "xazon")	8
258.	Zohido, ishq-u muhabbat ahlini ma'zur tut, Yor ko'yida na bo'ldi Shayx San'on oqibat? (Ey zohid, ishq-u muhabbat ahlini kechir, (Axir) yor ko'yida oqibatda Shayx San'on nima bo'ldi?)	Talmeh	8
259.	Garchi bor erdi musaxxar devlar farmonida, Poymoli xayli mo'r o'ldi <b>Sulaymon oqibat</b>	Talmeh	8
260.	"Yusuf ishqida bu so'zlarni Zulayho qilmadi, O'tti Vomiq dahrin yodini uzro qilmadi, Motami Farhodni Shirin taqozo qilmadi, Layli hijronida Majnun men kabi yoqilmadi"	Talmeh	K

**Ogahiy qalamiga mansub quyidagi baytlarda  
qanday she'riy san'atlari qo'llangan?**

261.	<table border="1"> <thead> <tr> <th></th><th>1</th><th>2</th><th>3</th><th>4</th></tr> </thead> <tbody> <tr> <td>1</td><td>Ul sho'x-ki</td><td>ochildi</td><td>xat-u</td><td>ruxsori</td></tr> <tr> <td>2</td><td>Ochil-di</td><td>rayho-ninda</td><td>yuzi</td><td>gulnori</td></tr> <tr> <td>3</td><td>Xat-u</td><td>yuzi</td><td>besabr-u qarori</td><td>man -man</td></tr> <tr> <td>4</td><td>Rux-sori</td><td>gu'lno-ri</td><td>man-man</td><td>zori</td></tr> </tbody> </table>		1	2	3	4	1	Ul sho'x-ki	ochildi	xat-u	ruxsori	2	Ochil-di	rayho-ninda	yuzi	gulnori	3	Xat-u	yuzi	besabr-u qarori	man -man	4	Rux-sori	gu'lno-ri	man-man	zori	Musovi-yattara-fayn	9
	1	2	3	4																								
1	Ul sho'x-ki	ochildi	xat-u	ruxsori																								
2	Ochil-di	rayho-ninda	yuzi	gulnori																								
3	Xat-u	yuzi	besabr-u qarori	man -man																								
4	Rux-sori	gu'lno-ri	man-man	zori																								
262.	Noz-u ado-u g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam, Vah muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina!?	Tashxis	9																									

263.	Sanga doyim bo'lub davlat qushi rom, Shikor andoz-u dastomuz bo'lsun	Tanosub	L
264.	Tarabgohing aro xayyoti gardun, Kaniz-u zoli xil'atdo'z bo'lsun	Tashbeh	L
265.	Qilibdur maxliqolarning yuzini Latofat mus'hafiq'a oya navro'z	Tashbeh: maxliqolar yuzi – oyat, latofat – mus'haf (Qur'on)	9
266.	Janobi shahg'a keldim bu jihatdin, Ko'zim yoshig'a toya-toya navro'z	Mubolag'a	9
267.	Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli, Ango bo'ldi magarkim doya navro'z	Tashxis	9
268.	Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shom-u sahar Bulbuldek aylar yuz navo ming navi faryod ustina	Tashbeh, tanosub	9
269.	Boqib ko'z uchidin pinhon fosh etding tag'ofillar, Yo'q-u borim hamul pinhon ila foshingdun aylansun	Tazod	10
270.	Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina, Qatlim uchun nas keltirur „nun“ eltibon „sod“ ustina	Kitobot, tashbeh, tashxis	9

**Furqat qalamiga mansub quyidagi baytlarda  
she'riy san'atning qaysi turlari qo'llangan?**

271.	Qachon ul Yusufi Misriyda bu husn-u malohat bor? Fasohatda, sabohatda, hama to'g'rida san nozik	Mubolag'a, talmeh	9
272.	Ul parivash ishqidinki telbadurman, goh sog', Chunki bordur oramizda goh sulh-u, gohi jang.	Husni ta'lil	9

273.	Bulbul o'qug'och yig'lab, subhidam xazon faslin, G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar	Husni ta'lil, tashxis	9
274.	"Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang..." deb boshlanuvchi g'azalida qanday badiiy san'atlar yetakchilik qiladi?	Tanosub, tashbeh	9

**Fuzuliy qalamiga mansub quyidagi baytlarda she'riy san'atning qaysi turlari qo'llangan?**

275.	Guli ruxsoringa qarshu ko'zimdan qonli oqar suv, Habibim, fasli guldir bu, oqar suvlar bilanmazmi?	Tanosub va tashbeh	8
276.	Muhabbat lazzatindan bexabardur zohidi g'ofil, Fuzuliy, ishq zavqin ishqini vor o'landan so'r (G'ofil bexabar zohid (tarkidunyo qilgan kishi) muhabbat lazzatini bilmaydi, Fuzuliy, ishq zavqini ishqini bor (odam) dan so'ra)	Tazod	8
277.	"Mani jordan o'sondurdi..." g'azali qofiyasining o'zida qanday she'riy san'at mujassam?	Radd ul-qofiya: "o'sonmazmi" fe'li ham matlada, ham maqtada qo'llangan	8
278.	"Dagildim man sanga <b>moyil</b> , san etting aqlimi <b>zoyil</b> , Manga tan aylayan <b>g'ofil</b> sani ko'rgach, o'tonmazmi?" (Men senga moyil emas edim, sen aqlimi zoil etting (yo'qotding), Menga ta'na qilgan g'ofil (bexabar) seni ko'rganda uyalmaydimi?) Qanday she'riy san'at yashirin	Tazod	8

## KO'CHIM

279.	Badiiy asarda so'z yoki so'z birikmasining ko'chma ma'noda qo'llanishi...	Trop – majoz – ko'chim deb yuritiladi	
280.	So'zni ko'chma ma'noda qo'llash yoki narsa-hodisaga xos sifatlarni qaysidir jihat bilan shularga o'xshaydigan boshqa narsa-hodisalarga ko'chirish san'ati...	Ko'chim	7
281.	Ko'chimning turlari...	Majoz, istiora, ramz...	7
282.	Adabiy asarda o'quvchiga noaniqroq bo'lgan tushunchani ko'pchilikka ma'lum bo'lgan narsalarga xos belgililar bilan ifodalash...	Majoz	7
283.	Majoz yorqin ifodalangan asarlarga misollar keltiring	"Tuya bilan bo'taloq", "Maymun bilan najor", "Toshbaqa bilan chayon" (Gulxaniy) kabi	7
284.	O'quvchi anglashi murakkabroq bo'lgan mavhum axloqiy-ma'naviy sifatning shu sifatlarga ko'proq ega bo'lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalanishi...	Ramz	7
285.	Ramz adabiyotshunoslik fanida yana qanday atamalar bilan yuritiladi?	Timsol yoki simvol	7

**Quyidagi so'zlar qanday ramziy ma'noga ega?**

286.	Kabutar	Tinchlik ramzi	7
287.	Sariq gul	Ayriliq	7
288.	Tun	Hasrat ramzi	7
289.	May	Hayot ramzi	7

290.	Gul	Ma'shuqa ramzi	7
291.	Burgut	Mag'rurlik ramzi	7
292.	Chumoli	Mehnatsevarlik, tirishqoqlik ramzi	7
293.	Istiorada qanday ma'no ifodalanadi?	Istiorada biror narsa-hodisaga xos xususiyatlarni boshqa bir narsa-hodisaga ko'chirish orqali badiiy ma'no ifodalanadi	7
294.	Istiorani o'x-shatish(tash-bih)dan farqi...	Istiorada tashqi o'xshashlik asosiy o'ren tutmaydi, balki o'xshati- layotgan va o'xshayotgan narsa-hodisalar orasidagi ichki mantiqiy bog'lanishga, yaqinlikka, vazifalar- idagi umumiylilikka tayaniladi	7
295.	Istiota yana qanday nomlanadi?	Qisqargan ko'rinishdagi o'xshatish yoki kinoya tashbeh	7, 10
296.	"Binafsha" she'ridagi "ko'kragim", "erk yeri" so'zlari qanday ma'noni anglatadi?	"Ko'kragim" – Vatan, "erk yeri" – ozod yurt	7
297.	Tajnis so'zini izohlang	Tajnisni "jinos" ham deyishadi. "Tajnis"ning ma'nosи "biror narsa bilan o'xshash bo'lmoq"dir. "Jinos" esa "hamjins" degan ma'noni bildiradi	10
298.	Adabiyotshunoslikda ta'did atamasi yana qanday nomlar bilan yuritilgan?	Siyoqat ul-a'dod, ta'zil, shumur, e'dod, ta'did, te'dod	10

**Quyidagi asarlarda ta'did so'zi  
qanday nom bilan yuritilgan?**

299.	"Aruzi Humoyun", "Badoye' us-sanoye", "Latoyif at-tavoif", "Jamoyi muxtasar", "Rahnamoyi adabiyoti forsiy"	Siyoqat ul-a'dod	10
300.	"Badoye' us-sanoye"	Ta'zil	

301.	"San'athoyi bade'yi dar she'ri tojikiy"	Shumur	10
302.	"Ilmi bade' dar zaboni forsiy"	E'dod, ta'cid, te'dod	

**Tasdir**

303.	Baytning birinchi misrasidagi birinchi rukn (yoki shu ruknning boshlanishi) qanday nomlanadi?	Sadr	10
304.	Baytdagi ikkinchi misraning oxirgi rukni (yoki shu ruknning oxiri) qanday nomlanadi?	Ajuz	10
305.	Tasdир mumtoz adabiyot ilmida yana qanday nom bilan yuritiladi?	Radd ul-sadri ilal-ajuz (sadrnı ajuzda qaytarmoq) deb: <b>Gul chog'i yori safar aylab Navoiy jonig'a,</b> Har biri bir toza qonlig' dog'i hijron bo'ldi <b>gul.</b> (Navoiy)	10
306.	Tasdirlar tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi?	Ikki turga: sodda va murakkab. Sodda tasdirlar birgina so'zning takrorlanishiga asoslanadi	10
307.	Sulaymon qaysi payg'ambarning o'g'li?	Dovud payg'ambarning o'g'li, u o'n to'qqiz aka-uka orasida eng donishmandi bo'lgan	10
308.	Yusuf qaysi payg'ambarning o'g'li?	U Ya'qub payg'ambarning o'g'li, ota muayyan muddat farzandidan ayri- liqda – g'am uyi (bayt ul-hazan)da yashashga majbur bo'ladi	10

**Quyidagi payg'ambarlarning xislatlari haqida ma'lumot bering**

309.	Sulaymon payg'ambar	U barcha yer yuzidagi odamlarniga emas, qurt-u qumursqaga, qushlarga, hatto "ins-u jinslar"ga ham hukmronlik qilgan	10
------	---------------------	---	----

310.	Masih payg'ambar	U o'likni tiriltira olish qudratiga ega bo'lgan	10
311.	Yusuf payg'ambar	Go'zallik ramziga aylangan obraz	10

### Quyidagi baytlarni sharhlang

312.	Quyosh oydek yuzungning xijlatidin Qochib to'rtinchi ko'k uzra chiqibdur. (Lutfiy)	Yorning yuzi quyoshdan ham oydan ham go'zal, quyosh o'z husnidan xijolat bo'lib, yer yuzidan qochib ketgan va to'rtinchi ko'k (osmon)dan makon topgan	10
313.	Nozuklik ichra belicha yo'q tori gesuyi, O'z haddini bilib belidin o'lturur quyi. (Lutfiy)	Noziklik borasida bel va soch bahsida soch mag'lub. Bel nozik, soch qalin. Shuning uchun soch o'z haddini bilib beldan pastda bo'lishi kerak degan shoirona asos aytilmoqda	10
314.	Qutlug' oyog'ing yerga tegibdur, oning uchun, El yerga qo'yub bosh, qilur barcha ibodat. (Lutfiy)	Elning yerga bosh qo'yib ibodat qilishini yorning “qutlug' oyog'i yerga tekkani” bilan asoslamoqda	10
315.	Labingdin chun suchuklik qand o'g'urlar, Solurlar el ani suvg'a yalang'och. (Lutfiy)	Adib nazarida qand shirinlikni labdan “o'g'irlab olgan”. O'g'ri esa jazolanishi kerak. O'g'riga beriladigan jazo turlaridan biri uni suvgaga kiyimsiz yalang'och holda kiritishdir	10
316.	Zulfing cheriki jamol mulkin Oldi ko'zung ittifoqi birla. (Atoyi)	Yorning zulfi cherigi (sochi- ning askarlari) ko'zi bilan ittifoq tuzib jamol mulkini (yuzining go'zalligini) egal- lab oldi, qizning sochi yuzi- ni berkitib qo'ydi ma'nosida	10

## XALQ OG'ZAKI IJODI JANRLARI

1.	Mehnatkash omma ijodi bo'lgan so'z san'ati...	Xalq og'zaki ijodi – folklor	5
2.	"Folklor" atamasi qachon kim tomonidan fanga kiritilgan?	"Folklor" atamasi 1846-yilda Vilyam Toms tomonidan fanga kiritilgan	
3.	Folklor so'zining ma'nosi...	Fransuz tilidan olingan, "folk" – xalq, "lor" – bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni "xalq bilimi", "xalq donoligi", "xalq donishmandligi" demakdir	5
4.	Xalq san'atining yana qanday turlari mavjud?	Musiqa, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at kabi	5
5.	O'zbek folklori qanday turlarni tashkil qiladi?	Epik, lirik, dramatik, maxsus	

**Quyidagi janrlar xalq og'zaki ijodining qaysi turiga mansub?**

6.	Mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, doston...	Epik tur	
7.	Marosim folklorining deyarli barcha ko'rinishlari, bolalar folklorining ko'pgina turlari, qo'shiqning xilma-xil turlari, ashula va shu kabilar...	Lirik tur	
8.	Og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin, askiya, xalq teatrlari va shu kabilar...	Dramatik tur	
9.	Maqol, matal, topishmoqlar...	Maxsus tur	

## XALQ QO'SHIQLARI

1.	Kuya solib aytildigan kichik lirik janr...	Qo'shiq	6
2.	"... Kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lman, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo'lmaydi". Ushbu fikrlar kimning qaysi asaridan olingan?	Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridan	6
3.	Qo'shiqlar yaratili-shiga ko'ra necha turga bo'linadi?	2 turga: xalq qo'shiqlari, yozma adabiyot namunasi bo'lgan qo'shiqlar	6
4.	Yozma adabiyot namunasi bo'lgan qo'shiqlar qanday yaratiladi?	shoirlar tomonidan yaratiladi	6
5.	Har bir joyning jug'rofiy tuzilishi, iqlimiga, urf-odatlariga, o'tkazilayotgan marosimlariga, monand tarzda o'sha yurtning turli yoshdag'i vakillari tomonidan yaratildigan va ijro etildigan xalq og'zaki ijodining janri...	Xalq qo'shiqlari	6
6.	Xalq qo'shiqlari-ning qanday tur-lari mavjud?	1. Mehnat qo'shiqlari. 2. Mavsum-marosim qo'shiqlari. 3. Lirik qo'shiqlar. 4. Tarixiy qo'shiqlar	
7.	Marosim qo'shiqlariga misol keltiring	"Yor-yor", "Kelinsalom", "Kuyovsalom"	6

<b>Quyidagi mehnat qo'shiqlarida dehqon va chorvadorlarning qanday ish faoliyati aks etadi?</b>			
8.	"Xo'p i/ayda", "Maydagul"	Xirmon yanchish	6
9.	"Xo'sh-xo'sh", "Turey-turey", "Churey-churey"	Sigir, qo'y, echkilarni sog'ishda, buzoq, qo'zi, uloqlarni emizish	6
10.	Bolalarga mo'ljallangan qanday xalq qo'shiqlari yaratilgan?	Alla, ovunchoq, o'yin qo'shiqlari	6
11.	Qanday o'yin qo'shiqlarini bilasiz?	"Boychechak", "Oq terakmi ko'k terak"	6
12.	"Alla" xalq qo'shiqlarining qaysi turiga mansub?	Lirik turiga	
13.	"Boshginam og'riydi" qo'shig'ida qizchaning boshi, bo'yni va qulog'i nimalarga og'riydi?	Tillaqosh, bo'yintumor, oltin isirg'aga	6
14.	Bolalarning bahor faslidagi birinchi qo'shig'i...	"Boychechak"	6
15.	Boychechak qanday ramziy obraz?	Boychechak – ijobjiy obraz, u yoshlik, jo'shqinlik, shukronalik, shuningdek, mehnatkash, irodali inson ramzi	6
16.	"Boychechak" qo'shig'inining necha misrali ko'rinishlari mavjud?	To'rt, olti, sakkiz misrali	6
17.	"Tut yog'ochga osdilar. Qilich bilan chopdilar, Baxmal bilan yopdilar". Ushbu misralar qaysi qo'shiqdan olingan?	"Boychechak"	6
18.	"Chittigul", "Boychechak" xalq qo'shiqlarining qaysi turiga mansub?	Mavsum qo'shiqlariga	6
19.	Bolalarga mo'ljallangan qaysi qo'shiqning matni juft-juft matn va naqoratdan iborat?	"Chittigul" qo'shig'inining	6

20.	Savol-javob tarzidagi bolalar qo'shig'iga misol aytинг	"Boshginam og'riydi"	6
21.	Xalq qo'shiqlarida nimalar aks etadi?	Inson kechinmalari, quvonch va iztiroblari, qalb so'zlari	6
22.	Qo'shiqlar shaklan qanday tarzda bo'ladi?	She'riy	6
23.	O'zbek xalq qo'shiqlari qaysi vaznida yaratiladi?	Asosan barmoq vaznida, ba'zan aruz vaznida yaratiladi	
24.	Xalq qo'shiqlari necha misradan iborat bo'ladi?	Asosan to'rt misradan, shuningdek, 6, 8 misrali va bir necha banddan iborat bo'lishi ham mumkin	
25.	Qo'shiqlar qanday ijro etiladi?	Kuy jo'rligida ijro etiladi	
26.	Xalq qo'shiqlarining nisbatan keyingi namunalari kimning qaysi asari orqali yetib kelgan?	Mahmud Koshg'ariy-ning "Devonulug'otit turk" asari orqali	
27.	Mehnat qo'shiqlarining qanday turlari mavjud?	1. Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari. 2. Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari. 3. Kasb-hunar bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari	

### Quyidagilar mehnat qo'shiqlarining qaysi turiga kiradi?

28.	Qo'sh, o'rim, yan-chiq, yorg'ichqoq (qo'l tegirmoni)	Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari	
29.	"Ho'sh-ho'sh", "Turey-turey", churyalar	Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari	

30.	Charx, bo'zchi, o'rmak qo'shiqlari	Kasb-hunar bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari	
31.	O'rim qo'shig'iغا misol keltiring	"To'Imadingmi Qoradaryo"	
32.	Yanchiq qo'shig'i- ga misol ayting	"Xo'p maydalar" ("Maydagul")	
33.	Qo'ylnarni sog'ish paytida qaysi qo'shiq aytildi?	Turey-turey qo'shiqlari	
34.	Qaysi asarda otasi qizini mакtabdan chiqarib olib: "Qizimga Ko'kqamish ko'lida qo'y sog'dirib, chorvadorlik ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta bo'lsin", – deydi?	"Alpomish" dostonida	
35.	Echkilarni sog'ishda aytildigan qo'shiq...	Churyalar	
36.	"Xo'sh-xo'sh" qo'shiqlari qaysi jonivorga nisbatan aytildi?	Sigirga	
37.	O'zbek ayollari gilam, sholcha to'qigan paytlarida qanday qo'shiqlarni kuylashgan?	O'rmak qo'shiqlarini	
38.	Mehnat qo'shiqla- rida qanday xusu- siyat yetakchilik qilgan?	Turti hayvonlar va ish qurollarini erkalash, ularga murojaat qilish, ularni jonlantirish	
39.	Ajdodlarimizning mehnat qo'shiqla- rini kuylashdan asosiy maqsadi...	Ish faoliyatini osonlashtirish va o'zlarining ruhiy holatini ko'tarish	
40.	Yigitlarig' ishlatu (Yigitlarni ishlataiylik), Yig'ach yamish irg'atu (Daraxtdan meva qoqtiraylik), Qulan, kiyik avlatu (Qulon, kiyik ovlataylik), Bazram qilib avnalim (Bayram qilib quvonaylik). Ushbu mehnat qo'shig'i kimning qaysi asari orqali yetib kelgan?	Mahmud Koshg'ariy- ning "Devonu lug'otit turk" asari orqali	

41.	Og'ziginangda o'ting bor, churey-churey, Yelinginangda suting bor, churey-churey, Sersoqolim jonivor, churey-churey, Kerilib turgan buting bor, churey- churey. Ushbu qo'shiq qaysi jonivorga qarab aytilgan?	Echkiga	
42.	Esli molim oqilim, turey-turey, Yelkamdag'i kokilim, turey-turey, Shuncha molning ichida, turey-turey, Bog'da ochilgan gulim, turey-turey. Ushbu qo'shiq qaysi jonivorga qarab aytilgan?	Qo'yga	
43.	Quyidagi parcha qaysi vaznda aytilgan? Charxginam sarparasi sakkiz tugun, Sakkizoy ketgan og'am kelsin bugun	Aruz vazni- ning ramali musaddasi mahzuf bahri- da aytilgan	

**Quyidagilar mehnat qo'shiqlarining  
qaysi turiga mansub?**

44.	Shoxlari bir quloch-quloch, Shoximga qo'nar qaldirg'och. Yuray desm, voy, qornim och, Men qo'shga qanday yarayin	Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shig'i	
45.	Shoxlaring bor bir minora, churiya-churiya Minora qushlar qo'nara, churiya-churiya, Bolang olib iskasang-a, churiya-churiya, Kuygan yuraging qonar-a, churiya-churiya.	Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shig'i	

46.	O'rmagim yotibdi o'ralib, Men yuribman kerilib, Qaynonam qaramaydi O'rmagimga o'yilib (qayrilib)	Kasb-hunar bilan bog'liq mehnat qo'shig'i	
47.	Xo'shim molim govmishim, Ehtiyotlab sog'mishim, Oralab yeding o'tingni, Iyibl: bergin sutingni, Seni siylab boqayin. Ko'zmunchoqlar taqayin, Quralay ko'z govmishim, Tuyoqlari kumushim, Zotli molim xo'sh-xo'sh, Sutli molim xo'sh-xo'sh	Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shig'i	
48.	Yorg'ichoq yapaloqqina, Un qilar oppoqina, Yorg'ichoq xir-xir etar, Mushtdakkina xamir etar. Yorg'ichog'im guldir-guldur, Bo'g'zim to'la oppoq undir, Boy bobomning xonadoni Ikkimizni yeydir-yeydir	Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shig'i	
49.	Bolalilar bosh bo'lar, turey-turey, Bolasizlar yosh bo'lar, turey-turey, Kelar yili tuqqanining, turey-turey, Qo'zingga yo'ldosh bo'lar, turey-turey	Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shig'i	
50.	Charx yigirib, charx yigirib, Shul qo'lginam toladir, Agar shuni yigirmasam, Bolalar och qoladir	Kasb-hunar bilan bog'liq mehnat qo'shig'i	
51.	Bo'z to'qiyan qirog'ini o'xshatib, Mokki otaman qo'lginamni qaqshatib, Bozordagi shohilardan yaxshiroq, Nafisdek to'qilgan bo'zim yaxshidir	Kasb-hunar bilan bog'liq mehnat qo'shig'i	

52.	O'rog'im olmos, O'rimdan qolmas, Sira ham tolmas, O'rmasam bo'lmas	Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shig'i	
53.	Ho'kizginam bo'yniginang ezildi, Ko'zginangdan yoshlar qator tizildi. Bo'yinturuq bilan omoch tortmasang, Sening bilan menga go'rlar qazildi	Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shig'i	
54.	Xo'p hayda-yo, xo'p hayda, Qalqon qulog'im, hayda, Temir tuyog'im, hayda, Ostingda bosgan donni Oyog'ing qilsin mayda	Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shig'i	
55.	Charxginam, ey, charxginam, Yurakkinam olasan, Ayt-chi, sen bu yurtlardan, Qachongina yo'qolasan?!	Kasb-hunar bilan bog'liq mehnat qo'shig'i	
56.	"Sust xotin", "Choy momo", "Yo, Haydar" xalq qo'shiqlarining qaysi turiga mansub?	Mavsum- marosim qo'shiqlariga	
57.	Xalqimizning qadimiy ommaviy bayramlari, oilaviy rasm-rusumlar, fasllar bilan bog'liq qo'shiqlari...	Mavsum- marosim qo'shiqlari	
58.	Al-Beruniyning qaysi asarida "Navro'z", "Ramush og'am", "Boboxvora" kabi o'ndan ortiq marosim bayramlari xususida ma'lumot beriladi?	"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"	
59.	Mehrjon bayrami qachon nishonlanadi?	Mehrjon – quyosh ma'nosini anglatib, kun va tunning kuz faslidagi teng kelishida nishonlanadi	

**Yil fasllarining qulay yoki noqulay kelishi bilan  
bog'liq quyidagi holatlarda ajdodlarimiz qaysi  
qo'shiqlarni kuylashgan?**

60.	Yil quruq kelib, yomg'ir yog'masa...	"Sust xotin" qo'shig'ini	
61.	Bug'doy, sholi boshhoqlari yetilgan paytda shamol ularni payhon qilsa, shamol to'xtatish uchun...	"Choy momo" qo'shig'ini	
62.	Don mahsulotlarini shopirish paytida shamol bo'lmasa, shamol chaqirish uchun...	"Yo, Haydar"	

**Quyidagi qo'shiqlar qanday marosimda aytilgan?**

63.	Choy, choy, choy momo, Choy momosi o'libdi, O'g'li yetim qolibdi, Bosa-bosa beringlar. Bosilib qolsin bu shamol, Ucha-ucha beringlar, Uchilib qolsin quv shamol, Oblo-hu, oblo-hu...	Shamol to'xtatish marosimida	
64.	Sust xotin, suzma xotin, Ko'lankasi maydon xotin! Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'lsin, Yer-u jahon ko'l bo'lsin. Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'ldi! Yer-u jahon ko'l bo'ldi! Shaftolilar barg yozdi, Sust xotin, suzma xotin	Yomg'ir chaqirish marosimida	
65.	Haydar, ota-onang o'libdir, Moli senga qolibdir. Bolang suvg'a oqibdir, Shamolingni qo'yvor	Shamol chaqirish marosimida	

### Quyidagi udumlar nima sababdan o'tkazilgan?

66.	<p>Bahor yoki yoz oylarida qishloq ayollarini yig'ilishib, poliz qo'riqchisiga o'xshash qo'g'irchoqqa keksa ayol ko'ylagini kiydirib, qishloqdagi barcha xonadonlarga kirishib, "Sust xotin" qo'shig'ini aytib yurGANLAR. Xonadon egalari ularni shodlik bilan qarshi olib, qo'g'irchoq ustidan suv sepishib, marosim ishtirokchilariga xayr-sadaqa ulashishgan. Marosim tugagach, yig'ilgan xayr-sadaqa hisobiga Sust xotinga atab katta is chiqarilgan</p>	<p>Bahor yoki yoz oylarida yetarlicha yomg'ir yog'masa, yomg'ir chaqirish uchun</p>	
67.	<p>Ikki kampir eski kiyim va chopon kiyib, yuzlariga qora kuya surtishib, qo'llariga aso (hassa) ushlashib, oldinda "Choy momo" qo'shig'ini aytib yurishgan. Bo'y yetib qolgan beshta qiz boshlariga sholcha yopib, kampirlar ortidan ergashgan va qo'shiqqa jo'r bo'lib yurishgan. 7-8 yoshlardagi bir yoki bir necha o'g'il bolalar xurjun osilgan eshaklarga minishib, xonadonlardan xayr-sadaqa yig'ib yurishgan. Eshakka o'qlog', yumshoq supurgi va keli sopi sudratib qo'yilgan. Marosim tugagach, yig'ilgan xayr-sadaqa hisobiga is chiqarilgan</p>	<p>Dehqon yetishtirgan hosilga zarar yetkazuvchi tinimsiz davom etayotgan qattiq shamolni to'xtatish vaqtida o'tkaziladi</p>	
68.	<p>"Yo, Haydar" qo'shig'ida kimga murojaat qilinadi?</p>	<p>Shamol homiysi sifatida Haydaga, ya'ni Muhammad alayhissa-lomning kuyovi to'rtinchi xalifa Aliga</p>	

69.	Sust xotin qanday obraz?	Qadimgi zardushtiylik (otashparastlik) dinida muqaddas sanalgan Tishtiriyaning xalq o'tasida nomi o'zgarib ketgan obrazi, ya'ni yomg'ir tangrisi (osmon suvlari xudosi)	
70.	Choymomo tarixan qanday obraz?	Chuy momo, ya'ni "shamol momo" obrazidan iborat bo'lib, u zardushtiylarning shamol tangrisi hisoblangan	

**Quyidagi namunalar xalq qo'shiqlarining qaysi turiga mansub?**

71.	<p>Shoyi ko'ylik yengiga Tut qoqaylik, yor-yor, Kelin-kuyov ko'ngliga O't yoqaylik, yor-yor.</p> <p>Qish kunida sovuq yeb Horib keldik, yor-yor, Achchiq-tirsiq kerakmas, Koyib keldik, yor-yor.</p> <p>Taxta-taxtadan ko'pri Taxting bo'lsin, yor-yor, Payg'ambarning qizidek Baxting bo'lsin, yor-yor.</p> <p>To'nda qizlar o'ynashib Ko'ngli to'ldi, yor-yor, Yosh boshiga er qildi, Ko'z nam bo'ldi, yor-yor.</p> <p>Uzoqqa borgan qizning Rangi sariq, yor-yor, Ko'zidan oqqan yoshi Misli ariq, yor-yor.</p>	Mavsum-marosim ("Yor-yor") qo'shig'i	
-----	--	--------------------------------------	--

	<p>Tokchadagi qaychini      Zang bosibdi, yor-yor,      Yangi tushgan kelinni      G'am bosibdi, yor-yor.</p> <p>Tog'da toychoq kishnaydi,      Ot bo'ldim deb, yor-yor,      Uyda kelin yig'laydi,      Yot bo'ldim deb, yor-yor.</p> <p>Qat-qat ko'rpa ustida,      Piyolaman, yor-yor,      Yorga salom bergani,      Uyolaman, yor-yor</p> <p>Yig'lama, qiz, yig'lama,      To'y seniki, yor-yor,      Ostonasi tillodan,      Uy seniki, yor-yor</p>	
72.	<p>Bismillohdan boshlaymiz,      Oshga jambil tashlaymiz,      Salom, salom, yana salom,      Avval Xudoga salom.</p> <p>Ko'cha to'la qo'y bergen,      Mashina to'la to'y bergen,      Salom, salom, yana salom,      Qaynotasiga bir salom.</p> <p>Qozon osgani eringan,      O'g'il tug'dim deb kerilgan,      Salom, salom, yana salom,      Qaynonasiga salom.</p> <p>Oshga solgan ilikday,      Qosh-u ko'zi pilikday,      Salom, salom, yana salom,      Ovsinlariga bir salom.</p>	Mavsum-marosim ("Kelin salom") qo'shig'i

	<p>Tomga pichan tashlagan, Orqa-o'ngin qashlagan, Salom, salom, yana salom, Amakisiga bir salom.</p>		
73.	<p>Husayni uzumning g'o'rasi, Kuyov bolaning jo'rasi Salom, salom, yana salom, Kuyov jo'ralariga bir salom.</p> <p>Ko'yylaklari yamoqli, Yopgan noni sanoqli, Salom, salom, yana salom, Qaynonasiga bir salom.</p> <p>Yursa yo'lni to'ldirgan, O'tirsa so'zni bo'ldirgan, Salom, salom, yana salom, Qaynonasiga bir salom.</p> <p>Qora papoq yarashgan, Qizlar izidan qarashgan, Salom, salom, yana salom, Kuyov bolaga bir salom</p>	<p>Mavsum-marosim ("Kelin salom") qo'shig'i</p>	
74.	<p>Aytmay desam bo'lmaydi, Dog'ingiz o'ti qo'ymaydi, Ishongan bog'im, yoy otam, Suyangan tog'im, voy otam.</p>	<p>Marosim qo'shig'i: marsiya</p>	
75.	<p>Hovlimdag'i giyoh bo'ling, voy onam, Har kun sizni iskayin, voy onam, Yana qaytib bino bo'ling, voy onam, Doim sizni eslayin, voy onam</p>	<p>Marosim qo'shig'i: marsiya</p>	
76.	<p>Insonning xotirasiga bag'ishlangan she'riy asarlar...</p>	<p>Marsiya</p>	
77.	<p>Afrosiyob – Alp Er To'nganining xotirasiga bag'ishlangan marsiya kimning qaysi asarida uchraydi?</p>	<p>Mahmud Koshg'ariy- ning "Devonu lug'otit turk" asarida</p>	

78.	Xalq qo'shiqlarining qaysi turida his-tuyg'u, ichki kechinmalar, muhabbat hissiga ega bo'lishdan mammunlik kayfiyati yetakchi o'rinni tutishi muhim?	Lirik qo'shiqlarda	
79.	Folklorshunoslikda "lirik qo'shiqlar" atamasi ostida qanday qo'shiqlar nazarda tutiladi?	Sevgi-muhabbat mavzusi-dagi qo'shiqlar	
80.	Lirik qo'shiqlarga xos xususiyatlar...	<p>1. Inson ruhiy olami, ichki kechinmalari aks etadi.</p> <p>2. Asosan to'rt misradan iborat bo'ladi.</p> <p>3. Lirik qo'shiqlar bir necha bandan iborat bo'lishi ham mumkin.</p> <p>4. Lirik qo'shiqlar kasb, o'rin, payt tanlamaydi: ularni istalgan vaqtda, istagan shaxs xohishiga ko'ra baland ovoz bilan yoki xirgoysi qilib aytaveradi</p>	
81.	"Galdir", "Sumbula", "Omon yor" kabi qo'shiqlar necha bandli?	Bir necha bandli	
82.	Quyidagi qo'shiqlar xalq qo'shiqlarining qaysi turiga mansub?  Yurakkinamning taftiga tandir qiziydi, Ko'zginamning yoshiga o'rdak suziydi.  Dayraning ul yuzidan sel keladi, Sel bilan ikki o'rdak teng keladi. O'rdakka o'rdak munosib, g'ozga g'oz. Yigitga qayliq munosib, qizga noz.  Beqasam to'nlar kiyib, Muncha meni kuydirasiz, Gohi-gohida bir qarab, Voy, beajal o'ldirasiz.	Lirik qo'-shiq-lar	

Oq ilon, oppoq ilon,  
 Oydinda yotganing qani!?  
 Sen meni yornon deding,  
 Yaxshini topganing qani?!

Gulijon o'zi chaqqon,  
 Qoqi gulini taqqan,  
 Bir kulishi bor uchun,  
 Oyijoniga yoqqan.

– Qoshingni qaro deydilar,  
 Qora qosh ukam, yor-yor,  
 Ko'rsat qoshingni men bir ko'ray,  
 Jonim ukam-ey, yor-yor.

– Qoshimni ko'rib nima qilasiz,  
 Siz, akajonim, yor-yor?  
 Qaldirg'ochning qanotini  
 Ko'rmabmidingiz, yor-yor?

– Ko'zingni shahlo deydilar,  
 Shahlo ko'z ukam, yor-yor.  
 Ko'rsat ko'zingni men bir ko'ray,  
 Jonim ukam-ey, yor-yor.

– Ko'zimni ko'rib nima qilasiz,  
 Siz akajonim, yor-yor?  
 Tog'da ohu ko'zlarini  
 Ko'rmabmidingiz, yor-yor?

– Yuzingni qizil deydilar,  
 Qizil yuz ukam-ey, yor-yor.  
 Ko'rsat yuzingni men bir ko'ray,  
 Jonim ukam-ey, yor-yor.

– Yuzimni ko'rib nima qilasiz,  
 Siz akajonim, yor-yor?  
 Bog'lardagi qizil gulni  
 Ko'rmabmidingiz, yor-yor?

## ERTAK JANRI HAQIDA

1.	Ertak janriga ta'rif...	Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega og'zaki hikoyalar ertak deyiladi	5
2.	"Devonu lug'otit-turk"da ertak qanday nomlangan?	Etuk	
3.	Ertak o'ziga xos qurilishiga ko'r'a boshqa janrlardan qanday farq qiladi?	Ertak kirish qismi, voqealar rivoji va tugallanmadan tashkil topadi	
4.	Ertakning qanday turlari mayjud?	1. Hayvonlar haqidagi ertaklar. 2. Sehrli ertaklar. 3. Hayotiy maishiy ertaklar. 4. Hajviy ertaklar	5
5.	Ertak aytuvchilarni qadimda qanday nomlashgan?	Ertakchi, matalchi	5
6.	Ertakning xarakterli xususiyati...	Fantaziyaga keng o'rin beriladi, mubolag'a (giperbola), o'xshatish kabi tasviriy vositalardan foydalaniadi	
7.	Barcha qiziqib tinglaydigan va o'qiydigan, asosiy mazmun majoziy tarzda tasvirlanadigan fantastik hikoyalar...	Hayvonlar haqidagi ertaklar	

**Quyidagi viloyatlarda ertakni yana qanday nomlashadi?**

8.	Samarqand, Surxondaryo, Farg'onada	Matal	5
9.	Buxoro atrofidagi ba'zi qishloqlarda	Ushuk	5
10.	Xorazmda	Varsaki	5
11.	Toshkentda	Cho'pchak	5
12.	Ertaklar epik turning boshqa janrlardan qanday farqlanadi?	Ertak kirish qismi, voqealar rivoji va tugallanmadan tashkil topadi	5

13.	Ertakning qaysi qismida "Sizga bog' bo'lsin, bizga hayot" kabi fikrlar beriladi?	Kirish qismida	5
14.	Ertaklarda asosiy o'rinni nima egallaydi?	Xayoliy uydirmalar	

**Ertaklarning boshlanma qismida quyidagi hayvon va parrandalarga qanday ta'rif beriladi?**

15.	Qirg'ovul	Qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, ko'k muzga mingan ekan, muruti singan ekan	5
16.	G'oz	Karnaychi	5
17.	O'rdak	Surnaychi	5
18.	Ola qarg'a	Azonchi	5
19.	Qora qarg'a	Qozonchi	5
20.	Chumchuq	Chaqimchi	5
21.	To'rg'ay	To'qimchi	5
22.	Bo'ri	Bakovul	5
23.	Tulki	Yasovul	5
24.	Hayvonlar haqidagi ertaklarda mazmun qanday ma'noga ega?	Majoziy, ya'ni ko'chma ma'noga	5

**Ertaklarda quyidagi hayvonlar qanday ramziy ma'noga ega?**

25.	Bo'ri	Qonxo'rlik, laqmalik	5
26.	Ayiq	Go'l va laqmalik	5
27.	Chumchuq	Chaqimchilik	5
28.	Tulki	Ayyorlik va munofiqlik	5

**Quyidagi asarlar ertakning qaysi turiga kiradi?**

29.	"Bo'ri bilan tulki", "Echkining o'ch olishi", "Ochko'z bo'ri", "Ayiqpolvon"	Hayvonlar haqidagi ertaklar	
30.	"Susambil", "Yalmog'iz", "Devbachcha", "Ur to'qmoq", "Ochil dasturxon", "Semurg"	Sehrli ertaklar	

31.	"Uch og'a ini botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Oygul bilan Baxtiyor", "Ziyod botir", "Tohir va Zuhra", "Ozodachehra", "Farhod va Shirin", "Malikayi Husnobod"	Hayotiy maishiy ertaklar	5
32.	"Mehrigiyo", "Mohistara"	Sehrli ertaklar	
33.	Qaysi ertakda kiyik oyog'i ostidan dur-u gavharlar sochiladi?	"Mohistara" ertagida	
34.	Qaysi ertakda tutatqi tutatilgani zahoti kenja o'g'il qarshisida anjomlangan ot paydo bo'ladi?	"Ota vasiyati" ertagida	

**Quyidagi voqealar va xususiyatlar ertaklarning qaysi turiga taalluqli?**

35.	O'zbek xalq ertaklarining salmoqli qismini tashkil etidi	Sehrli ertaklar	
36.	Kundalik hayotda ro'y beradigan voqealar asos qilib olinadi	Hayotiy-maishiy ertaklarda	
37.	Mo'jizalar, afsungarliklar, fantastik tasvirlar yetakchilik qiladi	Sehrli ertaklarda	
38.	Amaliy harakatlar, insondagi chegaralangan jismoniy kuch, ilm va hurnarga bo'lgan munosabat, shaxsning ma'naviy qiyofasi, ro'y bergen adolatsizlikning oxir natijada mag'lubiyatga uchrashi, oqil va dono shaxsning baxtga erishuvi, haqoratlanga qizning yorug' yuz bilan hurmatga ega bo'lishi	Hayotiy-maishiy ertaklarda	
39.	Mubolag'adan qayta-qayta foydalilanladi	Sehrli ertaklarda	
40.	Barcha qiziqib tinglaydigan va o'qiydigan fantastik hikoyalardan iborat ertaklar...	Hayvonlar haqidagi ertaklar	5

41.	Voqealar sehr-jodu, fantastik uydirma-lar asosiga qurilgan, asar qahramon-lari har narsa qo'lidan keladigan mo'jizakor kimsalar yoki jonlantirilgan narsa yoxud hayvonlardan iborat	Sehrli ertaklar	
42.	Voqealarning aksariyati hayotga yaqin, hayotdan olingen bo'ladi	Hayotiy-maishiy ertaklar	
43.	Kishida jiddiy fikr-mulohaza uyg'otadi, muayyan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'ladi	Hayotiy-maishiy ertaklar	
44.	O'zbek xalq og'zaki ijo-di tarixida ertaklarning badiiy asar darajasiga ko'tarilishi va bugungi kungacha saqlanib qolishda qaysi ertakchilar-ning xizmatlari katta?	1. Hamrobibi Umarali qizi. 2. Hasan Xudoyberdi o'g'li. 3. Haydar Baychi o'g'li. 4. Nurali Nurmat o'g'li. 5. Husanboy Rasul o'g'li	
45.	Ertaklar yaratilishiga ko'ra necha turli bo'ladi?	2 turli: 1. Xalq ertaklari. 2. Adabiy ertaklar (yozma ertaklar)	
46.	Shoir va yozuvchilar tomonidan yaratilgan ertaklar...	Adabiy ertaklar (yozma ertaklar)	

**Yozma ertakchilikni rivojlantirishga hissa qo'shgan quyidagi ijodkorlar qaysi millat farzandlari?**

47.	Sharl Perro (1628-1703)	Fransuz	
48.	Ernst Teodor Amadey Gofman (1776-1822)	Nemis	
49.	Yakob Grimm (1785-1863)	Nemis	
50.	Vilgelm-Karl Grimm (1786-1859)	Nemis	
51.	Vilgelm Gauf (1802-1877)	Nemis	
52.	Hans Kristian Andersen (1805-1875)	Daniyalik	
53.	Oskar Uayld (1854-1900)	Ingliz	

54.	A.S.Pushkin (1799-1837)	Rus	
55.	L.N.Tolstoy (1828-1910)	Rus	
56.	K.D.Ushinskiy (1824-1870)	Rus	
57.	Ijodining roppa-rosa o'n yilini faqat bolalar uchun hikmatli hikoyalari va ertaklar yaratishga bag'ishlagan rus ijodkorlari...		L.N.Tolstoy
58.	Ko'plab ibratli ertaklar yaratgan jadid ijodkorlar...	1. Mahmudxo'ja Behbudiy 2. Munavvarqori Abdurashidxonov. 3. Abdurauf Fitrat. 4. Abdulla Avloniy. 5. Hamza Hakimzoda Niyoziy. 6. Siddiqiy Ajziy	
59.	"Zangori gilam" asarining muallifi...	Sulton Jo'ra	
60.	Hamid Olimjon qalamiga mansub she'riy ertaklar...	"Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg"	

**Shukur Sa'dullaning quyidagi asarlari  
ertakning qaysi turlariga mansub?**

61.	"Ayyor chumchuq", "No'xat polvon", "Laqma it"	She'riy ertaklar	
62.	"Yoriltosh", "Afsona yaratgan qiz"	Ertak-pyesalar	
63.	"Kachal polvon"	Ertak-qissa	
64.	Ertakchilik sohasidagi an'analarni davom ettirgan ertaknavis ijodkorlar...	1. X.To'xtaboyev. 2. A.Obidjon. 3. T.Adashboyev. 4. O'.Imonberdiyev	

## XALQ DOSTONLARI VA ULARNING TURLARI

1.	Qaysi asrda yirik dostonchilik maktablari paydo bo'lgan?	XV – XVI asrlarda	8
2.	Dostonchilik taraqqiyotidagi juda rivojlangan davr...	XIX – XX asrlar	8
3.	XIX asrning oxiridan XX asrning ikkinchi yarmiga qadar o'zbek baxshilari tomonidan nechta doston kuylangan?	150 ga yaqin, variantlari bilan qo'shib hisoblaganda 400 tacha	9
4.	"Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar soni...	100 dan oshadi	9, 7
5.	"Algomish" dostonining qancha varianti yozib olingan?	40 dan ortiq	9
6.	Baxshilarimiz ijodiy bisotidagi dostonlar miqdori...	150 dan ortiq	8
7.	Qahramonlarning sarguzashtlari, o'zaro munosabatlari va kechinmalarini keng ko'lamda tasvirlovchi yirik hajmli she'riy asar...	Doston	K
8.	Favqulorra xususiyatga ega qahramonlarning boshidan o'tgan qaltis voqealar she'r va nasriy yo'lda aralash tasvirlangan yirik hajmli, muallifi noma'lum epik asarlar...	Xalq dostonlaridir	9
9.	Aniq muallif tomonidan she'riy yo'lda yozilib, biror personaj kechirgan hodisalar shoirning tuyg'ulari bilan uyg'unlikda tasvirlangan asar...	Yozma doston hisoblanadi	9
10.	Yozma dostonlar yana qanday nomlanadi?	Poema deb	9
11.	Xalq dostonlarining muhim belgisi...	She'r bilan nasrning aralash kelishi	9

12.	"Doston" so'zi qaysi tildan olin-gan, qanday ma'nolami ang-latadi?	Forscha so'z bo'lib, qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif ma'nolarini anglatadi	9
13.	Dostonlar yaratilishiga ko'ra necha turli bo'ladi?	2 turli: xalq dostonlari, yozma dostonlar	9
14.	Xalq dostonlarining qanday turlari mavjud?	5 turi mavjud: 1. Qahramonlik dostonlari. 2. Jangnoma dostonlar. 3. Romantik dostonlar. 4. Tarixiy dostonlar. 5. Kitobiy dostonlar	9

### **Quyidagi asarlar xalq dostonlarining qaysi turiga mansub?**

15.	"Alpomish"	Qahramonlik dostoni	9
16.	"Ravshan", "Kuntug'mish"	Ishqiy-romantik (sarguzasht) doston	9
17.	"Go'rog'li", "Ravshan", "Oshiq G'a-rib va Shohsanam" "Rustamxon"	Ishqiy-sarguzasht	10
18.	"Yakka Ahmad", "Yusuf bilan Ahmad", "Alibek va Bolibek", "Qirq ming"	Jangnoma doston	
19.	"Sayod va Hamro", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Vomiq va Uzro"	Kitobiy doston	
20.	"Oysuluv"	Tarixiy doston	

### **Quyidagi xususiyatlar dostonlarning qaysi turiga mansub?**

21.	Tarixiy hayotimizning keyingi asrlarida paydo bo'lgan	Kitobiy dostonlar	
22.	Xalqimiz baxshilari repertuaridagi dostonlarning salmoqli qismini tashkil qiladi	Ishqiy-romantik dostonlar	7

23.	Baxshilar tomonidan nisbatan kam ijo etilgan	Jangnoma dostonlar	
24.	Aniq muallif tomonidan she'riy yo'lda yozilib, biror personaj kechirgan hodisalar shoirning tuyg'ulari bilan uyg'unlikda tasvirlanadigan asar...	Yozma dostonlar	
25.	Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z", Navoiyning "Xamsa" asarlari qaysi janrga mansub?	Yozma dostonlar	
26.	Ishqiy-romantik dostonlarda voqeа tuguni qanday boshlanadi?	Oshiqning ma'shuqa haqida xabar topishidan	
27.	Dostonlarning she'r qismi barmoq vaznining necha bo'g'inlarida yoziladi?	7, 8, 11 bo'g'inlarida	7
28.	Dostonlardagi she'rlar asosan necha bo'g'inli bo'ladi, qanday vaznda yoziladi?	11 bo'g'in, barmoq vaznida	9

**Quyidagi holatlarda dostondagi she'rlar necha bo'g'inda yoziladi?**

29.	Qahramonlarning o'y-mulohazalari, nisbatan tinch ruhiy holat tasviri, o'zaro so'zlashuvlari	11 bo'g'inda	9
30.	Otlar chopishi, jang manzaralari, personajlarning tezkor harakatlari aks etgan o'rinalar	7-8 bo'g'inda	9
31.	Asarda tasvir etilayotgan voqeа yo harakat sur'ati tezlashgan holatlar	7-bo'g'inda	7
32.	Maydon talashayotgan otlar holati yoki urush va jangovarlik holatlari ko'rini...	8 bo'g'inda	7
33.	Xalq dostonlarining nasriy tasvirida ko'pincha qanday she'rly san'at qo'llaniladi?	Saj'	7

34.	Dostonlar asosan qaysi musiqa asbobi jo'rlda ijro etiladi?	Do'mbira	8
35.	Dostonchi baxshilar o'z san'atlarini tinglovchiga ma'qul qilish uchun qanday usullarni qo'llaganlar?	Musiqiy qochirimlar, so'z o'yinlari, dostonning eng qiziq joyida tanaf-fusli chekinishlar	8
36.	XX asrning 50-yillarida xalq dostonlariga, jumladan, "Alpomish"ga qanday ayblov qo'yildi?	Bu asarlar mehnatkash xalq manfaatini emas, balki yuqori tabaqalar manfaatini aks ettiradi, shuning uchun ularni ommalashtirish zararlidir, degan ayblor qo'yildi. (Lekin bir qator olimlar bu ayblolarning xato ekanligini, mazkur dostonlar xalq badiiy tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, boy tilini aks ettiruvchi bebafo xazina ekanligini isbotlab berishdi	8
37.	"Alpomish" dostonining 1000 yilligi jahon miqyosida qachon nishonlangan?	2000-yilda	8, 9
38.	"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi" unvoni qachon ta'sis etilgan?	2000-yil 14-martda	8
39.	Baxshilarning iste'dodiga qaysi dostonni ijro etishiga qarab baho berishgan?	"Kuntug'mish" dostonini	8
40.	8-sinf darsligida berilgan "Kuntug'mish" dostoni qaysi baxshi tomonidan yozib olingan nusxa hisoblanadi?	Ergash Jumanbulbul o'g'lidan	8
41.	"Ravshan" dostoni ilk marta qachon kim tomonidan yozib olingan?	Doston folklorchi olim Hodi Zarif tomonidan 1928-yilda Ergash Jumanbulbul o'g'li og'zidan yozib olingan va 1941-yilda nashr etilgan	7

42.	“Ravshan” dostonining bizgacha yetib kelishida qaysi baxshilarning alohida xizmatlari bor?	Ergash shoir “Ravshan”ni otasi Jumanbulbuldan, u esa ustozи Kichik Bo'rondan o'rgangan. Dostonning sayqal topib, badiiy go'zal asar shaklini olishida Jumanbulbul va Ergash baxshilarning alohida xizmatlari bor	7
43.	“Alpomish” dostonining nechta varianti mavjud?	40 dan ortiq	9
44.	“Alpomish” dostonining eng mukammal varianti qaysi baxshidan yozib olingan?	Fozil Yo'Idosh o'g'lidan	9
45.	Fozil Yo'Idosh o'g'li qachon qayerda tavallud topgan?	1872-yilda hozirgi Jizzax viloyatining Baxmal tumani-dagi Loyqa qish-log'ida tug'ildi	9
46.	40 dan ortiq xalq dostonlarini to'la yod bilgan, Fozil Yo'Idosh o'g'lining ustozи bo'lgan taniqli baxshi...	Yo'Idosh shoir	9
47.	Qaysi dostonda o'zbek millatiga xos eng yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, ayni vaqtida, ayrim millatdoshlarimizdagи cheklanganlik va ojizliklar buyuk bir mahorat bilan tasvirlangan?	“Alpo-mish”da	9
48.	Xalq dostonlarining ko'pchiligiga xos xususiyat...	Ularda ishq-muhabbat mavzusining ustunligidir	8
49.	“Muhabbatsiz kishi odam emasdur, Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et” misralari muallifi...	Nodira	8
50.	Xalq dostonlarini do'mbira yordamida ijro etuvchi, kuylovchi san'atkor o'zbeklarda kim deb ataladi?	“Shoir” yoki “baxshi”	7
51.	Xorazmda dostonlar qaysi musiqa asbobi yordamida ijro etiladi?	Tor jo'rligida	7

52.	Xorazmda doston aytuvchilar qanday nomlanadi?		"Xalfa" deb	7
53.	Qaysi dostonda pok va haq islomiy e'tiqod yo'lida sobit tura oladigan iymonli kishilar madh etiladi?		"Ravshan" dostonida	
54.	Xalq dostonlarida asardan asarga ko'chib yuradigan badiiy qolip holiga kelib qolgan she'riy qatorlar...		Uslubiy formulalar, kleshelar yoki epik qoliplar	
55.	"Dam shu damdir, o'zga damni dam dema, Boshing eson, davlatingni kam dema", "Kokillarim eshilgandir tol-tol, Har toliga bersa yetmas dunyo mol", "Yana bahor bo'lsa, ochilar gullar, Gulni ko'rsa, mast bo'b sayrar bulbollar", "Qiyg'ir degan qush o'tirar qiyada", "Ot chopsa gumburlar tog'ning darasi, Botirni ingratar nayza yarasi", "Xazon bo'lmay bog'da gullar so'ldimi, So'lgan gulga bulbul kelib qo'ndimi?" Dostonlardagi ushu she'riy misralar qanday nomlanadi?		Uslubiy formular, kleshelar yoki epik qoliplar	
56.	"Odisseya va Illiada" qaysi xalq dostoni?		Yunonlarning	
57.	"Manas" qaysi xalq dostoni?		Qirg'iz xalqining	
58.	Dostonlarning hajmi...	Dostonlar hajm jihatidan chegaralanmaydi		
59.	Doston kuylash uchun baxshilarda qanday xislatlar mujassam bo'lmog'i lozim?	Kuchli xotira, asarni ijro etayotgan paytda vujudga kelgan vaziyatga to'g'ri baho bera olish, oddiy voqealarni o'ta qiziq tarzda hikoya qila bilish mahorati		

**Quyidagi dostonchilik maktablarida dostonlar qanday ovozda kuylanadi?**

60.	Samarqandda	ichki bo'g'iz ovozda	
61.	Xorazmda	Ochiq qo'shiq aytish yo'li bilan	
62.	Namanganda	Ochiq, ammo musiqa asbobiga mos holda kuylanadi	

**Quyidagi dostonchilik maktablarida dostonlarning ifoda xususiyati va hajmi qanday bo'ladi?**

63.	Samarqand dostonchiligidagi	Hajm jihatidan katta dostonlar nasrdan va epik she'rlardan iborat bo'ladi	
64.	Xorazm dostonchiligidagi	Nasriy parchalardan va lirik she'rlardan iborat bo'ladi. Bu dostonlarning hajmi katta bo'lmaydi. Dostonni bir necha musiqa asboblarida jo'rovoz bo'lib ijro etishadi	
65.	Namanganda	Dostonlarning hajmi kichik, nasrdan va epik parchalardan tashkil topadi	

66.	<p>"Ravshan" dostonidan olingan quyidagi parcha qaysi shahar dostonchiligi an'anasiga mansub?</p> <p>"Oqqiz shunday qiz edi: oti Oqqiz, Zulxumorga naq qiz. Oqqiz o'zi oq qiz, o'zi to'lgan sog' qiz, o'rtal bo'yli chog' qiz, o'ynagani bog' qiz, uyquchi emas, sog' qiz, eri yo'q o'zi - toq qiz, ko'p kalondimog' qiz, yaxshi – tekis bo'z bolani ko'rsa, esi yo'q – ahmoq qiz, qora ko'z bodomqovoq qiz, sinli-siyoq qiz, o'zi semiz – turishi yog' qiz; o'yinga qulayroq qiz, to'g'ri ishga bo'layroq qiz, o'zi anqov olayroq qiz, tanasi to'sh qo'ygan keng qiz, sag'risi do'ng qiz, urushqoq emas – jo'n qiz, a'zosi bari teng qiz..."</p>	Samar-	qand doston- chiligi an'ana- siga mansub	
67.	Fozil Yo'Idosh o'g'li Ergash Jumanbulbul o'g'lining qaysi dostonni yaxshi aytishini tan olgan?	Muhabbat mavzu-	sidagi dostonla- rini, xususan, "Ravshan"ni	
68.	Ergash shoir Fozil Yo'Idosh o'g'li ijrosidagi qaysi dostonning kuylanishiga qoyil qolgan?	"Alpomish"	dostonini	
69.	Fozil Yo'Idosh o'g'li mansub bo'lgan Bulung'ur dostonchilik mакtabida ko'proq qanday dostonlar badiiy jihatdan mukammal tarzda kuylangan?		Qahra- monlik doston- lari	
70.	"Alpomish" dostonining eng yaxshi varianti...	Fozil Yo'Idosh o'g'li ijrosidagi variant		
71.	Qaysi xon har yili baxshi va xonandalarning ko'riginini o'tkazib, shaxsan o'zi ularga doston aytish huquqini bergen, ijro darajasi zaif baxshini omma o'rtasida doston aytish huquqidan mahrum qilgan?	Xorazmda 40 yildan ortiq xonlik qilgan Muhammad Rahimxon (Feruz)		

## ISHQIY-QAHRAMONLIK DOSTONLARI

1.	Dostonlar adabiyotning qaysi turiga mansub?	Epik turiga	8
2.	Xalq dostonlarining ko'pchiligidagi xos xususiyat...	Ularda ishq-muhabbat mavzusining ustunligidir	8
3.	Ish-muhabbat va qahramonlik tasvirlangan dostonlar...	Ishqiy-qahramonlik dostonlari hisoblanadi	8
4.	Ishqiy-qahramonlik dostonlariga misollar keltiring	"Kuntug'mish", "Ravshan", "Malika Ayyor"...	
5.	"Muhabbatsiz kishi odam emasdur, Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et" misralari qaysi ijodkor qalamiga mansub?	Nodira	8

## MAQOLLAR

1.	"Maqol va matallar bejizga paydo bo'limgan, ular ham ma'lum bir haqiqatning ifodasi". Ushbu fikrlar muallifi...		Islom Abdug'aniyevich Karimov	5
2.	"Maqol" so'zi qanday ma'noni bildiradi?	Arabcha so'z bo'lib, "so'z" degan ma'noni bildiradi		5
3.	Xalqning dono, purhikmat ifodalari, yirik madaniyat arboblari, olimlar, davlat arboblarining ibratomuz gaplari, xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono fikrlarini ixcham shaklda ifodalovchi asarlar...		Maqol	5
4.	Maqollar xalq og'zaki ijodining qaysi turiga mansub?		Maxsus turiga	

5.	Ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko'rgan-kechirganlari, tajribalari asosida yuzaga kelgan xulosa so'zlari...	Maqol	5
6.	Maqolga xos belgi-xususiyatlar...	Fikr aniq, ifoda lo'nda, xulosa tugal	5
7.	Maqolning ahamiyati...	Tarbiya vositasi, shuningdek, nutqning mazmundorligini, ta'sirchanligini, keskirligini oshiradi	5
8.	Maqol yana qanday nomlanadi?	"Otalar so'zi" deb	5
9.	Ko'plab maqollarda qanday qofiya mavjud?	Ichki qofiya	5
10.	Maqollar qanday shaklda yoziladi?	She'riy va nasriy	5
11.	Topishmoq bilan maqolning farqi...	Topishmoqda xulosa, hukm yo'q, unda sirlilik mavjud. Maqolda esa xulosa bor	5
12.	Xalq maqollarining qanday ma'nolari bor?	O'z va ko'chma ma'nolari	5
13.	"Qazisan, qartasan – axir aslingga tortasan", "Olmaning tagiga olma tushadi", "Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi". Ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan ushbu maqollar o'z ma'nosida qo'llanganmi yoki ko'chma ma'noda?	Ko'chma ma'noda	5
14.	"Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda" maqoli qanday ma'noda qo'llangan?	O'z ma'nosida	5
15.	Qaysi asarda Yapaloqqush va Boyo'g'lining quda-andachilik mojarolari tasvirlangan?	"Zarbulmasal"da	5
16.	Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida nechta maqol keltirilgan?	400 dan ortiq	5

### Quyidagi eskirgan so‘zlarni izohlang

17.	qo‘l...	al	5
18.	dunyo	ochun	5
19.	kitob	bitik	5

### TOPISHMOQLAR

1.	Narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she’riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlar...		Topishmoq	5
2.	Topishmoqlar yana qanday nomlar bilan ifodalanadi?		Topmacha, jumboq, matal	5
3.	Mumtoz adabiyotda topishmoq qanday nomlanadi?		Chiston	5
4.	Chiston so‘zi qaysi tildan olingan?	Fors-tojik tilidan olingan bo‘lib, topishmoq, jumboq degan ma’noni anglatadi		5
5.	Topishmoq qanday yoshdagи odamlarga mo‘ljallangan?		Topishmoq hammabop ommaviy janr	5
6.	Topishmoqlar qanday vositalar yordamida ifodalanadi?	O‘xshatish, taqqoslash va savollar yordamida ifodalanadi		5
7.	Topishmoqning qanday tarbiyaviy ahamiyati bor?	Topishmoq aqlni chiniqtiradi, kishining tasavvuri va tafakkurini o‘siradi, bolalarni topag‘on bo‘lishga, hozirjavoblikka, kuzatuvchanlikka, hayotni mukammalroq bilishga,		5

		sinchkovlikka o'rgatadi, shuningdek, mantiqiy fikrlashga undaydigan tarbiya vositasidir	
8.	Topishmoqlar qanday shaklda bo'ladi?	She'riy va nasriy	5
9.	Topishmoqlarda qanday badiiy tasvir vositalari va usullaridan keng foydalaniлади?	O'xshatish, sifatlash, mubolag'a, litota (kichraytirish), metafora, jonlantirish	
10.	Bir predmetli va bir necha predmetli topishmoqlar haqida ma'lumot bering	Topishmoq tuzilishiga ko'ra bir yoki bir necha predmetli bo'lishi mumkin. Topishmoqning javobi bitta bo'lsa, bir predmetli, topishmoqning javobi ikki yoki undan ortiq bo'lsa, bir necha predmetli topishmoqlarga bo'linadi	5

**Quyidagi topishmoqlarning tuzilishiga  
ko'ra turini aniqlang**

11.	Kunduz kuni o'chirib, Tunda yoqa olmaysan. Yoniga borib bo'lmas, Usiz yashay olmaysan	Bir predmetli topishmoq. Javobi: Quyosh	5
12.	Bir daraxt, o'n ikki shox, har shoxda o'ttiz yaproq – bir yog'i qora, bir yog'i oq	Bir necha predmetli topishmoq. Javobi: Bir yil, o'n ikki oy, 30 kun, 30 kecha va kunduz	5
13.	Topishmoqlar qaysi janrlar ichida uchraydi?	Nasriy janrlar, jumladan, doston va ertaklar ichida uchraydi	5
14.	Topishmoq qat-nashgan ertaklar necha xil bo'ladi?	2 xil: topishmoqli ertak va ertak-topishmoq	5

15.	Topishmoq ertak ichida kelsa qanday nomlanadi?	Topishmoqli ertak	5
16.	Asar voqealari topishmoq asosida qurilgan bo'lsa qanday nomlanadi?	Ertak-topishmoq	5
17.	Topishmoqlar yaratilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?	An'anaviy va zamonaviy	5
18.	Chistonlar qanday janrlarda yoziladi?	Fard, bayt, qit'a, ruboiy, g'azal	5
19.	Chistonnинг go'zal namunalarini qaysi shoirlar ijodida uchraydi?	Alisher Navoiy, Uvaysiy kabi shoirlar ijodida	5
20.	Topishmoqning qaysi turi zamirida xalqimizning tarixi, qadriyatları aks etadi?	An'anaviy topishmoqlarda	5
21.	Chiston qanday shaklda paydo bo'lган?	Savol-javob shaklida	5
22.	Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining qaysi turiga mansub?	Maxsus turga	
23.	Maqol va topishmoqning farqli jihatiga...	Maqolda xulosa-hukm mavjud. Topishmoqda xulosa-hukm yo'q. Unda sirlilik mavjud. Maqol ibratli fikrni anglatadi, insonni odobaxloqqa o'rgatadi. Topishmoq aqlni chiniqtiradi, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, ayni paytda ko'ngilochar o'yin	5
24.	Maqol va topishmoq o'xshash jihatiga...	Shakliy tomondan o'xshash: har ikkala janr she'riy va nasriy shaklda bo'lishi mumkin	5
25.	Quyidagi misralarning janrini aniqlang. Bog'ni boqsang bog' bo'ladi, Botmon dahsar yog' bo'ladi. Boqimsiz bog' tog' bo'ladi, Yurak-bag'ring dog' bo'ladi	Maqol	5

## “UCH OG‘A-INI BOTIRLAR” ERTAGI

1.	“Uch og‘a-ini botirlar” ertak jan-rining qaysi turiga mansub?	Hayotiy-maishiy	5
2.	Ertakda ota o‘g‘illarini tarbiyalashda uch narsaga amal qiladi. Bular...	1. Sog‘lom qilib tarbiyalaydi, o‘g‘illari baquvvat bo‘lib o‘sadi. 2. Qurol-yarog‘ bilan tanishtiradi, qurol-yarog‘ ishlatalishga usta bo‘ladi. 3. Qo‘rqitmay o‘stiradi, o‘g‘illari botir, dovyurak bo‘lib voyaga yetishadi	5

### Otaning o‘g‘illariga bergan ibratli o‘gitlarini davom ettiring

3.	To‘g‘ri bo‘ling ...	Bexavotir bo‘lasiz	5
4.	Maqtanchoq bo‘lmang ...	Xijolat tortmaysiz	5
5.	Dangasalik qilmang ...	Baxtsiz bo‘lmaysiz	5
6.	Uch og‘a-ini botirlar nima uchun barcha xavf-xatarlardan omon chiqdilar?	Otalarining o‘gitlariga amal qilganliklari uchun	5
7.	Uch og‘a-ini botirlar qanday qahramon?	Ilmlı, barkamol	5
8.	To‘ng‘ich botir necha yoshda edi?	21	5
9.	O‘rtancha botirning yoshi...	18	5
10.	Kenja botirning yoshi...	16	5
11.	Ota o‘g‘illarini nima sababdan o‘qitadi?	Baxtsiz bo‘lib qolmasligi uchun	5
12.	Ota o‘g‘illariga qanday toylnarni tayyorlab qo‘yadi?	Qora toy, saman toy, ko‘k toylnarni	5
13.	Xurjunlarini necha haftalik oziq-ovqat bilan to‘ldiradi?	Bir haftalik	5

### Otaning qaysi o‘g‘illari quyidagi qahramonliklarni ko‘rsatishadi?

14.	Ajdarni yengadi	O‘rtancha botir	5
15.	Sherni o‘ldiradi	To‘ng‘ich botir	5

16.	Podshoh xazinasiga tushmoqchi bo'lgan o'g'rilarни qirib tashlaydi	Kenja botir	5
17.	Uch qo'g'a-ini botirlar suhabatini kimlar yashirincha eshitdi?	Podshoh va vazir	5

**Quyidagi parchalar qaysi qahramonlar nutqidan olingan?**

18.	"Mana shu shinnidan ham odam isi keladi"	O'rtancha botir	
19.	"Shu gc'sht qo'zi go'shti ekan, biroq shu qo'zi it emib katta bo'lgan" Pishirilgan go'sht qo'zi go'shti ekanligi, biroq shu qo'zi it emib katta bo'lganini	To'ng'ich botir	
20.	"Shu nonni taxlagan kishining otasi novvoy ekan"	Kenja botir	5
21.	"Saralab yemoq faqirning ishi"	O'rtancha botir	5
22.	"Podshohlik – qonxo'rlik demakdir"	Kenja botir	5
23.	"Podshoh degani it go'shtidan ham qaytmaydi"	O'rtancha botir	5
24.	Podshoh bilan vazir qanday sirdan ogoh bo'lischdi?	Botirlar uch kunlik yo'lda boshidan o'tkazgan voqealarni aytishdi. sher va ajdardan olingan tasmani, kenja botir olgan narsalarini o'rtaga qo'yishdi	5
25.	So'yilgan qo'zi nima sababdan it emgan edi?	Qishning o'tasida bir qo'y tug'ib, o'zi o'lib qoladi. Cho'pen qo'zichoqqa rahmi kelib, itga emizadi	5
26.	Shinnidan nega odam qonining hidi keladi?	Uzumzorga har kecha bir odam o'g'irlikka tushgani uchun bog'bon shashvar to'qmoq bilan o'g'rini urib, o'ldirib, o'sha tokning tagiga ko'mgani uchun	5
27.	Bog'bon uzumzorga tushgan o'g'rini nima bilan urib o'ldirgan?	Shashvar to'qmoq bilan	5

28.	Nonni kim taxlagan edi?	Podshoh, uning otasi novvoy bo'lgan	5
29.	Uch og'a-ini botirlar kimga uylanishdi?	Podshohning qizlariga	5
30.	Podshoh kenja botirni nega zindonga soldi?	Podshoh salqin joyda uxlayotganida, ariqdan ilon chiqib, unga zahar solmoqchi bo'lib turganida, to'satdan kelib qolgan kenja botir qilichi bilan ilonni chopib, ikki bo'lib tashlaydi. Qilichini qiniga solib turganida podshoh uyg'onib qoladi va meni o'lirmoqchi, taxtimni egallamoqchi deb o'ylaydi va vazirining maslahatiga ko'ra zindonga soladi	5

### “Podshoh va to'ti haqidagi” hikoya

31.	“Podshoh va to'ti haqidagi” hikoyani shohga kim aytib beradi	Kenja botir	5
32.	Podshohning yaxshi ko'rgan qushi...	To'ti	5
33.	To'ti podshohdan o'z yurtiga borib kelish uchun necha kunga ruxsat so'raydi?	20 kunga	5
34.	To'tining yurti...	Hindiston	5
35.	Hindistonga borib kelishga necha kun ketadi?	Borish 6 kun, kelish 6 kun	5
36.	“Va'da – ulug', muqaddas narsa, uni buzish yaramaydi. Va'dani buzmoq – og'ir gunoh”. Parcha qaysi qahramon nutqidan olingan?	To'ti (podshohga aytadi)	5
37.	Podshoh necha kunga ruxsat beradi?	15 kunga	5
38.	Podshoh to'tini necha yil qafasda saqlaydi?	Uch yil	5

**Ushbu parchalar qaysi qahramonlar  
nutqidan olingan?**

39.	“Podshoh deganning marhamatidan qahri ortiq, podshoh bilan sherga yaqin bo’lmoq hikmatdan emas”		Bir to’ti	5
40.	“Bizning joyda b bir daraxtning mevasi bor, har kim bir donasini yesa, qari chol bo’lsa, yigitlik holiga, kampir bo’lsa, qiz kabi yoshlik holiga qaytadi”		Ona to’ti	5
41.	To’ti podshohga nima sababdan uch dona yoshartiradigan meva olib keladi?	Ozod qilinishini so’rash uchun		5
42.	Podshoh ozod qilmoqqa va’da bergandan so’ng, mevalarni nima qiladi?	Birini xotiniga beradi, qolganini vazirga ko’rsatish uchun piyolaga solib qo'yadi		5
43.	Zindondagi ikki nafar odam nima sababdan o’ladi?	Yoshartiradigan mevani yegandan so’ng, chunki mevalarni vazir zaharlab qo’yan edi		5
44.	To’tining holi nima bo’ladi?	Bechora to’tini kallasini tanasidan uzib tashlabdilar		5
45.	Podshoh g’azab bilan o’ldirmoqchi bo’lgan cholning nima sababdan oqargan sochlari to’kilib, yangi soch o’sadi, tishlari butun bo’ladi, ko’zlarining nuri ortib, yigirma yasharli yigit holiga kelib qoladi?	Podshoh to’ti olib kelgan uchinchi mevani shu cholga yediradi		5
46.	Vazirning taqdiri...	Podshoh xiyonatkor vazirni ham o’ldirib yuboradi		5
47.	“Podshoh va to’ti haqidagi” hikoyadan qanday xulosa chiqadi?	Podshohga yaqin bo’lgan odamlar doimo xavf-xatarda yashaydi		5

48.	Kenja botir hikoyasini tugatib, podshohga nimani ko'rsatibdi?		Ariq bo'yida ikki bo'linib yotgan ilor tanasini (voqeani ham aytib beribdi)	5
49.	Uch og'a-ini botirlarning keyingi taqdiri	Podshohnning qizlarini, ya'ni o'z xotinlarini olib otalarining oldiga ketishadi		5
50.	Botir yigitlar o'z xotinlari bilan otalarining oldiga necha yil deganda borishdi?		Ikki yil deganda olti kishi bo'lib borishdi	5
51.	Qaysi ertakda ikkita xiyonatkor vazir obrazni berilgan?		"Uch og'a-ini botirlar" ertagida	5
52.	Qaysi asarda "Qizlar yo'qotgan tillalariga gavhar qo'shib oldilar" degan jumla bor?		"Uch og'a-ini botirlar" ertagida	5

### "SUSAMBIL" ERTAGI

1.	Bir boyning qanday hayvonlari bor ekan?	Eshagi va bir ho'kizi	5
2.	Boyning kasbi...	Uning yeri ko'p ekan, qarol-qo'shchilariga ekin ektirib, kun o'tkazar ekan	5
3.	"Susambil" ertagida qaysi hayvon suv o'r-niga sharbat, o't o'niga qora mayiz yeydi?	Eshak	5
4.	Ho'kizning har kungi nasibasi...	Ertadan kechgacha qo'shga qo'shilib charchab kelgan qorni och ho'kizga bir bog' quruq poyani tashlab qo'yishar ekan	5
5.	Xo'jayin yaxshi ko'rgan eshagini nima uchun qo'shga qo'shadi?	Ovqatidan ho'kizga bergani uchun	5

6.	Endi eshak qanday ishlarni bajardi?	Xo'jayini eshakni kuzgacha qo'shga qo'shdi. Kuz bo'lganida esa unga yuk ortib, uzoq-uzoq yerlarga boradigan bo'libdi	5
7.	Xo'jayin eshagini nega uzun yo'g'on kaltقا bilan ayar...asdan urdi?	Yomg'irli kunda bozordan sotib olgan bir qop tuzni yulkadi, o'zi ham eshakning ustiga chiqib oldi. Bechora eshak yomg'irda ivib ketayotgan edi, oyog'i toyib, ko'priknинг teshigiga kirib qoldi. Ustidan xo'jayin chalqanchasiga ag'anab ketdi. Chayonday zahri kelib, bir so'yil (tayoq)ni olib eshakni rosa savaladi	5
8.	Yo'lovchilar yordamida oyoqqa tur-gan eshak, uyg'a borgach, qay ahvolda qolib ketdi?	Xo'jayin issiq uyg'a kirib, o'choqqa qo'llarini toblab, yog'li palovni yeb, maza qilibdi, eshakni esa ochiq havoga bog'lab qo'yishibdi, oldiga bir bog' quruq poyani tashlashibdi	5
9.	Eshak Susambil degan mamlakat haqida kimdan eshitgan edi?	Onasidan	5
10.	Susambil qanday yurt?	Adolat qaror topgan va hamma baxtli yashaydigan afsonaviy yurt. O'tning bo'lig'i, suvning tinig'i mo'l, azob-uqubat ham yo'q	5
11.	Susambil tomon yo'l olgan eshakka kimlar hamroh bo'lishdi?	Xo'roz, ho'kiz, kalamushlar, arilar	
12.	Xo'roz nega uyidan qochdi?	Bir odamning bir kam 40 ta tovug'i, bitta xo'rozi bor ekan. Xasis odam uch kunda bir marta ham don sochib qo'ymas ekan. Qo'shnining uyida yerga to'kilgan to'rt-beshta oqshoqlarni yeyayotgan xo'rozni otashkurak bilan urishibdi. U bir necha marotaba yerga dumalab ketibdi va xafa bo'lib, uyidan qochibdi	5

13.	Ho'kiz nega uyidan qochdi?	Xo'jayin ho'kizni ho'kiz urishtirish musobaqasida urishtirar ekan. Musobaqaga olib bormoqchi bo'lgan xo'jayin ho'kizning shoxini yog'lab qo'yayin deb og'ilxonaga kiribdi. Bu paytda ho'kiz tush ko'rib yotar edi. Tushida bir raqibni suzaman deb, shoxini yog'layotgan xo'jayinin suzib yuboribdi. Xo'jayin hushidan ketibdi. Hushiga kelib ho'kizni chunonam uribdiki, qavarmagan joyi qolmabdi va boshvoqni uzib qochib ketibdi	5
14.	Och qolgan arilar Susambilga ketayot- ganlarga yo'liqib, chaqqani kirishibdi. Shunda: "Ey ukalar, bizning tanamizda shira qolgani yo'q, agar ovqat kerak bo'lsa, biz bilan yuraveringlar", – degan qahramon...	Eshak	5
15.	"Juda ham keng, bepoyon bir joy ekan. Havosi juda toza, narigi yoqda ulkan tog' bo'lib, uning shabadasi doim g'irillab kelib turar ekan. Yerda ko'm-ko'k maysa- lar, bedalar yashnab yotibdi. Bir yoqda bug'doy, arpa; bir yoqda qovun-tarvuz- lar, bir taraf keta-ketguncha bog': unda uzum, anjir, o'rik, shaftoli va turli-tuman mevalar g'arq pishgan. Ariqlarda zilol suv sharqiraydi. Borganlarning bag'rige shamol tegibdi". Parchada qaysi yurt ta'riflangan?	Susambil	5
16.	Ho'kiz hujum qilmoqchi bo'lib uzoqdan chopib kelayotgan ikki bo'rini ko'rib qolibdi. Hayvonlar maslahatlashishibdi. Qaysi birlarining gapi ho'kizga juda yoqib tushibdi?	Arilarning	5

### Bo'rilar quyidagi hayvonlarni qanday ta'riflashdi?

17.	Ho'kizni	Munkarnakir deb	5
18.	Kalamushlarni	Go'rkov deb	5
19.	Arilarni	Azroil deb	5
20.	Xo'rozni	So'fi deb	5
21.	Eshakni	Eshon deb	5
22.	Bo'rilar podshohi Susambilni tashlab qayerga qochib ketdi?	Yetti tog'ning narigi tomoniga	5
23.	"Susambil" ertagidagi qahramonlar bo'rilar galasidan nima sababdan omon qoldilar?	O'zaro ahilliklari sababli	5
24.	"Susambil" ertagidagi qahramonlari qanday qilib baxtli hayotga erishdilar?	Sabr-toqatli bo'lganliklari va mashaqqatlaraga chidashgani uchun	5
25.	Xalqimizning adolat va farovonlik hukm-suradigan zamonlar haqidagi orzulari aks etgan asar...	"Susambil" ertagi	

### “ALPOMISH”

1.	“Alpomish” – o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimizning avlodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir". Ushu fikrlar kimning nutqidan olingen?	I.A.Karimovning “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali mafrosimda so'zlagan nutqidan olingen	
2.	“Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligi mamlakatimizda qachon nishonlandi?	1999-yilda	9

3.	"Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligi jahon miqyosida qachon nishonlandi?	2000-yil	
4.	Alpomish dostoni qachon yaratilgan?	X-XI asr-larda	
5.	"Alpomish" dostoni qaysi yildan beri folklorshunos olimlar tomonidan xalq baxshilaridan yozib olib kelinadi?	1922-yildan	
6.	"Alpomish" dostonining yozib olingan variantlari soni qancha?	40 dan ortiq	9
7.	Dostonning eng mukammal varianti qaysi, u kim tomonidan yozib olingan?	Fozil Yo'Idosh o'g'li ijrosidagi variant, uni 1927-28-yillarda Mahmud Zarifov Hodi Zaripov rahbarligida yozib olgan	
8.	"Alpomish" dostoni tuzilishiga ko'ra necha qismdan iborat?	Yirik hajmli ikki qismdan iborat	
9.	"Alpomish" dostoni qanday boshlanadi?	Qo'ng'irot urug'i boshliqlari, Alpinbiyning o'g'llari aka-uka Boybo'ri va Boysarilarning farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi	9
10.	Alpomishning vatani...	Boysun	9
11.	Boysun xalqining eli...	Qo'ng'irot	9
12.	Alpomishning ajdodlari...	Dobonbiyning o'g'li – Alpinbiy, Alpinbiyning o'g'llari – Boybo'ri va Boysari, Boybo'rining o'g'li – Hakimbek	9
13.	Alpinbiy o'g'llarining qaysi biri boy, qaysi biri shoy?	Boysari – boy, Boybo'ri – shoy (shoh)	9
14.	Qo'ng'irot eli necha urug'dan iborat?	16 urug'	9
15.	16 urug' Qo'ng'irot xalqi qaysi kasb bilan shug'ullanadi?	Chorvadorlik	9

16.	16 urug' Qo'n-g'irot elida bir chupronto'y bo'ldi. To'ydag'i kattalar Bo'y-bo'ri va Boysarini qanday kutib olishdi?	Biylarning ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi. Osh tortdi – suzgan tovoqni choshlamadi (to'Idirmadi), osh tortganda oshning ketini-betini tordi, ya'ni oshning beti pishmagan, keti kuygan bo'iadi	9
17.	"Ey Boybo'ri bilan Boysaril Bu to'y ob o'g'illining o'g'lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O'zing o'lsang, molingga har merosxo'r chiqadi, og'ziga odam kirit ketadi", – degan qahramon...	Bir chapaniyob boyvachcha	
18.	To'yda nima uchun Boybo'ri va Boysarini behurmat qilishdi?	Farzandsizligi uchun	9
19.	To yda Boybo'ri va Boysari necha tillani chupronga tashlab, turib ketishdi?	80 tillani	
20.	"Tortib olib bo'lmasa, sotib olib bo'lmasa, Xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!" Ushbu fikrlar qaysi qahramon nuqtidan olingan?	Boysari	
21.	Qariganda bizning molimiz besohibga chiqdi. Endi bizlar bir farzand taraddi qilmaymizmi?" – degan qahramon...	Boybo'ri	
22.	Boybo'ri va Boysari kimning ravzasida 40 kun farzand tilab yotishdi?	Shohimardon pirning	
23.	Shohimardon pirning oldiga borish taklifi qaysi biydan chiqdi?	Bo'ybo'ribiydan	
24.	"Alpornish" dostonida "Xudoning yaratgan sheri" deya ta'riflangan obraz?	Shohimardon pir	9
25.	Shohimardon pirning ravzasida davlat talablar – davlat, farzand talablar – farzand tilab borishar ekan, oxirat talab insonlar nima tilashar ekan?	3 kunlik yo'l ravzasi necha kunlik yo'l?	9
26.	Shohimardon pirning ravzasida davlat talablar – davlat, farzand talablar – farzand tilab borishar ekan, oxirat talab insonlar nima tilashar ekan?	Imon	9

27.	Boybo'ri va Boysari Shohimardon pirning ravzasiga olib borgan nazrniyozni kimlarga berdi?	Shayxlar-ga	9
28.	Boybo'ri va Boysari Shohimardon pirga nega: "Bizga pirligingiz yolg'on, xudoga sherligingiz yolg'on", – deb aytishadi?	Shohimardon pir: "Xudoning yaratgan she'ri men bo'lsmal, bir kam qirq kundan beri bir oyoq'im bilan turib, sizlar uchun oraga tushib, Xudodan farzand tilayman. Yaratgan farzand bermayman dedi", – degani uchun	9
29.	Boybo'ri va Boysari farzandli bo'lish xushxabarini qachon eshitishdi?	Shohimardon pirning ravzasiga borishgandan roppa-rosa 40 kun o'tganidan so'ng	9
30.	"Bundan borsang, farzandlarni ko'rsang, xaloyiqni yig'sang, to'y-tomoshalar bersang, to'yda qalandar bo'lib borib, bolalaringning otini o'zim qo'yib kelaman", – deb va'da bergen "Alpomish" dostonidagi qalandarsifat kishi aslida kim edi?	Shohimardon pir	9
31.	Boybo'ri va Boysari farzandlari tug'ilishidan oldin qayerga ketishdi?	Ovga	9
32.	"Tulkini inlatgan toziday bo'lib" iborasi asarning qaysi o'rnida berilgan?	Chaqaloqlar tug'ilayotgan paytda	9
33.	Farzandlari tug'ilganidan so'ng Bo'ysari va Boybo'ri 40 kecha-yu 40 kunduzlik to'yga kimlarni taklif etdi?	O'n olti urug' Qo'ng'irot elini	9
34.	Tarzi gul yuzli, shirin so'zli bir siyosatli kishi ...	Shohimardon pir	9

35.	Shohimardon pir Boybo'ri va Boysarining uyiga qachon qanday qiyofada bordi?	To'y tarqaydigan kuni qalandar qiyofasida	9
36.	Shohimardon pir Boybo'ri va Boysarining farzandlariga qanday ism qo'ydi?	Boybo'rining o'g'lini otini Hakimbek, qizining ismini Qaldirg'och, Boysari qizining otini Oybarchin	9
37.	Shohimardon pir farzandlar taqdiriga doir qanday niyat qildi?	"Hakimbek va Oybarchin er-xotin bo'lisin", – deb, beshikkertdi qildi. Hakimbekning o'ng kiftiga besh barmog'ini urdi. Besh panjaning o'rni bilinib qoldi.	9
38.	"Hakimbek alp bo'lisin, hech bir kishi unga barobar bo'lolmasin. Omin, Ollohu akbar!" – deb niyat qilgan qahramon...	Shohimardon pir	9
39.	"Shunda bolalar kundan kun o'tib, oydan oy o'tib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchga kirib, ularning tili chiqib, elga enib uchchovini ham mакtabga qo'ydi". "Alpomish"dan olingen ushbu parchada qanday she'riy san'at qo'llangan?	Saj	9
40.	Qaldirg'och, Hakimbek va Oybarchin qachon mакtabga borishdi?	Tili chiqqanidan keyin	9
41.	Hakimbek va Oybarchinning necha yoshida xat-savodi chiqdi?	7 yoshida	9
42.	Hakimbek va Oybarchin xat-savodlari chiqqandan so'ng qanday ilmni o'rganishdi?	Hakimbek shohlik, sipohilik ilmini, Oybarchin Ko'kqamish ko'ilda chorvadorlik ilmini o'rgandi, qo'y sog'ishga usta bo'ldi	9
43.	Qaysi qahramoning o'ng kiftida Shohimardon pirning qo'l izlari o'rni bor edi?	Alpomishning	

44.	Hakimbek qachon Alpomish nomini oladi?	Yetti yoshida. Alpinbiy bobosidan qolgan 14 botmon birinchdan bo'lgan parli yoyni ko'tarib tortadi. Yoning o'qi Asqartog'ning katta cho'qqisini yulib o'tadi, shundan keyin Hakimbek Alpomish nomini oladi	9
45.	Dunyodagi birinchi alp...	Rustami Doston	9
46.	Alpomish nechta alpning biri bo'ldi?	90 alpning	9
47.	Alpomish otasi bilan qaysi mavzuda suhbatlashdi?	Baxillik va saxiylik	9
48.	Asarda baxillik va saxiylik haqida qanday ma'lumot beriladi?	1) vaqt-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo'lsa, ko'nglini xushlab jo'natsa, bul ham saxiy; agar joy bo'la turib, joy yo'q, deb qo'ndirmay jo'natsa, bul odam baxil; 2) vaqt-bevaqt bir kishi mozorotning qabatidan o'tsa, chap oyog'ini uzangidan chiqarmay, mozorotning haqiga duo qilmay o'tsa, bul ham baxil ekan; 3) kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan, agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan	9
49.	Boysari qayerda yashar edi?	O'n ming uqli Qo'ng'irot eli bilan Ko'kqamish ko'lida	9
50.	Mening davlatimda yolg'iz inim Boysari baxillikka chiqib ketmasin. Ukam o'z ro-ziliги bilan bir chichqoq uloqni zakot deb menga bersin, zakot o'rniiga o'tadi deb Boybo'ri nechta mahramini yubordi?	O'n to'rt mahramini	9

51.	14 mahram Boysaribiya nima dedi?	"Biz akangdan kelgan zakotchi bo'la- miz, bugun bizlar sening molingni zakot qilamiz. "Zakot qilinglar, bersa, zakotini olib kelinglar", – deb yubor- gan", – deyishdi	9
52.	Boysari: "Akam mening toza ulsizligim bildirdi", – deb qaysi voqeaga ishora qiladi?	Zakot vo- qeasiga	9
53.	Boybo'ri yuborgan zakotchilar- ga Boysari qanday jazo q'lladi?	Yettitasini tutib, qorniga qoziq qoqib o'ldiradi, qolgan yettovini quloq- burnini kesib, o'zlariga yegizib, otiga chappa mingizib haydab yuboradi	9
54.	"Qursin, Hakimbegi mulla bo'libdi, Bezakot mollarni harom bilibdi", – deb qaysi qahramon aytgan?	Boysaribiy	9
55.	Boysari yurt oqsoqollarini yig'ib: "Akamga zakot berguncha, Qalmoq borib, juz'ya (soliq) berib yurayin, nima deysiz?" – deb maslahat soldi. Shunda kim qanday maslahat berdi.	Yortiboy oqsoqlol: "Osilmaymiz Boybo'rining doriga... Qayga ko'chsang bizlar birga boramiz"	9
56.	Juz'ya nima? G'ayridinlarga solinadigan soliq		9
57.	Majlisli kun bo'lsa, to'r dan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo'sag'aning oldida kovishga joy bermay, kovish bilan aralashib, it yiqilish bo'lib, paygabetda yotadigan, maslahat berishga arzimaydigan qahramon...	Yortiboy oqsoqlol	
58.	"Dam shu damdir o'zga damni dam dema, Boshin eson, davlatingni ka... dema... Qayga ko'chsang bizlar birga boramiz, Bolalarni jahongashta qilamiz..." degan qahramon...	Yartiboy oqsoqlol	

59.	Boysaribiy yilqisining soni...	90 to'qay	9
60.	Qo'ng'irot elining eng kambag'alining qancha hayvoni bor edi?	Eng kambag'alining qirq ming tuyasi bor, qo'yłari son-sanoqsiz edi	9
61.	Boysaribiy Boybo'ridan araz qilib, qaysi yurt tomon yo'l oldi?	Qalmoq yurti Kashal eli tomon	9
62.	Boysaribiyga o'n olti urug' Qo'ng'irot elidan kimlar qo'shildi?	O'n ming uqli ekin ekmoqni bilmaydigan eliboylar	9
63.	"Alpomish"da Eliboylar nomi bilan qanday ijtimoiy tabaqa tilga olinadi?	Chor-vadorlar	
64.	Barchinoy uchun tabladan qanday otni olib kelishdi?	To'riq yo'rg'ani	9
65.	To'riq yo'rg'a otning qaysi anjomlari tilladan edi?	Uzangilari, ayillari, jabduqlari, yuganlari	9
66.	Barchinoy uchun otni tabladan olib kelib, ustiga mayin, toza, muloyim baxmal parquvlardan solib, tilla yuganlarni boshiga solib, juda choqlab, otning jilovidan ushlab yetaklab kelgan qahramon...	Barchinoyning onasi (Kuntug'-mish xotin)	
67.	Barchinoy sepini nechta tuyaga ortadi?	Oltmisht nor tuyaga	9
68.	"Qatorga tirkalgan lo'k bilan norcha, Ustiga yuklangan qirmizi parcha". Parchadagi "lo'k" va "norcha" so'zlariga izoh bering	Lo'k – yuk tashiydigan tuya, nor – erkak tuya	9
69.	Boysun bilan Qalmoq yurtining orasi qancha?	Olti oychalik yo'l	9
70.	Ko'chib keluvchilar Qalmoq yurti Chilbir cho'liga yetishguncha nechta tog'dan oshishdi?	90 ta	9

71.	Toychixonning jallodlari nima sababdan Boysaribiyni ikki qo'lini orqasiga bog'lab, boshiga qor-yomg'irday qamchi bilan savalab Toychixonning oldiga olib borishdi?	O'zbeklarning mollari qalmoqlarning o'n besh kunlik yo'lida ekinlarini yeb bitirgan edi. Shu sababli Boysarining ustidan arz tushgan edi?	
72.	Toychixon nima sababdan Boysarini jazolamaydi? Aks holda unga Chilbir cho'li Oynali ko'lini beradi. Yetti yilgacha molini bezakot qiladi	Sababi: Boysari: "Ilgarida men ekishni ko'rmasam, Dehqonlar ekishin o't deb yuribman, Bilmaslikdan gunohkor bo'p qolibman", – deb uzrini aytadi.	
73.	Surxayl kampir qayerda yashar edi?	Toychi viloyati Qalmoq muzofotida	9
74.	Surxayl kampirning nechta o'g'li bor edi? Ismlarini ayting	Yettita nomdor alp edi: Ko'kaldosh, Ko'kaman, Ko'kqashqa, Boy-qashqa, Toyqashqa, Qo'shquloq, Qorajon	9
75.	Surxayl kam-pirning o'g'il-lari qayerda yashar edi?	Qalmoqshoh Kashal g'oridan joy berib, ularni To'qayistonda boqib yotar, har kuni 90 shirbozning go'shtini yeyishar edi.	9
76.	Yetti alp sovutining og'irligi...	90 botmon	
77.	Yetti alp har birining podshohlikdan oladigan moyanasi...	Besh yuz so'mdan	
78.	Boysari o'z xalqi bilan qayerga ko'chib boradi?	Toychi viloyati Qalmoq muzofotiga	9
79.	Bo'yи yetgan Oybarchinning yag'rini necha qarich edi?	15 qarich	9
80.	Ko'kaldosh alp: "Yuringlar, to'qsonimiz ham boraylik. O'zbakning qizini yo'rimiz olaylik, yo barimiz olaylik, o'ttada javlik xotin bo'lib qolaylik", – deydi. "Javlik" so'zining ma'nosi...	Yoppasiga	

81.	Qalmoqlar nima sababdan Boysarini "Kelganboy" deyishadi?	Chorvador boy bo'lganligi uchun	9
82.	"Alpomish" dostonida alplar "Kelganboy" deb kimni aytishar edi?	Boysarini	
83.	Surxayl kampir qaysi o'g'li uchun Barchinga sovchilikka bordi?	Qorajon uchun	
84.	Boysarining itlari kimni taladi?	Surxayl kampirni	
85.	"Boshi bo'sh ekanin toza sinadim, Senga atashtirib ro'mol o'radim, Shu bugun qalliqqa borgin, Qorajon. O'zbakning rasimi shunday bo'ladi, Atashtirgan kuni kuyov boradi", – deb Qorajonni kim aldadi?	Surxayl kampir	
86.	Ko'kaman nima sababdan Barchinning kanizining bilagiga qamchi bilan urdi?	Qimiz o'rniga suv bergani uchun	
87.	Qirq mingini bir deb sanab qirishga tayyor qahramon kim?	Barchin	
88.	90 alp Boysarining uyiga nima sababdan borishdi?	Barchinga sovchi bo'lib	9
89.	90 alp Boysariga: "Kelganboy, sening bir qizing bor ekan, qani, birimizga berasanmi, barimizga berasanmi?" – deb so'rashganida Boysari alplarga qanday javob berdi?	Ertasiga choshgoh-gacha o'ylab ko'rishi aytdi. Ertasi kuni esa shunday dedi: "O'zbekning rasmi shunday: iz o'n to'rtga chiqqanidan so'ng ixtiyori o'zida qoladi, bizning aytganimizga ko'nmay, tepaning boshida o'tovini tikib o'tiribdi, o'zidan so'ranglar". – dedi Boysari	9

90.	Barchinga qalmoqlardan sovchi kelganida, Yortiboy oqsoqol Boysariga qanday maslahat beradi?	Barchinni qalmoqlarga berishni maslahat beradi	9
-----	---	--	---

**Quyidagi misralar qaysi qahramonlar nutqidan olingan?**

91.	"Tortinmay beraber endi qizingdi, Hazil bilma, mening aytgan so'zimdi... Bolalarni tog'a-jiyan qilamiz, Mina elda bizlar davron suramiz..."	Yortiboy	
92.	"... Yuragimda ko'pdir alamlı dardlar, Mening qizim – sening singling, nomardlar"	Boysaribiy	
93.	"Barchinoyni tengquriga qo'shmasam, Mahshar kuni Barchin qo'li yoqamda"	Boysaribiy	
94.	"Qarindoshlar bera qolsin qizini! Sen yig'lading, ota, ko'nglim buzildi. Qo'ya ber aplarga mening o'zimdi..."	Barchinoy	
95.	"Bu ham o'zboshimcha juvormak, aplarga baland- past gapirar. Buning kasofatiga hammamizni oyoqosti qip bosib ketar. Javob bergich bo'lsa, bizning ichimizdan chiqib, xolis yerda turib javob bersin", – deb Barchindan kimlar norozi bo'lishdi?	O'n ming uyli Qo'ng'irot xalqi (so'ngra Barchin o'tovini bir ovloq tepaning boshiga tikib, 40 kanizi bilan o'tirdi)	9
96.	Barchinning muchal yili...	Sichqon	9
97.	Boysaribiy 90 alpga qanday javob aytdi?	"Qizimizning yili sichqon. Yoshi 14 ga yetdi. Bizning o'zbekning rasmi shunday bo'ladi: qiz 14 ga chiqqandan so'ng ixtiyori o'zida qoladi. O'ziga boringizlar. O'zidan so'rangizlar"	9

98.	Barchin 90 alpga qanday javob aytdi?	"Badbaxt qalmoq, qolma kelgan yo'lingdan, Meni olmoqqa hadding bormi, qalmoqlar. Mening to'ram bilsang, Boysunning xoni... Oti Hakimbekdir elda davroni... Xabar yetsa, alp Alpomish kelmaymi, Qalmoqlarga qiyomat kun bo'lmaymi, Armon bilan senday aplar o'lmaymi..."	9
99.	Barchining so'zini eshitib, Ko'kaldosh alp turib aytdi: "Bu o'zbakning qizining dami baland ekan. Tushib sudrab chiq buyoqqa", – deb kimni kiritib yubordi?	Ko'ka- manni	
100.	"Ko'tarib chalqarmon qilib yerga qo'ydi. Chap tizzasini ko'kragiga qo'yib turdi. Og'zi burnidan dirak-dirak qon keta berdi". Barchin kimni shu ko'yga soldi?	Ko'ka- manni	
101.	"Zo'rlik nomiga boshida tilla jig'asi bor, ostida suvoriga minib yuradigan saman yo'rg'asi bor" deb qaysi qahramon tasvirlangan?	Ko'kal- dosh	
102.	Barchin qalmoqlardan qancha muddatga muhlat oladi?	Olti oyga	
103.	"Saman otli sarjig'ali bek yigit, Bir oltoyga sizdan muhlat so'rayin" deb Barchinoy kimdan so'radi?	Ko'kal- doshdan	
104.	Barchinoy qalmoqlardan nega muhlat so'radi?	Alpomish kelishidan umidvor edi	9
105.	"Barchinoyning bizda ko'ngli bor ekan. Aiplarning ichida meni xohlaganday bo'ldi", – degan qahramon....	Ko'kal- dosh	9
106.	Barchinoy xat (arza) yozib, Boysun- Qo'ng'irot yurtiga kimlarni jo'natdi?	O'n yigitni	

107.	Barchinoy xatining mazmuni...	Kashalda talashda qolgani, olti oy muhlat olgani, Alpomishning umidi bo'lsa kelishi, bo'lmasa javobini berishini yozadi	9
108.	Barchinoy xatida "maktab jo'ram" deb kimni nazarda tutadi?	Alpo-mishni	9
109.	Barchinoyning yigitlari Boysun-Qo'ng'irot yurtiga necha kunda yetib kelishdi?	To'qson kecha-kunduzda	9
110.	Barchin yuborgan o'n yigit beadablik bilan ot ustida turib kimga salom berishdi?	Boybo'riga	
111.	Boybo'ri choparlar keltirgan Barchinnng xatini nima qildi?	Alpomishga ko'rsatishni xohlamay, sandiqqa solib qo'ydi	9
112.	Choparlar Boybo'rining davlatxonasida necha kun mehmon bo'lishdi?	20 kun	
113.	Sandiqdagi xatni kim topib oladi va uni Hakimbekka berib, Barchinni oldiga borishga undaydi. Akasini yiqiboqar Qultoyning oldiga yuboradi.	Xatni Qaldirg'och topib oladi va uni Hakimbekka berib, Barchinni oldiga borishga undaydi. Akasini yiqiboqar Qultoyning oldiga yuboradi.	9
114.	Boysarining yiqiboqar xizmatkori...	Qultoy	9
115.	"Tabladagi ot sag'risi toshib, yoli qulog'idan oshib, yulduzni ko'zlab, taraqqos boylab o'ynay berdi". Parchada qaysi ot tasvirlangan?	Boychibor	
116.	"Oltoychalik yo'l bo'lsa, qalmoqning elida bo'lsa, zo'r yovning qo'lida bo'lsa, bir xotin olamiz deb, sandirab o'lamizmi", – degan qahramon...	Alpomish	
117.	Barchindan xat kelganida Alpomish necha yosh edi?	14 yosh	
118.	Qaldirg'och akasini "narmoda" deb haqorat qiladi. "Narmoda" so'zining ma'nosi...	Erkak-ayolligi aralash, xunasa, gey	9

119.	"Mard yigitning yori talash bo'lami, Er yigitning yorin qalmoq olami?" – degan qahramon...	Qaldirg'och	9
120.	Alpomish qalmoq yurtiga ketayotganda ruhlantirib, dalda bergen kim edi?	Qaldirg'och	9
121.	Qultoy dastlab nega Alpomishga ot bermadi? Boybo'ri o'g'li Alpomishning Qalmoq yurtiga borishini istamaydi. Yilqichi Qultoya Alpomishga ot bermaslikni tayinlaydi		9
122.	"O'zi zo'rku; za'l bo'sa ham, ju'a qo'rkoq, sal do'qdan ham qo'rqadi o'zi" – deb Boybo'ri kim haqida aytgan?	Alpomish haqida	
123.	"O'zima yor, bobo, senga xizmatkor" olib kelaman deb Alpomish kimga aytди?	Qultoya	
124.	"Alpomish"da "zahar chol" deb kim tasvirlangan?	Qultoy	
125.	"Saman sariga tush, yo olapocha to'riga tush, shapaqning zo'riga tush". – deb qo'riqni soigan qahramon?	Alpomish	
126.	Alpomish soigan qo'riq kimga qarashli edi?	Dobonbiy bobosidan qolgan	9
127.	"Xafa bo'lma, bu oting balki tulpor chiqar, yomon dema", – deb kim kimga dalda berdi?	Qaldirg'och Alpomishga	9
128.	Alpomish Qalmoq yurtiga qaysi otda yo'lga tushdi?	Boychiborda	9
129.	Alpomish uzoq safarga o'zi bilan qanday qurol oldi?	Alpinbiy bobosidan qolgan 14 botmon birinch (bronza)dan bo'lgan parli yoyini	9
130.	Qaldirg'och akasini kuzatar ekan, unga qanday murojaat qildi?	Bek og'a, Alpinjon, emikdoshim	9

131.	Qaldirg'och akasini kuzatayotganida o'n ikki imom nomini tilga oladi? Ular qanday ish bajargan?	Islom dinining asoslarini ishlab chiqqan imomlar	9
132.	Chiltonlar – kimlar?	Qirq avliyo	9
133.	Uzoq safarga otlangan Alpomishga hamisha kimlar homiylik qilishadi?	Shohimardon pir va 40 chiltonlar	9
134.	Alpomishni chiltonlarga kim tanishtirdi?	Shohimardon pir: "Bu bachcha bizning muridimiz bo'ladi", – deb tanishtiradi	
135.	Qalmoqqa borishning birinchi kechasida charchab uqlab yotgan Alpomish bilan Barchinning ruhlarini kimlar uchrashтиrdi?	Chiltonlar	9
136.	Alpomish Qalmoq yurtiga borganda dastlab kimni uchratadi?	Kayqubod cho'ponni	
137.	Kimlarga tushlari vositasida kelajak taqdirlari birligi bildiriladi?	Alpomish, Qorajon, Barchinga	9
138.	"Jon jasaddan bir beqaror bo'lganda, Zyon yotib, rahmat toshar bo'lganda, Rahmat daryo ayni toshib kelganda, Tush ko'ribman fayzi sahar bo'lganda", – deb "Alpomish"da qaysi holat tasvirlanadi?	Barchining tushi	9
139.	"Adashgan ummatim, shafqatdoringman... Ummatlarni mudom yo'lga solurman... G'am yema, ummatim... Ostida dulduli, belda zulfiqor, Jilovida Bobo Qambar jilovdor, G'amingda otlandi Shohimardon pirlar, G'ayratingdan bo'zlab ketar qalmoqlar, Hech kim bo'imas, sening bilan barobar, Senga taqdir qildi Barchin zulfakdor", – deb Alpomishga kim aytdi?	Muhammad (s.a.v.) Rasululloh payg'ambar	9

140.	Alpomish tushida kimni ko'radi?	Payg'ambar Muhammad (s.a.v) Rasulullohni	9
141.	Alpomish qayerda tush ko'radi?	Cho'ponlarning qo'shxonasida	9
142.	Barchin tushida nimalarni ko'radi?	Bir oy, to'rt yulduz, yer yuzini tutib ketgan aydahor va burgutni	9
143.	Barchinning tushini kim qanday ta'birlaydi?	Kanizi Suqsuroy shunday ta'birlaydi: Oy – Rasul payg'ambar, to'rtta yorug' yulduz – to'rt choriyor, yer yuzini tutgan aydahor – eranlar, yani 40 chiltan, burgut – Boychibor	9
144.	Barchin tushini ta'birlab bergani uchun Suqsuroya suyunchisiga nima beradi?	Tilla	
145.	Qorajonning tushida qanday voqeа sodir bo'ladi?	Qirq chilton bilan Rasul payg'ambar Qorajonni musulmon qiladi	9
146.	"Oshpichoq, qalampir, Qorajon tentak bo'p qopti", – deb kimlar nega aytdi?	Qorajon qalmoq namoz vaqtি o'rnida kalima aytib turgani uchun bir kam to'qson alp aytdi	9
147.	"Alpomish" dostonida Al-pomish, Qorajon, Barchinga tushlari vositasida nimaga ishora qilinadi?	Kelajak taqdirga	9
148.	Haddili baland tepa edi, ustidan qanotli qush uchib o'tolmas edi, har qanday odam chiqib, oyoqosti qilib ketolmas edi. Shul tepani ko'rib, Alpomish irim chekib: "Shu tepaga otimni solayin, otim tepaga chiqib ketsa, borgandan yorimni olaman, chiqolmasa, borib nima qilaman...", – deydi. Qaysi tepa haqida gap ketmoqda?	Murodtepa	

149.	Murodtepa qayerda joylashgan edi?	Toychi viloyati Qalmoq muzofoti, Chilbir cho'lida	9
150.	Alpomish bilan Qorajon qayerda tanishishdi?	Murodtepa oldida	9
151.	Qorajon nima uchun Alpomishning yoniga – Murodtepaga – chiqmadi?	Bu tepaning ustiga chiqadigan kamolga yetishmagani uchun	9
152.	"Achchig'ing chillali muzlagan qishday, Norkalla kelgansan, chuydang qo'shmushday". Ushbu parcha qaysi qahramon nutqidan olingan?	Qorajonning Al-pomishga aytgani	9
153.	Qorajon Alpomishga: "Qayonna yo'l olding?" – deb savol berdi. Alpomish esa: "Suqsurni izlagan lochin bo'laman... Moyaning yo'qchisi – nori bo'laman", – deydi. Nima uchun Alpomish Barchin-nинг nomini tilga olmaydi?	Alpomish dastlab u yigit Qorajon ekanligini bilmas edi. Shuning uchun Barchinning obro'sini saqlash maqsadida uning nomini tilga olmaydi	9
154.	Alpomish kimlar bilan ko'rishayotganda panjalari bir-biriga yopishib, qapishib, yanchilib ketdi?	Qorajon mahramlarining	9
155.	Alpomish va Qorajonning ko'rishish holatini tasvirlang	Qorajonning yetti qobirg'asi sindi, Alpomishga sir boy bermay: "Quyon-chiq (tutqanoq, shaytonlash) kasalim bor, shu vaqt tutib qoldi", – dedi	
156.	"Ko'rishganing shu bo'lsa, urushganing qanday ekan?" – degan qahramon...	Qorajon	9
157.	"Yusuf tal'atl, Rustam sifatli, chovkar otli" – deb ta'riflangan qahramon...	Alpomish	9
158.	Alpomish kimnikida mehmon bo'ldi?	Qorajonnikida	9

159.	Boychiborni minib, Alpomish nomidan Barchinga kim sovchi bo'lib boradi?	Qorajon	9
160.	Qorajonni sinash uchun: “Qursin, Alpomishda ko'nglim yo'q edi, Yaxshimasdir, qursin ko'zi ko'k edi”, – degan qahramon kim?	Barchin	
161.	Barchin alplarga qanday shartlarni qo'yadi?	To'rtta shart: poyga, yoyandozlik, merganlik, kurash	9
162.	Shartlarni alplarga kim yetkazadi?	Qorajon	9
163.	Haq so'zni gapirib ikki ko'zidan ayrilgan qahramon...	Ko'sa sinchi	9
164.	Ko'kaldoshning sinchisi...	Ko'sa sinchi	9
165.	Boychiborning sag'risining ustidan qulog'ining o'tasigacha necha qarich?	96 qarich	9
166.	Ayil tortuvi necha qarich?	63 qarich	9
167.	Boychiborning biqinida necha gaz qanoti buklam-buylam bo'lib yotibdi?	To'rt yarim gaz	9
168.	Ko'kaldosh nima uchun Ko'sa sinchisining ikki ko'zini o'yib oladi?	Boychiborni maqtaganini uchun	9
169.	Quyidagi ta'rif kimgarga berilgan? “Kallasi kapaday, tanasi tepaday, butlari selanglab otning ostiga aymashib ketgan”	Qalmoqlarning alplari	9
170.	Bir kam to'qson alp tappa-tappa tashlab kimga ta'zim qiladi?	Alpomishga	9
171.	Poygada qatnashish uchun qalmoqlarning podshosidan nechta va qanday otlar keladi?	Uchta: olapocha to'riq ot, shapaq ot, o'n ming tangaga olingan saman ot	
172.	Poyga qayerda bo'lib o'tadi?	Boboxon tog'ida	9
173.	Boboxonning orasi necha kunlik yo'l?	40 kunlik	9
174.	Poygada nechta ot qatnashdi?	500 ta	9
175.	Poygada qalmoqlardan nechta ot qatnashdi?	499 ta	9

176.	"O'yinda o'zgan chinda o'zadi, degan gap bor, Boychibor hazil poygada optimizning changini ko'rmay qoldi. Chin poygadan so'ng qanday keladi", – deb kim kimni izza qildi?	Qalmoqlar Ko'sa sinchini	9
177.	Zil tog'ida yotgan ajdar nima sababdan Qorajonga salom beradi?	Ajdar pirga salom beradi. Boychiborning jilovida chiltan pirlar bor edi	9
178.	Alpomish nomidan Boychiborni minib, poygada qatnashgan qahramon...	Qorajon	9
179.	Qorajon poygada qaysi tog'dan o'tadi, qaysi tog'ning orasi yaqin qoladi?	Zil tog'idan o'tadi, Boboxon tog'ining orasi yaqin qoladi	9
180.	Boboxon tog'ida: "Boychiborni so'yaylik", – deb kim aytди?	Ko'kal-dosh	
181.	"Ko'kdo'nanni so'yaylik", – degan qahramon...	Qorajon	
182.	Qalmoqlar Boboxon tog'ida Qorajon va Boychiborni qanday ko'yga solishdi?	Qorajonni kulaband (yechilmaydigan qilib) bog'lashdi, Boychiborni ham bo'lاب, tuyog'iga gulmixlar qoqishdi, pichoq bilan oyoqlariga urishdi, olti horak sovunni surishdi	9
183.	Qorajon va Boychiborni qaysi avliyo qutqardi?	Rajabxo'ja eshon	9
184.	"Dam shu damdir, o'zga damni dam dema, Boshing eson, davlatingni kam dema, Qoldim deb, Qorajon, sira g'am yema... Qamchi urgin go'sht ko'targan soniga...", – deb Qorajonga kim dalda beradi?	Alpomishning piri Rajabxo'ja eshon (Rajabxo'ja eshon ko'rinxaydi. Bu gaplar otning tilidan aytildi?)	9

185.	Boychibor bir kecha-kunduz chopib borib, nechta otdan o'zadi?	460 otdan	9
186.	Poyga oxirida Boychibor qaysi ot bilan yo'l talashadi?	Ko'kdo'nan bilan	9
187.	Bir baland tapaning ustiga chiqib, poygani durbin bilan kuzatib turgan Alpomish nima sababdan hushidan ketadi?	Ko'kdo'nanni tanib, Boychiborni tanimagani uchun	9
188.	"Qurru-yo qur, hayt-a, to'ramning oti, Oq to'shim yayloving, sochim – shipirtki. Kuyganimdan gapni gapga ulayin, To o'lguncha sayising bo'p yurayin", – deb Boychiborga dalda bergan qahramon...	Barchinoy	9
189.	Poygada kim Boychibor, uni minib olgan Qorajon g'olib bo'ldi?	uni minib olgan Qorajon baxmal o'tovni yetti marta aylandi	9
190.	Qorajonni bardor-bardor qilib ko'tarib, baxmal o'tovga kimlar olib kirishadi?	Barchin-ning kanizlari	9
191.	Boychiborning oyog'idagi gulmixlarni kim sug'urib tashlaydi?	Barchin tishlari bilan sug'uradi	9
192.	Yoyandozlik musobaqasi qayerda bo'lib urishi?	Oyno ko'l Chilbir cho'lida	9
193.	Yoyandozlik va miltiq bilan ming qadamdan tanga pulni urish musobaqalarida kim g'olib chiqdi?	Alpomish	9
194.	Yoyandozlik va miltiq bilan ming qadamdan tanga pulni urish musobaqalarida Ko'kaldosh qanday qatnashdi?	Yoyandozlik musobaqasida Ko'kaldoshning yoyi sinadi, miltiq bilan ming qadamdan tanga pulni urishda o'qi 500 qadamga yetadi xolos	9
195.	Kurash musobaqasi qayerda bo'lib o'tdi?	Chilbir cho'lida Oyna ko'lida	9

196.	"Shomurti shoxalab (yoqalab) har tomon ketgan, Ichida sichqonlar bolalab yotgan, Izdan tushgan pishak (mushuk) olti oyda yetgan", – deb ta'riflangan qahramon...	Qo'sh-qulqoq	9
197.	Bir qaimoqning ko'rinishi shunday tasvirlangan: "Besh yuz quloch arqon yetmas beliga... Oh ursa olamni buzar tovushi, To'qson molning terisidan kovushi". Ushbu misralarda qanday she'riy san'at qo'llangan?	Mubolag'a	9
198.	"To'rt yuz to'qson quloch qo'lda hassasi, Sarhovuzdan katta edi kosasi... To'qson qari bo'zdan bo'lgan kissasi", – deb ta'riflangan qahramon...	Nashavand qalmoq	
199.	Kurash musobaqasida Alpomish nomidan tushgan Qorajon nechta alpdan g'olib chiqdi?	88 ta (bir katta akasi Ko'kaldosh qoldi)	9
200.	Qorajon Alpomishning: "Nega Ko'kaldosh bilan kurashga tushmaysan?" – degan savoliga qanday javob berdi?	"Bugun ham tush desang, tushaman. Tushgan bilan bundan omon topmayman", – dedi	9
201.	Ushbu gap qaysi musobaqada kim tomonidan aytildi? "O'zbak! Sen bunday bo'yni yo'g'onlik qilma, g'aribi go'riston bo'lib o'lma. Hali ham qo'ygin. Halak bo'p kelgan yo'lingdan qolma..."	Kurash musobaqasida Ko'kaldosh Alpomishga aytgan	9
202.	Alpomish Ko'kaldoshga qanday javob berdi?	"Har kim o'z elida bekmi, to'rami, O'zi o'lmay kishi yorin berarmi?..."	9

203.	Kurash musobaqasi yakunida Alpomish kim bilan maydonga chiqdi?	Ko'kal-dosh bilan	9
204.	“Yiqolmasang, to'ram, navbat tilayin, Erkak libosini o'zim kiyayin, Bor kuchimni bilagima jiyayin, Bul qalmoqni pora-pora qilayin... Mardlar olishmaydi, siltab otadi... Qizlar sizni narmoda deb aytadi, Qizlarning aytgani menga botadi...” Alpomishga og'ir botadigan yuqoridagi so'zlarni kim aytgan?	Barchinoy	9
205.	Kurash musobaqasida nechta alp o'ladi?	89 ta alp	9
206.	Baxmal o'tovda chimildiq tutib, kuyov navkarlari bilan kuyovni kirkizmoqchi bo'lib, bir necha xotinlar qanday rasm-rusum qilishdi?	“Kampir o'ldi” rasmini	9
207.	“Kampir o'ldi” marosimidan so'ng qanday rasm-rusum ado etildi?	“It irillar” marosimi	9
208.	Barchinoyni bekning oldiga olib kirib qanday urf-odatlarni qilishdi?	“Soch siypatar”, “Qo'l ushlatar”	9
209.	Alpomish va Barchinning to'yida “to'qqiz tovoq”, “qiz opqochdi”, “qiz so'ylatar” rasmlaridan so'ng qanday marosimlar bo'lib o'tadi?	“Kampir o'ldi”, “It irillar”, “Soch siypatar”, “Qo'l ushlatar”	
210.	Boysunga qaytishayotganda Barchin nechta tuyaga sepini ortadi?	500 norga	
211.	Qalmoq yurtidan Boysun-Qo'ng'iroq eliga kimlar qaytadi?	Alpomish, Barchinoy va o'n ming uyli qo'n-g'iroq eli, Boysaribiy Qalmoq elida qoladi	9

212.	Qalmoq lash-karlari nima sababdan Alpomish ortidan jang qilish uchun boradi?	Surxayl kampir Toychixonga: "Qalmoqning alplari o'ldi, ular bilan birga oltita o'g'lim ham, Qorajondan tirik ayrildim, qanday orsiz podshohsan", – degani uchun qalmoqshoh Alpomishdan qasos olgani lashkarini yubordi	
213.	Jang qanday yakunlandi?	Alpomishning g'alabasi bilan	
214.	Surxaylning arz-dodiga javoban Toychixon Boysariga qanday jazo qo'lladi?	To'qson qo'r'a qo'y'i, qirq ming tuyasini xatlab oldi, Boysarining o'zini molboqar qilib tayinladi	
215.	Toychixon Boysarining tirik qolgani-dan ko'ngli to'lImagan Surxayl kampirning yana qanday talabini bajardi?	Murodtepa yaqinidagi Chilbir cho'liga kungiralari po'latdan, bo'sag'alarini oltindan, darvozalariga tilla yugurtilgan, yoqut, marmar toshlar bilan bezalgan, hashamatli imorat soldirdi. Aroq, behush qiladigan dorilardan g'amlab qo'ydi. Surxayl kampir odam ko'rsa, jamoliga mast bo'ladigan qirqta qiz bilan shu saroyda Alpomish kelishini kutib yashay boshladi	
216.	Barchin Qalmoq yurtida qolgan otasining moli talon, o'zi molboqar bo'lib qolgani haqidagi qanday xabar topadi?	Karvoni bilan Qalmoq yurtidan qaytgan bir qabilaboshi orqali	
217.	Boysarini qutqargani Boysun elidan kimlar yo'lga otlanishdi?	Alpomish, Bektemir (Qaldirg'ochning eri) va qirq yigit	

218.	Murodtepa yaqinidagi Chilbir cho'li-da Alpomish va yigitlar ol-didan sochini yoyib, betini yulib chiqib qolgan Sur-xayl kampir ularga qan-day makr-hiy-la ishlatdi?	<p>"Qalmoqshoh yetti o'g'limni o'ldirdi, undan oladigan o'chim bor", – deb behush qiladigan dorilarni yigitlarning sharobiga qo'shib, ularni mast qildi. So'ngra qirq ikki yigitni yoqib yubordi. Qalmoqshohga xabar jo'natdi. Qirq bir yigit yonib, kul bo'ldi. Alpomishga olov ta'sir qilmadi. So'ngra qilich bilan chopishdi, miltiqdan o'q otishdi. Alpomishga qilich o'tmadni, miltiqning o'qi botmadni. Qirq gazlik chuqr qazib, Boychibor yordamida Alpomishni zindonga tashladilar (Boychibor ega-sini o'ldi deb hisobladi). Qalmoqlar Boychiborni kishanladilar</p>	
219.	Bodom cho'ri va Ultontoz kim?	<p>Ultontoz – Boybo'rining cho'ridan bo'l-gan farzandi, Bodom cho'ri – Ultontozning onasi. Alpomish bor vaqtida hech kim bu bolani pisand qilmas edi. Xizmatkor qullar qatorida yurar edi.</p>	
220.	"Alpomish o'ldi", – deb, aza ochish-ganidan so'ng Ultontoz taxtni egalladi va qolganlaming boshiga qan-day kunlami soldi?	<p>Ultontoz Qorajonni qishloqdan chiqarib, elga qo'shmay, Olatog' degan tog'dan joy berdi. Qaldirg'ochoyimni Bobir ko'lida tuyu boqtirdi, Alpomishning ota-onasini xizmatkor qildi. O'zining onasi esa Bodom bikach nomini oldi. Barchinoyni: "Menga tegadi", – deb ovoza qilib yubordi</p>	
221.	Alpomish zindonda bandiligi haqidagi xabarni o'z yaqinlariga qanday yetkazdi?	<p>Yarador g'ozni davolab, yozgan xatini qanotiga bog'lab, uchirib yubordi</p>	

222.	G'oz qayerda qanday yarador bo'lgan edi?	Shakaman tog'ida yashovchilar merganlik bilan kun ko'rар edilar. Hech qaysisining otgani xato ketmas edi. Shu bir g'ozgina kampirning o'g'lidan yiqilmay ketgan edi. Alam qilganidan kampirning o'g'li kasal bo'lib yotgan edi	
223.	Alpomish yonidan qaytayotgan, o'n to'rt kun uchgan g'oz charchab, qayerga qo'ndi?	Shakaman tog'iga	
224.	Kampirning kasal bo'lib yotgan o'g'li g'ozning qang'llagan tovushini eshitib, o'q-yoyini hozirlaydi. G'ozni xavfdan kim ogohlantiradi?	Kampir g'ozni uchirib yuboradi	
225.	G'oz qayerga kelib qo'nadi? Bobir ko'liga		
226.	Qaldirg'och g'oz keltigan xat orqali akasining tirikligini, lekin zindonda yotganligini bilib, kimdan najot izlaydi?	Qorajon-dan	
227.	Qorajon Al-pomishni qirq gazlik chuqur zindondan tortib olmoq-chi bo'ladi, lekin nima uchun qutqa-rolmaydi?	Alpomish o'yladı: "Bu zindondan tortib olib ketib qoladi, shekilli. Zindondan chiqarib olib borar, elda ma'raka-majlis bo'lar, Bir toshib gapirib o'tirgan vaqtimda: "Zindonda chirib ketadigan odam eding, falokatdan qutqargan faqirda", – deb betimga ulgu qilib yurar", – deb orqasini berib, oyog'ini tirab turdi. Alpomish Qorajon yordamida zindondan chiqishni xohlamadi	
228.	Tovka oyim kimning qizi?	Toychixonning	
229.	Tovka oyim qanday ish bilan shug'ullanar edi?	Yangibozorning raisi edi	
230.	Oq serkasini boqib berish uchun Tovka oyim uni kim-ga berdi, qanchadan haq to'ladi?	Kayqubodga, olti oyga sakkiz tilladan	

231.	Oq serkaning ahvoli nima bo'ldi?	Alpomish yotgan zindonga tushib ketdi va unga taom bo'ldi	
232.	Zindonda ekanligida Alpomishni kim boqib turdi?	Kayqubod 500 qo'y, bitta olatoyini berdi	
233.	Kayqubod bozorda to'rtta nonga alishtirgan, suyakdan ishlangan chanqovuzlarni kim yasagan edi?	Alpomish	
234.	Alpomish yana nechta chanqovuz yasab berdi?	Bitta	
235.	Kayqubod Alpomish yasab bergen chanqovuzni bozorda sota oldimi?	Alpomishning tayinlaganiga ko'ra qizlarga sotmoqchi emas edi, lekin qizlar chanqovuz ovozini eshitib, uni quvlab, tayoq bilan urishdi, so'ngra chanqovuzni kim yasaganini aytib berdi?	
236.	Kayqubod zindonga, Alpomishning oldiga, kimni boshlab bordi?	Tovka oyimni	
237.	Tovka oyim, Alpomish va Kayqubod dialoglarini aytin?	<p>Tovka oyim:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Alpomish, zindondan chiqarsam kimim bo'lasan?</li> <li>– Tog'ang yoki qarindoshing yo do'sting.</li> <li>– Qarindoshim, do'stlarim ko'p, – deb ketib qoldi.</li> </ul> <p>Kayqubod:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Ering bo'laman, desang bo'lmaydimi?</li> </ul> <p>Alpomish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Sendan xijolat qildim, axir uni sevasan-ku! Agar xafa bo'lmasang, ortiga qaytar, – dedi. Tovka oyim qaytib keldi. Alpomish unga:</li> <li>– Zindondan qutqarsang, ering bo'laman, – dedi.</li> </ul>	

238.	Tovka oyim Alpomishni qutqarish uchun nima qildi?	O'zining o'r dasidan Alpomish yotgan zindongacha odam bo'y i kengligida lahm qazdirdi, lekin Alpomish bu lahmga sig'madi, chiqolmadi. Tovka oyim har kuni Alpomishdan xabar olib turdi.	
239.	Alpomish va Tovka oyimning xufyona uchrashuvidan kim xabardor bo'lib qoldi?		Surxayl kampir
240.	Surxayl kampir Toychixonga qanday maslahat berdi?	Zil tog'idan 500 arava tosh keltirib, Alpomish yotgan zindonni tosh bilan ko'mishni	
241.	Alpomish zindondan qanday qutulib chiqdi?	Boychibor Alpomishni o'lgan, deb hisoblaydi. Alpomish Boychiborning oldiga borib, isiriq qilib tutatish uchun Tovka oyimga kiyimidan beradi. Tovka oyim isiriq tutatgandan so'ng Boychibor kishanlarni parchalab, Alpomish yotgan zindon boshiga keladi. Aziz avliyolar yordamida otning dumi qirq gaz uzayadi. Alpomish otning dumini beliga bog'lab, zindondan chiqadi	
242.	Alpomish zindonda necha yil yotdi?	Yetti yil	
243.	Alpomish ozod bo'lgandan keyingi voqealar...	Alpomish Qalmoqshohni o'lirdi. Kayqubod Tovka oyimga uylanib, Qalmoq yurtiga podshoh bo'ldi. Alpomish Boysari bilan ko'rishib, o'z yurtiga qaytdi. Kayqubod Boysarining qo'y-mollarini o'ziga qaytardi	
244.	Alpomish nima sababdan Qo'ng'irot tarafdan kelayot-gan karvondagilarni nobud qildi?	Ultontozni maqtab, Alpomishdan yuz o'girishgani uchun	

245.	Tarlon biya Boychiborni nima sababdan yetti marta aylandi?	Tarlon biya Boychiborning onasi	
246.	Alpomish Qo'ng'irot elida dastlab kimga duch keldi?	Qultoyning o'g'li yilqiboqar Jilovdorga, lekin o'zini tanitmadi	
247.	Alpomishni Bobir ko'lida birinchi marta kim tanib qoladi?	Qora nor tuyasi, Alpomishni yetti marta aylanib, ziyorat qiladi	
248.	Alpomish Bobir ko'lida o'zini tanitmay kim bilan uchrashadi?	Singlisi Qaldirg'och bilan	
249.	Qultoy cho'-pon Alpomishni qanday tanidi?	O'ng egnida Shohimardon pirning, chap egnida Qultoyning besh panjasizi borligidan	
250.	Alpomish Qultoydan qanday xabarni eshitdi?	"O'ttiz kundan beri Ultontoz to'y qilib, xotiningni olmoqchi bo'lib yotibdi", – dedi	
251.	Alpomish nima uchun Qultoy bilan kiyimini almashtirdi, Boychiborni Qultoyga berdi, o'zi oq serkaning terisidan soql-mo'ylov yopishtirdi, odamlarga o'zini tanitmadi?	Do'st bilan dushman-ni farqlab olish uchun	
252.	Ultontoz to'yiga ketayotgan xotinlarning tovog'idagi taomlarni yeb, o'mniga tezak solib qo'ygan qahramon...	Qultoy qiyofasidagi Alpomish	
253.	Alpomishning onasining ismi...	Kuntug'mish	
254.	Qultoy qiyofasidagi Alpomish otasi va onasini qay holatda uchratdi?	Onasini qo'yning ichak-chavoqlarini tozalayotgan, otasini suv tashiyotgan holatda ko'rди	

255.	Palov to'la qozon boshida kim Yodgorni kabgir bilan og'zi-burnini qonatdi?	Alpomish bor vaqtida o'zi ozod qilgan Farmonqul degan quli. To'yda u bakovul edi	
256.	Yodgorning qo'liga bir katta ilikni kim ushlatib yubordi?	Qultoy qiyofasidagi Alpomish	
257.	Yoyandozlik musobaqasida kim mahoratini ko'rsatdi?	Qultoy qiyofasidagi Alpomish	
258.	Qultoy qiyofasidagi Alpomish odamlarga qarata nima dedi?	"Arpali ko'lida Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan yoyi bor, shuni olib kelinglar, kuchimni ko'rsataman", – dedi	
259.	Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyini Arpali ko'lidan kim olib keldi?	Alpomishning o'g'li Yodgor	
260.	Yoyni olishga ketayotganida Yodgorni boshi-ko'ziga qor-yomg'irday qamchi bilan kim savaladi?	Ultontoz	
261.	O'n to'rt botmonlik yoyni tortib, chinorni qulatgan kim?	Qultoy qiyofasidagi Alpomish	
262.	"Pas-pasgina pas ko'chalay, Paslab uchay musichalay... Katta-kichik qolmay boying, Xon Ultonning to'yin ko'ying", – deb to'y ga chorlagan kim?	Ulton-tozning onasi Bodom bikach	
263.	Bodom bikach nima uchun soqov'tob (tili chuchuk) bo'lib qolgan?	Ilgari cho'rilingida qo'chqor boqib, har yerda uxlah <del>qurash</del> , <del>qurash</del> <del>qurash</del> (olahakka) cho'qib olgan edi	
264.	Qultoy qiyofasidagi Alpomish <del>birimlari</del> bilan o'lan aytishdi?	Avval Bodom bikach bilan, so'ngra Barchin bilan	

265.	Dostonning oxiri qanday yakunlanadi?	Ultontoz va gunohkorlarni Hakimbek o'ldiradi, Boysari qaytib keldi, Alpomish Barchin, Yodgor, otasi va onasi bilan ko'rishadi, murod-maqsadiga yetishadi	
266.	Xalq dostonlarida chavandozlarni o'limdan qutqarib qolgan otlar...	G'irot, Boychibor	9
267.	To'yda izza bo'lgan aka-ukalar obrazi qaysi asarda berilgan?	"Alpo-mish"da	9
268.	Rajabxo'ja pir obrazi qaysi xalq dostonida uchraydi?	"Alpo-mish"da	9
269.	Qaysi asarda kitob orqali o'g'il bilan ota o'ttasida saxiylik va baxillik haqida suhbat bo'lib o'tadi?	"Alpo-mish"da	9
270.	Yortiboy oqsoqol personaji qaysi asarda qatnashadi?	"Alpo-mish"da	9
271.	Xalq dostonlarida maydon talashayotgan otlar holati yoki jang ko'rinishi tasviri necha bo'g'inli misralarda keladi?	8 bo'g'inli	
272.	"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi" unvoni qachon ta'sis etilgan?	2000-yil	
273.	Boysari turib aytdi: "Tortib olib bo'lmasa, sotib olib bo'lmasa, Xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!". Ushbu fikrlar nima haqida?	Farzan sizlik h qida	9

**"alpomish" dostonida keltirilgan quyi so'zlarni izohlang**

274.	chupronto'y	xalq (sunnat) to'yi		9
275.	elatiya	chorva bilan shug'ullanaq qavmlar	n	9
276.	paygabet	bo'sag'a, poygak tomo'		9
277.	besohib	egasiz		9
278.	ravza	bog', jannat, avliyolar	ori	9
279.	jiz'ya	g'ayridinlarga solina	n soliq	9

280.	tabla	ot bog'lanadigan joy	9
281.	lo'k	yuk tashiydigan tuya	9
282.	nor	erkak tuya	9
283.	bellar	dovonlar	9
284.	qaba	tartibsiz	9
285.	eliboylar	chorvadorlar	9
286.	javlik	hamma, yoppa	9
287.	jiyit,	yig'ib, to'plab	9
288.	do'g'ilib	yig'ib, to'plab	9
289.	burumi	soch tutami	9
290.	shabgir tortish	tinmaslik, dam olmaslik	9
291.	shobir	shov-shuv, ovoza	9
292.	narmoda	erkak tuya; xunasa, gey	9
293.	nimish	nima ish, qanday iloj	9
294.	shamiyon qaytarib	gerdayib, vahima qilib	9
295.	poyim	fahm, ma .io	9
296.	bog'onog'i	boyagi	9
297.	zinkiyib	qaqqayib	9
	o'nikimom	o'n ikki imom, islom dinining asoslарини ишлаб чиқкан имомлар	9
	chilton	40 avliyo	9
	huyda	bo'yin sirtidagi yo'g'on tomir	9
	suqsur	urg'ochi g'oz	9
302.	tangقا taylab	mollarni yoyib	9
303.	gala	suruv	9
304.	moya	urg'ochi tuya	9
305.	bola kunda	bolalikda	9
306.	quyonchiq	tutqanoq	9
307.	shibanib	shayylanib, tayyorlanib	9
308.	anday	juda zo'r	9
309.	jodirim	jabr ko'rgan	9
310.	dabgiridan adashish	aqlidan adashish, esini yo'qotish	9
311.	qutbi zamon	zamonasining avliyosi	9

312.	kulaband	yechilmaydigan qilib mahkam bog'lash	9
313.	shumg'ut	shum, buzuqi	9
314.	shopirib	katta qadam tashlab	9
315.	dustaman	yuztuban	9
316.	ang	sodda, bo'sh	9
317.	ayrit	ajrim, ora ochiq	9

### “KUNTUG‘MISH” DOSTONI

1.	Folklorshunos olim T.Mirzayevning ma'lumotiga ko'ra, dostonchilik maktablari qachon paydo bo'lgan?	XV – XVI asrlarda	8
2.	Dostonchilik taraqqiyotidagi juda rivojlangan davr...	XIX – XX asrlar	8
3.	XX asr boshlariga kelib baxshilarimiz ijodiy bisotidagi xalq dostonlarining soni...	150 dan ortiq	
4.	Xalqimizning mashhur baxshilari...	Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmo baxshi, Bo'ron shoir, Jumanbulbi Josoq, Yo'Idoshbulbul, Yo'Idosh shoir, Suyar shoir kabi	
5.	Yuqorida nomlari tilga olingan baxshilar ijodini keyinchalik qaysi ijodkorlar davom ettirishdi?	Ergash Jumant o'g'li, Fozil Yo' o'g'li, Po'lkan shoir, Saidm' panoh o'g'li baxshi, Ur shoir, Bol'	
6.	Dostonlar asosan qanday musiqa asbobi jo'rligida aytildi?		Jo'mbira
7.	Dostonchi baxshilar o'z san'atlarini tinglovchiga ma'qul qilish uchun qanday usullarni qo'llaganlar?	Musiqi so'z o ning tan	chirimlar, ari, doston-qiziq joyida li chekinishlar

8.	"Alpomish" dostonining 1000 yilligi jahon miqyosida qachon nishonlangan?	2000-yilda	
9.	"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi" unvoni qachon ta'sis etilgan?	2000-yil 14-martda	
10.	Ilgari baxshilarning iste'dodiga qaysi dostonni ijro etishiga qarab baho berilgan?	"Kuntug'mish" dostonini	
11.	"Kuntug'-mish" dostonini qaysi baxshilar kuylagan?	Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Nurmon Abduvoy o'g'li, Egamberdi Ollamurod baxshilar	8
12.	8-sinf darsligida "Kuntug'mish" dostonining qaysi baxshidan yozib olingan varianti keltirilgan?	Ergash Jumanbulbul o'g'lidan	8
13.	Avliyoyi Qoraxon qaysi yurtning podshohi edi?	No'g'ay yurtining	
14.	Avliyoyi Qoraxonning laqabi...	Qilichxon	
15.	Avliyoyi Qoraxonning yolg'iz o'g'li...	Kuntug'-mish	
16.	Kuntug'mish necha yoshigacha ilm-u hunar o'rganadi?	14 yoshigacha	
17.	Kuntug'mish o'n to'rt yoshidan so'ng qanday hu'narlarni o'rganadi?	Qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko'pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o'rganadi	8
18.	Kuntuq'mishning otasi...	Qoraxon podshoh	8
19.	Avliyo ota kim?	Qoraxon podshoh	8
20.	Zangar shahrining podshohi...	Buvraxon	8
21.	Buvraxonning vazirlari...	Shoir va Toir vazir	8
22.	Shoir vazirning oilasida qanday farzand tu'g'iladi?	Qiz	8
23.	Toir vazirning oilasida qanday farzand tug'iladi?	O'g'il	8

24.	Shoir vazir qizining ismi...	Xolbeka
25.	Toir vazir o'g'lining ismi...	Xolmo'min
26.	Nima sababdan Xolmo'minni Xolbekanining onasi emizadi?	Sababi: Xolmo'minning onasi to'satdan vafot etadi
27.	"Shirxo'ra" so'zining ma'nosi...	Bir onani emgan (endular orasidan nikoh yurmaydigan bo'lib qoladi)
28.	"O'n to'rt yoshga yetgach, uning husn-u kamoli ovozasi olamga yoyiladi. U go'zal, ayni paytda aqlli, nard o'yiniga mohir bo'lib yetishadi". Ushbu ta'rif kim haqida?	Xolbeka
29.	Xolbeka sovchilariga qanday shart qo'yadi?	Nard o'yin
30.	Nard o'yinida Xolbekaga yutqizgan yigitlarga u qanday jazo qo'llaydi?	So'ydirib yuboradi
31.	Xolbekanining jamolini ko'rib, yuz shaydoi dil bilan oshiqi beqaror bo'lib, ixtiyorini qo'lidan oldirib, dilida sabr-u qarori qolmay, arkiga borib tushib, bostirib, sovchisini qo'ya bergen qahramon...	Buvraxon
32.	Nima sababdan Buvraxon Xolbeka deb kelgan odamni tutdirib, qatl qildirishga farmon beradi?	Buvraxon Xolbekaga sovchi yuboradi. Xolbeka nard o'ynash taklif qiladi. G'azablangan Buvraxon davlatining maslahatig shunday farmon chiqaradi (sqilsam to'rt-besh yildan key' tegishga rozi bo'ladi, deb caydi)

33.	Jarchilar Buvraxonning buyrug'iga ko'ra nima deb jar solishdi?	"Har kim Xolbeka deb aysa, olti oy zindonda boqdiraman, suyagini toshga chaqdiraman, terisini tiriklay so'yaman, ichiga somon tiqdiraman, ikki ko'zini o'yaman, tepasiga moyni quyaman", – deya jar solishdi	
34.	Xolbeka va Kuntug'mish bir-birini qanday yoqtirib qoladi?	Tushlarida	8
35.	Xolbeka va Kuntug'mishning tushlarida qanday voqeа sodir bo'ladi?	Chiltanlar Xolbeka va Kuntug'mishning ruhlarini birlashtirishdi. Ular tanishishdi va bir-birlarining uzuklarini alishtirib taqishdi.	8
36.	Xolbeka tushini kimga aytib berdi?	Kaniziga	8
37.	Xolbeka kanizining ismi...	Bahragul	8
38.	Bahragul Oybekaga qanday murojaat qiladi?	"Oybibim" deb	8
39.	Suratkash olib kelishni Xolbeka kimga buyuradi?	Bahragulga	8
40.	Xolbeka No'g'ay yurtiga sandiqda nimalarni oqizib yuboradi?	Mohir suratkashga chizdirgan o'z rasmini, suratini, to'raning uzugini, o'z holini ham arz qilib yozib yubordi	8
41.	Kuntug'mish qirq yigitib bil'an ov qilayotgan edi. Dar vodan bir sandiq oqib keldi. Yigitlar nima uchun sandiqni tanlashdi? Kuntu g'mishga esa ichidaqilar qoldi?	Sandiqning tashqarisi tilladan bo'lganligi uchun	8
42.	Kuntug'mish nima sababdan husidan ketib qoldi?	Xolbekaning suratini ko'rgandan so'ng	8

43.	Qoraxon podshoh o'g'lini tuzatish uchun kimlarga qaratdi?	Qushnoch, baxshi, mulla, eshonlarga	8
44.	Kimlar Kuntug'mishni xalqa qilib qaradi?	Eshonlar	8
45.	Kuntug'mishning dardi ishq ekanligini podshohga kim aytdi?	Bir ayyor qushnoch	8
46.	Qushnoch Kuntug'mishni qanday hushiga keltirdi?	Uch piyola sharob berib	8
47.	" ... bir qiz turibdi qaqqayib: qoshini kerib, labini burib, chikka bel bo'lib, shirin qilib kulib, taraqqos boylab, suqsurday bo'ylab, tovusday taranib, bellari buralib". Suratdag'i qiz kim? Uni dostondag'i qaysi qahramon ko'rди?	Suratdag'i qiz – Xolbek'a. Uni Qoraxon podsho ko'rди	8
48.	Kim 40 yigit va 40 xachirga zar ortib: "Musofirchilikda yo zaring bo'lsin, yo zo'ring bo'lsin", – deb Kuntug'mishni yo'lga kuzatib, unga oq fotiha beradi?	Qoraxon podsho	8
49.	Zangar shahriga borib, Kuntug'mish nima ish qiladi?	Bazzoz (gazlamafurush savdogarbachcha) qiyofasiga kirib, Ko'shk yonida mato sotib o'tiradi	8
50.	Xolbeka bilan Kuntug'mish nard o'ynaganida kim g'olib bo'ladi?	Kuntug'mish	8
51.	"Xolbeka har kun tong vaqtidan kichik choshkaga dovur ko'shkiga chiqsin, yuzidan niqobini olsin, olamni tomosha qilsin", – deb kim buyuradi?	Qor: por	8
52.	Xolbeka uch kun ko'shkka chiqmagach, podshoh uni oldiga kimlarni yubordi?	200 jallod, 4 mirg'azabir	

53.	Kuntug'mish va Xolbeka qayerga berkinishadi?	Dastlab kampirnikiga, keyin esa podshohning somonxononasiga	
54.	Kuntug'mish va Xolbeka qanday qo'lga tushadi?	Zamonqulning ahmoqligi va podshohning miroxo'ri-ning chaquvi natijasida	
55.	Podshohning umarolari: "Shu begunohlar o'lmasin", – deyishdi va qanday maqol keltirishdi?	"Xon g'azabi – Xudo g'azabi"	8
56.	"Osib o'ldirdingiz – ko'rdik, bosib o'ldirdingiz – ko'rdik, minordan tashladingiz – ko'rdik, to'pga solib ottingiz – ko'rdik", – deya kimilar aytishdi?	Arkoni davlat (podshohning amaldorlari)	8
57.	Kuntug'mish va Xolbekaga qanday jazo qo'llashadi?	Biyani tulup qilib so'yib, xom teriga Kuntug'mish va Xolbekani o'rabi, bir asov baytalning dumiga bog'lab, cho'l-jaziramaga haydab yuborishadi	8
58.	Tulup otning dumidan necha kun deganda uziladi?	6 kun	8
59.	Qudoq so'zini izohlang	Tulup ma'nosida	8
60.	Kuntug'mish va Xolbekaga te ching ichidan qanday qadidi?	Quzg'un terini teshadi	8
61.	Kuntug'mish va Xolbeka cho'l- u jaziramada och-nahor juda qiynalishdi. Shu poyta yurga Xolbeka Kuntug'mishga nima dedi?	"Meni tashlab ketaver, sendan roziman", – dedi. Lekin Kuntug'- mish holdan toyib yurilmayotgan Xolbekani ko'tarib yurib bordi.	8

62.	Kuntug'mish va Xolbekaga terini ichidan chiqqandan keyin necha kunda qaysi tog'ga yetishadi?	3 kun o'tgach, Mug'ol tog'iga yetib borishadi	8
63.	"Shukur, ajalimiz yetgani yo'q ekan, o'lmay shu tog'ga keldik, albatta chashmazor suvlar, har alvon mevalar bo'lsa kerak", – deb kimlar aytadi?	Kuntug'- mish va Xolbeka	8
64.	Mug'ol tog'ida qanday yegulik ko'p edi?	Yovvoyi yong'oqlar, pistalar, jiydalar, toklar	8
65.	Kuntug'mish va Xolbeka qishlik ovqatlari uchun nimalarni g'amlashar edi?	Yovvoyi mevalarni quritib, ko'mib qo'yishardi	8
66.	Bir yil o'tgandan so'ng Xolbeka va Kuntug'mish oilasida qanday yangilik bo'ldi?	Ikki o'g'il farzand ko'rishdi	8
67.	Bir karvon keladi. Karvonboshi kim edi?	Azbarxo'ja	8
68.	Azbarxo'jani ta'riflang	Xasis, xudbin, razil kimsa	8
69.	Kuntug'mish Azbarxo'jadan bir kosa suv va bitta non so'raydi. Uning evaziga Azbarxo'ja Kuntug'mishdan nimani talab qiladi?	Bir kosa suv va bitta non evaziga buloqni egallab yotgan ajdar-honi o'ldirish shartini qo'yadi (Kuntug'mis' shartni bajaradi)	8
70.	Qur'oni karimni o'rtaga qo'yib, Kuntug'- mish bilan do'st tutingan qahramon?	Azbar	ja 8
71.	Kuntug'mish xotini va o'g'llarini olib kelgani-dan so'ng Azbarxo'ja ularga qanday munosabatda bo'ldi?	Xolbekaning husn-u jamolini ko'rib, Azbarxo'janing fe'lilay Kuntug'mishni ziyoftda ma' kigizga o'rabi, ikki o'g'lini he sahroda qoldirib, Xolbeka qilganicha Zangar yurtiga ketadi	8

72.	Karvonda ketayotgan yosh bir insofli, diyonatli yigit...	Qosim	8
73.	Karvonda ketayotgan qaysi odam ko'zalarda suv va ovqat qoldirib ketaverdi?	Qosim qabilaboshi	8
74.	Karvon daryodan o'tayot- ganda qolgan qayiqlarni Azbarxo'ja nima qildi?	Suvga cho'ktirib yubordi	8
75.	Daryoning nomi...	Tajang	
76.	Kayfi tarqagan Kuntug'- mish qayoqqa yo'l oldi?	Farzandlarini olib, karvon ortidan yo'lga tushdi. Yo'ldagi non- suvsilar bilan qornilarini to'yg'azdi	8
77.	Kuntug'mish bir bolasini yo'r- gaklab, og'zida tishlab daryo- dan suzayotganda ikkinchi bolasini qayerga qo'ydi?	Bir tup g'isha o'simli- gining ostiga qo'ydi	8
78.	Kuntug'mish bolalaridan qanday ajraldi?	O'g'illaridan birini daryo bo'yiga qo'yib, birini og'zida tishlab daryodan suzayotganda, chetda turgan bolasini bo'ri olib qochdi. Kuntug'mish: "Vohl!", – degan edi, og'zidagi bolasi ham suvga tushdi, uni baliq yutib ketdi	8
79.	She <sup>r</sup> haybatli, yo'lbars sifatli deb ta'rifi <sup>angan</sup> qahramon...	Kuntug'- mish	8
80.	Kuntug'mish boshidan o'tkazgan voqealarni kimga aytib beradi?	Cho'ponga	8
81.	Cho'ponning Kuntug'mish- ga murojaat sifatida bilil- gan g'azalida dostonlarda uchraydig'an qaysi qahra- monlar nomi keltirilgan?	Yusuf va Zulayxo, Layli va Majnun, Zebo va Yozi	8

82.	"Qarorim yo'q, turay desam, Madorim yo'q, yuray desam", – deb kim aytadi?	Kun-tug'mish	8
83.	"Otimni ... deydi, men ... ning xoniman, Dilbaridan ayrilib, men bir ajab sarsoniman, Oldirib ikki qo'zimni diydayi giryoniman..." Nuqtalar o'rniga tushirilgan so'zлами qo'ying	Kun-tug'mish, No'g'ay	
84.	"Mosuvoday ko'kka uchdim, Ajal sharobidan ichdim, Bu dunyo bahridan kechdim, Qalandar bo'lganim bo'lgan". Ushbu misralar qaysi qahramon nutqidan olingan?	Kun-tug'mish	
85.	Kuntug'-mishning bolalari qanday tirik qolishdi?	Bolani tishlab qochayotgan bo'ri ni cho'ponlarning iti quvladi. Bo'ri shoshib bolani tashlab qochdi. O'n bir cho'pon bolani asrab olishdi va Gurkiboy deb ism qo'yishdi. Bolani yutgan baliq qataq'anlik Olim sayyod degan odamning to'riga tushadi, baliqchining farzandi yo'q edi, Mohiboy deb ism qo'yib, tarbiya qilib boqa berdi	8
86.	Bo'ri bolani olib qochayotganida o'nta cho'pon nima ish qilayotgan edilar?	Itlariga osh pish' yotgan edilar	8
87.	Cho'ponlar bolanining bo'ri olib qochganini ko'rib, qanday gumonlarga borishdi?	– Mo'ltонини – Qozoqни – Bir uyqu xotinning!	8
88.	Gurkiboy va Mohiboy ismlarining ma'nosi...	Gurki – б baliq de anglata Mohi – ma'noni	8

89.	Gurkiboy va Mohiboy nima ish bilan shug'ullanar edi?	Gurkiboy o'n yoshidan boshlab, o'n bir cho'ponning qo'yini navbatma-navbat boqar edi. Mohiboy baliq va kabob sotar edi	
90.	"...Qaddi bukilib, ranglari sarg'ayib, qovog'i tortib, tayoqday qotib, qizil ola qoniga botib..." deb ta'riflangan qahramon...	Xolbeka	
91.	Azbarxo'ja Xolbekani Buvraxon ga qanday qarorga keldi?	Azbarxo'jani zindonga soldi, Xolbekani Xolmo'min yasovulboshiga berdi	
92.	Cho'ponlar aytdi: "Bizga tojikingni qo'y, o'zbaki qilib aytib ber". Cho'ponlarning "tojiki", "o'zbaki" degan so'zlarini izohlang	Cho'ponlar sahronishinda, g'azalni ham tojiki deydi ekan, ularning o'zbekisi jo'n so'z ekan	
93.	Cho'ponlar Kuntug'mishni ko'rgan cho'ponga: "Sen Gurkiboyni doim izzat qilasan, bizga sababini aytasan, agar aytmasang seni o'ldiramiz", – deb, c'ntasi yigirmata dehqoniymusht tushirdi. Cho'pon qanday javob berdi?	Cho'pon Kuntug'mishdan eshitganlarini aytib berdi. Bاليqning ichidan sog' chiqqan bola Gurkiboyning ukasi ekanligi, uni Olim sayyod degan odam boqib olganligini ham aytdi	
94.	Gurkiboy o'zi, ota-onasi va ukasining o'tmishi haqida qanday xabar topdi?	Cho'ponlar suhbatidan	
95.	Gurkiboyning zotini bilganidan so'ng cho'ponlar qanday qarorga kelishdi?	"Endi Gurkiboyni katta qilaylik, qattiq ishga buyurmaylik" – deb	
96.	Kashishlik, nuronalik, marta-balik bo'lgan bola kim?	Mohiboy	

97.	Gurkiboy nima uchun cho'ponlardan qochib ketdi?	O'zining o'tmishidan xabar topib, kechasi bilan yig'lab chiqqan Gurkiboy ertasiga qo'y boqayotgan paytda uxlab qoldi. O'nta bo'ri qo'ylarning uchdan ikki qismini yeb ketibdi. Gurkiboy cho'ponlardan qo'rqib qochib ketdi	
98.	Gurkiboy va Mohiboy qay tariqa uchrashib qolishdi?	Mohiboy kabobning pulini va ustki kiyimlarini qimorda boy berdi. Bاليqchilardan qo'rqib, qochib ketdi. Mohiboy va Gurkiboy daryoning ikki tomonida uchrashishdi	

**Quyidagi misralar qaysi qahramonlar nutqidan olingan?**

99.	"Yaxshilarning yuzin ko'rsang jannatdir, Yomon odam qilgan ishi minnatdir, Achchig'lanmay javob bergin, chirog'im, Ot so'ramoq, zot so'ramoq sunnatdir"	Gurkiboy	
100.	"Birov o'rga, birov qirga yuradi"	Mohiboy	
101.	"Oh ursam g'amxonam ko'nglim jo'shadi, Alam tortsam bandi-bo'g'nim bo'shadi"	Mohiboy	
102.	Gurkiboy nima sabab-dan o'zini ukasiga tanitmadi?	"Og'zi yomon tezob ekan, har kim biz podshozodamiz deb ayta ber Podsholarning dushmani ko'p b emish, mabodo, biror hodisa bermasin", – deb o'zini tanitm	
103.	Gurkiboy va Mohiboyni Zangar shahrida kim uyiga xizmatkor qilib olib ketadi?	Kolmo'min yasovulboshi	8

104.	"Hech kim bilan ishi yo'q, odam bilan hushi yo'q, o'zidan boshqa kishi yo'q; chekadi bang, aytadi vadavang. Bir qurib qolgan daraxtning ostiga borib, ko'mir qilmoqchi bo'lib, olov yoqib nashaning taraddudida edi". Parchada ta'riflangan qahramon..."	Kun-tug'mish	8
105.	Kuntug'mish qayerda qay ahvolda yurar edi?	Zangar shahrida bir tadbir-chora topolmay, eski kuloh-jandalarni kiyib yurar edi	8
106.	Zangar shahri podshohi Buvraxon vafot etgandan so'ng, uchirilgan davlatqush kimning boshiga qo'ndi?	Kuntug-mishning	8
107.	Jarchilar nima uchun: "Zamon kimning zamoni Qalandarxonning zamoni", – deya jar solishdi?	Davlatqush uch marta uchirilsa ham, Kun-tug'mishning boshiga qo'nganligi uchun	8
108.	Bolalar Zangar shahriga borganiga necha oy bo'lganida shu shaharga Kuntug'mish podsho bo'ldi?	5-6 oy	8
109.	Podshoh Kuntug'mish amaldorlariga bir haftadan jilovxonada istiqomat q'ilib ketishini tayinladi. Birinchi navbat kiunga tegdi?	Xolmo'min yasovul-boshiga	8
110.	Xolbeka Xolmo'min yasovulboshi uyida yurgan ikkita yetim bola o'zining o'g'llani ekanligidan qanday xabar topdi?	Gurkiboy Mohiboya o'zlari haqidagi cho-pondan eshitgan gaplarni aytib berayotganda Xolbeka eshitib qoladi. Ona va farzandlar bir-birlari bilan topishadi	8
111.	Kuntug'mi sh va Xolbeka bolalarining necha yoshligida ulardan ajralgan edi?	3 yoshligida	8

112.	Xolbeka farzandlarini qayerga yuboradi?	Otasining yurti No'g'ayga	8
113.	Xolbeka bo'lalarini nima sababdan No'g'ayga jo'natdi?	Xolbeka Kuntug'mishni podsho bo'Iganidan bexabar edi. Uni o'Igan deb o'ylardi. "Zangar shahri otalaringga vafo qilmadi", – deya ularni No'g'ayga yubordi.	8
114.	Gurkiboy va Mohiboy Zangar shahridan chiqishda kimni o'ldirishdi?	Darvozabon qo'rбoshini	8
115.	Zangar shahrining yangi bo'l-gan podshohi nima sababdan Mohiboy va Gurkiboyni dorga osishni buyurdi?	Gurkiboy va Mohiboy Zangar shahridan chiqishda darvozabon qo'rбoshi bilan janjallahib, uni o'ldirib ketishadi. Sakkiz kun yo'l bosishdi. Olatog' degan joyda o'n ming uyli qul yilqi boqib yurar edi. Ularning cho'ponlarni o'ldirib, yilqilarini haydab ketishadi. Besh kundan so'ng podshoh lashkarlari Gurkiboy va Mohiboyni bandi qilib, Zangar shahri ga olib ketishadi.	8
116.	Gurkiboy va Mohiboyni bandi qilib shaharga olib kirishayotganida podshoh kimlar bilan o'tirar edi?	Arkon davlat, umar vazir-u vezaro, qo'fuzalo, mufti-yu u' mahram, yasovi og'achi, shig'ov jamiki sipohlar o'tirib edi	8
117.	Bandilarga podsho qanday jazo qo'llamoqchi?	Dorga tortm	8

118.	Kuntug'mish bolalarni ko'rib, jazolagisi kelmadi: "Kel-e, bu bachchalarning og'ziga bir luqma solay, agar bizlar qilganimiz yo'q desa, ozod qilay?" – deya ularga qarata savol berdi. Podshohga Mohiboy qanday javob berdi?	Yolg'on gapirsam, mardlik qo'ldan ketadi deb, Mohiboy to'g'risini so'zladi	8
119.	Mohiboy va Gurkiboy yilqini qayerdan haydab ketgan edi?	Oqsuvdan	8
120.	Bolalarni haydab kelishga qancha lashkar borgan edi?	O'n ikki ming	8
121.	Lashkarlar bolalarni necha kunda olib kelishdi?	O'n kunda	8
122.	Xolbeka nola qilib kimdan madad so'radi?	Bobo Zangi podachidan	8
123.	"Analhaq deb Mansur senga osildi, Assalomu alaykum dorning og'ochi", – deb zorlangan kim?	Xolbeka	8
124.	"E ena, bu og'ochning qo'lidan nima keladi", – degan qahramon...	Gurkiboy	8
125.	Kuntug'mish o'g'illarini qanday tarzidi?	Mohining so'zlaridan: "Meni o'ldir, Gurkini ozod aylanglar, Qoraxonning yurti sabil qolmasin. No'g'ayning yurti besohib bo'lmasin, Mening kasodimga Gurki o'lmasin".	8
126.	Xolbeka nima sababdan Kuntug'mishni: "Podsho bo'lma y bo'lувsиз qolqur", – deb qanday deb qanday?	Kuntug'mish o'g'lini tanib dor ostiga yetib kelguncha, jallodlar Mohiboyni dorga tortib yubordi. Kuntug'mish arqonni kestirdi. O'g'li bir soatda hushiga keldi	8

127.	Azbarxo'ja Kuntug'mish va bolalarini qaysi cho'lida qoldirgan edi?	Zarchaman cho'lida	8
128.	Azbarxo'jani qanday jazolashdi?	Gurkiboy va Mohiboy Azbarxo'janing tilini ko'maklayidan kesib, o'ldirishdi, gavdasini o'tda kuydirib, kulini ko'kka sovurishdi	8
129.	Kuntug'mish qirq kun to'y bergandan so'ng, Zangarga Xolmo'minni podshoh qildi. O'zi Xolbeka yori, farzand'ari, qatorda nori, xazinada zari, qancha xizmatkor, qul, cho'ri, kanizaklari bilan qayerga yo'l oldi?	No'gay shahriga	8
130.	Bu vaqtda No'g'ay podshohi kim edi?	Qoraxonning qushbegisi. Qoraxon podshoh Kuntug'mish o'tida kuyib tagzaminda toat-ibodat bilan mashq'ul edi	8
131.	"Kuntug'mish" asari xalq dostonlarining qaysi turiga mansub?	Ishqiy-qahramonlik (ishqiy-sarguzasht) dostoni	8

### Quyidagi xususiyatlar qaysi qahramonlarga xos'

132.	Yolg'iz, erka o'g'il...	Kuntug'mish	
133.	Bosiq, vazmin, aql bilan ish ko'radian bol...	Gurkibo	8
134.	O'z so'zida turadigan, barcha hunarlar-da mohir, hamiyatli, g'ururi baland qiz...	Xolbe	8
135.	Biroz shaddod, biroz quv yigit...	Mos	8
136.	Aqli, bilimli, jasoratli, elga g'amxo'r, xotini, bolalariga mehribon, vafodor yigit...	Ku tv ish	8
137.	O'ziga bino qo'ygan, qahri qattiq, ba'zan ko'ngilchan qahramon...	/raxon	8

138.	Dostonda qaysi qahramonlarsiz Kuntug'mish va Xolbeka taqdirini to'laqonli tasavvur qilish qiyin?	Qosim, Xolmo'min, Mullavachcha, Zamonqul	8
139.	"Kuntug'-mish" dostonida hikmatli so'zlar darajasiga ko'tarilgan baytlar...	"G'aribning ko'nglini ovlamoq savob", "Qilichdan seskanmas botirning tani", "Gavharni ne bilsin ushalgan sopol", "Zarning qadrini zargar bilar har yerda", "Kamlikning kamoli bordir, manmanlikning zavoli bordir", "Yaxshilarning yuzin ko'rsang jannatdir, Yomon odam qilgan ishi minnatdir", "O'zingdan kattani uchratsang pir bil, O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil"	8
140.	"Kuntug'mish" dostonida qo'llangan qanday she'riy san'atlar asarning badiiy qimmatini oshiradi?	O'xshatish, mubolag'a, kinoya	8
141.	Qaysi asarda bitta non va bir kosa suv uchun oilasini xatarga qo'ygan qahramon qatnashgan?	"Kuntug'mish" dostonida	
	"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi" unvoni qachon ta'sis etilgan?	2000-yil 14-mart	
143.	Dostonda voqealar, sarguzashtlar asan qanday usulda bayon etiladi?	Nasriy usulda	
1	Dostonda qahramonlar tavsifi, ruhiy kechimlalar asosan qanday usulda bayon etiladi?	She'riy usulda	

## “RAVSHAN” DOSTONI

1.	Go'ro'g'libek qayerda yashagan?	Buxorodan tumanda (tubanda, quyida), Taka-Yovmit deganda, Yovmit elida, Chambil belida	7
2.	Go'ro'g'libek xotinlari Yunus bilan Misqol pari-ni qayerdan olib kelgan?	Ko'hi Qofdan, Eram bog'idan	7
3.	Go'ro'g'libekning farzandi bo'Imadi. U asrandi farzandlarini qaysi shaharlardan olib keldi?	Hasanxonni Vayangandan olib keldi, Misqol pari: "O'g'lim", – dedi. Avazxonni Xunxordan olib keldi, Og'a Yunus pari: "O'g'lim", – dedi.	7
4.	"Sher haybatli, yo'lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli" deya ta'riflangan yigitlar...	Avazxon bilan Hasanxon	7
5.	Hasanxon kimga uylandi?	Arzrumdan xon Dallini olib qochdi	7
6.	Avazxonga kimni olib berishdi?	Gulqiz degan bir barno suluvni	
7.	Hasanxon va Avazxonning farzandlari...	Hasanxon va xon Dalli o'g'il farzand ko'rishdi, Avazxon va Gulqiz qiz farzand ko'rdi. Go'ro'g'libek ularning ismini Ravshanbek va Gulanor de' qo'ydi	
8.	"Enagalar parvarish qilib boqib, bachalarni tarbiya qilib katta qildi. Bachalar birdan ikkiga kirdi, ota-onas deguday bo'ldi". Parchadagi bachalar kimlar?	Ravshanbek va Gulanor	7
9.	"Yaxshi suratli, shirin so'zli, quralay ko'zli, uzun bo'yli, keng ko'krakli, xush xayol, zehni tez, serfahm qiz". Parchada qaysi qahramon tasvirlangan?	Gulanor	7

10.	Ravshanbek mактабда о'qиганіда ко'з остига оlib qо'ygан qиз...	Gulanor	7
11.	Gulanори Ravshanbekка оlib berish uchun Avazxonning oldiga sovchilikka kim bordi?	Go'ro'g'libek	7
12.	Ravshanbek bu paytda necha yosh edi?	O'n besh-o'n olti yosh	7
13.	Avazning laqabi...	Bol Avaz ("Asalday shirin" ma'nosida)	7
14.	Go'ro'g'libek Avazxonni necha yoshida olib kelgan?	Yetti yoshida	7
15.	Go'ro'g'libekning sovchiligidagi Avaz qanday javob berdi?	"Bermayman Ravshanga Gulanor qizimni! Men Hasanga teng qilmayman o'zimni!"	7
16.	Nima uchun Avazxon qizini Ravshanga berishni istamadi?	Manmanligi sababli o'zini Hasanxonдан ortiq hisoblardi	7
17.	"Qizning otasi rozi bo'limgani uchun yig'lab kelayotgan Ravshanbekka On'a Yunus pari nima beradi?	Xosiyatli uzugini	7
18.	Ko'zida qanday tasvirlar bo'	Yer yuzidagi jami go'zallarning surati va ismi, shuningdek, Qoraxon podshoning qizi – Zulkumorning ham surati va ismi bor edi	7
19.	Zulxumoroyning yurti...	Shirvon eli	7
20.	Zulxumoroyni yoqtirib qolgan Ravshanbek Shirvon yurtiga qaysi otda yolda tushadi?	Otasining urushga minadigan Jiyronqush degan otida	7

21.	"Sen bo'lmasang otang holi ne kechar? Sensiz menga falak kafan-to'n bichar, Dunyoning bolini zahar deb ichar, Qanday kuni kechar sho'r enang nochor, Harna yo'g'-u borim, senga yo'l bo'lsin?" Parcha qaysi qahramon nutqidan olingan?	Hasanxon	7
22.	Ravshanbekning qilichi qaysi shaharda yasalgan?	Isfihon shahrida	7
23.	Hasanxon kim bilan do'st edi?	Darvozabon bilan	7
24.	"Qaladan qalampir yuklar qalachi" misrasining mazmuni...	"Shahardan qalampir yuklar shaharlik"	7
25.	Shirvon eli necha oylik yo'l?	Uch oylik	7
26.	"Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot! Nasihatim yod qilib ol, farzandim, Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot", – deb Ravshanbekka kim nasihat qildi?	Hasanxon	7
27.	"Uzoqdan kelayotibman, G'amning loyiga botibman". Parcha qaysi qahramon nutqidan olingan?	Ravshan	
28.	Ravshanbek Shirvonga borganida qayerda yashaydi?	Bir kampirga o'g'il tutini' unikida yashaydi	7
29.	Ravshan- bek bozor aylanib, Zulxumor- oyim haqi- da qanday ma'lumo- tlarni bilib oladi?	Zulxumorning qalpoq tikib, har bozor kuni yigitlarga sotishni rasm qilg'an bozordagi ko'shkning ustida yu ochib o'tirishi, yigitlar ko'rman bir lagan tilla hadya qilib, uni qilishlarini bilib oladi	7

30.	"Mardikorlik – ish bozori, Cho'yan bozor, mis bozori, Manov pishiq g'isht bozori, Qassob bozor – go'sht bozori, Qalpoq bozori qaysidir", – deb kim so'rab bormoqda?	Ravshanbek	
31.	"Ravshan" dostonida Sharq bozori necha misrada tasvirlangan?	145 misrada	
32.	"Ey o'zbek! Muncha baqirasan...", – deb Ravshanbekka qalpoq bozorini kim ko'rsatib yuboradi?	Bir nasha-vand	
33.	Qalpoq bozori qayerda joylashgan?	Pichoq bilan qin bozoridan so'ng	7
34.	"Oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to'lgan oyday ikki qoshi hiloli, yasangan hurday, tishlari durday, ko'zлari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og'izlari o'ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig'ay uchadigan qushday, muhrlangan qog'ozday, yalt-yult etib o'tiribdi. ... U yog'ida to'qson besh, bu yog'ida to'qson besh – o'n kam ikki yuz kokili bor, bir yog'ini tilla suviga botirgan, bir yog'ini kumush suviga botirgan, tong shamolida qotirgan. <u>Ja- moli chillaning qoriday tingijirab,</u> <u>yah tirab o'tirgan".</u> – deya ta'riflangan qahr amon kim? Yuqoridagi parchada qandaq she'riy san'at qo'llangan?	Zulxumo-royim. Saj	
35.	Zulxum morning jamoli jilvasiga chidar nay, baland quyilib kelib, egninga, kiftiga tegib-tegib, uchib boray otgan qushlar...	Musicha, so'pito'rg'ay, g'azalay, simcha	7

36.	"Zulfin toblab turgan qizlar, Elda davron surgan qizlar, Kaptarday bo'b yurgan qizlar..." Ravshanbek ushbu gapni Zulxumoroyning kanizlariga qayerda aytadi?	Bozorda	7
37.	Zulxumoroyning kanizlari ortidan kelib gulning ichiga yashiringan Ravshanbekni kimlar ko'rib qoladi?	Zulxumoroyning kanizlari	7
38.	Yigit kim, qayerlik ekani, nimaga kelganini so'rab, ko'rmanasini olib kelish uchun Zulxumoroyning kimni jo'natadi?	Oqqiz de- gan kanizini	7
39.	Ravshan ko'mana uchun Zulxumorga nima beradi?	Yunus pari bergan uzukni	7
40.	Zulxumoroyning nima sababdan Ravshanni huzuriga olib kelishlarini buyuradi?	Uzukda surati va ismini ko'rib, uni sehrli va bebaholigini bilib, bunday uzuk har kimda ham bo'lavermasligini o'ylab yigitni chaqirtiradi	7
41.	Zulxumoroyning nima sababdan Ravshanni qabul qilib, ziyofat beradi?	Avvalo, uzuk ko'zidagi yozuvni taqdirning bitigi deb bilganidan, ikkinchidan, yigitni yoqtirib qolganidan	7
42.	Zulxumorning bog'ida o'zbek yigitni Ravshanbek yashayotganidan Qoraxon podsho qanday xabar topadi?	Ravshanga ko'p iltin sa-da, uning e'tibori... zona olmagan hasad Oqqiz alamidan Rav haqida onasiga ayt radi. Onasi Qoraxc yetkazadi. Qoraxc mirg'azablari Rav bandi qiladilar?	10 / / 3- 1 ng anni

43.	Ravshan nima sababdan zindonga tushib qoladi?	Yoshligi, soddaligi, tajribasizligi uchun	7
44.	Podshoh Ravshanga nisbatan qanday jazo tayinlaydi?	Avval osishga buyuradi, so'ngira Shirvon kattalari maslahatiga ko'ra yigitni zindonga tashlab, qirq kun muhlat beradi. Agar o'zlarining diniga kirsa, kuyov qilishga, kirmasa, dorga osishga qaror qiladi	7
45.	Qoraxon podsho qizi Zulkumorga qanday jazo qo'llaydi?	Zulxumor kanizlari bilan bir hovliga qamab tashlanadi, tevaragiga besh yuz sarboz qorovul qo'yiladi	7
46.	Zulxumor Ravshandan qanday xabar olib turadi?	Bi necha lahmchi topib, hovlidan zindonga lahm kovlatib xabar oladi	
47.	Zulxumor Ravshanning ota-onasiga qaysi qush orqali xabar yo'llaydi?	Mayna qushi orqali	7
48.	Zulxumor xatni Ravshan bandi bo'lgandan so'ng necha kun o'tgandan keyin yozadi?	19 kun	7
49.	Mayna qushi Chambilda kimning qo'liga qo'nadi?	Ravshanning onasi Dallining qo'liga	7
50.	Hasanxon o'g'lini qutqarish uchun qaysi otda yo'lga chiqadi?	Go'ro'g'lining mashhur G'irot (G'irko'k)ida	7
51.	Hasanxon yo'lga chiqqanida Qoraxon bergen muhlatning necha kuni o'tgan edi	20 kuni o'tgan 20 kuni qolgan edi	7
52.	Hasanxon G'irotda uch oylik yo'lni necha kunda bosib o'tadi?	20 kunda	7
53.	Shirvon elida Ravshan o'g'il tutingan kampirning nechta o'g'il bor edi?	Oltita o'g'il bor edi, barchasi o'lib ketgan	7

54.	Qoraxon podsho kimlardan qo'rqar edi?	Kampirning oltita o'g'lidan	7
55.	Kampirning katta o'g'lining bir nonxo'r polvonи bor edi. Shu polvon va ukalarining ismi va kasbini aytинг	Aynoq kal – polvon, Jaynoq kal – masxaraboz, Ersak kal – mergan, Tersak kal – sinchi	7
56.	Ravshanni qutqarish uchun kampir kimlardan yordam so'raydi?	Aka-uka kallardan	7

### Quyidagi ta'riflar qaysi qahramonlar haqida?

57.	Ot, tuya, arava ko'tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko'chmoqchi bo'lsa, piyoda ketar edi	Aynoq kal	7
58.	Agar birovni aldamoqchi bo'lsa, har tusli bo'lganda o'zining jo'ralari ham tanimas edi	Jaynoq kal	7
59.	Oqshomlari qo'liga kamonni olsa, qushni ko'zidan urar edi. Juda mergan edi	Ersak kal	7
60.	Yilqining tulporini suyagidan tanir edi, qilichning o'tkirini qinidan bilar edi	Tersak kal	7
61.	"Ertaga qudag'ay kimga qo'y so'yadi", – deb kimlar aytdi?	Aka-uka kallar	7
62.	Shirvon bozoriga kirib kelgan Hasan mardni dastlab kim taniydi?	Jaynoq kal	7
63.	Aynoq kal: "Bu ot Ishrat devonaning otidan ham yomon", – deb qaysi otni vomonlaydi?	G'irotni	7
64.	Aynoq kal bu otni sinlashni kimga buyuradi?	Tersak kal- ga	7
65.	Aka-uka kallar Hasan mardni qanday taomlar bilan siylashadi?	Palov, go'sht, manti, barak (chuchvara)	7

66.	"Bir "devona" o'tiribdi: devsifat bir ajdahoday, hech narsani ko'zga iladi-gan emas, balki nazariga keltirmay, pisand qiladigan ham emas; shunday haybatli, siyosatli". Parchada qaysi qahramon tasvirlangan?	Hasanxon	7
67.	Bozorning o'tasiga qurilgan dor ostidagi Ravshanga kimlar: "Agar kirsang Qoraxonning diniga, Olib beray suluv Xumor qizini", – deb aytgan?	Qoraxon-ning amri bilan ikki hudaychi, salom og'asi	7
68.	"Hudaychi" so'zining ma'nosi...	Arzgo'y bilan hukmdor o'tasida turadigan mansabdor	7
69.	"Salom og'asi" qanday lavozim?	Saroydagi qabul tartibini nazorat qiluvchi amaldor	7
70.	Ravshanxon vazirlarga qanday javob qaytaradi?	"Men o'lmasam, o'z elimdan kechmayman! Aziz boshing oyog'imga teng emas"	7
71.	Ravshanbekni kimlar qutqaradi?	Hasanxon va aka-uka kallar	7
72.	Qoraxonni kim o'ldiradi?	Hasanxon	7
73.	Shirvon mamlakatiga kim podshoh bo'ladi?	Aynoq kal	7
74.	Aka-uka kallarga xos bo'lgan belgilar...	Mardlik, haqiqatgo'ylik, o'z ishiga mohirlik	7
75.	Zulkumoroyni Ravshanbekka qayerda nikohlashdi?	Shirvon mamlakatida	7
76.	Hasanxon, Ravshan, Zulkumor qayerga yo'lga otlanishdi?	Chambilga	7
77.	"Ravshan" asari xalq dostonlarining qaysi turiga mansub?	Ishqiy-sarguzasht doston	

78.	"Ravshan" dostonining yozib olinish tarixini ayting	Hodi Zarif (1905 – 1972) tomonidan birinchi marta 1928-yilda Ergash Jumanbulbul o'g'li (1968 – 1937) og'zidan yozib olingan va 1941-yili nashr ettirilgan. Ergash shoir "Ravshan"ni otasi Jumanbulbuldan, u esa ustozи Kichik Bo'rondan o'rgangan	7
79.	"Ravshan" dostonining sayqal topib, badiiy go'zal asar shaklini olishida qaysi baxshilarning alohida xizmatlari bor?	Jumanbulbul va Ergash baxshilarning	7
80.	Dostonda urush va jangovarlik holati necha bo'g'inli misralarda aks etgan?	8 bo'g'inli	7
81.	Dostonda tasvir etilayotgan voqeа yo harakat sur'ati tezlashgan holatlar necha bo'g'inli misralarda ifodalanadi?	7 bo'g'inli	7
82.	"Yolg'iz bola yovdan yomon" jumlesi qaysi asarda uchraydi?	"Ravshan" dostonida	7
83.	Xalq dostonlarini do'mbira yordamida kuylovchilar qanday nomlanadi?	Shoir yoki baxshi	7
84.	Xorazmda dostonlar qaysi musiqa asbobi jo'rligida aytildi?	Tor	7
85.	Xorazmda doston aytuvchilar qanday nomlanadi?	Xalfa	7
86.	Baxshilar repertuaridagi asarlarning katta qismini qanday turdagи dostonlar tashkil etadi?	Ishqiy-sarguzasht	7
87.	"Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar soni...	100 tadan oshadi	7
88.	Otashin va samimiy muhabbatni kuylovchi, pok va haq islomiy e'tiqod yo'lida sobit tura oladigan iymonli kishilarni madh qiluvchi, ezzulgulikni, mardlik va botirlikni ulug'lovchi, zulm va zo'ravonlikni, adolatsizlikni qoralovchi asar...	"Ravshan" dostoni	7

89.	Mustahkam islomiy e'tiqod, chin va <del>siz</del> pokiza muhabbat, or-nomus, e'tiqod, qahramonlik, ota yurt va xalqqa <del>sade</del> qat ruhida tarbiyalaydigan doston...	"Ravshan" dostoni	7
90.	"Ravshan" dostonidagi bosh timsollar...	Bosh obrazlar: Ravshan, Zulkumor, Hasanxon	7
91.	"Ravshan" dostonidagi epizodik obrazlar...	1) Shirvonlik kampir ena; 2) Oqqiz; 3) aka-uka kallar	7
92.	"Shunday nginga qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzida jami parini bandiga olgan bandi bor, olam mamlakatiga bermaydigan xosiyati bor, har yerda suluv barno qiz bo'lsa, oti bor..." Ushbu tilsimli ashyo uchraydigan doston...	"Ravshan" dostoni	7
93.	"Go'ro'g'li" turkumidagi dostonda "sher haybatli, yo'lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar" deb ta'riflangan qahramonlar...	Avazxon, Hasanxon	7
94.	"Ravshan" dostonidagi kampirning yilqi tulporini suyagidan tanuvchi, qilichning o'tkirini qinidan biluvchi o'g'li...	Tersak kal	7
95.	Qaysi xalq dostoni qahramoni "Qush uchmagan cho'llardan, So'na yuzgan ko'llardan, odami yo'q yo'llardan, Dim uchi yo'q cho'llardan qistab o'tib boradi"?	"Ravshan", Hasanxon	7
96.	Sharq bozorining jonli tasviri qaysi xalq dostonida berilgan?	"Ravshan"	7

**Quyidagi so'zlarni izohlang**

97.	kirovka	sovut ichidan kiyiladigan metall nimcha	7
98.	qulon	cho'l kiyigi	7
99.	bulon	yovvoyi ot	7

100.	qarsoq	tulkidan kichikroq yirtqich	7
101.	mursak	yengsiz paxtalik kamzul	7
102.	salloh	qassob	7
103.	qala	shahar	7
104.	qalachi	shaharlik	7
105.	suqsur	ko'lda yashaydigan qush	
106.	murt	mo'ylov	7
107.	jazoil	nayza	7
108.	nigin	uzuk	7
109.	qalpoq	do'ppi	
110.	tumanda	tubanda, quyida	7
111.	kechkisin	kechqurun, kechga tomon	7
112.	iskamoq	hidlamoq	7
113.	bachalar	bolalar, bolachalar	7
114.	qalpoq	do'ppi	7
115.	qoralab	mo'ljallab, chamalab, yashirinib	7
116.	bol Avaz	Avazning "asalday shirin" ma'nosini bildiruvchi laqabi	7
117.	tilin olmoq	gapiga kirmoq	7
118.	o'dag'a	"yetakchi", "sardor" ma'nosidagi "o't og'a" so'zining buzilgani	7
119.	sovuj shamol yemagan	"shashti qaytmagan", "og'ir gap eshitmagan" ma'nosida	7
120.	o'mgan	ko'krak, to'sh	7
121.	dim	aslo, mutlaqo	7
122.	bandiga olgan	asirga olgan	7
123.	bandi	duoli yozuv, tilsim	7
124.	uzik	yetuk, kamchiliksiz	7
125.	jaynadi	yashnadi	7
126.	talab ayladi	xohladi, ixtiyor etdi, bormoqchi bo'ldi	7
127.	sog'-u so'l	o'ng-u chap	
128.	taraqqos boylamoq	uchadigan qushday bo'lmoq	7

129.	isfihon	Isfihon shahrida yasalgan keskir qilich	7
130.	po'pakli	popukli	7
131.	kuni kechar	kuni o'tar	7
132.	tolib	talabgor	7
133.	vallamat	bu yerda Go'ro'g'li ko'zda tutilmoxda	7
134.	ishqib	ishqilib	7
135.	guzarchilar	o'tkinchilar	7
136.	jo'n	to'g'ri	7
137.	buzarchi	buzuvchi	7
138.	qo'qimoq	ifloslanmoq, tartibsizlik	7
139.	tovun	tegishli, qarashli, tobe	7
140.	alak	bo'zning turi, olacha	7
141.	jelak	ayollarning yenglari bir-biriga chatilgan yopinchig'i	7
142.	turpa	turfa, har xil	7
143.	tumoq	bo'yinni ham berkitadigan telpak. ko'proq tulki terisidan tikiladi	7
144.	navdaraxt	novdaday, yosh daraxtday tik qomatli	7
145.	tingjiramoq	yaltiramoq, ko'zni olmoq	7
146.	kipt	kift, yelka	7
147.	bulg'ab	silkitmoq, imlamoq, undamoq	7
148.	botamiq	tamizli, mazali	7
149.	mehr-u moh	quyosh-u oy	7
150.	pilla	palla, vaqt	7
151.	xossaki	maxsus, alohida, xos	7
152.	yo'rtib	lo'killab	7
153.	lahim	yer osti yo'lli	
154.	bo'ktarmoq	egar orqasiga bog'lamoq	7
155.	do'ngtarmoq	yelkasiga do'ng tomonini sirtiga qilib, to'ntarib osib olimoq	7
156.	alqim	shiddat, epkin	7
157.	qotmoq	qorishtirmoq	7
158.	jiiziq	kuydirilgan quyruq, jizza	7
159.	bohunar	hunarli	7
160.	biyir	biqin	?

161.	uchcha	tos suyagi bilan son suyagining birlashgan joyi. dostonda "jin urgur" ma'nosida	7
162.	qadama og'och	yog'och butoqlaridan tayyorlangan qoziqlar yerga qadab o'ynaladigan bolalar o'yini	7
163.	sinlamoq	chamalamoq, tanimoq	7
164.	yobi	cho'bir, qirchang'i	7
165.	barak	chuchvara	7
166.	hudaychi	arzgo'y bilan hukmdor o'tasida turadigan mansabdar	7
167.	salom og'asi	saroydagi qabul tartibini nazorat qiluvchi amaldor	7
168.	chengnamoq	aniqlamoq, bilmoq	7
169.	o'mrovli	ko'krakdor	7
170.	tishladi	joyiga tushdi	7
171.	uzamay	uzoqlashmasdan	7
172.	ajalli	ajali yetgan	7

### “RUSTAMXON” DOSTONI

1.	“Rustamxon” dostonini kim qaysi baxshi tilidan qachon yozib olgan?	1937-yilda baxshi Fozil Yo'Idosh o'g'li tilidan Xodi Zarif yozib olgan	K, 10
2.	“Rustamxon” xalq dostonlarining qaysi turiga mansub?	Ishqiy sarguzash turiga mansub	10
3.	Sultonxon qaysi viloyatga podshoh edi?	Oqtosh	K, 10
4.	Sultonxonning xotinlari nechta?	3 ta	10
5.	Dostonda podshoh xotinlarining qanday aybi borligi aytilgan?	Befar-zandlik	
6.	Podshohning yoshi qaytib soqoli oqarganda qaysi xotini xomilador bo'ldi?	O'rтancha xotini Huroyim	K, 10

7.	Podshoh uzoq safarga otlanishidan oldin nimalar dedi?	“Dunyoda bir qo'rqqan yomon, bir quvongan yomon”, – degan gap bor. Qariganimda ko'rgan farzandim. Men shu yerda yursam, sen bir kuni tug'ib qo'yarsan. Men quvonganimdan yuragim yorilib, o'lib qolarman	K, 10
8.	Sultonxon farzandi tug'ilmasidan oldin qaysi shaharga necha yilga safarga jo'nadi?	“O'n to'rt yilda kelarman”, – deb Qurudim mamlakati tomon yo'lga otlandi	K, 10
9.	Podshoh oldidan: “Suyunchi!” – deb chiqqanga qanday tuhfa berishni va'da qildi?	“Suyunchi deb chiqqan kishiga ayamasdan tanga-tilla berarman, qulog'idan dunyoga ko'marman, balki qo'rg'onbegi qilarman”	10
10.	“Podshoh safardaligida mamlakatni Huroyim boshqaradi”, – deb Sultonxonga kimlar maslahat berishdi?	Qozika-lonlar	K, 10
11.	“Men ketgan so'ng uydan chiqib o'tirma, Do'st yig'latib, dushmanimni kuldirma... Oqtoshga ega bo'b podshohlik qilgin”, – deb Sultonxon kimga aytadi?	Huroyimga	K, 10
12.	Huroyim iltimos qilganidan so'ng, podshoh tug'ilmagan farzandiga qanday ism qo'ydi?	“O'g'il tug'sang, otin qo'ygin Rustamxon, Qiz tug'sang, gul yuzli, o'zing bilasan”	10
13.	Quridim mamlakatiga borishdan Sultonxonning yana qanday maqsadida borgan edi?	Quridim mamlakati tevaragidagi ellar, bir nechalab qo'rg'on solib turgan beklar Sultonxonga goh boj berib, goh bermay turar edilar. Podshoh ularni Oqtosh yurtiga qo'shib olish maqsadida borgan edi	10

14.	“...Tillari bulbulcha, kimki yaxshi desa, shuncha, ikki yuzi ochilgan gulcha, bellari xipcha, o'zi suluv oyimcha” deya ta'riflangan qahramon...	Ximcha (Huroyim-ning kanizi)	K, 10
15.	Huroyim o'g'il ko'rgandan so'ng farzandiga qanday ism qo'ydi?	Rustam-xon	K
16.	Medrasadan mullani oldirib kelib Rustamxonni qachon o'qitishni boshlashdi?	Tili engganida (chiqqanida)	10
17.	“G'orda yotar edi, xurrakni baland tortar edi, botmon nosvoyni to'rt bo'lib otar edi, yurish-turishi odamlarga xatar edi, ne-ne er yigitlarni ikki pulga sotar edi, yaxshilikni uch pulga olmay, qayerda yomonlik bo'lsa, izlab yetar edi, qanday odam ko'rsa, bu kampirdan hazar qilib uzoqqa ketar edi, yomonlik izlab borgan odamning ishi bu mastondan bitar edi”. Ushbu ta'rif qaysi qahramon haqida?	Momogul maston kampir	K, 10
18.	360 mastoning boshlig'i kim?	Momogul maston	K, 10
19.	Ikki kundosh Momogul mastonga Huroyim va o'g'lini o'ldirishi uchun dastlab qancha haq berishadi?	Bir qop tilla	K, 10
20.	Sultonxon nima uchun o'zi safardan qaytgunicha Huroyimni dorga osishga buyuradi?	Momogul maston Huroyim ustidan fitna-g'iybat to'la arznama yozdirib, firib bilan Oqtosh ahliga tasdiqlatib Sultonxonga olib borgani uchun	K, 10
21.	“Adashganning oldi yo'l” deya kim yo'lga tushadi?	Rustamxon	K, 10
22.	Jallodlarning dodini bergen Rustamxon onasi bilan qayerda qo'nim topadi?	Hukumu tog'ida	K, 10
23.	Tog' bag'ridagi o'tovda Rustamxon kimni ko'rib qoldi?	Oyoq-qo'li bog'lovli qizni	K, 10

24.	"Ajab suratli bir qiz, jamoli kunni xira qilguday, har kim husnini ko'rsa, aqli ketib, otdan yiqilib qolguday". Ushbu ta'rif qaysi qahramonga berilgan?	Oyoq-qo'li bog'langan qiz Oftoboyga	10
25.	Nima uchun qizning qo'l-oyog'i bog'lovliq edi?	Ajdarho Bujul shahrini bosib olgan va har bir uyga bir qiz soliq solgan edi	K, 10
26.	"O'limdan qo'rqarmi, bilgin, mard kishi, Bundan qo'rqib ketmoq nomardning ishi! Ushbu damdir, o'zga damni dam dema, Ajdahardan sira meni kam dema". Ushbu gaplar qaysi qahramon nutqidan olingan?	Rustamxon	K, 10
27.	Ajdarni o'ldirishidan oldin Rustamxon qaysi maqolni aytadi?	"Mard so'zidan, yo'lbars izidan"	K, 10
28.	Ajdar tog' ustidan qayerga tushib kelayotgan edi?	Charxinko'lga	K, 10
29.	Rustam ajdarni necha bo'lakka bo'lib tashladi?	41 g'o'la qilib kesib tashladi (bir bo'lagidan uzun bir tasma oldi)	K, 10
30.	Rustam ajdarholi o'ldirgandan so'ng Bujul shohi unga qanday marhamat ko'rsatib minnatdorchilik bildirdi?	Rustamni shohlikka ko'tardilar va Oftoboyimni unga to'y qilib olib berdilar	K, 10
31.	Rustam Bujulda necha kun podshoh bo'lib turadi?	3 kun (so'ng Oftoboyni olib onasi yoniga qaytadi)	K, 10
32.	Ikki kundosh va shum kampir Huroyimga nisbatan yana qanday razillikni amalga oshirishadi?	Shum kampir Bahra tog'iga kelib, Oqrabotga kiradi. Huroyimni zindonband qilib uning qiyofasiga kiradi va dev yordami bilan Rustamni o'ldirmoqchi bo'ladi. Qizil dev shunday yigit bu shum kampirning o'g'li emasligiga aqli yetib, kampirning o'zini o'ldirib, Rustam va Huroyimni qutqaradi	K, 10

33.	Huroyim, Rustamxon va Oftoboy qayerda baxtli yashay boshlashdi?	Bahra tog'ida	K, 10
34.	Sultonxon Huroyim va Rustamni qanday qiyofada qidirib keladi?	Qalandar qiyofasida	K, 10
35.	Kamxarj qolgan yerda gadoylik qilgan qahramon...	Sultonxon	K, 10
36.	"Oti Rustam, o'zi nor kalla qo'chqor... O'ldirsa o'ldirsin yolg'iz ulim", – degan qahramon...	Sultonxon	K, 10
37.	Sultonxon nechta qalandarga yo'l dosh bo'ldi?	40 ta	K, 10
38.	Sultonxon qanday ulovda keldi?	Eshakda	K, 10
39.	"Dardim ko'pdir, kim biladi ishimni, Qo'limdan qochirdim olg'ir qushimni". Ushbu misralar qaysi qahramon nutqidan olingan?	Sultonxon Oftoboya aytadi	K, 10
40.	"Maydon bo'lsa bedov otlar chopilar... Men ham bildim yo'qchi bo'lib kelibsan, G'am yema, begijon, yo'g'ing topilar". Ushbu gaplarni qaysi qahramon kimga aytgan?	Oftoboy Sulton- xonga	K, 10
41.	Sultonxon ikki kundoshning aybdor ekanligini kimlardan surishtirib bildi?	Xazinabonlardan (g'aznavonlardan)	K, 10
42.	Ikki kundosh xazinabonlardan qancha tilla olgan?	4 qop (hammasini Mogul mastonga bergen)	K, 10
43.	Dostonning yakuni...	Rustamxon otasi bilan topishib, onasi va Oftoboy – hammalari Oqtosh viloyatiga kelishdi. Rustamxon taxtni rad etdi. Ikki kundosh shahardan haydab o'ldirildi. Qolganlar murod-u maqsadiga yetishdi	K, 10
44.	"Cho'l-u ko'lni kezib o'zim yuraman, Yurishimni shohdan ziyod bilaman", – degan qahramon...	Rustam-xon	K, 10

45.	"Men botirman", – deb polvonlik, botirlikni mashq qilib yurgan qahramon...	Rustamxon	10
46.	"Rustamxon" dostonida qanday mavzular bayon etilgan?	1) o'z davrining ijtimoiy-siyosiy munosabatlari; 2) ishq-muhabbat sarguzashtlari; 3) turli fantastik uydirmalar, ertaklarga xos voqealar	10

**Quyidagi so'zlarni izohlang**

47.	murt	mo'ylov	10
48.	tag'i	yana	10
49.	jul	ot yopig'i	10
50.	to'shanchi	ko'r pacha	10
51.	iyartib	ergashtirib	10
52.	lanqa	ta'na	10

**"GO'RO'G'LINING TUG'ILISHI"**

<b>Quyidagi yurtlarning podshohlarini ayting?</b>			
1.	Yovmit yurtining podshohi...	Odilxon	11
2.	Mari yurtining podshohi...	Qovishtixon	11
3.	Taka turkman yurtining begi...	Jig'alixon (Odilxonning begi)	11
4.	Zargar shahrining podshohi...	Shohdorxon	11
5.	Odilxon podshoning farzandlari...	Ikki o'g'il, bir qiz: Urayxon, Ahmadbek, Bibi Oysha	11
6.	Qovushtixonning o'g'li...	To'liboy sinchi	11
7.	Sinchi so'zi-ning ma'nosi...	Otlarning zotini, naslini, yoshini, fe'l-atvorini yaxshi biladigan odam	11

8.	Odilxon podsho nega qo'shin tortib borib Mari yurtini tep-tekis qilib yubordi?	Mari begi Qovushtixon Yovmit elining xoni Odilxon podshonning bozorchi savdogarlarini molini talatgani uchun	11
9.	Qovushtixonning taqdiri...	Qovushtixon bekni to'pga solib otib yuborishdi	11
10.	O'zi ajab bir odobli, chiroyli, yaxshi yigit"...	To'liboy	11
11.	To'liboyning taqdiri...	Odilxon podsho To'liboyni o'lдirmadi, xizmatkor qildi. 14 yoshga kirganida xat-savodi chiqdi	11
12.	Odilxon podshoh qizi Bibi Oyshani kimga nikohlاب berdi?	To'liboya	11
13.	Bibi Oyshanining farzandi...	Ravshanbek	11
14.	Ravshanbek necha yoshida mакtabga chiqdi?	5 yoshida	11
15.	Necha yoshida Ravshanbekning xat-savodi chiqdi?	8 yoshida	11
16.	Jig'alixonning farzandi...	Gajdumbek degan o'g'li va Bibi Hilol degan qizi bor edi	11
17.	Shohdorxonning vaziri...	Holmon	11
18.	Shohdorxon guburlarini (amal-dorlarini) yig'ib maslahat qildi: "Mening bir o'yim bor: Yovmit yurtidan Odilxon podshoni yo'q qilaman, qo'rg'onini qulataman, o'ligini sulataman, xazina-pazinasini o'lia qilib, siz-larga talataman", – dedi. Lekin vaziri nega e'tiroz bildirdi?	"E podsho, so'zingiz ma'qul, lekin elchi yubormoq lozim. Elchi yubormay birdan zo'rlik qilib yov yubormoq podsholardan lozim emas", – dedi	11
19.	Birdan urush qilib, Odilxonn yurti Yovmitdan ko'tarib, yo'q qilib, o'ldirib, mollarini o'lia qilib olmoqni kimlar Shohdorxonga maslahat berdilar?	Podshohning askar boshliqlari, maslahat beruvchi donolari	11

20.	Urushga otlangan Shohdorxon o'rniga yurtni boshqarish uchun kimni tayinladi?	Noibi Subyonni	11
21.	Shohdorxon o'z qo'shini bilan Taka-Yovmit Urganch yurtining Asqr tog'iga necha oyda, haftaning qaysi kunida yetib keldi?	3 oyda, payshanba kuni	11
22.	Taka-Yovmit elining o'quvchi bolalari haftaning qaysi kuni darsdan ozod bo'lishar edi?	Har kuni o'qishar, payshanba kuni tushdan keyin ozod bo'lishar edi	11
23.	Shohdorxon ga kimlar bandi bo'ldi?	To'liboy sinchingning o'g'li Ravshanbek boshchiligidagi tog'ni aylanib yurgan bolalar	11
24.	Mullavachchalarning kelmaganidan Taka-Yovmit eli xavotirlanib, ularni axtarib shu tog'ga kelib qolishdi. Shohdorxonning qo'shini ularning yarmini bandi qildi. Qochganlar Odilxon podsho oldiga borib nima deyishdi?	"Bir cherik – lashkar Asqr tog'ga keldi, yulduzdan ham ko'p"	11
25.	Odilxon podsho Shohdorxonga xat yozdi: "Bu qanday behurmatlik, podsholardan bunday behurmatlik lozim emas edi-ku. Podsholar yurishni, turishni oldin elchilar bilan bildirib, elchiga ko'nmasa, so'ngra safar qilib kelar edi..." Podsho kimni elchi qilib yubordi va qanday javob oldi?	O'zining Taka begi Zamon degan lashkar boshlig'ini elchi qilib yubordi va quyidagicha javob oldi: "Odilxon podsholaring kelib menga fuqaro bo'lsin, boj-xiroj bersin! Bermasa, fuqaro bo'lmasa, yurtini, elini yer bilan yakson qilib, hammasini to's-talqon qilib, o'zlarini	11

		o'ldirib, mollarini o'lia qilib, lash-karlarimga talatib yuboraman!"	
26.	"E podsho, Dushmaning xas bo'lsa ham qo'rq", – deya Shohdorxonga kim aytadi?	Vaziri Holmon	11
27.	Jang boshlanishidan oldin qanday cholg'u asboblari chalindi?	Nog'ora, karnay, surnay, sibizg'a	11
28.	Podshohi haqiqiy kim?	Xudo – Olloh	11
29.	Podshohi majoziy...	Mamlakat shohlari	11
30.	Odilxon podshoning lashkariga kimning qo'shini kelib qo'shildi?	Nazar degan kishi boshchiligidagi ko'p lashkar	11
31.	Urush necha soat davom etdi?	9 soat	11
32.	Xudoning qahri keldi. Shohdorxon podsho manmanligi sabab mag'lub bo'ldi. U Odilxonning qanday shartini bajaridi?	Asqartog'da qo'liga tushgan mullavachchalarni qo'yib yubordi	11
33.	Mullavachchallardan faqat Ravshan kelmadi. Uni kim o'g'irlab oldi?	Shohdorxonning Hamza degan bir odami bor edi. Shohdorxon dan yashirib, Ravshanni bir sandiqqa solib oldi. Uni o'g'il qilib olmoqchi bo'ldi	11
34.	Odilxon tomonidan kimlar bandi qilib olib ketildi?	Odilxonning beklaridan Jig'alixonning o'g'li Gajdumbek va qizi Bibi Hilol	11
35.	Odilxon Gajdumbekka qanday amal berdi?	Yasovul boshliq mansabini	11
36.	Gajdumbek shahardan uzoqroq yerdan sakkiz oshyonlik imorat soldi. Oradan yetti yil o'tdi. Bu vaqtida Bibi Hilol necha yoshga kirdi?	15 yoshga	11

37.	Hamza Ravshanbekni o'g'il qilib oldi va u qanday bola bo'lib ulg'aydi?	Har kuni tong otguncha uning kokilini yetti martaba o'rib, har o'rganda mushknинг suvini berar edi. Ravshanxon ham bir bola bo'ldiki, ko'rganlar havasda, ko'rmanlar armonda, kamsiz, suluv-xushro'y	11
38.	Shohdor- xon podsho qanday tush ko'rdi?	"...Yovmit eldan keldi ikkita bo'ri... Illi bo'ri tog'da ikki sher quvdi. Sherbachchalar qo'yga oralab qoldi, Qo'yimning o'ligin har yoqqa otdi... Tepamdan bir lagan tillam sochildi, Og'zimdan bir tolg'ir qushim uchildi, Imoratim bari tekis bo'ldi, Bir Oy elimda paydo bo'ldi, Shu'lasi olamni yop-yorug' qildi... Bir chinor elimdan ko'karib ketdi, G'alt urib, shoxasi osmonga yetdi, Fuqaromning bari soyalab yotdi"	11
39.	Shohdorxon tushini ta'birlashni kimga buyurdi?	Qur'andozlar – munajjimlarga	11
40.	Shohdorxonning tushini kim ta'birlab berdi?	Yusuf qur'andoz	11
41.	Tushning ta'biri...	"Yovmit eldan kepti ikkita bo'ri: Ikk'e vidan yaxshi farzandlar bo'lar, Qo yingni o'ldirgan bo'ri – ikkovi. Boshlaringga necha savdolar solar, Fuqarongning ko'ngli qop-qora bo'lar. Tushingning ta'biri shuldir, podshoyim. Shu birovi elatingga shoh bo'lar. Tepangdan sochilgan tillang – qoningdir, Og'zingdan uchgan qush – joningdir, Qulagan imorat – sening taningdir... Ko'chalarga yaxshi raislar qo'yar, Masjid-madrasa elingda qilar, Lashkariy qomatni joriy qilib,	11

		Barcha odam jamoat namoz qilar. Savobi osmonga g'alt urib ketar, Savobini Arsh-u Kursiga yetkarar, Fuqaroning bari masjidda yotar, Ko'kargan chinor Haqning kalimasi, Fuqarcngning bari musulmon bo'lar, Tushingning ta'biri shuldir, Shohdorxon"	
42.	Shohdorxon podsho jallod-mirg'azablariga kimlarni topib kelishni buyurdi?	Ravshanxon va Gajdumbekni	11
43.	Shohdorxon Ravshanxon va Gajdumbekka qanday jazo qo'lladi?	Ularni ozod qildi	11
44.	Ravshanbek ko'chalarni tomosha qilib yurib nega yig'ladi?	O'zga yurtda yurganidan xafa bo'lib	11
45.	"Hur tal'atli, maloyika kelbatli, shirin so'zli, jodu ko'zli, zulfi tol-tol bo'lib betiga tarmashgan, latibasi labiga tushgan, munchoqlari kindikdan oshgan". Parchada qaysi qahramon ta'riflangan?	Hiloloy (Gajdumbekning singlisi)	11
46.	Ravshanbekdan: "Nega yig'layapsan?" – deb kim so'radi?	Hiloloy	11
47.	Ravshanbek Hamzaga o'zini ozod etishini so'rab nima dedi?	"Yo javob ber, Yovmit eliga ketay, yo bozorga olib borib quil qilib sotib yubor"	11
48.	Hamza nutqidan qaysi maqollar berilgan?	1. O'zing tug'may ul bo'lmas, sotib olmay quil bo'lmas. 2. O'zingniki o'zagiga tepsang ham ketmaydi. 3. Kishining bolasiga kishmish bersang ham turmaydi	11

49.	"Suluv, qoshi qora, zulfi bo'yniga tushgan, kokili o'ziga juda ham yarashgan, bodom qovoq, ko'rganlar bo'lur aftoda" deya qaysi qahramon ta'riflangan?	Ravshanbek	11
50.	Hamza Ravshanbekni qul bozoriga olib chiqdi. Uni kim qancha tillaga sotib oldi?	Gajdumbek singlisi-dan ta'rifini eshitgan Ravshanbekni ming tillaga sotib oldi	11
51.	Ravshanbek kimga uylandi?	Hiloyga	11
52.	Uyidan ko'ngli to'lib, yor-jo'ra, oshna-og'aynisisinikiga borib, sayr-tomosha qilib yurgan, qayoqqa borsa, borgan, xazina-dafinasini Ravshanbekka topshirib, xizmat ishlarini buyurib yurgan qahramon...	Gajdumbek	11
53.	Gajdumbek bilan Ravshanbek qayoqqa safarga ketishdi?	Bibi Hilolni keyin olib ketamiz deb, o'z yurtlarini ko'rib kelishga ketishadi	11
54.	Gajdumbekning xizmatkori...	Rustambek	11
55.	Rustambek-nning vazifasi...	Yilqiboqar bolalarga buyruq berib yurardi	11
56.	Xo'jayinlarni ko'rib, salom berib, yillik pullarni olib, kiyim-kechak qilib kelaman deb Zargar shahriga kelgan Rustambek qanday xabarlarni eshitdi?	"Ravshanbek va Gajdumbek qochib ketgan, orqasidan ming amaldor quvib ketgan, hammasi otidan ayrilib, piyoda qolib o'lgan. Endigi maslahat Shohdorxon Bibi Hilolni kuydirib, kulini elakdan o'tkazib yubormoqchi bo'lib yotibdi", – degan xabarni eshitdi	11
57.	Cho'pday qotib, somonday sarg'ayib ketgan qahramon...	Bibi Hilol	11

58.	"Haq hurmati singlim dedim, Hiloloy, Yurgin, Yovmitga eltidib borayin!" – degan qahramon...	Rus-tambek	11
59.	Hiloloy nega Rustambek bilan ketmadi?	"Bir kun o'limoq, bir kun tug'ilmoq. Men bir xizmatkorim bilan mingashib borsam, odamlar, qarindoshlarim Gajdumbekka: "Sen o'zing qochib kelib eding, sening singling Bibi Hilol begona bir odam bilan mingashib keldi", – deb aytar... Men qarindoshlarimning ma'raka-o'tirishlarida akam va yorimning yuzini tuman qilganimdan, shu yerda g'arib bo'lib o'lganim yaxshi. Men o'limga roziman, qazo degan Xudodan bo'ladi", – deya Rustambek bilan ketmadi	11
60.	Bibi Hilol qanday qilib halok bo'ldi?	Bibi Hilol Xudodan o'ziga o'lim tiladi: "Meni Shohdorxon odamlarini qo'lida o'ldirma, har nima qilsang, o'zing qil", – deya barcha payg'ambarlar, o'tgan azizlarni shafe keltirib, yig'ladi. Ana endi azizlarning ruhi, payg'ambarlarning duolari mustajob bo'lib, Bibi Hiloloy jonini Xoliqqa topshirdi	11
61.	Shohdorxon va barcha amaldorlar-ning nega vaqt xush, dimog'lari chog' bo'ldi?	Shohdorxonning amaldorlari, qur'andozlari, munajjimlari: "Bibi Hiloldan sohibqiron chiqadi ekan, uni o'ldiramiz", – deb but, Lot, Manot, tilla payg'ambar, kumush chahoryordan fotiha olaylik deb bordilar... Qarasalar butlarning hammasi butxonada emas, Bibi Hilolning oldida ekan. Shohdorxonning odamlari butlar	11

		Bibi Hilolni bo'g'ib o'ldiribdi deb o'ylashdi. "Bibi Hilolning jasadiga qo'l tegizmanglar, Xudoyning achchig'i keladi", – dedilar. "Sohibqiron yo'q bo'ldi", – deb xursand bo'ldilar	
62.	Haq saqlasa, balo yo'q... Maqolni davom ettiring	Haq qarg'asa, davo yo'q	11
63.	Bir kampirni olib kelib, Hiloloyni yuvdirib kim go'rqa qo'ydi?	Rustambek	11
64.	Gajdumbekning barcha hovli-haram, mol-pullariga ega bo'lgan Rustambek kimga uylandi?	Badgir deganning singlisini oldi. Keyinchalik bir farzandli bo'ldi	11
65.	Bibi Hilolning o'lganiga uch oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat, to'qqiz daqiqa o'tdi. Uning qornida Ravshanbekdan necha oylik xomila (gumona) qolgan edi?	Olti oylik	11
66.	Bibi Hilol o'lgan bo'lsa ham, bolasi o'lмаган екан. Bibi Hilolni to'lg'oq tutganida unga kimlar doyalik qilishdi?	Aziz-avliyo ayollar ruhi: Momo Havo, Anbar ena, Fotima buvilar	11
67.	Bolaning ismini kimlar qo'ydi?	Shu yerga yig'ilgan azizlar Go'ro'gli deb qo'yishdi	11
68.	Chaqaloq Go'ro'g'lini kimlar suyushdi?	Barcha abdal, ovtar, qirq chiltanlar bir-bir olib suydi, Hazrati Hizr ham: "Farzandim", – dedi	11
69.	Lekin Bibi Hiloloya jon kirmadi. Xudoning qudrati bilan Go'ro'g'li qancha vaqt onasidan sut emdi?	Uch yil	11
70.	Rustambek farzandining ismi, yoshi...	Qo'ng'irboy, ikki yosh	11

71.	Go'ro'gli tug'ilganidan beri go'rda chiroq yonib turar edi. Bir kuni lip etib o'chib qoldi. Hiloloya sut kelmay, badani ko'mir-day cho'ykab ketdi. Ana shunda Go'ro'g'li och qoldi. Bibi Hilol arvohining dod deb yig'laganini eshitib kim yetib keldi?		Hazrati Hizr	11
72.	Hiloloyning qabrini kim teshdi?		Hazrati Hizr	11
73.	Go'ro'g'li qanday qilib qornini to'yg'azdi?	Bir baytalning bolasi o'lib, bolasining o'lganiga ichi kuyib, kishnab yurar edi. Hazrati Hizr bobo haligi baytalning bo'yniga qo'riq solib, Go'ro'g'lining oldiga olib keldi. Baytal har kuni bolani uch vaqt emizib keta berdi		11
74.	Go'ro'g'lini emizgan biyaning nomi...		G'irot	11
75.	Baytal har kuni mozorga ketayotganini yilqichilar kimga aytishdi?		Rustambekka	11
76.	Maqolni davom ettiring. Es berganga dast berar...		Dast berganga es berar	11
77.	Rustambek Bibi Hilolning qabri oldida poylab yotdi, qarasa, o'n to't kunlik oydek Go'r'o'g'li chiqib keldi. Shunda bir sher mozoristonda yotgan ekan. U bolaga tashlandi. Bola qanday omon qoldi?		Hazrati Hizr sherni bir tarsaki urdi. Sher nimta-nimta bo'lib, tirqirab ketdi	11
78.	Rustambek birinchi kuni Hizrdan qo'rqib Go'ro'g'lining oldiga yaqinlasholmadi. Ikkinchini kuni oqshomda bordi. Bola ning o'g'il yoki qizligini sinash uchun nimalar olib bordi?		Uch oshiq, bir qizil egar, yana bir-ikkita qo'g'irchoq, bir-ikki ro'mol, uchta bolalar o'ynaydigan soqqa	11

79.	Go'ro'g'li Rustambek olib kelgan narsalarni nima qildi?	Ro'mollarni, qo'g'irchoqlarni yirtdi. Ro'moldan har xil bayroqlar qildi, oshiqni o'ynadi, egarni minib, asta- asta qimirlatib go'rдан ancha yerga uzoqlab ketdi	11
-----	---	---	----

**Quyidagi misralar qaysi qahramonlar  
nutqidan olingan?**

80.	Buralib bo'yningga qo'lim solaman, Harna bo'l sam sening bilan bo'laman. Yig'lama, chirog'im, ko'nglim buzildi, Rostin ayt sam, sening tog'ang bo'laman.  Yuragimda dard ko'p, dardginam ancha, Toqatim yo'q bog'da gul ochilguncha, Husningga qarayman, o'zing bekbachcha, Bo'zlama, chirog'im, yurgin uyima! Haq hurmati, enang mening singlimdir!	Rustam- bekning Go'ro'g'- liga ayt- gani	11
81.	Analman (Anal Haq), Mansurga qurgan dormidi? Tirik ayrilgan bir ko'rgali zormidi? Yur, chirog'im, deydi meni qo'ymaydi, Senda aka, menda tog'a bormidi?  Gap chiqadi menday arning tilidan, Qutulmadik bu dunyoning xilidan, Bitta odam, tog'angman, deb so'zlaydi, O'zi yolg'iz kepti Zargar elidan.  Senda aka, menda tog'a bormidi? Yo bo'lmasa menga kelgan zo'rmidi? Bu gaplarni tinglab olib, enajon, Menga bering bu so'zlardin xabardi	Go'ro'g'- lining onasiga aytgani	11

82.	<p>Illoyo bo'lgaysan dunyoda omon, Qarindoshning xili o'zima yomon, Tog'angning otini deydi Gajdumbek, Otangning otini deydi ko'r Ravshan...</p> <p>Mol boqqanlar seni ko'rib ketgandi, Shohdorxonga borib birov aytgandi, Shohdorxonadan yomon taraf kelgandi, Zargar elda do'st-u dushman bilgandi, Senga tog'a, menga aka qaydadi!</p>	Bibi Hilol-ning arvo-hining Go'ro'g'-liga ayt-gani	11
83.	<p>Tuvmasam ham ey tutingan akangman, Sening bilan ahd-u paymon shumidi? Xudo degan murodiga yetadi, Tuya mingan odam tog'dan o'tadi, Sen singlimsan, u jiyanim, Hiloloy, Ko'nqlim uchun borgin desang, qaytadi?!</p>	Rustam-bekning Bibi Hilol arvohiga aytgan gapi	11
84.	<p>Go'ro'g'libek, yuragingda shering bor, Unib-o'sgan sening turkman eling bor, Rustambekman keta bergen Zargara, Tug'masa ham bir tutingan tog'ang bor</p>	Bibi Hilol-ning arvohining Go'ro'g'-liga ayt-gani	11
85.	<p>Oradan to'rt yil o'tdi. Go'ro'g'libek yetti yoshga kirdi. "Go'ro'g'libek, dushman sening izingni bosdi, Yovmit yurtiga ketgin". Bir kuni tushida onasining ovozida kim yuqoridagi gaplarni gapirdi?</p>	Hazrati Hizr	11
86.	<p>"Katta bir shahar. Daryolar oqqan, ko'rgan odamlarning aqli shoshgan, ichida sol, kema, qayiqlar qurtday qimirlab har tarafga kelib, ketib borayotibdi. Shaharning ichida katta machitlar, madrasalar, minoralar. Katta sultanatli darvoza. Darvozaning har chekkasida o'n yetti joyda qorovulkxonasi bor". Bu shaharning nomi...</p>	Shirvon	11

87.	Shirvon yurtining podshohi...	Rayhon arab (Iroq va Arabiston mamlakatlari ham unga qarar edi)	11
88.	Rayhon arabni tasvirlang	Rustam kelbatli, pahlavon, qo'rqmas, jasur va o'ziga ishongan podshoh	11
89.	Go'ro'g'li qaysi shaharga kimni izlab bordi?	Shirvon yurti podshohi Rayhon arabning shahriga chechasi Xoljuvonnini	11
90.	"O'sh oriq, ranglari sariq, uzun bo'yli, sher o'mganli" deya ta'riflangan qahramon...	Xoljuvon	11
91.	"Yarim belidan pasti uch botmon, yarim belidan yuqorisi ikki botmon. Shirin so'zli, qizil yuzli, jodu ko'zli, saraton yulduzli, la'l munchoqli, oydan suluv, oftobdan ortiq, oy desa, og'zi bor, kun desa, ko'zi bor" deya ta'riflangan qahramon...	Xumoroy	11
92.	Rayhon arabning qizi...	Xumoroy	11
93.	Rayhon arab qizining laqabi...	Zaydinoy	11
94.	Xoljuvon qanday qilib Turkman yurtidan Shirvon yurtiga kelib qolgan?	Xoljuvon juda suluv qiz bo'lgan. Ahmadbek ham, Rayhon arab ham Xoljuvongasovchi yuboradi. Ahmadbek Xoljuvonga uylanadi. Rayhon arab Xoljuvonga yetisha olmasa-da, har yili Ahmadbekning yo'qligini poylab, pana yerlardan turib uni ko'rib ketar, ko'rmasa, kasal bo'lib qolar edi. U doim Xoljuvonnini olib qochish payida bo'lgan va maqsadiga erishgan. Rayhon arab o'sha paytda Go'ro'g'lidan foydalanib rejasini amalga oshirgan. Shuning uchun Go'ro'g'li o'zini aybdor his qilib Rayhon arabdan qasdini olmoqchi	11

95.	Rayhon arab Xoljuvonni o'g'irlab ketganiga necha yil bo'lgan edi?		3 yil	11
96.	Go'ro'g'li kelganida Xoljuvon qaysi buloqdan ko'zasiga suv olayotgan edi?		Ko'kbuloqdan	11
97.	Go'ro'g'li Xoljuvonni olib ketmoqchi edi, chechasi nega rozi bo'ljadi?	"Rayhon arabga bir kosa suv qo'llimdan berganim yo'q, lekin odamlar: "Go'ro'g'libek xo'b ish qilibdi, uch yildan beri Rayhon arab xotin qilib yurgan chechasini olib kelibdi", – deydi. Mening kasofatim senga tegadi", – deb rozi bo'ljadi		11
98.	Xoljuvon Rayhon arabdan qasd olish uchun Go'ro'g'liga qanday yo'l ko'rsatdi?		Rayhon arabning qizini olib qochishni maslahat berdi	11
99.	Go'ro'g'libek qaysi bog'da yotib qoldi?		Gulshan chorbog'da	11
100.	Rayhon arabning ko'rpassi qanday edi?		To'qson chitdan bo'lgan	11
101.	Xoljuvon oyim bilan Zaydinoy kir yuvGANI qayerga borishdi?		Ko'kbuloqqa	11
102.	Xumoroydan suv so'ragan qahramon...		Go'ro'g'libek	11
103.	Zaydinoyni olib qochishda Go'ro'g'liga kim yordam berdi?		Xoljuvon	11
104.	Xoljuvon kir kiyimlarni yuvmagan edi. Go'ro'g'lini quvishga otlangan Rayhon arab ustiga nima kiyib ketdi?		Ko'rpaning o'rtasini teshib kiyib ketdi	11
105.	Rayhon arab Go'ro'g'lini quvib unga yetib oldimi?	Yetib ololmadi. Tajan daryosida otning ustidan daryoga tushib ketdi. Otining oyog'i sindi va Shirvon yurtiga piyoda ravona bo'ldi		11
106.	Go'ro'g'li Zaydinoyni kimga olib borib berdi?		Tog'asi Ahmadbekka	11

107.	Ahmadbek va Zaydinoyning nikohi bo'lib o'tdi. Ahmadbek davlatni boshqarishni kimga topshirdi?	Go'ro'g'-libekka	
108.	Go'ro'g'li turkumida nechta doston mavjud?	60 dan ortiq	11
109.	Darslikda dostonning qaysi baxshi ijro etgan varianti berilgan?	Muhammad Jon-murot o'g'li Po'lkan shoir (1874 – 1941)	11
110.	Maslahatga quloq solmay, o'ylamay qaror qabul qilgan, uzoqni ko'ra bilmasligi ko'plab insonlarning bevaqt o'limiga, taqdirlarining o'zgarib ketishiga sabab bo'lgan qahramon...	Shoh-dorxon	11
111.	Bolaligida Zargar eliga borib qolib, musofirchilikda voyaga yetgan qahramonlar...	Ravshan va Bibi Hilol	11
112.	Go'ro'g'lining tug'ilishi va xalq manfaati yo'lida qahramonliklar ko'rsatishida kimlar katta o'rincutadi?	Chiltanlar va Hizr alayhissalom	11
113.	El-yurt sha'nini, shavkatini, or-nomusini tiklagan qahramon...	Go'ro'g'li	11
114.	"Go'ro'g'li" so'zining talqinida qanday yondashuvlar mavjud?	1) go'rda tug'ilgan; 2) ko'r otaning arzandi; 3) (kur) alp, botir, mard o'g'li	11
115.	Go'ro'g'li so'zining o'zagida qanday ma'nolar mujassam?	Quyosh, o't, olov, qo'r, qir, tog'	11
116.	Quyidagi parchada qanday badliy san'at qo'llangan? "Ana endi Go'ro'g'li ketganday, oy botganday, Rustambek dunyodan o'tganday. Rustambek shunday qarasa, Go'ro'g'li o'n besh kunlik oyday, qaddiqomati, shoni-shavkati, har kishining bo'lar ekan o'ziga yarasha hurmati"	O'xshatish, saj, ta'did	11

### Quyidagi so'zlarni izohlang

117.	yaylovga chiqmadi	e'tiborga olinmadni	11
118.	mushk	qora tusli va xush isli suyuq modda	11
119.	qurandoz	aslida qur'andoz, ya'ni qur'a tashlovchi, fol ko'rvuchchi, tush ta'birkiluvchi demakdir	11
120.	gubir	aslida "gubernator" so'zining qisqargani. Bu yerda hurmat ma'nosida qo'llangan	11
121.	bomaza	mazali	11
122.	buroq-buroq	burqsib-burqsib	11
123.	duyum	ikkinchidan	11
124.	dash	dasht	11
125.	mehtara	suv solinadigan mesh, sanoch	11
126.	go'sam	qo'y-echkining boqib semirtirilgani, bo'rdoqi	11
127.	yetimak	yetimcha	11
128.	lot	qasd	11
129.	sari yoy	pay bilan ishlangan eng yaxshi pishiq yoy	11
130.	besoyib	sohibsiz, egasiz	11

### “AVESTO”

1.	O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy mushtarak yozma yodgorligi, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi...	"Avesto"	L
2.	O'rta Osipyoda yashagan qadimgi aholining asosiy qismi qaysi dinga e'tiqod qilgan?	Zardushtiylik diniga	
3.	Zardushtiylik dini yurtimizda qachon tarqalgan?	Bundan 3000 yilcha oldin	

4.	Zardushtiylik qayerlarda asosiy diniy e'tiqodlardan biri sifatida keng tarqalgan?	O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjonda	
5.	"Avesto" kitobi qachon dunyoga kelgan?	Bundan 2700 yil muqaddam	
6.	"Avesto"dagi ma'lumotlarning qadimgi qismlari qaysi yillarga taalluqli?	Miloddan avvalgi 3000 – 2000-yillarga	L
7.	"Husayn, qarshingda turli falsafa maktablaridan bahs etuvchi misoli zilol suvli katta-kichik ko'zalar turibdi. Geraklit, Demokrit, Platon, Aristotel... Ularning eng yetugi va yorqini Aristotel falsafasi... Sen hamma ko'zadan ichib bahramand bo'lding. Ayt-chi, bu ko'zalardagi suvlarning manbayi qayerda, ular qaysi quduqdan? ...Bu quduq sening hovlingda, u zardushtiylik ta'limotidan barpo bo'lган". Parcha qaysi asardan olingan?	L.Soldad-zening "Ibn Sino" romanidan	K
8.	Islom dini tarqalguncha, ajdodlarimiz qaysi dinga e'tiqod qo'yishgan?	Zardushtiylik diniga	
9.	"Avesto"da qanday ma'lumotlar mavjud?	Zardushtiylik ta'limoti qonun-qoidalari, Yazdoni pokning (Allohnning) yaratuvchilik qudrati madhi, moddiy olamning yaratilishi, mazdaparastlikning asl mohiyati, shuningdek, xalq hayotining hamma sohalariga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud	K
10.	Zardusht dinining asoschisi kim?	Ko'hna Xorazmdagi Spitama qavmining farzandi Zardushtdir	K
11.	"Avesto"ni o'zbek tiliga kimlar tarjima qilgan?	Asqar Mahkamov, Mirsodiq Is'hoqov	L

12.	Akademik litsey o'quvchilari uchun 1-kurs adabiyot darsligida berilgan "Avesto" asarining tarjimonи...	Mirsodiq Is'hoqov	L
13.	O'zbekistonda "Avesto"ning 2700 yilligi qachon nishonlangan?	2001-yilda, shu munosabat bilan Urganch shahrida ulkan obida qurildi	
14.	"Avesto" qanday ko'rinishlarda yetib kelgan?	"Gotlar" ("Gohlar") va "Yashtlar"	L
15.	"Avesto"dagi asosiy timsollar...	Xurmuz va Axriman	
16.	Beruniy qaysi yillarda yashagan?	973 – 1048	L
17.	"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarining muallifi...	Beruniy	L

**Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asaridagi ma'lumotlar asosida quyidagi savollarga javob bering**

18.	"Podsho Doro ibn Doro xazinasida "Avesto"ning bir nusxasi bor edi. U nechta qoramol terisiga tilla bilan bitilgan?	O'n ikki ming	L
19.	Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtida "Avesto"ni nima qilgan?	Yondirib yuborgan	L
20.	"Avesto"ning qancha qismi yo'qolib ketgan?	Beshdan uch qismi	L
21.	"Avesto" necha nask edi?	30 nask	L
22.	"Avesto" majusiyalar qo'lida necha nask qoldi?	12 nask chamasni	L
23.	"Nask" nima?	"Avesto"ning har bir bo'lagi	L
24.	"Avesto" – qanday asar?	O'sha davrlar tarixi, fani, madaniyati haqida ma'lumot beruvchi qomusiy asardir	L

25.	"Avesto" qaysi tilga tarjima qilingan?	Pahlaviy tiliga tarjima qilingan va unga sharhlar yozilgan	L
26.	"Avesto" so'zi qanday ma'noni ifodalaydi?	O'rnatilgan, muqarrar qilingan hayotning asosiy yo'riqnomasi	L
27.	"Parastishgoh" qanday joy?	Qishloq ahlining o'z Tangrilariga qurbanlik qiladigan joyi	K
28.	Zardusht qanday voqeanning guvohiga aylandi?	Zardusht quyidagi voqeanning guvohi bo'lgan: "Parastishgoh"da odamlarning katta izdihomni. O'rada qo'lida qonga belangan xanjar ushlagan o'n chog'lik kohinlar o'jasini kutgan sayyoddai turibdi. Ikki odam bir qo'yini yetaklab chiqdi. Haligi ulamolar turli xil ovoz chiqarib, ashula aytib, raqsga tushib, qo'ya yopirilibdi: to'g'ri kelgan joyiga tig' suqib, bir soniyada azob berib o'ldirishibdi. Bu holat bir necha soat davom etibdi. Maydon hayvonlar murdasiga to'lib ketibdi. Zardusht bu dahshatlidan manzaradan g'oyatda g'amgin, gandiraklab qaytibdi	K
29.	Zardusht kimlarga qarshi jangga safarbar etiladi?	"Suv havzalaridan foydalanish ahdnomasi"ni buzganlarga qarshi jangga safarbar etiladi. Arzimagan bahona, sababni deo minglab begunoh odamlarning yostig'ini qurutgan urushning bevosita guvohi, ishtirokchisi bo'ladi	K
30.	Zardusht dunyoqarashining shakllanishidagi muhim omil...	Yuqoridagi ikki hodisa	K

31.	Zardusht turonzaminda ko'pxudolikka (budbarast, otashparastlik va h.k) e'tiqod qilinishi bois xilma-xil urf-odatlar, udum va marosimlar kelib chiqqanligi, natijada xalqlarning jaholatga berilishlari, turli kelishmovchiliklar va qirg'inbarot urushlar oddiy xalq uchun kulfat keltirayotganini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Natijada Zardusht nimani kashf etdi?	Yakka Tangri Ahura Mazdani kashf etdi, Turon-u Eronda mazda-parastlik dini qabul qilindi	K
32.	Zardushtiylilik dini qoidalariiga ko'ra qanday yangiliklar amalga oshirildi?	Ko'pxudolik davridagi aksariyat udumlar, jumladan, hayvonlarni azoblab o'ldirib qurbanlik qilish rasmi man etildi, mollarni bo'g'zidan so'yish joriy etildi. El farovonligi, yurt osoyishtaligi, sulh, qavmlar birodarligi yu hamjihatligini ta'minlash, johiliyat o'rnida ilm-u ma'rifatni, dunyoviylik ruhidagi yangi dinni qaror toptirish uchun kurashildi	K
33.	Dunyo tarixida dinni mazhab, sehr-u jodudan, zohiriyl ujudum va marosimlarni ko'r-ko'rona bajarishdan, mavhumlik va xurofotdan xalos qilgan buyuk inson...	Zardusht	K
34.	Zardusht axloq me'yorlarini hayot mezoni deb bildi va bashariyatga olamni ham, odamni ham nima bezaydi deb tushuntirdi?	Yaxshi ish, yaxshi xulq va yaxshi amal	K
35.	Mazdaparastlikda (zardushtiylilikda) ular uchun eng ulug' inson kimlar?	Yerni sevadigan, mo'l hosil yetishtiradigan, bog'lar barpo etib, mehnat qurollari yaratadigan hunarmand, chorvador va dehqonlardir	K

36.	"Avesto"da yozilishicha, Axriman dev qanday qilib jon beradi?	Bug'doy yerga ekilgach, Axriman bezovta bo'ladi, bug'doy o'sib boshoq bog'lagach, dev nola qiladi, bug'doy xirmonga to'plangach, dev o'kirib yig'laydi va bug'doy un qilib, non yopilgach, dev toqat qilolmay jon beradi	K
37.	"Avesto"da yomonlikni nima mavh etadi?	Mehnat	K
38.	Olamning yakka-yu yagona yaratuvchisi, posboni, haqiqat vaadolatni, rostgo'ylik va poklikni himoyachisi, yorug'lik va farovonlik xudosi...	Ahura Mazda	K
39.	Yolg'on va bo'hton, zulm va zulmat timsoli...	Axriman	K
40.	"Avesto"da boshdan oyoq yolg'on va rost orasida bahs davom etadi. Bahs kimning tantanasi bilan yakunlanadi?	Yaxshi so'z, yaxshi ish, yaxshi xulqning tantanasi bilan	K
41.	"Avesto" kimlar tomonidan yozilgan?	Zardusht va mazdaparastlik dini ulamolari tomonidan yozilib, to'planib bo'lgach, maxsus kotiblar tomonidan o'n ikki ming ho'kiz terisiga oltin suvi bilan ko'chirilgan	K
42.	Makedoniyalik Aleksandr (Iskandar) Eronni bosib olgach, "Avesto"ning Eron podshohi xazinasida saqlanayotgan eng nodir nusxasidan o'ziga kerakli joylarini tarjima qildirib olib, qolganini yoqtirib yuboradi. Keyinchalik "Avesto"ni kim qayta tiklab, tartibga soldirgan?	Sosoniylar podshosi	K

43.	"Avesto" canday qismlardan iborat?	1. Gohlar (Gotlar – Zardushtning qo'shiqlari). 2. Yashtlar. 3. Vendidod. 4. Visparad	K
44.	Zardusht she'riari va ibodat payti ijro etiladigan matnlar...	Gohlar	K
45.	Maxsus ohanglar asosida ijro etiladigan qo'shiqlar	Yashtlar	K
46.	Devlar, zulmat kuchlariga qarshi qonunlar majmuasi, turli mavzulardagi asarlardan parchalar...	Vendidod	K
47.	Ibodat matnlari va yo'sinlari...	Visparad	K
48.	Zardusht ia'llimoti kishilarni qanday ishlarga undaydi?	<p>"Zardusht ta'llimoti kishilarni faqat ibodat bilan shug'ullanishga, go'shanishinlikka da'vat etmaydi. Aksincha, uning aqidalari kishilarni faollikka, yaratuvchilikka, dunyoni takomillashtirish uchun kurashga undaydi.</p> <p>Uruiyatda Tangrini asrab, tilda ibodat qilib, yerga ikki qo'llab ishlov berish lozimligini, chorvani ko'paytirib, bog'lar yaratish zarurligini qayta-qayta uqtiradi. Insonning yashashdan maqsadi metindek e'tiqodli bo'lib yurtni obod, elni farovon, turli qavmlarning bir-biri bilan do'st, inoq bo'lib, yashashini ta'minlashdan iborat bo'lmog'i lozimligini ta'kidlaydi"</p>	K
49.	'Avesto"da kimlar eng mo'tabar insonlar hisoblanadi?	"Cho'lga suv chiqarib, yerning sho'rini yuvib, zaxini qochirib, unga ishlov bergenlar	K

50.	"Avesto"da yozilishicha, Tangri buyrug'i bilan qattiq sovuqlarda odamlarni asrash uchun yer ostida shahar qurdigran podshoh...	Jamshid	K
51.	Avestodagi voqealar qay holatda bayon etilgan?	Zardushtning savoli va Yazdonning javobi sifatida bayon etilsa-da, hammasining asosi Tangri ekanligi sharhlarda izohlab beriladi	K
52.	"Avesto"da qaysi xalqlarning miloddan bir necha asr oldingi tarixi, geografiyası, dehqonchilik, bog'bonchilik, chорvachilik, hunarmandchilik, binokorlik, harbiy hunarmandchilik, maktab, madrasa, xususiy ta'lif tarixini o'rganishda qimmatli manbadir?	Movaroun-nahr, Xuroson va Eron xalqlarining	
53.	Islom dini ramzi...	Hilol	K
54.	Zardushtiylik dinining ramzi...	Olov	K
55.	Yomonlik va ins-jinslarni yo'q qiluvchi sifatida qabul qilingan ramz...	Olov	K
56.	"Avesto" yozma holatda qaysi xatda yetib kelgan?	Pahlaviy xatida	K
57.	"Avesto"dagi asosiy g'oya...	Inson fikri, so'zi va ishi bilan go'zaldir	K
58.	"Avesto"ning asosiy shiori...	Ezgu ish, ezgu xulq va ezgu amal	K
59.	Zardushtiylar uchun qanday hayot go'zal hisoblangan?	Haqiqat, qudrat va tinchlik tantana qilgan hayot	K
60.	Mazda dinini kim qudratlil qiladi?	Bug'doy ekkan odam	K
61.	Zardushtiylik ta'lifoti bo'yicha nima tufayli haqiqat, tinchlik va davlatga erishish mumkin?	Mehnat tufayli. Mehnat tana va jondagi barcha nöpek kuchlarni quvadi	K

62.	Zardushtiylik ta'lomitida ilgari surilgan g'oya...	Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal	K
63.	"Avesto fayzlari" asari muallifi...	Homidjon Homidiy	K
64.	"Avesto"dagi bosh g'oya...	Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal birligi	L

**Quyidagi so'zlarni izohlang**

65.	Avesto	Bu so'zning o'zagini "sto" so'zi tashkil etadi. Uning ma'nosi "belgilangan, joriy etilgan nizom, tartib-qoida" demakdir	L
66.	Goh...	Qo'shiq	K
67.	Fargard...	Kesik yoki bo'lak, qism	K
68.	Ashavan...	Rostlik, to'g'rilik, haq, haqiqat	K
69.	Ushtavad goh...	Zardusht yaratgan qo'shiqlarining ikkinchisi	K
70.	Chosht-goh...	Kunning yarmi.	K
71.	Zarimaya moyi...	Lazzatli, xushbo'y, g'oyat yoqimli moy bo'lib, bihisht ne'mati hisoblanadi. U parhezkorlar va ashavanlarning ruhi jannatga dohil bo'lgandan so'ng ularga beriladi	K
72.	Mitra	Quyosh xudosining ismi, u kuch-qudrat, baxt-saodat ramzidir	L
73.	Ahura Mazda	Zardushtiylik dinining xodosi. U bu dinda yaratuvchi, xoliq, yakka-yu yagona xudo sifatida tan olingan	L
74.	"Zand Avesto"	"Avesto"ning qisqartirilgan nusxasi ("Avesto"ga yozilgan sharhlari)	
75.	Ranxa	Sirdaryoning "Avesto"dagi nomi	L
76.	Aranxa	Amudaryo	
77.	Xvayrizem	Xorazm	
78.	Xvayrizem (Xorazm)	Quyosh yeri	

79.	Narya Sanha	Mifologik qahramon nomi, Mitranning yordamchisi	L
80.	Sharaf uyi	Axura Mazdaning mangu makoni, jannat	L
81.	"Axuna Varya"	Zardushtiylikda e'tiqod duosi. U islomdagi kalimayi vahdat va kalimayi shahodat singari vazifalarni ado etgan	
82.	Bushyasta	Dev, dangasalik, tanballik timsoli	L
83.	Asha va Sraosha	Asha – haqiqat timsoli, Sraosha – uning hamrohi. Ular kishilarni yaxshilikka undovchi ma'budlardir	L
84.	Visprad	"Avesto" kitoblaridan biri, u namoz paytida o'qiladigan oyat va suralar turkumi	L
85.	Gaya Martan	Kayumars	
86.	Mehr yasht	Quyoshga madhiya. "Yasht" "Avesto"dagi alohida qismning nomidir	L
87.	Topinch	Ishonch, e'tiqod	L
88.	Xara tog'i	Avestoda tilga olingan tog'lardan biri. Unga ham muqaddaslik sifati berilgan	L
89.	Xarati cho'qqisi	Xara tog'idagi cho'qqilardan biri, eng ulug' va muqaddasi	L
90.	Uchqur aroba	Mitra "Avesto"da uchqur otlar qo'shilgan, oltindan yasalgan aroba egasi sifatida tasvirlanadi	
91.	Sraosha	Namoz va e'tiqod ishlarning noziri, odamlarga qabohat bilan kurashishlarida madad beradi deb hisoblangan ma'bud. Ayni paytda u Rashnu bilan bирgalikda o'lganlami so'roq qilib, ularning gunoh-u savoblarini o'z tarozilarida tortishgan	L
92.	Ashi	Baxt va omad homiysi	L
93.	Arta	Haqiqat va iymon ilohiysining nomi	L
94.	Kaviylar	Zardushtga qadar bo'lgan kohin-shohlar	L

95.	Xvarno	Kayoniylarning ilohiy va muqaddas hokimiysi, davlat haqidagi tasavvurlarini mujassamlashtirgan obraz	L
96.	Xvanirasha	Yer yuzining odamlar yashaydigan eng go'zal qismi. Uni O'rta Osiyoga nisbat berish mumkin	L
97.	Bahrom	Varaxranning zamonaviy nomi	L
98.	Qobon	Yovvoyi cho'chqa	L
99.	Rashnu	Adolat va qonun-qoidalar farishtasi. Narigi dunyoda so'roq chog'ida gunoh va savoblarni o'z tarozisida o'Ichaydigan zot	L
100.	A'lam	Eng bilag'on, katta olim; shariat qonunlari bilimdoni	L
101.	Xaoma	Muqaddas o'simlik va undan olinadigan ichimlik. U kishilarga hushyorlik, tiyraklik baxsh etadigan muqaddas ichimlik hisoblangan	L
102.	Hukarya (Hukariya, Hukariyo)	Mifologik cho'qqining nomi, Ardvı Sura daryosi – Amudaryo shu cho'qqidan boshlangan degan qarash mavjud	L
103.	Mug'	Avestoda mazda dini peshvosi	L
104.	Sidq	Chinlik, haqiqat, rostlik	L
105.	Badkor	Yomon fe'l-atvorli	L
106.	Barcha valilar	Mitraning ilohiy kuch va qudratga ega bo'lgan muqaddas safdoshlari nazarda tutiladi	L
107.	Cherik	Armiya, lashkar	L
108.	Mazda-yasna	Zardushtiylik dinining asl nomi. "Mut-laq oqil" zotga sig'ingan ma'nosini beradi. "Mazdaga sig'inuvchi bandalar" demakdir. "Mitraga sig'inmoq Axura Mazdaga sig'inmoq va uni xushnud etmoq" deb tushunilgan	L

109.	Poynak	Pichoq, qilich, xanjar va sh.k. asboblar qinining uchiga kiygizib qo'yiladigan, uni teshishdan saqlaydigan metall uchiik	L
110.	Qayqi	Egilgan, qayrilgan, egri-bugri	L
111.	Ma'dan	Metall, ruda	L
112.	Dudama	Ikki tomonida tig'i bor; ikki tomoni tig'li pichoq yoki xanjar	L
113.	Cho'ng	Katta, ulkan, zo'r	L
114.	Qutqu	Yomon ish (yo'l)ga undovchi da'vat; teskari tashviqot, gjigijlash	L
115.	Mustahiq	Munosib, loyiq, haqli	L
116.	Zafarvor	Zafar keltiruvchi	L
117.	A'mol	Amallar, ishlar, xatti-harakatlar	L
118.	Zuhal	Saturn	L
119.	Ma'buda Ashi	Mitranning ilohiy aravasini tortib boradigan qudratli kuchlardan biri	L
120.	Spitama Zaratushtra	Qadimgi Amudaryo qirg'oqlarida hayot kechirgan urug'lardan biri bo'lgan spitamalarga mansub Zardushtra demakdir	L
121.	Raman	Tinchlik va osoyishtalik farishtasining nomi	L
122.	Xurmuzning to'liq nomi...	Axura Mazda	I
123.	Axrimanning ikkinchi nomi...	Angiramanyu	
124.	Xurmuz qanday timsol?	Ezgulik timsoli	
125.	Axriman qanday ramz?	Yovuzlik ramzi	
126.	Zerdushtning to'liq nomi...	Zaratushtra	
127.	Zaratushtraning ma'nosi...	Qari tuya egasi	
<b>"Avesto"da yozilgan quyidagi ma'lumotlarni izohlang</b>			
128.	"Avesto"dagi bosh g'oya...	Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal birligi	K

129.	Ashavanning (rostgo'y, e'tiqodli insonning) o'limidan so'ng qilgan yaxshiliklari qanday qiyofada namoyon bo'ladi?	15 yoshli, sohibjamol qiz qiyofasida	K
130.	Ezgu fikrli, ezgu so'zli, ezgu amalli va ezgu din sohibi bo'lgan yigitga yoki ayolga o'limidan so'ng qanday nasiba bor?	Zarimaya moyi (lazzatli, xushbo'y, g'oyat yoqimli moy bo'lib, bihisht ne'mati hisoblanadi)	K
131.	Durvand (gunohkor, qabih odam)ning o'limidan so'ng qilgan amallari qanday qiyofada namoyon bo'ladi?	Ta'viya, gunohkor, chirkin, bukri, jamiki yaratilmish xilqatdan tuban bir xotin qiyofasida	K
132.	Yomon fikrli, juda yomon so'zli, yomon amalli va yomon din sohibining o'limidan so'ng nasibasi nima?	Zahar	K
133.	"Avesto"da qaysi qahramonlar haqida miflar va afsonalar berilgan?	Kayumars, Mitra, Yima, Gershasp, Arjas... ...	
134.	"Avesto"ning tili...	O'lik tildir	
135.	Olam ikki asos kurashidan iborat, deb izohlanadi. Bular...	Yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlik	
136.	Kishilarga baxt-saodat keltiruvchi yengilmas kuchga ega bo'lgan pahlavon...	Mitra	
137.	Axura Mazda tomonidan yaratilgan birinchi odam...	Gaya Martan (Kayumars)	
138.	"Shafqatl, qudratli, bilgich, tik qomat va uyg'oq, yuz ming tuman ko'zli", "o'tkir ko'z, shijoatkor", "duoni tinglaguvchi" deya ta'riflangan qahramon...	Mitra	L
139.	Mitraning yordamchisi...	Narya Sanha	

140.	Yer-suv, o'simliklar va barcha tabiiy boyliklarni yaratgan qahramon...	Axura Mazda – Xormuz	
141.	Yaxshilik Xudosi...	Axura Mazda – Xormuz	
142.	Axura Mazda kimga qarshi kurashadi?	Axrimanga	
143.	"G'azabnok Qobon misol, Sejahol, o'tkir tishli, Xanjardek qoziq tishli..." deya ta'riflangan qahramon...	Varahram	L
144.	Zardushtiylikda qo'riq yer ochib, bog'-rog' qilgan odam nimaga erishadi?	Ilohiyot rahmatiga erishadi	
145.	Yaxshilik va yomonlik o'tasidagi kurash qanday tugaydi?	3 – 4 ming yillardan so'ng adolat, ezgulik g'alabasi bilan tugaydi	
146.	Insoniyatni yovuzliklardan kim qutqaradi?	Yerga osmondan uch soshyanta – farishta tushadi va insoniyatni yovuzliklardan qutqaradi	
147.	Qachon barcha o'lganlar tiriladi?	Uchinchi farishta osmondan tushganida qiyomat-qoyim bo'lib, barcha o'lganlar tiriladi	
148.	Axrimanni qaynab turgan ma'fanga qaysi qahramonlar tashlaydi?	Axura Mazda – Xormuz va uning farishtasi	
149.	Odam vafot etganidan keyin qanday voqealar sodir bo'ladi?	Odam vafot etgach, to'rtinchi kuni Tangri farishtasi Surush (farishta Jabroilning vazifadoshi) uning ruhini Chinvod qilko'prigiga olib keladi. U yerda odamning bu dunyoda qilgan yaxshiliklari o'lchanadi. Yaxshiliklari ko'p bo'lgan odam qilko'priordan o'tib, jannat bog'lariga kiradi. Gunohkorlar do'zaxga boshlovchi dev Vizrash ixtiyoriga topshiriladi	

150.	lymonni nima oziqlantiradi?	Yaxshilik qiluvchi odam pokizalik urug'larini ekadi, bu yaxshilik urug'lari iymonni oziqlantiradi	
151.	Qanday odamlar do'zaxiy hisoblanadi?	Yaxshilik qilmay, jabr-zuim qilluvchilar iymonsiz, do'zaxiy odamiardir	

**"O'RXUN-ENASOY YODGORLIKHLARI".**  
**"TO'NYUQUQ", "KUL TIGIN",**  
**"BILGA XOQON" BITIKTOSHLARI**

1.	"O'rxun-Enasoy yodgorliklari" qaysi cavr hayotini o'zida aks ettirgan?	VI – VIII asr hayotini	K. 10
2.	"O'rxun-Enasoy yodgorliklari" ning organilishi va topilishi qaysi asrdan boshlangan?	XVIII asr- dan bosh- langan	10
	"O'rxun-Enasoy yodgorliklari" haqida dastlabki xabarni kim bergan?	Rus xiz- matchisi Remezov	10
4.	Yodgorliklari ni Yevropa ilm ahliga ilk marta taqdim qilganiar...	Shved zobiti logann Strallenberg, olim Messershmidt	10
5.	"O'rxun-Enasoy yodgorliklari" nima uchun "tosh bitikiar" deb yuritiladi?	Bu bitiklar qabrtoshlari- ga o'yib yozilgani bois	K. 10
6.	"Bilga xoqon", "Kul tigin", "To'nyuquq" kabi tosh bitiklar qanday nom bilan mashhur bo'lgan?	"O'rxun-Enasoy yodgorliklari" nomi bilan	K
7.	"Bilga xoqon", "Kul tigin", "To'nyuquq" va boshqa yodnomalar	Ularda turkiy elatiarning mamlakat mustaqilligi, el-yurt ozodligi uchun chet bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashganliklari, turkiy xcconligining paydo bo'llishi, turkiy qavmlarning urf-odatlari,	K

	tosh bitiklarda qanday ma'lumotlar beriladi?	rasm-rusumlari, kasb-korlari haqida qiziqarli hamda qimmatli ma'lumotlar keltiriladi	
8.	"Irq bitigi" ("Ta'birnoma") qanday materialga bitilgan?	Qog'ozga	10

### “To'nyuquq” bitiktoshi haqida

9.	To'nyuquq kim bo'lgan?	To'nyuquq shaxs nomi bo'lib, Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi bo'lgan	L, 10
10.	Eltarish xoqon kim?	Ikkinci Turk xoqonligining asoschisi	L, 10
11.	"To'nyuquq" bitiktoshini kim, qachon yozdirdi?	To'nyuquq yozdirgan. Eltarish xoqonning o'g'li Bilga xoqon davrida	L, 10
12.	Xoqon...	Qadimgi turkiy xalqlarda mamlakat hukmdorining nomi	L
13.	"To'nyuquq" bitiktoshining topilishi qaysi joy nomi bilan bog'liq?	O'rxun hamda Enasoy daryolarining havzalari bilan bog'liq	L
14.	Bu tosh bitiklar nima uchun "O'rxun-Enasoy yodgorliklari" deb nomlangan?	Bu qadimiy obidalar dastlab O'rxun hamda Enasoy daryosi bo'ylaridan topilgan	L, 10
15.	"O'rxun-Enasoy yodgorliklari" topilgan joylar...	Selenga va Toli daryolari atrofidan, keyinchalik Sibir va Mo'g'ulistonning boshqa joylaridan, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Kavkaz, Volgabo'yи, hatto Sharqiy Yevropadan ham topilgan	L, 10
16.	"O'rxun-Enasoy yodgorliklari" yozuvini V.V.Radlov, P.M.Mebirinchi kimlar o'qigan?	N.Tomsen (1893), V.V.Radlov, P.M.Mebiranskiy (1894)	
17.	"O'rxun-Enasoy yodgorliklari" yana qanday nom bilan yuritiladi?	"Tosh bitiklari"	K

18.	Qadimgi turkiy obidalarning asl manbalari topilgan joylar...	O'rxun-Enasoy dar-yolari atroflari, Turfon (Shaqiqi Turkiston), Osiyo va Yevropaning ko'pgina joylaridir	L
19.	"O'rxun-Enasoy yodgorliklari" qaysi davlatlarda saqlanmoqda?	Mo'guliston, Germaniya (Berlin, Marburg, Mayns), Rossiya (Sankt-Peterburg, Qizil, Minusink), Xitoy (Turfon, Urumchi, Miran Suchjoy, Pekin), Buyuk Britaniya (London), Fransiya (Parij), Shvetsiya (Stokholm), O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'izistonda	L
20.	"To'nyuquq" bitiktoshi necha ustunga yozilgan?	2 ta ustunga	L, 10
21.	"To'nyuquq" bitiktoshi necha sm dan iborat?	Biri 170 sm dan, ikkinchisi 160 sm dan iborat	L, 10
22.	Bu yodgorlikni kimlar qachon topgan?	Yelizaveta Klemens turmush o'rtoq'i Dmitriy Klemens bilan birgalikda 1897-yili Shimoliy Mo'g'ulistonidan izlab topgan (Ulan Batordan 66 km Janubi-Sharqdagi Bain-Sokto manzilidan topilgan, hozir ham shu yerda saqlanadi)	L, 10
23.	"To'nyuquq" bitiktoshi kimning sharafiga yozilgan?	Bitiktosh To'nyuquqning sharafiga yozilgan	K
24.	"To'nyuquq" bitiktoshi qachon yozilgan?	To'nyuquq bitigi uning hayotligida – 712 – 716-yillarda o'zi tomonidan toshga o'yib yozdirilgan	K
25.	"To'nyuquq" bitiktoshida qaysi mavzular hikoya qilinadi?	Bitiktoshda turkiylarning dushman qabilalariga qarshi kurashi, To'nyuquqning bu kurashlarda ko'rsatgan qahramonliklari hikoya qilinadi	K

26.	Toshbitik qaysi ma'lumot bilan boshlanadi?	To'nyuquqning Tabg'ach elida tarbiya topganligi, turkiylarning tabg'achlarga qaram ekanligini hikoya qilish bilan boshlanadi ("Bilga (dono) To'nyuquq – men o'zim, Tabg'ach davlatida tarbiyalandim. Turk xalqi Tabg'ach davlatiga bo'y sunar edi...")	K
27.	"To'nyuquq turk zodagonlarining Tabg'ach imperatori saroyida garov sifatida ushlab turiqan o'g'illaridan biri edi. Bundaylarga ular xitoycha nom berar, xitoycha o'qitar va xitoyparastlik ruhida tarbiya qilar edilar. To'nyuquqning xitoycha nomi ham xitoyparastlik sabab qo'yilgan edi. To'nyuquq Xitoyda tutqunlikda, zindonlarda yotadi, keyinchalik imperator saroyida ishonch qozonadi. U Xitoy imperiyasiga qarshi bosh ko'targan Qutlug' tomonga o'tib, uning maslahatchisiga aylanadi". Ushbu tarixiy voqeя kimning qaysi asarida berilgan?	N.Rahmonovning "Turk xoqonligi" risolasida	K
28.	To'nyuquqning xitoycha ismi...	Yuanchjen. Yuanchjen "To'nyuquq" so'zining aynan tarjimasi bo'lib "to'ng'ich javhar" degan ma'noni bildiradi.	K
29.	To'nyuquqning xalqi, ya'ni turk xalqi nima sababdan o'z erkini qo'ldan berib qo'yishdi?	Turk xalqi boshboshdoqlikka, o'zibo'lar-chilikka, beparvolikka yo'l qo'ygani, o'zining xoni bilan birga bo'lma-gani uchun	
30.	"To'nyuquq" bitiktoshida asosiy o'rin tutadigan g'oyalari...	Vatan tushunchasi, vatanparvarlik va erk g'oyalari	K

31.	To'nyuquq kimga qarshi kurashadi?	Turk xalqini tabg'achlar asoratidan qutqarish uchun astoydil kurashadi	K
32.	"To'nyuquq" bitiktoshida xalq og'zaki ijodining qaysi janrlari ko'plab keltiriladi?	Maqol va hikmat, o'gitlari	K
33.	"To'nyuquq" bitiktoshida yozilgan maqollarga misol keltiring	"Yupqa yig'in (to'da) tor-mor qilishga oson emish, ingichqa yig'in uzishga oson emish", "Yupqa qalin bo'lса, tor-mor qiladigan bahodir emish", "G'am o'z uyingga"	K
34.	O'gitlarga misollar keltiring	"Vatan mustaqilligi uchun jon kuydirish hammaning burchi, beparvolik yomon oqibatlarga olib keladi" singari o'gitlar	K
35.	Bitiktosh qayerdan topilgan?	Shimoliy Mo'g'ulistonдан topilgan bo'lib, hozir ham o'sha yerda saqlanadi	K
36.	Bitiktoshdagi voqealar kimning tilidan hikoya qilinadi?	To'nyuquq	L
37.	Dono To'nyuquq qayerda tarbiyalandi?	Tabg'ach davlatida (chunki u turk zodagonlarining Tabg'ach imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan o'g'llaridan biri edi)	K
38.	Turk xalqi qaysi davlatga bo'ysunar edi?	Tabg'ach davlatiga	L
39.	Xalq o'z erkini himoya qilmasa, u og'ir fojialarga, hatto yo'qlikka yuz tutishi mumkinligi	"Xoningni qo'yib taslim bo'lding. Shuning uchun tangri: "O'l!" – degan, shekilli, turk xalqi o'ldi, tugadi, yo'q bo'ldi. O'z xonini qo'yib, tabg'ach xoqoniga sajda qilgani tangriga ham xush kelmadи. Ularni har tomoniga tarqatib yubordi. Turk xalqi yerida birorta urug' qolmadi. Chakalak	K, 10

	yodnomada qanday tasvirlangan?	orasida qolgani yetti yuz nafar bo'ldi..."	
40.	"... xalqi o'zining xoni bilan bo'imay, Tabg'ach xoqonligiga qo'shildi, xonlik bo'ldi. O'z xonini qo'yib, yana Tabg'ach xoqonligiga qo'shildi. Tangri shunday degan ekan: "Xon berdim. Xoningni qo'yib, taslim bo'lding". Tabg'achga taslim bo'lgani uchun tangri. "O'", – degan shekilli, ... xalqi o'ldi, yo'q bo'ldi, tugadi. ... sir xalqi yerida birorta ham urug' qolmadi. Ichkari-yu tashqarida qolgani to'planib, yetti yuzta bo'ldi". Ushbu parchadagi nuqtalar o'rnilida qanday so'z tushirilgan?	"Turk" so'zi	L
41.	To'nyuquq necha kishini birlashtirib dushmaniga qarshi kurashadi?	700 kishini (ikki qismi otliq bir qismi yayov)	K, 10
42.	To'nyuquq qanday unvon oladi?	"Shad"	K, 10
43.	Turk xalqiga uch tomondan kimlar hujum qiladigan bo'ldi?	Tabg'ach, O'g'uz, Qitan	K, 10
44.	Turk xalqi qayerni manzil qildi va nimalar tanovul qilishdi?	Chug'ay (hozirgi Inshan) va Qoraqumni	K
45.	Kimlar: "Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan", – degan. Ta'rif kim haqida?	O'g'uzlar aytgan. Ta'rif Eltarish xoqon va To'nyuquq haqida	K, 10
46.	Nima uchun To'nyuquqning tun uxlagisi, kunduz o'tirgisi kelmadidi?	Dushmanlar hujumini eshitib	K, 10
47.	Turk xalqining qancha qo'shini bor?	Ikki ming	K

48.	Turk xalqi qaysi dushmanlardan himoyalanishi kerak?	Sharqda Xitoydan, janubda Tabg'achdan, g'arbda Qurdandan, shimolda O'g'uzdan	K
49.	Turk xalqi dushmanlarini qanday yengdi?	Har bir dushmanga alohida qo'shin tortib yengdi	K
50.	Turk xalqi qaysi qabilani uyquda bosishdi?	Qirg'iz qabilasini	K
51.	To'nyuquq qanday hayvonlarni katta qildi?	Qo'ng'ir qo'y, oq otni	K
52.	To'nyuquq bu bitikni kimning davrida yozdiradi?	Bilga xoqon davlatida	
53.	Yodgorlikda To'nyuquq qanday qahramon sifatida namoyon bo'ladi?	Xalq yetakchisi, dono maslahatchi, kuchli va botir sarkarda sifatida	L
54.	Xoqon va To'nyuquqqa nisbatan: "Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alлома ekan", – degan bahoni kim bergan?	Turk xalqining dushmanlari	L, 10
55.	To'nyuquq iftixoridagi eng asosiy nuqta qanday boshlanadi?	"Bu turk xalqiga qurolli dushmanni keltirma-dim, yalovli otni yugur-tirmadim", – deya	10
56.	Asarda oltinga, kumushga, tuyaga qanday epitet – sifatlashlar qo'llangan?	Oltinga "sariq", kumushga "oq", tuyaga "egri" sifatlashlari qo'llangan	10
57.	Asardagi asosiy tasvir vositasi...	Alliteratsiya	10
58.	"O'ngra qittaynyig' o'lurtachi terman, Bani o'g'uzug' o'lurtachi – o'q terman". Ushbu misralarda qanday she'riy san'at qo'llangan?	Alliteratsiya	10

59.	"Tabg'ach, sen o'ngdan hujum qil! Qitan, oldindan hujum qil! Men chapdan hujum qilay!" Ushbu parcha kimning nutqidan olingen?	O'g'uzlar orasidan kelgan kuzatuvchining nutqidan	10
60.	Qadimgi davrlarda yashab ijod etgan ayrim adiblarning nomlarini ayting	Yo'llug' Tegin, Arpin-chur Tegin, Kul Tarxon, Singku Seli Tutung, Pratyaya Shiri, Asig' Tutung, Chusuya Tutung, Kalim Keysi, Chuchu	10
61.	To'maris bilan bog'liq voqealar tafsilotini keltirgan shaxs...	Herodot	10
62.	Shiroq haqidagi hikoyat mazmunini yozib qoldirgan shaxs	Yunon tarixchisi Poliyen	10

**Eltarish xoqon quyidagi dushmanlariga qarshi necha marta urush qildi?**

63.	Tabg'achga qarshi	17 marta	K
64.	Qitanilarga qarshi	7 marta	K
65.	O'g'uzga qarshi	5 marta	K

**Quyidagi so'z va jumlalarni izohlang**

66.	O'rxun-Enasoy	Hozirji Rossiya hududidagi Yenisey daryosi va joy nomi	
67.	Xoqon	O'rta asr turkiy xalqlardagi yirik davlat boshliqlarining unvoni va shu unvon olgan shaxs; ulug' xon	L
68.	Bilga	Dono	
69.	Bo'yla bag'a taxxon	To'nyuquqning unvoni	K
70.	Chovushi	Shuhratlisi	K
71.	Chug'ay	Hozirgi Inshan	K
72.	Umay	Qadimgi turklarning onalik sifatiga ega bo'lgan xudosi	K
73.	Inju o'g'uz	Sirdaryoning qadimgi nomi	K

74.	Tinsi o'g'li	So'g'd podshosining unvon-laqabi	K
75.	Til tutib keltirmoq	Asir olmoq, kerakli ma'lumot olish maqsadida harbiy asirni qo'lga tushirmoq	L
76.	So'k	Tozalangan tariq	L
	"Kul tigin" bitiktoshi		
77.	Turk xoqonligiga kim asos solgan?	Kuchli va jasur urug'boshisi Ashinning o'g'li Bumin	K
78.	"Kul tigin" bitigining muallifi...	Yo'llug' tigin	L
79.	Yo'llug' tigin turk davlatining asoschilari haqida qanday fikrlarni aytgan?	'Bumin va Istamin – turk davlatining asoschilari, ular taxtga o'tirgach, to'rt tarafdag'i xalqni birlashtirib, qudratli davlat barpo etganlar"	K
80.	Keyinchalik turkiy xalqlarning qat'iyatsizligi bois Turk xoqonligi qaysi davlatga bo'yundirilgan?	Tabg'ach (Xitoy) davlatiga bo'yundirilgan, yigitlar qui qilingan	K
81.	"Kul tigin" bitiktoshi kimning sharafiga qo'yilgan?	Eltarish xoqonning o'g'li Bilga xoqonning inisi Kul tigin sharafiga qo'yilgan	L
82.	Boshqa bitiklardan qanday farqli tomoni bor?	Boshqa bitiklardan farqli ravishda uni yozgan muallif nomi bizgacha yetib kelgan	L
83.	Yo'llug' tigin qaysi xalqning yozuvchisi?	Turkiy xalqlarning nomi saqlanib qolgan eng qadimgi yozuvchilaridan biri	L
84.	Yo'llug' tigin bu bitiktoshni necha kunda yozgan?	20 kunda	L
85.	"Kul tigin" bitiktoshi qachon yaratilgan?	732-yilda	L

86.	“Kul tigin” bitiktoshida Kul tiginni qabr toshidagi naqshini kim keltiradi?		Tuyg'un Altabar	L
87.	Bitiktoshda qanday voqealar tasvirlangan?		Kul tigin qahramonliklari, uning vatan, ona yurt oldidagi buyuk xizmatlari sharaflangan	L
88.	“Kul tigin” bitiktoshi nimadan ishlangan?		Marmardan	L
89.	Bitiktoshning balandligi...		3 m 15 sm	L
90.	Bitiktoshning qalinligi...		41 sm	L
91.	Bitiktoshning tub qismi...		1 m 24 sm	L
92.	Yodgorlikni kim topgan?		Rus ziyolisi N.M.Yadrin-sev (1842 – 1894)	L
93.	Yodgorlik qachon qayerdan topilgan?	1889-yili Mo'g'ulistonning Kosho Saydam vodiysidagi Ko'kshin – O'rxun daryosi qirg'og'idan topilgan. U U'an-Batordan 400 km janubda, Qora Balg'asun shahri xarobalaridan 40 km shimolda joylashgan		L
94.	Yozuvlar qay holatda yozilgan?		O'ngdan chapga yuqoridan pastga qarab bitilgan	L
95.	Oltin, kumush, ichkilik, ipakni hisobsiz beradigan, shirin so'zli, nafis ipak kiyimli xalq...		Tabg'ach xalqi (boshqa xalqlarni shirin so'zi, ipak kiyimi bilan aldab tuzog'iga ilintiradi)	L
96.	Turk xalqi-ning dushmanlari...	Tabg'ach xalqi, Baz xoqon, To'qqiz og'iz, qirg'iz, quriqan, o'ttiz tatar, qitany (mo'g'ul qabilalaridan birining nomi), tatabilar		L
97.	Eltarish xoqon barcha dushmanlariga necha marta lashkar tortgan?		47 marta lashkar tortgan, 20 marta jang qilgan	L
98.	Bitiktoshda kambag'al xalqni boy qilgan, oz xalqni ko'p qilgan qahramon...		Kul Tigin	L

99.	Muallif Yo'llug' tigin nima uchun: "Vujudim alam chekdi. Ko'rар ko'zim ko'rmayotganday, bilar aqlim bilmayotganday bo'ldi. Jonim azobda qoldi. Dunyoni tangri yasaydi, inson bolalari hammasi o'ladigan qilib yaratilgan. Shunchalik alam tortdimki, ko'zga yosh kelganda, ko'ngilga yig'i kelganda, qayta g'am chekdim, qayta qayg'urdim", – deya azob chekadi?	Yo'llug' tigin Kul tiginning jiyani edi. Muallif bu gaplarni Kul tigin vafot etgani uchun ayt- gan	L
100.	Kul tigin Turgash xoqon lashkariga qarshi qanday otda jangga kiradi?	Bashg'u nomli bo'z otda	L

**"Kul tigin" bitiktoshidagi quyidagi  
fikrlarni davom ettiring**

101.	"Qashshoq xalqni boy qildim..."	"Oz xalqni ko'paytirdim..."	L
102.	"Uy dunyogagina qaraydigan beklar, ko'ziga faqat mol-mulk ko'rindigan beklar..."	"Sizlar gum- rohsizlar..."	L
103.	"Inson bolalari ustidan ota-bobom..."	"Bo'min xoqon, Istami xoqon bo'lib o'tirganlar..."	L
104.	"Turk o'g'uz beklari, ey xalq, eshitingiz!..."	"Tepadan osmon bosmagan bo'lsa, pastda yer yorilmagan bo'lsa, ey turk xalqi, davlatingni, hukumatingni kim buzdi"	L
105.	Kul tigin qachon vafot etdi?	Qo'y yilda o'n yettinchi kuni	L
106.	Kul tiginning azasini qachon o'tkazishdi?	To'qqizinchi oyning yigirma yettsida	L
107.	Kul tigin sharafiga bun- yod qilingan bino, naqsh va bitiktoshni qachon bu- tunlay bitirib tugatishdi?	Maymun yilda yettinchi oyning yigirma yettinchisida	

### Quyidagi so'zlarni izohlang

108.	Pishiqlamoq	Biror ishni pishiq-puxta bajarish uchun yo'l-yo'riq o'rganmoq	L
109.	Debo	Nozik va nafis naqshlar solib to'qilgan mato	L
110.	O'n o'q, tot	Qabila va urug' nomlari	L
111.	Balbal	Inson ramzini anglatadigan tosh haykal	L

### “Bilga xoqon” bitiktoshi

112.	“Bilga xoqon” bitigini kim topgan?	Uni ham N.M.Yadrinsev topgan	L
113.	“Bilga xoqon” bitiktoshi qayerga o'rnatilgan?	“Kul tigin” bitiktoshidan 1 km janubi g'arbga	L
114.	Bitiktoshning bo'yisi...	3 m 45 sm	L
115.	Eni...	1 m 72 sm	L
116.	Qalinligi	72 sm	L
117.	Bitiktosh qay holatda yetib kelgan?	Bitiktosh ag'darilib, uchg'a bo'lingan va ayrim satrlari nurab, yozuvlari ham zarar ko'rgan	L
118.	“Bilga xoqon” bitiktoshi necha satrdan iborat?	80 satrdan	L
119.	“Bilga xoqon” bitiktoshida “Kul tigin” bitiktoshidagi necha satr takrorlangan?	41 satr	L
120.	“O'rxun-Enasoy yodgorliklari”ni o'rgangan dunyodagi turkshunos olimlar...	V.Tomson, V.Radlov, S.E.Malov, S.G.Klyashtorniy, I.V.Stebleva, H.Orxun, T.Tekin, Najib Osim, G.Aydarov, o'zbek olimlaridan A.Rustamov, G'.Abdurahmonov, N.Rahmonov	L
121.	Turk zodagonlarining Tabg'ach imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan o'gillaridan biri...	To'nyuquq	K

**Quyidagi ma'lumotlar qaysi  
bitiktoshlarda uchraydi?**

122.	"Yuqorida ko'k osmon, ostida qora yer qilinganda ikkisining o'rtasida inson bolalari yaratilgan. Inson bolalari ustidan ota-bobom Bumin xoqon va Istamin xoqon o'nashganlar. O'nashib, turk xalqining davlatini, qonun va qoidalarini boshqarganlar"	"Kul tigin"	K
123.	"Bu turk xalqiga qurolli dushmanni keltirmadim, yalovli otni yogurtirmadim. Eltarish xoqon muvaffaqiyat qozonmasa, unga qo'shilib men o'zim muvaffaqiyat qozonmasam, davlat ham, xalq ham yo'q bo'ladigan edi. Xoqonim muvaffaqiyat qozongani uchun, men o'zim muvaffaqiyat qozonganim uchun xalq ham xalq bo'ldi, o'zim chol bo'ldim, ulg'aydim"	"To'nyuquq"	L
124.	"Uy, dunyogagina qaraydigan, ko'ziga faqat mol-mulk ko'rindigan beklar, sizlar gumrohsizlar"	"Kul tigin"	L

**HADIS HAQIDA TUSHUNCHA**

1.	"Qur'oni Karim" qanday kitob?	Alloh taolo so'zları	5
2.	"Qur'oni Karim"ning ikkinchi nomi nima?	Kalomulloh – Kalomi Alloh	5
3.	Islomda islomiy yashash va o'zaro muomala qilishning bosh kitobi...	Qur'oni Karim	5
4.	Qur'oni Karim payg'ambarimizga qanday yetib kelgan?	"Vahiy" orqali	5

5.	"Vahiy" nima?	Alloh taoloning o'z sevgan bandasi diliga o'z so'zlarini, yani ilohiy so'zlarni solishidir	5
6.	Qur'onidan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba...	Hadis	5
7.	Hadis haqida ma'lumot bering?	Hadis va sunnat so'zlari – payg'am- barimizning aytganlari, bajargan amallari	K, 5
8.	Hadislarni yig'ish qachondan boshlangan?	Payg'ambarimiz davrlaridan	5
9.	Hadisshunoslik fani qanday ish bilan shug'ullangan?	"Sahih" ishonchli hadislarni "nosahih" ishonchsizlardan ajratish bilan shug'ullangan	5
10.	Nega nosahih hadislari tarqalgan?	Islomni obro'sizlantirish, musulmonlarni chalg'itish uchun uning dushmanlari soxta hadislari to'qib tarqatganlar	5
11.	Namoz jamoa bo'lib o'qilganda, oldindagi boshib boruvchi alloma...	Imom	5
12.	Hadislari kimlardan yig'ilgan?	Roviylardan	5
13.	Roviy kim?	Hadis aytuvchilar	5
14.	Roviylar asosan necha xil bo'lgan?	Ikki xil: sahabalar, tobeinlar	5
15.	Muhaddis deganda kimlarni tushunamiz?	Hadisshunos olimlarni	
16.	Sahabalar kimlar?	Payg'ambarimizni ko'rgan va u kishi bilan suhbatda bo'lganlar	5
17.	Kimlar tobein hisoblanadi?	Sahabalarini ko'rganlar	5
18.	Hadis necha qismdan iborat?	2 qismdan: sanad va matn	5
19.	Hadisning sanad qismi deganda nima nazarda tutiladi?	Kim tomonidan aytilganligi	5
20.	Hadisning matn qismi deganda nima nazarda tutiladi?	Mazmuni	5

21.	Musnad deb nimaga aytildi?	Roviylar ro'yxati	
22.	Qanday hadislar ishonchli hadis hisoblanadi?	Musnadda uzilish bo'lmasa	
23.	Bizning yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislar kimlar?	Imom Buxoriy, At-Termiziyy, As-Samarqandiy	5
24.	Hadislar qachon jamlangan?	"Hadislar janob Payg'ambar hayotliklarida jamlangan emas. Chunki janob Rasululloh: "Mendan Qur'oni Karimdan bo'lak hech narsani yozib olmanglar!" – der ekanlar. Faqat ayrim sahabalarga o'z shaxsiy maqsadlari uchun hadislarni qayd qilib borishga ijozat bergan ekanlar"	K
25.	O'zining butun bilim va hayotini to'g'ri hadislarni aniqlab, jamlashga sarflagan kishilardan biri bo'lgan xalifa...	Xalifa Umar	K
26.	Movarounnahrda birinchi bo'lib hadis to'plamini jamlagan muhaddis kim?	Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziyidirlar	K
27.	Al-Buxoriygacha nechta olim hadis ilmi bilan shug'ullangan?	O'nta olim	K
28.	Imom al-Buxoriyning hadis ilmiga bag'ishlangan qancha asarlari bor?	O'ndan ortiq	K
29.	Imom al-Buxoriyning eng ishonarli va mukammal hisoblangan to'plami...	"Al-jome as-sahih", ya'ni 4 jiddan iborat hadislarni to'plami	K
30.	Yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislar...	Al-Buxoriy, At-Termiziyy, As-Samarqandiy	5
31.	Imom Buxoriy yozgan asarlari ichida eng mashhuri...	"Al-jome as-sahih"	5
32.	Hadislarni sahih (ishonchli) va g'ayrisahih (ishonarsiz) qismlariga birinchi bo'lib kim ajratgan?	Imom Buxoriy	5

33.	Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Muslim Hajjoj, Abu Dovud, Xotib Hokim, Abu A'lo, Daylamiy, Nasoviy, Ibn Mojja, Dorimiyy, Bayhaqiy, Tabaroniy, Xotib, Hokimlar qaysi soha bilimdonlari	Muhaddis olimlar – hadis ilmi bilimdonlari	
-----	---	--	--

## IMOM AL-BUXORIY (810 – 870)

1.	Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy qachon qayerda tavallud topgan?	810-yilning 21-iyunida Buxoro shahrida	K, 5
2.	Imom al-Buxoriyning ismi...	Muhammad	5
3.	Al-Buxoriy-ning otasi haqida ma'lumot bering	Otasi Ismoil Buxoriy ham muhaddis edi, goho tijorat bilan shug'ullanardi. Lekin juda halol, xudojo'y odam edi. Zamondoshlari, uning xonadoniga mehnatsiz topilgan biror dirham ham pul kirgan emas edi, deb yozadilar. Otasi erta vafot etganidan, tarbiyasi-da onasining xizmati katta bo'ldi	5
4.	"Muhammadning ko'zi yoshligida jarohatlanib, ojizlanib qoladi. Tabiblarga qaratadilar foyda bermaydi. Bir kuni ona tush ko'radi. Tushida bir payg'ambar unga qarata: "Ey volida, duolaring sharofatidan Alloh o'g'lingga ko'rish ne'matini qaytardi!" – deb xitob qilayotganmish. Cho'chib uyg'onib, o'g'lidan xabar olibdi. Muhammadning ko'z-qaroqlarida nur o'ynardi". Onasi tushida qaysi payg'ambarni ko'rди?	Ibrohim alayhis-salomni	5

5.	Muhammadning tarbiyasida kimning xizmati katta bo'ldi?	Otasi erta vafot etganidan tarbiyasida onasining xizmati katta bo'ldi	K, 5
6.	Muhammad necha yoshidan boshlab arab til va hadislarni o'rgangan?	10 yoshidan boshlab	K, 5
7.	Imom al-Buxoriy necha yoshida minglab hadislarni yod bilar, ularning "sahih" – "nosahih"ligini birma-bir isbot qilib bera olar edi?	16 yoshida	5
8.	Imom al-Buxoriy qaysi shaharlarni kezib ilm o'rgandi?	Kesh bilan Marvdan Makka-yu Madinagacha, Balx bilan Hirotdan Bag'dod-u Basragacha, Nishopurdan Misr va Shomgacha (Kollej darsligida: Makka-yu Madina, Damashq, Qohira Basra, Kufa, Bag'dod)	5
9.	Imom Buxoriy hadis ilmi bilan birga yana qanday fandan saboq oladi?	Fiqh ilmidan (Fiqh – din, shariat qonun-qoidalari haqidagi fan, islam huquqshunosligi, ilohiyot)	K
10.	Imom al-Buxoriy nechta ishonchli ulamodan hadis yozib oldi?	1000 dan ortiq	5
11.	Imom al-Buxoriy qanday sharaflı nomga sazovor bo'lgan?	"Hadis ilmida amir al-mo'miniyn", "Muhaddislar imomi", "Muhaddislar sultonı" degan unvonlarni olgan	K, 5
12.	Rivoyat qilishlaricha, bir kuni Imom Buxoriyni boshqa shaharga ma'ruza uchun taklif qilib, uning qobiliyatini sinamoqchi bo'ladilar. Yuzta hadisni o'zgartirib,	Har bir kishining aytgan hadisini o'zinikiday qilib aytib, ketidan to'g'risini aytib beradi. Shu tariqa yuzta hadisni to'g'rilib aytib	

	o'n kishiga bo'lib beradilar. Bitta-bittadan hadisni aytirib: "To'g'rimi?" – deb so'raydilar. Imom Buxoriydan: "Bilmadim", – degan javobni oladilar. Hamma hadis aytib bo'lingach, Imom Buxoriy so'z boshlab, nima deydi?	berganlaridan so'ng shahar ahli u kishi-ning zehniga, xotirasi-ga lol qolgan ekan	K
13.	Qaysi hadisshunos olim Imom al-Buxoriyning salohiyatini o'zidan yuqori qo'ygan?	At-Termiziy	K
14.	Buxoroning amiri Xolid ibn Ahmad Al-Buxoriya odam yuborib, saroya kelishini, bolalariga ta'lif berishini buyuradi. Imom Buxoriy qanday javob beradi?	"Men ilmni xor qilmayman, uni hukmdorlar eshigiga olib bormayman. Ilm izlab bormaydi, ilmni izlab keladilar", – deydi	5
15.	Darg'azab bo'lgan amir Imom Buxoriyi Buxorodan badarg'a qiladi. Shundan so'ng Al-Buxoriy umrining so'nggini qayerda o'tkazadi?	Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida	K, 5
16.	Imom al-Buxoriy qachon vafot etadi?	870-yilning 31-avgustida Samarqand viloyati Paya, q tumani Xartang qishlog'ida	5
17.	Livanlik Shayx Nadim al-Jisrning O'zbekiston-ga ziyorati haqida gapiring	Shayx Nadim al-Jisr 1956-yili sobiq Sovet Ittifoqini ziyorat qilishga taklif etiladi. U safarini eng avval Imom al-Buxoriy maqbarasini ziyoratidan boshlamoqchi ekanini aytadi. Biroq moskvaliklar Buxoriy haqida hech narsa bilmas edilar. Imom al-Buxoriy shaxsi, maqbarasi qayerdaligi aniqlanguncha, bir hafta mehmonxonadan chiqmaydi. Maqbara mehmon ziyorat qiladigan	

		darajada emasligi, yonidagi masjid esa omborxonaga aylantirilganligi ayon bo'ladi. Yodgorlikni tezkor ta'mirlash va epaqaga keltirish uchun vaqtdan yutish maqsadida mehmonni Moskvadan Toshkentga poyezdda olib keladilar. Maqbaraga esa yarim tunda olib boradilar. Boisi Xartang qishlog'i hali elektrlashtirilmagan ekan. Nadim al-Jisr maqbarada kechqurundan to ertasi peshingacha Qur'on tilovat etadi. Uning ko'zlaridan tinmay yosh oqar, hamma bu manzaradan hayratga tushgan edi	K
18.	Shayx Nadim al-Jisr qanday istagini aytadi?	O'sha voqealarning shohidi Z.Boboxonovaning e'tirof etishicha, Shayx Nadim al-Jisr Imom al-Buxoriy qabri va uning atrofidagi tuprog'ini vazniga teng oltin barobarida sotib olish istagini bayon qilgan ekan	K
19.	Hozirgi kunda Imom al-Buxoriyning qabri atrofi qay holatda?	Mustaqillik sharofati bilan qadriyatlarimiz tiklandi. Shular qatorida muqaddas qadamjolar ham tamirla...di. Hozir Imom al-Buxoriyning qabri atrofida katta me'moriy majmua barpo etilgan va u musulmonlarning ziyyaratgohiga aylantirilgan	K
20.	Imom al-Buxoriyning qancha asari yetib kelgan?	Yigirmadan ziyod	K, 5
21.	Imom al-Buxoriy asarlariga misol keltiring	"Al-jome as-sahih" ("Ishonchi to'plam"), "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari")	K
22.	"Al-jome as-sahih" ustida olim necha yil ishlagan?	16 yil	5

23.	Imom al-Buxoriyning boshqa to'plamlar orasida eng ishonarli va mukammali hisoblangan 4 jiddan iborat hadislar to'plami...	"Al-jome as-sahih" ("Ishonchi to'plam")	K
24.	"Al-jome as-sahih"ga nechta hadis kiritilgan?	600 ming hadisdan 7397 hadis saralanib olingan	5

### AKADEMIK LITSEYNING "HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI" DARSЛИGIDAGI MA'LUMOTLAR

25.	"Hadislarni to'plamga kiritishimdan avval g'usl qilib, so'ng ikki rakat istixora namozini o'qir edim. Men bu to'plamdagи hadislarni jami olti yuz ming aralash va ikki yuz mingga yaqin sahих hadislar orasidan ajratib oldim. To'plamni yozish uchun 16 yil umrimni sarfladim. Toki bu Olloh bilan mening о'rtamda hujjat bo'lsin uchun". Ushbu fikrlar qaysi asar haqida?	"Al-jome as-sahih" ("Ishonchi to'plam")	
26.	To'plam nechta qism va bobdan iborat?	97 fasl, 3405 bobdan iborat	

#### "Al-jome as-sahih" to'plamidagi hadislar soni...

27.	Mutaba'ad (ketma-ket davom etuvchi) hadislarning soni...	344 ta	
28.	Ta'aliq (hoshiyasida izoh bilan kelgan) hadislarning soni...	1341 ta	
29.	Takror kelmaydigan mavsula (Muhammad alayhissalomga bog'langan) hadislarning soni...	2602 ta	
30.	Takror keladiganlar soni...	7397 ta	

31.	"Al-jome as-sahih" nechta sahaba vositasida rivoyat qilingan?	183 ta sahaba, ularning 31 tasi ayollar	
32.	"Al-jome as-sahih" asarining turli nusxalari nashr etilgan. Asarning "Buloq" nomli nusxasi nechta jilddan iborat?	8 jilddan	
33.	"Buloq" nomli nusxani kim qancha miqdorda nashr ettirgan?	Sulton Abdul Hamid tasarrufi bilan besh ming nusxada chop etilgan	

### "AL-JOME AS-SAHIH" DAN

34.	Imom al-Buxoriy "Al-jome as-sahih" asaridagi bir hadisda salom bermoqlikning ahamiyati nimaga teng qo'yilgan?	Och odamga taom bermoqlik bilan	5
35.	"Sahoba Ammor aytganlar: "Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lg'aydir". Ular qanday xislat..."	1. Insofli va adolatlbo'lmoqq. 2. Barchaga salom bermoq. 3. Kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq	5
36.	Ammor ibn Yosir kim...	Sahoba, hazrat Alining yordamchilaridan	5
37.	Rasululloh sollallohu alayhi vassallamdan bir kishi so'radi: "Islomda eng yaxshi xislatlar qaysidir?" Ular qanday javob berdilar?	"Ochlarga taom bermoqlik, tanigan va tanimaganga salom bermoqlik"	5

38.	G'azabni bosmoq haqidagi hadisda Alloh kimlarni sevishi aytilgan?	Alloh gunohi azimlardan va fahsh ishlardan o'zini olib qochuvchilarni, g'azablangan taqdirda ham kechira oluvchilarni, tanglikda ham, mo'lchilikda ham xayr-ehson qiluvchilarni, g'azabini yutuvchilarni, odamlarning gunohini o'tuvchilarni, yaxshilik qiluvchilarni sevadi	5
39.	Abu Hurayra (roziyallohu anhu) rivoyat qilishlaricha, Rasululloh sollallohu alayhi vassallam qanday odamni polvon degan ekanlar?	"Birovni kurashib yiqitgan polvon emas, balki g'azablangan vaqtida jahlini yutgan odam polvondir", – dedilar	5
40.	<i>Roziyallohu anhu</i> birikmasining ma'nosi...	Sahobaga aytilgan duo	5
41.	Bir odam Rasululloh sollallohu alayhi vassallamga: "Menga nasihat qiling", – dedilar. Ular qanday nasihat qildilar?	"G'azablanmagin", – deb bir necha bor aytdilar	5
42.	Sahl ibn Sa'd rivoyat qilishlaricha, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam jannatda kim bilan yonmayon yashashlarini aytganlar?	Yetimning kafilini olgan odam bilan	5
43.	Ilmning fazilati to'g'risidagi hadisda Alloh taolo oyati karimasida Alloh taolo kimlaming martabasini ulug' qilishi va oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etishi yozilgan?	lymon keltirganlar va ilmi yuksaltirganlarni	5
44.	Alloh taoloning ilm haqidagi oyati karimasida ta'kidlanishiha, odam Tangridan niman so'rashi kerak ekan?	"Yo Rabbiy, ilmimni ziyoda qilgaysen", – deb so'rashi kerak	5

**Ilm o'rganmoq va ilm o'rgatmoqning  
fazilati to'g'risidagi hadisda**

45.	Ilm nimaga o'xshatiladi?	Yomg'irga	
46.	Bir hadisda yozilishicha, yomg'ir yog'ganida turli yerlar o'ziga suvni qanday singdiradi?	1) ba'zi yer sof, unumdon bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradi; 2) ba'zi yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan, o'zida to'playdi, undan Alloh taolo bandalarini foydalanadiradi. Odamlar suvdan ichadi, hayvonlarini va ekinlarini sug'oradi; 3) ba'zi yer tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydi, ko'katni ham ko'kartirmaydi	5
47.	Yuqorida ta'riflangan yerlar qanday odamlarga o'xshatilgan?	1-yer – mo'min odamga; 2-yer – fosiq odamga; 3-yer kofir odamga o'xshatilgan	5
48.	Ilmni o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadiganlar...	Mo'min	5
49.	Ilmni o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatib, o'zi amal qilmaydiganlar...	Fosiq	5
50.	Ilm o'rganishni xohlamay, birovlarga ham o'rgatmaydiganlar...	Kofir	5
51.	Hadisda qanday odamlar mutakabbir deyilgan?	Ilmni o'rganishni xohlamaydigan kofirlar	5
52.	Abu Hurayra (roziyallohu anhu) rivoyat qilishlaricha, bir odam Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan: "Mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqliroqdir?" – deb so'raganlarida qanday javob oldilar?	"Onang, onang, onang, so'ng otang", – degan javobni	5
53.	Hadisda aytishicha, qaysi holatda odam o'z ota-onasini haqorat qilgan hisoblanadi?	Birovning ota-onasini so'kkanida ham	5

54.	Rizqim ulug', umrim uzun bo'lsin degan odam kimlarga mehr-oqibatli bo'llishi kerak?	Qarin-doshlariga	5
-----	---	------------------	---

**Dialogdagi quyidagi fikrlar qaysi shaxslarga taalluqli?**

55.	– As-somu alaykum! (ya'ni "Sizga o'lim!")	Bir to'da yahudiylar	5
56.	– Va alaykumu-s-somu va-l-la'na! (ya'ni "Sizga ham o'lim va la'nat!")	Oysha ona	5
57.	– Yo Oysha, shoshmay turg'il! Alloh taolo barcha ishda xushmuomalalikni yoqtirgaydir	Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan	5
58.	– Yo Rasululloh, ularning nima deganini eshitmay qoldingiz!	Oysha ona	5
59.	– "Sizlarga ham" dedim-ku, axir!	Janob Rasululloh	5
60.	Kibr haqidagi hadisda kimlar ahli do'zax deyilgan?	Qo'pol, quruq gerdaygan, beqanoat va dimog'dor odamlar	5
61.	Kibr haqidagi hadisda kimlar ahli jannat deyilgan?	Zaif va bechorahol odamlar	5

**Bolaga rahmdillik qilmoq, uni o'pib quchoqlamoqlik haqida**

62.	Bir ayol ikki qizalog'ini yetaklab Oysha ona huzuriga tilanchilik qilib keldi. Oysha ona bir dona xurmo berdi. Ayol xurmoni ikkiga bo'lib ikki qizaloqlariga berdi. Oysha ona bu voqeani Payg'ambarga aytib berdi. Payg'ambar voqeaga o'z munosabatini qanday bildirdi?	"Kimki ana shunday qizaloqlarga muruvvat qo'lini cho'zgaydir, ular uni do'zax otashidan parda bo'lib to'sib turg'aydirlar"	5
-----	---	--	---

63.	Rasullulloh sollallohu alay-hi vasallam sahobalariga: "Nima deysizlar, anavi ayol o'z bolasini o'tga tashlay olgaymi?" – dedilar. Sahobalar: "Yo'q, also tashlay olmas!" – deyishdi. Shunga javoban Payg'ambarimiz nima dedilar?	"Alloh taolo o'z bandalariga bolasiga mehribonchilik qilayotgan manavi ayoldan ham mehribonroqdir! Alloh taologa ham o'z bandasini do'zax o'tiga tashlamoqligi g'oyat og"irdir" – dedilar	5
64.	Hadisda ta'-kidlanishicha, inson hasad qilmasligi kerak, ayniqsa, ikki narsaga. Bular...	1. Alloh taolo halol mol-dunyo bersayu, uni haq yo'lida sarflayotgan bo'lsa. 2. Kishiga Alloh taolo ilm-u hikmat ato etsa-yu, u shu tufayli oliy maqomga erishib, hukm surayotgan, odamlarga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa	5
65.	Hadisda aytishicha, kimgarga ikki hissa savob tekkaydir?	Qarindoshlariga zakot bergen odamga: biri – qarindoshlarga oqibat qilgani uchun, ikkinchisi – zakot bergani uchun	5
66.	Agar biror gado yoki hojatmand kishi huzurlariga kirib kelsa, payg'ambarimiz nima qilish kerakligini aytganlar?	"Ko'mak qilingiz, savob topg'aysiz! Alloh taolo o'z rasulining tilidan uning istagan narsasini ayttirib, hojatini chiqargaydir!" – dedilar	5
67.	Jundub roziyallohu anhu rivoyat qilishlaricha, rivo va shuhratparastlik haqida qanday hadis aytigan?	"Kimda-kim xayrli ishlarni shuhrat topmoq niyatida ovoza qilg'aydir, Alloh taolo ham qiyomatda uni sharmanda qilib, ovoza qilg'aydir, kimda-kim xayrli ishlarini odamlar meni ko'rib qo'yinlar deb ko'z-ko'z qilg'aydir, Alloh taolo ham qiyomatda uni barcha bandalari o'rtaida izza qilg'aydir"	5

68.	Hadisda aytilishicha kimlar zolim hisoblanadi?	"Alloh taolo nozil qilgan yo'l-yo'riqlarga muvofiq hukm qilmaydiganlar – zolimlardir!"	5
-----	--	--	---

**Quyidagi so'zlarning ma'nosini ayting**

69.	Qavl	So'z	5
70.	Riyo	Ikkiyuzlamachilik	5

**"AL-ADAB AL-MUFRAD"  
("ADAB DURDONALARI")  
ASARIDAN SAVOLLAR**

71.	2-hadis: Abdulloh ibn Umar (roziyallohu anhu) rivoyat qilishlaricha, Alloh taoloning rozi bo'lishi va g'azabi nima-ga teng va bog'liq ekan?	Alloh taoloning rozi bo'lishi otaning rozi bo'lishiga va uning g'azabi ham otaning g'azabiga bog'liqdir?	K
72.	<i>Roziyallohu anhu</i> birikmasini sharhlang	<i>Alloh undan rozi bo'lsin</i>	K
73.	3-hadis: Musoviya ibn Hayyida (roziyallohu anhu) rivoyat qilishlaricha, Rasulullohdan: "Men yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi?" – deb so'rashganida payg'ambarimiz qanday javob bergenlar?	Uch marotaba: "Onangga", – deb, to'rtinchı marotaba: "Otangga va yaqin qarindoshlaringga", – deya javob bergenlar	K

74.	11-hadis: Abu Burda ibn Abu Musa al-Ash'ariyning aytishlaricha, Abdulloh ibn Umar bir yamanlik odam o'z onasini opichlab, xonayi Ka'bani tavof qildirib yurganini ko'rdilar. U odam quyidagi baytni ohang bilan o'qirdi: Onaizoram uchun bo'yinini eggan tevaman, Tevaga minggan onam horsalar ham men charchamam. U shuni o'qib turib, Abdullohga qaradi-da: "Ey Abdulloh ibn Umar, mana shu xizmatim bilan men onamning haqini ado qila oldimmi?" – deb so'radi. Abdulloh ibn Umar qanday javob berdilar?	"Yo'q, bu xizma-ting seni tug'ish vaqtida onangni tutgan to'lg'oqlar-ning bitta-siga ham barobar emas", – deganlar	K
75.	11-hadis: Abdulloh ibn Umar xonayi Ka'bani tavof qildilar va maqomi Ibrohimga borib, ikki rakat namoz o'qib, bu namoz nimaga kafolot bo'ladi dedilar?	"... o'zidan ilgarigi gunohlarga kafforat (tovon) bo'ladi", – deganlar	K
76.	13-hadis: Bir kishi Rasulullohning huzurlariga hijrat qilmoq uchun keldi, lekin bu ishga ota-onasi rozi bo'limgan edi. Shunda Rasululloh u odamga nima dedilar?	"Sen hozir ota-onang-ni oldiga bor! Hijrat qilaman deb ularni xafa qilganingdek, endi hijrat qilmaydigan bo'ldim, deb ularni xur-sand qil", – deganlar	K
77.	21-hadis: Abu Hurayra rivoyat qilishlaricha, Rasululloh: "Xor bo'lsin, xor bo'lsin, xor bo'lsin!" – deb o'n marta takror qildilar. Shunda sahabalar: "Yo Rasululloh, kimni aytyapsiz?" – degan savollariga payg'ambarimiz qanday javob berdilar?	"Ota-onasining ikkalasi yoxud bittalari keksayib qolgan vaqtida (ularni rozi qilmay) o'zini do'zaxga tushishga mutbalo qilgan kishini", – deganlar	K

78.	<i>Tubo so'zining ma'nosi...</i>	Jannatlardan biri	K
79.	22-hadis: Ma'oz al-Juhaniy (roziyallohu anhu) rivoyat qilishlaricha, kim ota-onasini rozi qilsa, unga qanday mukofot borligi payg'ambarimiz tomonidan aytildi?	"Kim ota-onasini rozi qilsa, unga tubo nasib bo'lib, Alloh taolo uning umrini ziyoda qiladi", – deganlar	K
80.	32-hadis: Abu Hurayra rivoyat qilishlaricha, payg'ambarimiz uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz Alloh taolo qoshida maqbulligi aytildi. Bular...	Mazlum kishining duosi, musofirning duosi, ota-onaning duosi	K
81.	140-hadis: Ayf ibn Molik Rasulullohdan rivoyat qilishlaricha, eridan beva qolib, boshqa turmushga chiqmay, bolalarni tarbiya qilishda sabr etgan ayolga qanday mukofot borligi aytildi?	Payg'ambarimiz shunday ayol bilan jannatda birga yurishlarini aytganlar	K
82.	260-hadis: Abu Hurayra rivoyat qilishlaricha, payg'ambarimiz musulmoni komil bo'limgan odamning jannatga kira olmasligi haqida aytganlar. Ushbu hadisda musulmoni komil bo'lishi uchun qanday shartlar bayon etilgan?	"Musulmoni komil bo'lishingiz uchun bir-birin-gizga muhabbat qo'y-mog'ingiz shart. O'rta-laringizda muhabbat paydo bo'lishi uchun salomni oshkora berингиз va bir-biringizga jahl qilishdan saqlaningiz, chunki jahl tarashlaguvchidir, ya'ni u sochni tarashlamaydi, balki dinni tarashlaydi", – deganlar	K

83.	261-hadis: Abu Hurayra rivoyat qilishlaricha, ikki banda bir-birini ko'rmay turib uchrashishlari mumkinligi haqida payg'ambarimiz nima deganlar?	"Ikki mo'min banda bir-birin ko'rmay turib, ularning ruhlari bir kunlik yo'lda uchrashadi", – deganlar	K
84.	276-hadisda payg'ambarimiz chin boylik deb nimani aytganlar?	"Boylit moling ko'pligi bilan emas, balki (chin) boylik nafsning boyligidir", – deganlar	K
85.	300-hadisda bayon etilishicha, qaysi holatda odamga go'yo butun dunyo berilgan hisoblanadi?	"Kimki o'z oilasi ichida tinch, tani sog' bo'lib tursa va oldida shu kunga yetarli taomi bo'lsa, u odamga go'yo butun dunyo berilgan hisoblanadi"	K
86.	307-hadis: Abdulloh inb Amr rivoyat qilishlaricha, payg'ambarimiz Allohdan nimani so'rab, duo qilar edilar?	"Ey Rabbim! Men sendan tan sog'ligini, nafsning yomon yo'llarga boshlashdan saqlanishni, o'zingga va xalqlaringga ishonchli bo'lishni, yaxshi axloqli bo'lish va taqdirga rozi bo'lishga tuyassar qilishingni so'rayman", – deb duo qilganlar	K
87.	429-hadisda musulmon kishiga qanday illat fosiqligi haqida aytilgan?	"Musulmon kishining so'kishmog'i fosiqlikdir", – deyilgan	K
88.	431-hadisda musulmon kishining qanday illatlari fosiqlik va kufrligi bayon etilgan?	"Musulmon kishining so'kishmog'i fosiqlikdir va birovni o'ldirmog'i kufrdir", – deyilgan	K

89.	469-hadis: Hazrati Oysha ona o'jar, bo'yin bermaydigan tevaga mingan edi. Oysha onaning tevani urganini ko'rib, Rasululloh nima dedilar?	"Muloyim bo'l, kimda muloyimlik bo'lsa, husn va kamolotga erishadi va kimda muloyimlik xislati bo'lmasa, u aybli va nuqsonli bo'ladi"	K
90.	470-hadisda baxillik va zulm qilish haqida qanday fikrlar aytilgan?	"O'ta baxillik va mol-mulkka hirs qo'yishdan saqlaning, chunki baxillik sizdan ilgari o'tgan kishilarni halok qilgan. Shu baxilliklari tufayli ular bir-birlarining qonini to'kkan va qarindoshlikni uzib qo'yishgan. Birovga zulm qilish qiyomat kuni zolimni qorong'ilikka tushiradi", – deyilgan	K

### MAHMUD KOSHG'ARIY (XI ASR)

1.	Turk tilining nozik bilimdoni va tolmas targ'ibotchisi bo'lgan, "arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib, o'zib borayotgan turk tilini" ko'klarga ko'tarib, uning o'ziga xos xususiyatlarini mahorat bilan ko'rsatib bergen alloma...	Mahmud Koshg'ariy	11
2.	Mahmud Koshg'ariy qaysi xizmatlari uchun birinchi tilshunos olim sifatida qadrlanadi?	Turkiy til grammatisini ishlab chiqqani, shuningdek, turkcha-arabcha lug'atning birinchi namunasi yaratgani uchun	11
3.	Mahmudning otasi va bobosi qaysi shahardan bo'lgan?	Hozirgi Qirg'izistonida Barsg'on dovoni bor. Ular Issiqko'l atrofida joylashgan. Mahmudning otasi va bobosi xuddi shu yerdagi Barsg'on shahridan	11, L

4.	Mahmud Koshg'ariy qaysi shaharda dunyoga kelgan?	Bolasog'un shahrida	11
5.	Mahmud Koshg'ariyning to'liq ismi...	Mahmud ibn Husayn ibn Muhammaddir	11
6.	Mahmudning ilk ustozisi...	Ilk ustozlaridan biri qashgarlik Husayn xalifadir	11
7.	Mahmud Koshg'ariy qaysi shahardagi maktab va madrasalarda ilmini oshirgan?	Buxoro, Samarqand, Marv, Nishapur, Bag'doddagi	11
8.	Shoir nima uchun Koshg'ariy taxallusini tanlagan?	Mahmudning otasi Qashqarga ko'chib kelgan va Mahmud shu yerda tug'ilgan. Shuning uchun Koshg'ariy taxallusini qo'ygan bo'lishi mumkin	L
9.	Mahmud Koshg'ariyning asari...	"Devonu lug'ot at-turk" ("Turkiy tillar lug'ati")	11, L
10.	"Devonu lug'ot at-turk" qachon yaratilgan?	1072-yilda yozila boshlagan, 1074-yilda yozib tugatilgan (hijriy 464-yil jumodul avvalning 12-kuni – 466-yil)	11
11.	Mahmud Koshg'ariy umri davomida qilgan mashaqqatli mehnati evaziga qanday nom bilan tanildi?	Qomuschi olim va tolmas sayyoh	11, L
12.	Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'ot at-turk" asarini kimga bag'ishlaydi?	Abulqosim Abdullo binni Muhammad al-Muqtadoga bag'ishlaydi	11, L

13.	“Devonu lug’ot at-turk” asarining bizgacha yetib kelish tarixini ayting	“Devonu lug’ot at-turk” asarining asl qo’lyozmasi bizgacha yetib kelmagan. Uning yozilgan sanadan 200 yil o’tgach ko’chirilgan birdan-bir nusxasi Istanbul kutubxonasida saqlanmoqda. 3 jilddan iborat bu kitob 1939 – 1941-yillarda hozirgi turk tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. O’zbekistonda “Devon”ning birinchi tadqiqotchisi va qisman noshiri professor Fitratdir. Bu asarni filologiya fanlari doktori, taniqli tilshunos olim S.Mutallibov hozirgi o’zbek tiliga o’girgan	
14.	Mahmud Koshg’ariyni nima uchun qomusiy alloma deb ataymiz?	Ilk geograf, botanik, zoolog, turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan birinchi tilshunos olim, folklorshunos, elshunos (etnograf), adabiyotshunos, shoir, tarixchidir	11
15.	Mahmud Koshg’ariy “Devonu lug’ot at-turk”da turkiy tildagi so’zlar ma’nosini qaysi tilda izohlab bergen?	Arab tilida	11, L
16.	“Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so’zlar, sajlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqa-sida turklarning tilida qo’llanilib kelgan she’rlaridan, shodlik va motam kunlari-da qo’llaniladigan hikmatli so’zlardan, maqollardan keltirdim”. Ushbu parchani kim o’z asarida bayon etgan?	Mahmud Koshg’ariy “Devonu lug’ot at-turk”da	11, L

17.	Mahmud Koshg'ariy asarini yozishdan avval qaysi xalqlarning shaharlari, qishloq va yaylovlarni ko'p yillar kezib chiqadi, lug'atlarini to'playdi?	Turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning	11
18.	Devonu lug'ot at-turk"da jamlangan xalq og'zaki ijodi namunalari qaysi davrga taalluqli?	"Devonu lug'ot at-turk"da O'rta Osiyo-da yashagan turkiy xalqlarning XI asrgacha bo'lgan badiiy ijodi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar jamlangan	11, L
19.	"Devonu lug'ot at-turk"da qanday lavhalar tasvirlangan?	Shoir o'zi yashagan davrigacha mavjud bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari, shuningdek, o'zi yozgan she'rliarida turkiy xalqlarning urf-odatlari, ishonch-e'tiqodlari, mafosimlari bilan bog'lanib, ketadigan badiiy lavhalar tasvirlangan	
20.	"Oltin qon" rivoyati, "Yabog'ular, tangutlar bilan bo'lgan jang"lar haqidagi parchalar qaysi asardan olingan?	"Devonu lug'ot at-turk"dan	11
21.	"Oltin qon" rivoyatida qanday voqealar qalamga olinadi?	Qadimgi turkiy ajdodlarimizning Iskandar Zul-qarnaynga qarshi mardliklari hikoya qilinadi	
22.	"Devonu lug'ot at-turk"da nechta turkiy qabilalar nomi keltirilgan?	20 ta turkiy qabilalar nomi izohlari bilan keltirilgan	
23.	"Devon"ga kirgan she'r-larning asosiy qismi qanday shakllardan iborat?	Ikkilik, to'rtliklardan iborat	11

24.	"Devonu lug'ot at-turk"da to'rtliklarning qofiyalanish tartibi qanday shaklda berilgan?	a-a-a-b, a-b-a-b, a-a-a-a	11
25.	Asardagi "Alp Er To'nga" marsiyasi, "Qish va Bahor" munozarasi qanday shaklda yozilgan?	Murabba shaklida: a-a-a-b	11
26.	Marsiya janri haqida ma'lumot bering	Biror kishining vafoti munosabati bilan g'am-alam, hasrat va qayg'uni ifodalagan lirik she'r yoki qo'shiq	11
27.	"Devon"dagi she'riy parchalar qaysi vaznda yozilgan?	Asosan barmoq vaznida, ayrim namunalar aruzning ba'zi ko'rinishlariga muvofiq keladi	11
28.	"Devon"dagi xalq qo'shiqlarida qaysi badiiy-tasviriy vositalar tez-tez ko'zga tashlanadi?	O'xshatish, mubolag'a, ta'did, tazod, tanosub, sifatlash, qarshilan-tirish, jonlantirish va qiyoslar	11
29.	"Qaqlar qamug' ko'lardi..." ("Yomg'ir va seldan qoq yerlarning barchasi ko'l bo'ldi...") to'rtligi boshidan oxirigacha qanday badiiy san'atga tayanadi?	Jonlanti-rishga	11
30.	"Bulnar meni ulas ko'z..." ( "Xumor ko'zli (go'zal) meni asir qiladi" to'rtligida qanday badiiy san'at asosiy o'r'in tutadi?	Sifatlash	11
31.	"Bulnar meni ulas ko'z..." to'rtligida ko'z, mengiz (xol), yuz so'zlariga qanday sifatlashlar qo'llanilgan?	Ulas (xumor), qara, qizil	11
32.	"Aqtirur ko'zum yo'laq..." to'rtligida ko'z yoshlari nimaga o'xshatilgan?	Buloqqa	11
33.	"Alp Er To'nga o'ldimi?..." to'rtligida badiiy san'atlardan tashqari she'rning ta'sir kuchini ta'minlayotgan vositalar-dan biri...	Qofiya	11

34.	Adabiyotda to'rtlik shakliga tayanadigan she'riy janrlar...	To'rtlik, ruboiy, tuyuq, murabba	11
35.	Mahmud Koshg'ariy to'rtliklarni qanday nomlagan?	Qo'shug' yoki she'r deb	11
36.	Qo'shiq atamasi ilk bor kimning asarida qayd etilgan?	Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot at-turk" asarida	11
37.	"Devonu lug'ot at-turk"da lirikaga doir qanday atamalar tilga olingan?	Qo'shiq, she'r, qasida, marsiya, afsona, maqol	
38.	Mahmud Koshg'ariy qo'shiq atamasiga qanday izoh bergen?	She'r, qasida deya	11
39.	Munozara janri haqida ma'lumot bering	Munozara asar qahramonlarining o'zaro tortishuvi, bahsi asosiga quriladi. Munozaradagi ishtirokchilar asosan ramziy xususiyatga ega bo'ladi. U she'riy yoki nasriy tarzda yaratilishi mumkin	11
40.	Munozara janrining eng qadimgi namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lgan asar...	"Qish va Bahor" munozarasasi	11
41.	O'zbek adabiyotidagi munozara janrida yozilgan asarlarga misollar keltiring	Yusuf Amiriyning "Bang va Chog'ir", Yaqiniyning "O'q va Yoy", Nishotiy-ning "Gul va Daf", "Binafsha va Chang"	11
42.	Mahmud Koshg'ariyning "Qish va Bahor" munozarasida qanday she'riy san'at qo'llangan?	Jonlanti-rish	11

**“Devonu lug’ot at-turk” asaridan olingan  
quyidagi parchalarni sharhlang**

43.	Bulnar meni ulas (xumor) ko'z, Qara mengiz (xol) qizil juz.  Andin tomar tukal tuz, Bulna jana ol qochar	Bu mast ko'zli (seviklim) porloq yuzidagi yoqimli qora xoli bilan meni asir qiladi. Xuddi (go'zal) yanoqlaridan shirinlik tomayotganday meni asir qiladi-da, so'ngra mendan ochadi	11, L
44.	Erdi ashin taturg'an, Yavlajq, yag'ig' qachurg'an, O'g'raq susin qaytarg'an, Basti o'lum axtaru	U qo'noqlarga (mehmonlarga), yaxshilarga osh-ovqat tutadigan, Yovuz yovni qochiradigan, O'g'roq lashkarini qaytarib yuboradigan edi. O'lim uni yanchdi, ezdi	11
45.	Iqlilachim erig bo'ldi, Erig bo'lg'u yeri ko'rди, Bulut o'rub ko'k o'rtuldi, Tuman turub to'li yag'di	Sho'x, o'ynoqi otim sur'at bilan chopdi, Yugurishda o'zdi. Bulut ko'tarilib, tuman tushib do'l yog'gani uchun u shunday sho'xlikni munosib topdi	11
46.	Aqtirur ko'zum yo'laq, Tushlanur o'rdak, yug'aq	Ko'zim yoshlari buloqday oqadi, Hatto unda o'rdak, oqqush kabi qushlar yig'iladi, sho'ng'ishadi	11
47.	Qaqlar qamug' ko'lardi, Tag'lar bashi ilardi, Ajun tini yilirdi, Tu-tu chechak cherkashur	Yomg'ir va seldan qoq yerlar ko'l bo'ldi, Tog' boshlari (ko'zga arang) ilashdi. Dunyo nafasi ilidi. Turli chechaklar saf tortdi	11

48.	Qish yay bila to'qushti, Qing'ir ko'zun baqishti, Tutashqali yaqishti, Utg'alimat o'g'rashur	Qish bahor bilan to'qnashdi. Bir-birlariga yomon ko'z bilan qarashdi. Bir-birlarini tutish uchun yaqinlashdilar. Ularning har biri yengishni istar edi	11
49.	Yay qish bila qarishti, Erdam yasin qurishti. Cherig tutup ko'rishti, O'qtag'ali otrushur	Bahor bilan qish qarshilashdi, Har bir san'at, hunar yoyini qurishdi, Saf tortishib o'q otishda (bir-biridan) o'tkazishdi	11
50.	Qo'shni-qo'nim ag'ishqa, Qilg'il angar ag'irlik, Artut alib anung'il, Ezgu tavar o'g'urluk	Qo'ni-qo'shnilaringga yaxshilik qil, Ularni hurmatla, Ulardan biror sovg'a olsang, Undan yaxshiroq mukofot hozirla	11
51.	Andik (ahmoq) kishi titulsin, El to'ru (adolat) yitilsun, Toqli bo'ri yatilsun, Qazg'u yama savilsun	Ahmoq, befahm, hovliqma kishilar tiyilsin, mamlakat (davlat)ni boshqarish ishi yaxhilansin, qo'zilar bilan bo'rilar (xavfsiz) birga yursinlar, bizdan qayg'u-g'am yo'qolsin	L
52.	Turiug chechak yarildi (ochildi), Barchin (ipak) yazim (gilam) karildi (yozildi), Uchmaq (jannah) yeri ko'ruldi, Tumlug' (sovuv) yana kalgusuz	Bahorni ta'riflab aytadi: har turli chechaklar ochildi, xuddi (sernaqsh) ipak gilamlar yozilganday. Jannah yeri ko'rildi. Sovuq hech qaytib kelmas darajada havo isidi	L

53.	Yigitlarig ishlatu, Yig'ach yamish (meva) irg'atu (qoqtiraylik), Qulan kayik avlatu, Bazram (bayram) qilib avnalim	O'yin-kulguni tasvirlab deydi: Yigitlarni ishlatib, Daraxt mevalarini qoqtiraylik. Qulon, kiyiklarni ovlatib, Bayram qilib ovunaylik	11, L
54.	Jaratti jashil jash (firuza rangli tosh, osmon rangi), Savurdi o'rung qash, Tizildi qara qush, Tun, kun uza yurkanur (qoplanadi)	Osmonni ta'riflaydi: Tangri osmonni feruza rangida ko'm-ko'k qilib yaratdi. Yulduzlar bilan bezadi. Uzukka ko'z qo'ygandek, qosh oq uzuk uchun ishlatiladigan tosh – Mezon yulduzi (turkcha Qora qush) unda tizildi. Kecha bilan kunduz bir-birining ustiga qoplanadi	L
55.	Igladi (ilindi) mening azaq, Ko'rmasib o'g'ri tuzaq, Ikladim (kasallandim) andin uzaq, Emlagil emdi tuzaq	Yashirin tuzoqni ko'rmay, mening oyog'im ilindi, uzoq vaqt qiyonaldim, ey seviklim, endi o'zing davola	L
56.	Qizil, sarig' arqashib (aralashib), Jepkin, jashil yuzkashib (bezanib), Bir-bir keru yerkashib (o'ralashib), Yalinguq (kishi, inson) ani tanglashur	Qizil, sariq gullar bir- biriga suyanishib, yashil rayhonlar bir-biri bilan o'ralashib ko'rindi. Ularni ko'rgan kishi tang qoladi, hayron qoladi	L
57.	Yalvin (sehrli) aning ko'zi,	Sevgilisini maqtab shunday yozadi: uning ko'zi kishi (ko'nglini) ovlaydigan sehrgardir. O'zi musofirdir,	

	Yelkin (musofir) aning o'zi,	yuzi to'lin oydir. Qarashi bilan u meni otib, yuragimni yordi	L
58.	Yay ko'rkinga inanma, Suvlar uza tayanma. Esizligig anunma, Tilda(n) chiqar ezgu so'z	Bahor ko'rkinga, uning rang-barang gullariga, chiroyliliga ishonma, undan yaxshilik umid qilma. <u>Suvga tayanma, chunki dunyo ne'matlarining shirinliqiga, bahor qo'zalliqiga suyangan kishilar suvga suyanganlar kabidir.</u> Yomonlikka otlanma, tilingdan doim xalq sendan minnatdor bo'ladi-gan yaxshi so'zlar chiqar	L
59.	Jariq yulduz tug'arda, Uznu (uyg'onib) kalip baqarman, Satula-yu sayraship Tatlig' unun qush utar (sayraydi)	Yorug' yulduz tug'ar vaqtida uyqumdan uyg'onib, daraxtlarga qarayman, qushlarning shodlantiruvchi yoqimli sayrashlarini tinglayman	L
60.	Biligni irdadim (izladim), Bo'g'uni (dononi) uzurdum (qidirdim), O'zumni azirdim Yalg'il (oq yolli) atim yazlinur	Ilm-u donishni istadim. Ilmli, donishmandlarni qidirdim. O'zimni odamlar orasidan ayirdim. Buning uchun oq yolli otim yechiladi	L
61.	Ko'ngil kiming bo'lsa qali joq chig'ay (kambag'al) Qilsa kuchun bo'lmas ani to'q baj	Ko'ngli och, yo'qsil bo'lgan kishini kuch bilan to'q, boy qilish mumkin emas	L
62.	Bulmish nengig sevarsan, Aqrun angar sevingil. Barmish nengig	Bor molingni sevasan, unga kamroq sevin, chunki u sendan (qo'lingdan) chiqib ketishi mumkin.	

	saqinma, Azraq angar o'kungil	Qo'lingdan ketgan narsa uchun qayg'urma, unga oz- roq achin. Chunki achinish senga (qo'ldan ketganni) qaytarib bermaydi	L
63.	Kalsa qali qatig'liq ertar teyu seringil. O'zlak ishin bilip tur ancha angar tirangil	Senga tashvish va alam yetsa, o'tib ketar deb sabr qil. Dunyo ishlarini bilib turishga tirish. Har qanday kulafatni o'zingga olib, joningni qiynama	L
64.	"Alp Er To'nga o'ldimi? Yomon dunyo qoldimi? Zamon o'chin oldimi? Endi yurak yirtilur.  Dunyo kunin pastlatur, Inson kuchin sustlatur, Eldin erni chetlatur, Qochgan bilan kim qolur.  Zamon ahli ozaydi, Olchoq, yovuz kuchaydi, Ezgu ishlar kamaydi, Dunyo begi ketganc'a.  Beklar oti charchadi, G'am beklarni yanchadi, Yuzga za'far sanchadi, Chehralari sarg'ayur.  Ko'ngilginam chok qildi, Bitgan yaramni tildi. Kechmish xotirga keldi, Tun-kun uni istarman.	Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot it-turk" asaridan olingen parcha. Aziz Qayumov tarjimasi  "Alp Er To'nga o'ldimi? Dunyo fursat ko'zladi, Yomon dunyo qoldimi? O'g'ri tuzoq sozladi.  Zamon o'chin oldimi? Beklar begin izladi, Endi yurak yirtilur Qanday qochib qutilur.  Dunyo kunin pastlatur, Odatdan zo'r narsa yo'q, Inson kuchin sustlatur, Boshqa bahona ham ko'p,  Eldin erni chetlatur, Otsa zamon poylab o'q, Qochgan bilan kim qolur. Tog'lar boshi yanchilur.	

	Dunyo fursat ko'zлади, О'г'ри тузоқ соzlади. Beklar begin izladi, Qanday qochib qutilur.	Zamon ahli ozaydi, Bilimdonlar ezildi, Olchoq, yovuz kuchaydi, Dunyoni xarob qildi,	L
	Cu <del>ttan</del> zo'r narsa yo'q, Bo <del>ttan</del> qa bahona ham ko'p, Otsa zamon poylab o'q, Tog'lar boshi yanchilur.	Ezgu ishlar kamaydi, Odob go'shti buzildi, Dunyo begi ketganda. Yerga tegib sudralur.	
	Bilimdonlar ezildi, Dunyoni xarob qildi, Odob go'shti buzildi, Yerga tegib sudralur.	Beklar oti charchadi, Bo'ri bo'lib uldilar, G'am beklarni yanchadi, Yoqa yirtib turdilar,	
	Bo'ri bo'lib uldilar, Yoqa yirtib turdilar, Yig'lab-siqtab yurdilar, Ko'z yoshlari mo'l bo'ldi.	Yuzga za'far sanchadi, Yig'lab-siqtab yurdilar, Chehralari sarg'ayur. Ko'z yoshlari mo'l bo'ldi.	
	Kuchlandi bilagim, Kelurdi tilagim, Ko'paydi bilimim, Ammo umr tugalur".	Ko'ngilginam chok qildi, Kuchlandi bilagim, Bitgan yaramni tildi. Kelurdi tilagim,	
	Ushbu she'r kimning qaysi asaridan olingan? Tarjimon kim?	Kechm <del>ish</del> xotirga keldi, Ko'paydi bilimim, Tun-kun uni istarman. Ammo umr tugalur".	
65.	"Alp Er To'nga" marsiyasida she'r-ning ta'sir kuchini ta'minlagan asosiy tasvir ifoda...	Qofiya	11
66.	Alp Er To'nga, ya'ni Afrosiyob kim?	Turklarning qadimiy qahramoni	11

67.	"Alp Er To'nga" marsiyasi qaysi vaznda yozilgan, misralari, turoqlari necha bo'g'indan?	Barmoq vaznida yozilgan, misralari 7 bo'g'inda, turoqlari 4+3 shaklida	11
68.	Barcha fazilatlarning boshi tildir, – degan fikr muallifi...	Mahmud Koshg'ariy, "Devonu lug'ot at-turk" asarida	
69.	"Devonu lug'ot at-turk" asarining qaysi qo'shiqlarida jang manzarasi, dushman lashkarining qiyofasi va holati, botirlarning ularga qarshi shiddatli va matonatli kurashlari juda yorqin va ta'sirchan tarzda ifodalangan?	"Alp Er To'nga" marsiyasi, "Yabog'ular bilan jang", "Tangutlar bilan jang" qo'shiqlarida	11
70.	Yusuf Xos Hojib Alp Er To'ngani tojiklar qanday atashganini yozgan?	Afrosiyob deb	11
71.	Afrosiyob qaysi shaharda yashar edi?	Qashqarda – O'rdukent shahrida	11
72.	To'nga Alp Er so'zining ma'nosi...	Yo'lbars kabi kuchli bahodir	11
73.	Afrosiyobning farzandlari...	O'g'llari: Barman, Barsg'an, qizi: Qaz	11
74.	Qazvin shahrini kim qurgan?	Qaz	11
75.	Qazvin so'zining ma'nosi...	G'oz o'ynaydigan joy	11
76.	Afrosiyob qaysi joyda ov qilar edi?	Qum shahrida	11
77.	Turk shaharlari chegarasi qaysi joydan boshlanadi?	Marvash – Shohijahondan	11
78.	Afrosiyob Tahmuraspdan qancha vaqt dan keyin Marvni bino qilgan?	Uch yuz yildan keyin	11
79.	Afrosiyobning qizi – Qazning eri...	Siyovush	11

80.	Siyovush qayerda o'ldirilgan?	Movarounnahr turklar o'lkalaridan biri. U Yankanddan boshlanadi. Uning bir oti Dizro'yindir. U sariqligiga ko'ra mis shahri demakdir. Buxoroga yaqindir. Bu yerda Siyovush o'ldirilgan	11
81.	Siyovush o'ldirilgan joyda majusiy otashparastlar qanday udumni amalga oshirishadi?	Majusiy-otashparastlar har yili bir kun Siyovush o'ldirilgan joy atrofida yig'ilib yig'laydilar. Mollar so'yib, qurbanlik qiladilar. So'yilgan mol qonini uning mozori tepasiga to'kadilar	11
82.	Afrosiyobning bolalari qanday atalgan?	Xoqon, xon deb	11
83.	Alp Er To'ngani tojiklar Afrosiyob deb atashganini kim yozib goldirgan?	Yusuf Xos Hojib	11
84.	"Mehnat va mashaqqatni ko'rди-yu, o'tovini orqasiga yuklab oldi" maqolining ma'zoyi ma'nosi...	Bir ishning amalga oshirilishi uchun boshqa bir ishning sabab va bahona bo'layotgani e'tiborga olingan	11

**"Devonu lug'ot at-turk" asaridan olingan quyidagi maqollarning mazmunini aytинг**

85.	Tulku o'z iniga ursa ujuz bo'lur	Tulki o'z uyasiga qarab ulisa, qo'tir bo'ladi	11
86.	Tulum anutsa, qulun bo'lur, Tulum unutsa, bolun bo'lur	Dushmanga (qarshi) quro hozirlagan kishi qulun (toy)ga ega bo'ladi, quro hozirlashni unutgan kishi asir bo'ladi	11
87.	Qul savi qalmas Qag'il bag'i yazilmas	Keksalar so'zi, nasihatni bekor ketmaydi, Tolning ho'l novdasining bog'i yozilmaydi	11

88.	O'd kechar, kishi to'ymas, yalinguq o'g'li mangu qalmas	Zamon o'tar, kishi to'ymas, inson bolasi mangu qolmas	11
89.	Qish qo'niqi – o't	Qishning ziyofati – olov(dir)	11
90.	Yazmas atim – yag'mir, Yangilmas bilga – yangqu	Xato qilmaydigan mergan – yomg'ir, Yanglishmaydigan dono – aks-sado	11
91.	Ko'p sukutga qush qo'nar, Ko'rkluk kishiga so'z kelar	Shoxi ko'p, shoxlari o'ralib ketgan daraxtga qush qo'nadi, Yaxshi kishiga so'z – maqtov keladi	11
92.	Yig'ach uchina yel tegir, Ko'rklilik kishiga so'z kelir	Daraxt uchiga shamol tegadi, Yaxshi odamga so'z yetadi	11
93.	Kim kur bo'lsa, kuz bo'lur	Dovyurak (alp) odam mag'rur bo'ladi	11
94.	Kur o'g'li kuvaz bo'lur	Botir, mard kishining farzandi mag'rur bo'ladi	11
95.	Ko'k ko'rdi, keragu yazi	Mehnat va mashaqqatni ko'rdi-yu, o'tovini orqasiga yuklab oldi	11
96.	Ag'ilda o'g'laq tug'sa, ariqda o'ti unar	Og'il (molxona)da uloq tug'ilsa, ariqda o'ti chiqadi	11
97.	Alin arslan tutar, kuchin sichg'an tutmas	Hiyla-tadbir bilan arslonni tutish mumkin, (ammo) zo'rlik bilan sichqonni ham tutib bo'lmaydi	11
98.	Tuzin birla urush, o'tun birla ustarma	Yuvosh odam bilan urush (chunki sen uni bosishing mumkin), uyatsiz, yuzsiz odam bilan urushma (chungi u seni sharmanda qiladi)	
99.	Erik erni yag'lig', ermagu bashi qanlig'	Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonliq	11

100.	Erdam bashi til	Odobning boshi til	
101.	Tag'ig' uqruiqin egmas, tengizni qayg'iqin bukmas	Tog' arqon bilan egilmaydi, dengiz qayiq bilan bukilmaydi	11
102.	Emgak ekinda qolmas	Mehnat bekor ketmaydi	11
103.	Kengashlik bilik uzlashur, kengashsiz bilik o'prashur	Maslahatli ish borgan sari yaxshilanib boradi, bemaslahat ish borgan sari buzilishga yuz tutadi	11
104.	Qush qanatin, er atin	Qush qanoti bilan, er oti bilan	11
105.	O'kuz azaqi bo'lg'incha, buzag'u bashu bo'lsa yik	Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq	11
106.	Suv ichirmasga sut ber	Suv ichirmasga sut ber	
107.	Ashuch aytur tubim altun, Qamich aytur men qaydaman?	Qozon aytur: tubim oltun, cho'mich aytur: men qaydaman? (Bu maqol o'zining kimligini biladigan tanish kishilar oldida maqtanuvchi kishiga nisbatan aytilgan)	11
108.	Tavg'ach xanning to'rquси telim, tenglamazib bichmas	Bu maqol isrofgarchilikka qarshi aytilgan: Qoraxitoy xoqonining ipak gazmoli ko'p, lekin o'lchamay kesilmaydi	11
109.	Sabanda sandrish bo'lsa, O'rtugunda irtash bo'lmas	Yer haydash vaqtida puxtalik bo'lsa, Xirmonda anglashilmovchilik bo'lmaydi	11
110.	Sundilach ishi ermaz ortugun tepmak	Xirmon yanchish sa'venning ishi emas	11

111.	Aniq o'tru tutsa, yo'qqa sanmas	Mehmonga taom taqdim qilingach, ko'r madim demaydi	11
112.	Tilin tugmishin tishin yazmas	Til bilan tugilganni tish bilan yechib bo'lmas	
113.	Uma kelsa, qut kelar	Mehmon kelsa qut kelar	11
114.	Qiz kishi savi yo'rig'li bo'lmas	Baxil odamning ovozasini chiqmaydi, shuhratlanmaydi	11
115.	Qut belgisi bilig	Bilim – baxt belgisidir (har qanday fazilatlarning bosqlanishi – bilim)	11
116.	Osh totig'i – tuz	Oshning ta'mi tuz bilan	
117.	Qo'rqmush kishiga qo'y boshi qo'sh ko'rinar	Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar	
118.	It isirmas, ot tepmas dema	It qopmas, ot tepmas dema	
119.	Toma-toma ko'l bo'lur	Toma-toma ko'l bo'lur	
120.	Bir qarg'a birla qish kelmas	Bir qarg'a birla qish kelmas	
121.	Quruq yog'och egilmas	Quruq yog'och egilmas	
122.	Ardam bashi til	Odob boshi til – san'at, fazilatlarning boshi til	11

### Quyidagi so'zlarni izohlang

123.	esiz	yomon, yaramas, manfur	11
124.	ajun	olam, dunyo	11
125.	o'dlak	vaqt, zamon, taqdir	11
126.	yir (ir)	kuy, maqom, she'r	11
127.	qo'shug'	she'r, qasida qo'shiq	11
128.	alp er to'nga	shaxs nomi	11
129.	ulas	yoqimli, o'ziga tortuvchi, xumor	1
130.	mengiz	xol	1
131.	tam	tommoq	1
132.	tukal	to'la, faqat	1

133.	tuz	to'g'rilik, yoqimlilik	
134.	bulna	asir qilmoq, qo'lga olmoq	
135.	andik	aqlsiz, ahmoq	
136.	el-to'ru	adolat, qonun-qoidalar	
137.	yarildi	ochildi	
138.	barchin	ipak	
139.	yazim	yoziladigan (yoyiladigan) narsalar: gilam, kiygiz v.b.	
140.	karildi	yoysildi, yozildi	
141.	uchmaq	jannat	
142.	tumlug'	sovuuq	
143.	yamish	meva	
144.	irg'at	silkitmoq, qoqmoq	
145.	qulan	Kiyiksimonlarning yirik turlaridan biri, qulon	
146.	kayik	kiyik, ohu	
147.	bazram	bayram	
148.	jash	feruza rangli tosh, osmon rangi	
149.	o'rung	oq	
150.	yurkanur	qoplanmoq	
151.	igladi	ilindi	
152.	azaq	oyoq	
153.	tuzaq	tuzoq, dom	
154.	ikladim	dardli bo'ldim, kasallandim	
155.	arqashib	aralashib	
156.	yuzkashib	bezamoq	
157.	yurkashib	o'ralib, o'ralashib	
158.	yalinguq	kishi, inson	
159.	yalvin	sehrli	
160.	yelkin	musofir	
161.	uznu	uyg'onib	
162.	kalip	kelib	
163.	satilayu	shodlanganicha	
164.	utmoq	sayramoq	
165.	irdadim	izladim	

166.	bo'g'u	dono, donishmand	
167.	uzurdum	qidirmoq, izlamoq	
168.	yalg'il	oq yolli	
169.	chig'ay	kambag'al, bechora	
170.	bulmish	qo'lga kiritilgan	
171.	neng	narsa, mol-mulk	
172.	ertamoq	o'tib ketmoq	
173.	serinmoq	sabr qilmoq, o'yalamoq	
174.	o'zlak	dunyo, olam; qismat; davr, davron	
175.	alp	botir qahramon	
176.	esiz	yomon, yovuz	
177.	yarag'	chora, tadbir	
178.	bag	bek, amal egasi	
179.	tavrat	shosh(il)moq	
180.	yalanguq	kishi, inson, odam	
181.	kavrat	kamaytirmoq	
182.	ar	er, odam; mard, bahodir	
183.	savrit	bezovta qilmoq, kuchsizlantirmoq	
184.	o'g'ra	nishonga olmoq, mo'ljallamoq	
185.	kartil	kerilmoq, kesilmoq, uchib (sinib) tushmoq	
186.	mangiz	yuz, yanoq	
187.	siqrib	yig'lab-siqtab	
188.	bash	yara, jarohat	
189.	o'z	vaqt, fursat	
190.	arig'	toza, pokiza, yaxshi	
191.	yung'ich	yaramas, nobop	
192.	bilga	dono, bilag'on, donishmand	

## QORAXONIYLAR DAVLATI HAQIDA

193.	XI asrda qoraxoniylar davlatida qaysi shaharlар yirik madaniyat markazlariga aylangan edi?	Buxoro, Samarqand, Shosh (Toshkent), Qashqar shaharlari	11
194.	Qoraxoniylar Buxoro va Samarqandni qachon egallaydi?	992-yilda	11
195.	Qoraxoniylarning poytaxt shaharlari Isijob (Sayram), O'tror, Shosh, Balosog'un, Xo'tan bo'lib, ularning davlati Markaziy Tiyonshon, Yettisuv, Chu va Talas vodiylarini o'z ichiga olgan edi	Qoraxoniylarning poytaxt shaharlari Isijob (Sayram), O'tror, Shosh, Balosog'un, Xo'tan bo'lib, ularning davlati Markaziy Tiyonshon, Yettisuv, Chu va Talas vodiylarini o'z ichiga olgan edi	11
196.	Qoraxoniylar davlati qaysi hukmdorlar davrlarida ancha kuchaygan, nisbatan iqtisodiy va madaniy yuksalishga erishgan?	Xorun, Bug'raxon, Tamg'ochxon va Ibrohim Bo'ritegin davrlarida	11
197.	Qoraxoniylar davrida qaysi shaharlarda ilm-fan egalari, turli sohalarning yirik mutaxassislari, dono va fozil kishilar to'plangan?	Bilosog'un, Sayram, Shosh, Taroz shaharlarida	11

## YUSUF XOS HOJIB BALOSOG'UNIY (XI ASR)

1.	Yusuf Xos Hojib qaysi xalq shoiri, qachon yashab o'tgan?	Turkiy xalq shoiri Yusuf Xos Hojib XI asrda yashab o'tgan	8, 11
2.	Shoirning asli ismi...	Yusuf	8, 11

3.	"Qutadg'u bilig" dostoni zamон hukmdori tаhsiniga sazovor bo'lgани uchun shoирга qандай rasmiy lavozim berilgan?	"Xos hojib", ya'ni eshik og'asi rasmiy lavozimi	8, 11
4.	Shoirning taxallusi...	Xos hojib	8
5.	Yusuf Xos Hojib qayerda tug'ilgan?	Hozirgi Qирг'изистонning Talas vodiysi hududidagi qadimiy <b>Bалосоғ'ун</b> – (mamlakatning muhim markazlaridan biri) <b>To'qмоқ shahrida</b> tug'ilgan. <b>Quzo'rda</b> (Quz O'rdu) deb ham tilga olinadi	L, 8, 11
6.	Qadimgi Yettiuvning markazi – Bolo-sog'unning ko'plab nomlaridan biri...	Quz O'rdu	11
7.	Quz O'rduning xarobalari qayerda saqlanib qolgan?	Hozirgi Qирг'изистонning To'qмоқ shahri yaqinida	11
8.	Turkiy tilda yaratilgan birinchi yirik hajmli falsafiy-didaktik, adabiy-ma'rifiy asar...	"Qutadg'u bilig" dostoni	L, 11
9.	Yusuf Xos Hojibning qaysi asarlari bizgacha yetib kelgan?	Birgina "Qutadg'u bilig" dostoni	8, 11
10.	Shoir hayotiga doir ma'lumotlarni qaysi manbadan topamiz?	Faqat "Qutadg'u bilig" dostonidan	8
11.	Asar qachon qayerda yozib tugallangan?	Hijriy 462, yani milodiy 1069 – 1070-yili Kosh-g'arda yozib tugallangan	L, 8, 11
12.	Asar hajmi...	6 ming 409 (6409) baytdan iborat (11-sinf darsligida 6600 baytdan ortiq degan ma'lumot ko'rsatilgan)	8, 11
13.	"Qutadg'u bilig" qancha muddat davomida yozilgan?	Muallifning o'zi bir yarim yil (18 oy) mobaynida bitganini aytadi	L, 8, 11

14.	Quyidagi misralarga tayanib qanday ma'lumotni aniqlash mumkin?  Tegurdi menga algu ellik yoshim, Qug'u qildi quzg'un tusitek boshim. Oqir ellik emdi mengar kel teyu, Pusug' bo'lmasa, bordim emdi naru.  (Ellik yoshim menga qo'l tegizdi, Qora quzg'un tusidek boshimni oq (qush) qildi, (ya'ni sochim oqardi.) Ellik (yosh) endi men tomon kel, deb chorlamoqda, Pistirma (ya'ni nogahoniy o'lim) bo'lmasa, endi u tomon boraman.)	Shu misralarga tayanib, olimlar Yusuf Xos Hojib bu kitobni ellik yoshlariada yaratgan, deb hisoblaydi	8, 11
15.	Asarda "O'ttiz (yosh) yiqqanlarini ellik (yosh) qaytarib oldi, agar oltmish (yosh) qo'l tegizsa, nimalar qilar ekan?" degan qayd bor. Bundan qanday xulosa chiqadi?	Muallif ellikni to'ldirib, oltmishta yaqinlashib qolganini ko'rsatadi, deya yozishgan darslik mualliflari	11
16.	Adib Bolosog'undan qaysi shaharga ko'chib boradi?	Qashqarga	11
17.	Adib dostonni qayerda tugatadi?	Qashqarda	11
18.	Qoraxoniylar saltanatining poytaxti...	Koshg'ar (ikkinchi nomi O'rdukent)	8
19.	Yusuf Xos Hojib dostonini tugallagach, uni kimga taqdim etadi?	Zamon hukmdori (elig) Tavg'achxon Ulug' Bug'ra Qoraxonga	L, 8, 11
20.	Doston Tavg'achxon Ulug' Bug'ra Qoraxon tahniniga sazovor bo'lgani uchun muallif qanday taqdirlanadi?	"Xos hojib" ya'ni eshik og'asi rasmiy lavozimi berilgan	L, 8

21.	Turkiy tildagi har bir asarga alohida mehr va e'tibor bilan munosabatda bo'lgan buyuk Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlar nima sababdan o'z asarlarida "Qutadg'u bilig" yoki uning muallifini mutlaqo tilga olmaganlar?	Bunga sabab – asarning bor-yo'g'i uch nusxa- dagina saqlanib qolganligi	8
-----	--	--	---

**Quyidagi ma'lumotlar "Qutadg'u bilig"  
dostonining qaysi nusxalari haqida?**

22.	U milodiy 1439-yili Hirotda uyg'ur yozuvi (sof turkiycha yozuv) bilan ko'chirilgan. Kitob Turkiyaning Tugot shahriga, 1974-yili esa Istanbulga keltirilgan. Uni keyinchalik Istanbul-da mashhur sharqshunos Hammer Purgshtall sotib olib, Venadagi saroy kutubxonasiga keltiradi. 1823-yili fransuz sharqshunosi Jaubert Amadee bu buyuk asar haqida ma'lumot chop etib, uni ilm ahliga tanishtiradi	Vena nusxasi	8
23.	"Qutadg'u bilig" dostonining qaysi nusxalari arab yozuvida?	Kohira va Namangan nusxalari	8
24.	1896-yili asarning arab yozuvi asosida gi turkiy alifboda ko'chirilgan nusxasi...	Kohira nusxasi	8
25.	Sharqshunos Valizoda 1914-yilning 20-aprelida Qozon universiteti qoshi- dagi Arxeologiya, tarix va etnografiya jamiyatiga Farg'ona ekspeditsiyasi haqida yozgan hisobotida namangan- lik Muhammad hoji Eshon Lolaresh degan kishining qo'lida "Qutadg'u bilig"ning yana bir nusxasi mavjudligi haqida ma'lumot beradi. Buyuk o'zbek	Namangan nusxasi	8

	olimi Abdurauf Fitrat 1924-yili Muhammad hoji Eshon Lolareshdan shu qo'l-yozmani olishga muvaffaq bo'ladi			
26.	Yusuf Xos Hojib asarni yozish jarayonida turkiy til haqida qanday fikr bayon qiladi?	"Men turkcha so'zlarni yovvoyi tog' kiyigi singari deb bildim, shunga qaramay, ularni avaylab-asrab qo'lga o'rgatdim"	11	
27.	Doston qaysi shaklda yaratilgan?	Masnaviy yo'lida yozilgan she'riy asar	8	
28.	Masnaviy haqida ma'lumot bering	O'zaro qofiyalangan ikki misradan iborat baytlar yo'li bilan yozilgan she'r. Qofiyalanishi: aa, bb, dd...	8	
29.	Doston vazni...	Mutaqoribi musammani mahzuf yoki mutaqoribi musammani maqsur	8	
30.	Asar taqtesi...	V -- V -- V -- V -- Faulun – faulun – faulun – faul yoki V -- V -- V -- V ~ Faulun – faulun – faulun – faol	8	

**"Qutadg'u bilig" dan olingan quyidagi misralar vazni va taqtesini aniqlang**

31.	"Biliklik, biligsiz, chiqay bar ya bay, Uqushliq, uqushsiz, otun bir gaday"	Mutaqoribi musammani mahzuf V -- V -- V -- V -- Faulun – faulun – faulun – faul	8
32.	"Qayu begda bo'lsa bu arquq qilinch, Ishi barcha tetru sevinchi saqinch"	Mutaqoribi musammani maqsur V -- V -- V -- V ~ Faulun – faulun – faulun – faol	8

33.	Misralarda oxirgi hijo o'ta cho'ziq – "sabr", "qand", "tog", "tor" kabi so'z-lardan tashkil topsa, bu qanday vazn hisoblanadi?	Mutaqoribi musamma-ni mahzuf	8
34.	Turkiy va forsiy mumtoz adabiyotda shohlar haqidagi asarlar asosan qaysi vaznda yoziladi?	Mutaqorib vaznida	8
35.	Firdavsiyning "Shohnoma" asari, shuningdek, "Xamsa" yaratgan ijod-korlar shoh Iskandarga bag'ishlagan beshinchi dostonlarini qaysi vaznda bitishgan?	Mutaqorib vaznida	8

**"Qutadg'u bilig" dostonini quyidagi xalqlar qanday nomlashgan?**

36.	Chinliklar	"Adab ul-muluk" ("Podshohlar odobi")	8
37.	Mochinliklar	"Amin ul-mamlakat" ("Mamlakat omonliklari")	8
38.	Sharq elining ulug'lari	"Ziynat ul-umaro" ("Amirlar ziynati")	8
39.	Eronliklar	"Shohnomayi turkiy" ("Turkiy shohnoma")	8
40.	Turonliklar	"Qutadg'u bilig" ("Baxtga eltuvchi bilim", "Saodatga yo'llovchi bilim") yoki "Pandnomayi muluk" (Podsholar pandnomasi")	8, 11
41.	Abdurauf Fitrat "Qutadg'u bilig"ni qanday nomlagan?	Baxtliklanish bilimi	8
42.	Qut va bilig so'zlarini izohlang	Qut – baxt, saodat, bilig – bilim	8
43.	Ilk turkiy doston...	"Qutadg'u bilig"	8
44.	"Qutadg'u bilig" dostonidagi obrazlar qanday qahramon?	Ramziy qahramonlar	8

45.	"Qutadg'u bilig" qanday ruhdagi asar?	Pandona (didaktik) asar. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq mavzusiga bag'ishlangan asar	8
46.	"Qutadg'u bilig"ning muqaddimasi qanday shaklda yozilgan?	Nasriy hamda she'riy	8
47.	Asar muqaddimadan tashqari nechta maxsus bobdan tashkil topgan?	71 bobdan	8
48.	Asarning tub mohiyatida qanday g'oyalar aks etgan?	Markazlashgan davlatni idora qilish, uni yana-da mustahkamlash, o'zaro birlikka erishish,adolatli va oqilona siyosat yuritish, umrning o'tkinchiligi, ma'naviyat, yashash tartib-qoidalari bilan bog'liq g'oyalar	8
49.	Qoraxoniylar davlatining falsafiy-axloqiy yo'rqnomasini sifatida paydo bo'lgan asar...	"Qutadg'u bilig"	11
50.	Turkiy adabiyotdagi ilk qasida...	"Qutadg'u bilig"ning kirish qismidagi "Bahor madhi"	
51.	"Bahor madhi" necha bayt?	59 bayt	
52.	"Qutadg'u bilig"da tun qanday istiora bilan ifodalananadi?	"Qora yuz bog'i", "zangi yuzi", 'sevuglar qoshi", "qora soch bo'dugi", "qora ko'ylak", "zag' rangi", "xabash qirtishi", "tul to'ni", "qunduz terisi"	11
53.	Quyoshning istioraviy ifodasi...	"Sata" (marjon), "sata qalqoni" (marjon shodasi), "yorug' yuz", "sara qiz yuzi", "rumiy qizidir"	11
54.	"Beklikka loyiq bek qanday bo'lishini aytadi" qismi asarning qaysi bobida berilgan?	31-bobida	8
55.	"Qutadg'u bilig"ning qaysi bobida rahbar ma'naviyati haqida so'z boradi?	31-bobida	8

56.	Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida bek qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak deydi?	Mohir mergan, botir, baquvvat, aql-zakovatli, bilimli, saxovatli, oliva-nob, ko'p hunar egasi, xushxulq, to'g'riso'z, sabrli, ko'zi to'q, andishali, bir so'zli, ziyrak, hushyor,adolatli, o'tkizhni, vafoli, dovyurak va hokazolarga	8
57.	"Arslon itlarga bosh bo'lsa, itlar arslonga aylanadi, lekin it arslonlarga yetakchilik qilsa, arslonlar itlar kabi bo'lib qolishi mumkin". Ushbu fikrlar qaysi qahramon nutqidan?	O'gdulmish	8
58.	"Qutadg'u bilig"da beklik mustahkam bo'lishi uchun shartlar...	1. Kuchli lashkar. 2. Kuchli lashkarni saqlash uchun ko'p boylik. 3. Ko'p boylikni to'plash uchun badavlat xalq. 4. Boy-badavlat xalqqa ega bo'lishi uchun adolatli siyosat yuritish darkor	8
59.	Vazir – bek o'zida ko'p fazilatlarni kamolga yetkazishi bilan birga besh illatdan ehtiyyot bo'lmoq'i zarur. Ular...	1. Shoshqaloqlik. 2. Ochko'zlik. 3. Jaholat. 4. Buzuq fe'llilik. 5. Yolg'onchilik	8
60.	"Qutadg'u bilig" dostonini baytma-bayt tarjima qilgan olim...	Qayum Karimov	8
61.	"Qutadg'u bilig" dostonini she'riy yo'l bilan tarjima qilgan olim...	Boqijon To'xliyev	8
62.	Yusuf Xos Hojib nimani insonlar yo'llini yorituvchi mash'alaga qiyoslagan?	Ilmni	
63.	Islom ta'siri davridagi turkiy adabiyot namunalariga misollar...	"Qutadg'u bilig", "Hikmatdar"	

64.	Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari Namangan nusxasi haqida dastlab kim ma'lumot beradi?	Valizoda	8
65.	"Beklikka tekkan dard davosi aql va bilim, Uni aql bilan emla, ey xalqi mu-loyim" kabi didaktik baytlar muallifi kim?	Yusuf Xos Hojib	8
66.	Ilk uyg'onish davridagi turkiy adabiyot namunalariga misollar...	"Qutadg'u bilig", "Hikmatlar"	
67.	"Qutadg'u bilig" asarining 31-bobida qanday masala ko'tarilgan?	Rahbar ma'naviyati	8
68.	Ellik yosh haqida "qora quzg'un tusidek boshimni oq (qush) qildi", "pistirma, ya'ni nogahoniy o'lim bo'l-masa, u tomon boraman" mazmuni-dagi fikrlarni aytgan ijodkor kim?	Y.X.Hojib	8
69.	"Qutadg'u bilig"da zulm – yonib turgan o'tga, adolat – ne'mat undiruvchi suvga qiyoslab ta'riflangan	Zulm – yonib turgan o'tga, adolat – ne'mat undiruvchi suvga qiyoslab ta'riflangan	8, 11
70.	"Tilni bilim va aql idrok tarjimoni", – deya atagan adib kim?	Yusuf Xos Hojib	
71.	"Qutadg'u bilig" asarida qaysi qahramon quyidagicha ta'riflangan? "Qilmishlari to'g'ri va fe'l-u raftori rost, Tili chin, yetuk hamda ko'zi va ko'ngli boy (edi). Bilimli, zakovatli va hushyor bek edi, Yomonlarga (misli bir) olov, yovga ofat edi. Yana bahodir, g'ururli, qilmishlari rost edi, Bu fe'l-u raftorlari uni kundan kunga yuksaltirdi"	Kuntug-diga	11

72.	<p>“Qutadg'u bilig”dagi quyidagi baytlarda badiiy san'atning qaysi turi qo'llangan?</p> <p>(“Qaddim o'qteg (to'g'ri), ko'nglim esa yoy (dek shay) edi, Ko'ngil orzulari hanuz o'qdek, (lekin) qaddim yoy bo'ldi”.</p> <p>“Beklar bu jur'atli arslonga o'xshaydi, G'azabga kirsa bosh kesadi, ey ravshan fikrli”.</p> <p>“Til hovlida (ya'ni qafasda) yotgan arslon kabitdir, Ey, qafasdag'i (makkor) vahshiy boshingni yeydi”)</p>	O'xshatish – tashbeh	11
73.	<p>“Kim aytsa, desa (ham) to'g'ri so'z dag'aldir, (ya'ni keskin bo'ladi). Unga ipak gazmol yubordim, u esa tikan tugib yuboribdi”. Ushbu parcha qaysi qahramon nutqidan olingan? Unda she'riy san'atning qaysi turi qo'llangan?</p>	O'gdulmish O'zg'urmish huzuridan qaytib kelganidan so'ng elig (hukmdor) tilidan aytilgan. Unda istiora san'ati qo'llangan: ipak gazmol – taklif, tikan – rad etish	11

### Tashbeh san'atini yaratishda ishtirok etgan quyidagi so'zlar kimga yoki nimaga nisbatan qo'llanilgan?

74.	Arslon	Tilga	11
75.	Yilqi (hayvon)	Nodon odam, bilimsiz kishi, zakovatsiz shaxs, ochko'z inson, yomon xulqli, yaramas odatli kishiga	11
76.	Bo'ri	Lashkarboshi, yov-dushman, mard er, o'limga	11
77.	Suyak, oy, osh, arg'uvon, bo'z	Yuzga	11

**Lashkarboshining quyidagi xislatlari  
nimaga o'xshatiladi?**

78.	Lashkarboshining kuchliligi, yovga dahshat solishi...	Arslonga	11
79.	Doimiy hushyorligi...	Zag'izg'onga	11
80.	Baquvvatligi...	Qoplonga	11
81.	Hujumkorligi va dushmaniga hamlesi...	To'ng'izga	11
82.	Mardonavorligi...	Bo'rige	11
83.	Jang taktikasidagi mohirligi, hiyla va tadbirdorligi...	Tulkiga	11
84.	Shiddati...	Ayiqqa	11
85.	Qasoskorligi...	Qo'tos va tuyu erkagiga	11
86.	Tunlari hushyor va bedorligi...	Ukki – boyo'g'liga	11

**Yozma adabiyotda an'anaga aylangan quyidagi  
obrazlar kimga yoki nimalarga nisbatan  
o'xshatilgan?**

87.	Yo, dol	Qiyinchilikka duch kelgan qahramonga, ma'shuqa ishqida o'rtanayotgan oshiq qaddiga	11
88.	Yoy	Insonning qaddiga	11
89.	Oy	Yuzga	11
90.	Rabot	Tiriklikka (hayotga)	11
91.	Arg'umoq	Yigitlikka	11
92.	Kimyo	Bilimga	11
93.	Zahar yoki shakar	So'zga	11
94.	Dengiz, shisha	Ko'ngilga	11
95.	Mash'al	Bilimga	11
96.	Bo'ri	Zolim amaldorlarga	11
97.	Qo'y (poda)	Xalqqa	11
98.	Qo'ychivon	Bekka	11

**“Qutadg‘u bilig”dagi ushbu qahramonlar qanday ramziy ma’noni ifodalaydi?**

99.	Kuntug‘di (chiqqan quyosh) – elig, ya’ni hukmdor	Adolat ramzi	8, 11
100.	Oyto’ldi (to’lgan oy) – vazir	Baxt va davlat ramzi	8, 11
101.	O’gdulmish (aqlga to’lgan) – vazirning o’g’li	Aql va zakovat ramzi	8, 11
102.	O’zg’urmish (uyg’ongan) – vazirning qarindoshi, zohid	Qanoat, ofiyat, ya’ni sog’lomlik ramzi	8, 11
103.	Oyto’ldining o’g’li...	O’gdulmish	11
104.	O’gdulmish so’zining ma’nosi...	Aql bilan ziynatlangan	11
105.	O’zg’urmish so’zining ma’nosi...	Hushyor qiluvchi, sergaklantiruvchi	11
106.	Asarda ta’kidlanishicha, Davlat qanday boshqarilmog‘i kerak?	Adolat va Aql bilan	11
107.	Kuntug‘di podshohga nega adolat ramzi sifatida qaraladi?	Kun – Quyosh. U boy-kambag’al, katta-kichik – barchaga barobar nur sochadi. Hukmdor shunday adolatli bo’lishi kerak	11
108.	Adolatli podshohning ta’rifini eshitib kim qidirib keladi? Bunda qanday ma’no bor?	Adolatli podshoh Kuntug‘dining ta’rifini eshitib Oyto’ldi (davlat, boylik) qidirib keladi. Chunki adolat bor joyda boylik ham bo’ladi	11

109.	Oyto'ldiga nega bunday ism qo'yilgan?	Oyto'ldi – davlat, boylik ramzi. Oy yangi chiqqanida kichik bo'ladi, u kundan kun kattalashadi. So'ngra yo'q bo'lib qolishi ham mumkin. Boylik ham xuddi shunday...	11
110.	Oyto'ldi o'zini nega koptokka o'xshatadi?	Baxt va davlat ishonchhsiz, bevafoligini ko'rsatish uchun	11
111.	Kuntug'di bir kuni Oyto'ldini yoniga chaqirib o'tirishga taklif qildi. Oyto'ldi nima qildi?	Yonidan koptok chiqarib shunga o'tirdi (shu va boshqa ishlari: podshohning so'zlariga e'tibor bermay ko'zining yumiши, yuzining teskari buriishi bilan podshohning g'azabiga duchor bo'ldi)	11
112.	"Agar bekka yaqin bo'lsang, o'zingga juda ehtiyyot bo'l... o'zingni begingga teng qilma". Ushbu parcha qaysi qahramon nutqidan olingan?	Kuntug'-dining	11
113.	Oyto'ldi o'zini qanday kishiga o'xshatadi?	Ko'r kishiga	11
114.	Oyto'ldi nimalarni bir yerda turmasligini ta'kidlaydi?	Oqar suv, ravon til, baxt-davlat	11
115.	Oyto'ldi nutqidagi tushirilgan so'zni aniqlang. "Baxt-davlat ishonchhsiz, bevafo, qo'nimsizdir, Yurib ketayotib to'satdan uchadi, uning oyog'i..."	"Tayg'an-chiqli"	11
116.	Kuntug'di Oyto'ldini chaqirdi. Kuntug'di uch oyoqli kumush kursida o'tirgan, qo'lida xanjardek pichoq,	Kuntug'di uch oyoqli kursini siljimas, to'g'ri deb baholaydi. Bu esa hukmdorning adolatiga nisbatdir. Pichoq –	

	chap tomonida urog'un (dori), o'ng tomonida shakar (sharbat). Uch oyoqli kursi, ulkan pichoq, urog'un va shakar timsollarida qanday ramziy ma'no mujassam?	qirquvchi va kesuvchi buyum. Hukmdor o'rni kelganda o'ta qattiqqo'l bo'lishiga, qat'iy qarorlar qabul qilishiga ishora. Urog'un – idishdagi zahar. Zo'ravon, zolim. to'g'rilikdan qochadigan odamlar uchun jazo muqarrarligidan da'lолат. Shakar to'g'rilikni odat qilgan insonlar uchun xursandchilik manbayi	11
117.	Asarda Oyto'ldining vafot etishi nimaga ishora?	Davlatning (boylikning) bebaqoligiga	11
118.	Quyidagi bayt qaysi qahramon nutqidan olingan? “Juda aziz axir tiriklik kuni, Bekor ishga sarflab bo'limgay uni”	O'zg'urmish	11
119.	Kuntug'di adolat borasida o'z yaqinlari-dan kimni ham ayamasligini aytadi?	O'g'lini ham	11
120.	Kuntug'di kimga saroyda yashashni, shuningdek, izzat-ikrom, in'om, yegulik, ichguliklarni taklif qildi?	O'zg'ur-mishga	11
121.	Kuntug'di O'zg'urmishni necha marta shaharga taklif qildi?	3 marta. U shaharda yashashni xohlamadi. Faqat O'gdulmishning oqilonla tushuntirishlari-dan so'ng ziyorat maqsadidagina Elig huzuriga boradi. O'zg'urmish zohidlik yo'lini tanlaydi	11

122.	O'zg'urmish Kuntug'diga to'rt narsani bajo qilishini, so'ngra unga toat-ibodat qilishini, aziz jonini bag'ishlab o'zini qul qilishini xatida yozadi. Bu to'rt narsa nimalardan iborat?	1) nuqson siz (abadiy) tiriklik; 2) qariliksiz yigitlik; 3) dard-u kasalsiz omonlik; 4) tiganmas boylik	11
123.	Quyidagi parcha qaysi qahramon nutqidan olingan? "Sen tansiq taomlar- ni, men esa oddiy arpa oshni yeymiz. Uxlab tursak, ikkimiz ham och qolamiz. Shunday ekan, bunday ovqatlarga ruju qo'yishning nafi yo'q. Sen kimxoblar- ga o'ralib yurasan, men esa dag'al yungdan tikilgan to'n bilan kifoyalana- man. Ertaga o'lim kelsa, ikkimiz ham yalang'och ketamiz-ku!" Demak, tanni emas, ruhni boyitish lozim	O'zg'urmish	11
124.	"Elingda birorta (kishi) kechasi och qolsa, Xudo uni sendan so'raydi (hisobini sendan oladi) ko'zni och", – deb O'zg'urmish kimga aytadi?	Kuntug'diga	11
125.	"Qilmishlari to'g'ri, fel-u raftori rost, tili chin, yetuk, ko'zi va ko'ngli boy, bilimli, zakovatli, hushyor, yomonlarga misli bir olov edi". Ushbu ta'rif qaysi qahramonga berilgan?	Kuntug'diga	11
126.	Quyidagi parcha asardagi qaysi qah- ramon nutqidan olingan? "Taqvodor kishi. U din va diyonatni hamma nar- sadan ustun ko'radi. Uning uchun yaxshi kiyim, tansiq taom, har xil o'yin- kulgilar ketidan borish umrni shamolga berish bilan barobardir. Uning fikricha, inson o'z qalbini boyitishi, vujudini har	O'zg'ur- mishning	

	xil illatlardan forig' qilishi kerak. Buning yo'li esa ma'rifatdir"		11
127.	<p>"Odam bolasini yolg'iz Xudo yaratdi. Ular orasida ulug', kichik, yomon, yaxshi, ilmli, ilmsiz, qashshoq, boy, uquvli, uquvsiz, nochor-u gadoy ham bor. Bularga bosh bo'lismish uchun bek qanday bo'lmog'i kerak?</p> <p>Bekning ishlari rivojlanishi, ovozasi olamga yoyilishi, eli yashnashi, xalqi boyishi, xazinani kumush-u javohirlarga to'ldirishi, yov bo'yynini yanchishi, adovatga barham berishi, lashkar to'plashi, doim g'olib bo'lishi, to'g'ri siyosat olib borishi, bilimga amal qilishi, davlati ziyoda bo'lishi, rohat-farog'atda yashashi, uzoq yillar elga bosh bo'lishi, joni uzilgach, u dunyoligini topishi uchun bek nimalar qilmog'i kerak? – deb elig Kuntug'di kimdan so'radi?</p>	O'gdul-mishdan – vaziridan (U aql-zakovat ramzi)	8
128.	Vaziri hukmdorga qanday javob berdi?	<p>"Xudo kimniki beklikka loyiq ko'rsa avval unga idrok, ko'ngil, aql-u uquvdan qanot beradi.</p> <p>Beklar yumushi bu – mamlakat ishi, Beklik neligini bilar bek kishi", – dedi</p>	8
129.	Asarda "ish qilguvchi" deb elig kimni aytadi?	O'zini	8
130.	Asarda hukmdor "ish ko'rguvchi" deb kimni aytadi?	O'gdul-mishni	8
131.	"Xudo senga aql va ko'ngil berdi, uquv hamda bilim bilan omilkor bo'lding. Kichikligingdan boshlab menga xizmat qilding, ko'rib, kuzatib, adolatni o'rganding", – deya hukmdor kimga aytadi?	O'gdul-mishga	8

132.	O'gdulmish kimning o'g'li?	Oyo'ldining (U vafot etgunicha vazir bo'lgan)	8
133.	Hukmdor O'gdulmishning qaysi fazilatini o'ta qadrlaydi?	Sadoqatini	8
134.	Bek kishi, ya'ni hukm- <del>shar</del> qanday bo'lishi kerakligi haqidada O'gdulmishning izohi...	Bek nasli asil, mengan-u qo'rmas, botir yurakli, ya'ni dovyurak, uquvli ham bilimli, saxovali ham olivjanob, aqli, idrokli, hunarparvar, ziyrak, hushyor, pok, sergak, bahodir, abjir-u epchil, yetuk, sara, ko'ngli va tili ezgu, o'zi xushfe'l, saxiy, ko'zi va ko'ngli to'q, andishali, xushro'y, adolatparvar, rostgo'y, sadoqatli, bir so'zli, dono, elparvar, ezgu xulqli, pok axloqli, xushfe'l, sofildil, og'ir-bosiq, mulohazakor, sabrli, or-nomusli, yuvosh bo'lishi kerak	8
135.	Yuqoridagi talablar faqat beklarga qo'yilganmi?	Asarda bek bir timsol. Yuqorida bekka qo'yilayotgan jiddiy ma'naviy talablarni amalda har qanday kishiga qo'yilayotgan yuksak insoniy mezonlar tarzida qabul qilish kerak	8
136.	"Agar arslon itlarga bosh bo'lsa, itlar arslonga aylanadi, lekin it arslonlarga yetakchilik qilsa, arslonlar itlar kabi bo'lib qoladi". Ushbu fikr qaysi qahramonning nutqidan olingan?	O'gdulmishning	8
137.	"Bahor madhi" qasidasida qaysi qushlar nomi tilga olingan?	G'oz, o'rdak, oqqush, turna, kaklik, qora qarg'a, andalib (bulbul)	L
138.	Shoir qaysi qushning sayrashini shallaqi qizning uniga o'xshatadi?	Qora qarg'anining qag'illashini	L
139.	"Bular mutlaqo kerakli kishilardir. Hamma qimirlagan jonga bulardan manfaat bo'ladi". Ushbu parchadagi tasvir kimlar haqida?	Dehqonlar haqida	L

140.	"Qutadg'u bilig" da bek ikki narsa bilan elni buzadi, degan fikr aytilgan. Bu ikki narsa nima?	Zo'ravonlik va g'ofillik	8
141.	Beklar elga nima bilan boshchilik qiladi?	Bilim bilan	8
142.	Beklar nima bilan ishlarini yuritadi?	Zakovat bilan	8
143.	"Bek oti bilig bilan bevosita bog'liq, "Bilik"dan "lom" ketsa, bek qoladi". Ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llangan?	Kitobot	8
144.	Bekka nogahoni biron balo yetmasligi uchun u qanday bo'lishi kerak?	Bilimli, uquvli, ziyrak	8
145.	Barcha asli ulug' odamlarning bolasi nima tufayli yetuk bo'ldi?	Bilim tufayli	8
146.	Bu beklik muqaddas, u nimalarni talab qiladi?	Poklik va sergaklikni	8
147.	Xalq sanvari qaysi fazilatlarga ega bo'lganda <del>buyuk</del> ishlarga qo'l ursa arziydi?	Bahodir va abjir bo'lganda	8
148.	Kishi har qanday ishni nima bilan boshlaydi?	Bilim bilan	8
149.	Qay holatda har qanday ish o'nglanaveradi?	Aql bilan harakat qilinsa	8
150.	Bek xalqni nima bilan tutib turadi?	Bilim bilan	8
151.	Beklarning bekligi qachon zaiflashadi?	Agar ular yanglishsa	8
152.	Beklikka tekkan dardning davosi nima?	Aql va bilim	8
153.	Bekning dardini nima davolaydi? Bek qanday bo'lishi kerak?	Bilimli, zakovatli, epchil	8

154.	Bek qaysi fazilatlarga ega bo'lsa, ikki dunyoda ham o'rni aziz bo'ladi?	Bilimli, uquvli, dono, elparvar bo'lsa	8
155.	Bek qaysi xislatlarga ega bo'lsa, umri sevinch bilan kechadi?	Fe'l-atvori ma'qul, axloqi yaxshi bo'lsa	8
156.	Kishiga ham yemish, ham kiyim deb nima nazarda tutiladi?	Fe'l-atvorning yaxshiligi	8
157.	Agar kishi yomon xulqli bo'lsa, qanday ahvolga tushadi?	Uni bu zamona o'qi azobga soladi	8
158.	Agar bek yomon qiliqli bo'lsa, boshiga qanday kunlar tushadi?	Barcha ishlari ters bo'lib, sevinchlari qayg'uga aylanadi	8
159.	Asli toza kishilar doim nimaga intiladi?	Poklikka	8
160.	Andishali kishining ko'nglida nima bo'ladi?	Qo'rquv	8
161.	Beklar qay holatda ishni to'g'ri yuritadi?	Ko'nglida qo'rquvi bo'lsa	8
162.	Qaysi fazilatlari bo'lmasa bekning barcha qilmishlari nopok, nuqsonli bo'ladi?	Andishali, sofdil bo'lmasa	8
163.	Ikki narsa beklikka ko'rk. Bular...	To'g'ri qaror chiqarish va sabr	8
164.	Bek nima bilan ish yuritishi kerak?	Aql va idrok bilan	8
165.	Qanday odamlarni ishdan yiroq tutish kerak?	Aqsiz kishilarni	8
166.	Qanday fazilatlarga ega bo'lgan erkak kishini maqtash kerak?	Uquvli va aqlli bo'lgan	8
167.	Qaysi fazilatga ega odam dono hisoblanadi?	Aqlli kishi	8
168.	Barcha narsaning dushmani...	Yengiltaklik	8

169.	Nodon, bilimsiz kishilarga xos belgilar...	Shoshqaloqlik, yengiltaklik, tezfe'llilik	8
170.	Shoshib qilingan ishlar qanday bo'ladi?	Picha ko'ngilsiz bo'ladi	8
171.	Barcha ishlarni shoshilmasdan boshlash kerak, lekin nimaga shoshilish kerak?	Toat-ibodatga	8
172.	Tabiblar ham davolay olmaydigan, dori-darmoni yo'q kasallik deb nima nazarda tutilgan?	Suqlik	8
173.	Qanday kishilarning ishi zavolsiz bo'ladi?	Zakovatli kishilarning	8
174.	Zakovatli kishilar kimlarni ko'p maqtagan?	Sodiq kishilarni	8
175.	Qanday fazilatli odamlar har xil qing'ir ishlarga qo'l uravermaydi?	Andishali, yaxshi xuiqli odamlar	8
176.	Barcha nomunosib ishlardan tiyuvchi...	Uyat	8
177.	Barcha xayrli ishlarga yo'llovchi...	Uyat	8
178.	Barcha ezgu ishlarga belbog' vazifasini o'tovchi fazilat, ya'ni kishining ko'rki...	Andisha	8
179.	Qanday bekdan umidni uzish kerak?	Agar bek xiyonat ko'ngilli bo'lsa	8
180.	Eldan qachon baxt qochadi?	Begining ko'ngli, tili va bajargan amallari to'g'ri bo'limasa	8
181.	Qanday bekka umid bog'lasa, kishining tirikligi zoye ketadi, bu o'kinch keltiradi?	So'zidan qaytuvchi bekka	8
182.	Qachon mehnat va mashaqqat ko'payadi?	Beklar g'ofil bo'lsa (bek nihoyatda hushyor va juda ziyrak bo'lishi kerak)	8
183.	Ikki narsa el uchun mahkam bog'ich. Bular...	Hushyorlik va adolatli siyosat	8

184.	Beklarning eli nima sababdan ortdi?	Hushyorlik tufayli	8
185.	Beklik poydevori nima sababdan buziladi?	G'ofillik tufayli	8
186.	El boshlig'i nimalar bilan yurtni buzadi?	Egri yo'lga kirish, to'g'ri yo'ldan ozish, ya'ni zo'rvonlik va g'ofillik bilan	8
187.	Qanday odam yurtni boshqarolmaydi?	Zolim odam	8
188.	Zulm nimaga o'xhatiladi?	Zulm yonib turgan o'tday, yaqinlashsang, kuydiradi	8
189.	Adolat nimaga o'xhatiladi?	Adolat suv kabi narsa, oqsa, ne'mat undiradi	8
190.	Beklik qay holatda uzoq muddat barqaror bo'ladi?	Beklar ko'nglini to'g'ri qilib siyosat yuritsa	8
191.	Xalq qachon bekka ishonadi va baxtiyor yashaydi?	Bekning so'zi chin va qilgan har bir ishi to'g'ri bo'lsa	8
192.	Bek uchun nimalar kerak?	Saxovat, xushfe'llik, yuvvoshlik	8
193.	Qora bosh dushmani...	Qizil til erur	L
194.	Kimning pandiga tugal amal qilish kerak?	Otaning	

**"Qutadg'u bilig" asarida keltirilgan quyidagi qofiyalarning turini aniqlang**

195.	Bilik – silig, tetig – etig, beg – yeg	To'q qofiya	8
196.	Beki – ko'ki, bilmishim – uqmishim, year – ara, bashi – kishi	Och qofiya	8
197.	"Qutadg'u bilig"da barcha baytlardagi misralar o'zaro qofiyalanganmi?	Ayrim misralarda qofiyadosh so'zlar yo'q, ayrim misralarda esa qofiya qo'ilanmay radiflar keltirilgan	8
198.	Qofiyalarda asosan qaysi tildagi so'zlar qo'llangan?	Turkiy so'zlar	8

199.	"Qilinch edgu erdan kerak ming tuman, Aning tutsa el kend, ko'tursa tuman" baytini sharhlang	Er yigitdan ezgu xulq va ming tuman hunar lozim. U shu hunarları bilan elni boshqarib, zulmatni ko'taradi. Bu baytda qofiya omonim so'zlaridan iborat. Tuman – o'n ming (ming tuman – o'n million), tuman – tabiat hodisasi (she'rda zulmat deb tarjima qilingan)	8
------	--	---	---

### Quyidagi misralarni davom ettiring

200.	Biliklik, biligsiz, chiqay bar ya bay...	Uqushliq, uqushsiz, otin bir gaday	8
201.	Qayu begda bo'lsa bu arquq qilinch...	Ishi barcha tetru, sevinchi – saqinch	8
202.	Beg ati bilig birla bag'lig' turur...	Bilik "lam"(i) ketsa, beg ati qalur	8

### “Qutadg'u bilig” asaridan olingan quyidagi jumlalarni davom ettiring

203.	Er kishida ko'ngil bo'lmasa...	Ochiq ko'zdan foyda yo'q	8
204.	Er kishida aql bo'lmasa...	Uning ishida unum yo'q	8
205.	Kimki zakovat, aql, bilim egasi bo'lsa...	Yomon bo'lsa ham, yaxshi de, kichik bo'lsa ham maqta	8
206.	Bek yengiltak bo'lsa...	Uning yuzi qora bo'ladi	8
207.	Osh-u suv shoshib yutilsa...	Kasallik keltiradi	8
208.	Barcha odam yesa-ichsa, oxiri to'yadi, Ko'zi och odamning ko'zi...	O'Igandagina to'yadi	8

209.	Ko'zi och kishi mol-dunyo bilan boy bo'lmaydi, Dunyoning boyligiga ega bo'lsa ham...	Ochligicha qoladi	8
210.	Xudo kimga andisha, uyalish ato etgan bo'lsa...	Unga davlat va tugal izzat-obro'y ham beradi	8
211.	Tili chin so'zlasa, ko'ngli to'g'ri bo'lsa, Xalqqa yaxshilik keltirsa ...	Kuni tuqqa-ni – shu	8
212.	Qaysi bek hushyor bo'lsa...	Elini saqlaydi, yov bo'ynini yanchadi, ustiga balolar yog'diradi	8
213.	Qaysi bek el o'rtasida to'g'ri siyosat yuritsa...	U elni yashnatib qo'yadi, yorug'likka chiqaradi	8
214.	Kishi hushyorlik bilangina...	Dushmaniga zarba bera oladi	8
215.	Sen hushyorlik bilan...	Yov bo'ynini yanch, xalqqaadolat qil, farog'atda yasha	8
216.	Agar sen yovni yengmoq istasang...	Quloqni g'oyat hushyor tutishing lozim	8
217.	Ne deydi eshitqin bilimli so'zin...	Zolim hokimligi bo'lmaydi uzun	8
218.	Ey dono, elga uzoq vaqt bosh bo'laman, desang...	To'g'ri siyosat yuritish, xalqni sharaflash kerak	8
219.	Xudo quliga shunday ezgu fazilatlar baxsh etsa...	Uning xulqi mukammal, ishlari qoidalı bo'ladi	8
220.	Zolim kishi el-u yurtni so'ray olmaydi...	Chunki xalq zolim zulmini ko'tarmaydi	8
221.	Adolat bilan el ko'payib, olam yetiladi, Zulm bilan...	El kamayib, olam buziladi	8
222.	Zolim zulmi bilan bir talay shaharlarni buzdi, Oqibatda bu zolim...	Ochlikdan tik turib o'ldi	8

223.	Barchadan yaroqsizi – ey baxtiyor elig...	Beklarning yolg'onchi deb ot chiqarishi	8
224.	Yolg'onchi kishilar...	Vafosiz bo'ladi	8
225.	Yolg'onchi kishidan...	Vafo kutma	8
226.	Vafosiz kishi...	Xalqqa tengsizlik qiladi	8
227.	Tili yolg'on so'zlaydigan kishining qilmishi...	Jafodan iborat	8
228.	Kimki jafokor bo'lsa...	Uning yilqidan farqi yo'q	8
229.	Yuraklik yuraksizlarga bosh bo'lsa...	So'ng barcha kishi yurakli bo'ladi	8
230.	Arslon itlarga bosh bo'lsa...	Itlar arslonlarga aylanadi	8
231.	It arslonlarga yetakchilik qilsa...	Arslonlar itlar kabi bo'lib qoladi	8
232.	Rizqli er kishining...	Mol-dunyosi kamaymaydi	8
233.	Tug'ilgan oqqushning...	Doni kamaymaydi	8
234.	Qilich, oybolta, o'q-yoy, kuch-quvvat, yurak bor ekan...	Er kishi qo'rmasligi kerak	8

### Quyidagi misralarni davom ettiring

235.	Sevuvchi kishining yuzi belgili, Gap ochganda ma'nni, so'zi belgili, Sevar, sevmasini b'dayin desang...	Senga tikka boqqan ko'zi belgili	L
236.	Agar kimda bo'lsa aql, ilm, zehn, Uni madn etib sen tugal er degin. Ziyod bo'lsa kimda uquv, aql, bilim...	Yovuz bolsa hamki, uni maqtagini	L
237.	O'zim o'lsam ezgu otim qolsa, bas, Qolib mangu otim tirik bo'lsa, bas, Faqat yaxshilik qil, tila yaxshi nom...	Noming mangulik-la yashay olsa, bas	L

### Quyidagi so'zlarni izohlang

238.	yag'i	yov, dushman, g'anim	I
239.	ko'daz	asra, avayla	I

240.	tegma	har doim	
241.	tatig'	totli	
242.	yanut	javob	
243.	tapug'	topinish, toat-ibodat	
244.	asiaq'	naf, foyda, manfaat	
245.	teur	ro'para, tik	
246.	o'g so zining ma'nolari	1) aql; 2) maqta; 3) ulug'la	
247.	qilq	qilig'	
248.	tuzun	to'g'ri, pokiza, yaxshi	
249.	yulug'la	bag'ishlamoq, fido qilmoq	
250.	arig'siz	toza bo'limgan, nopol	
251.	o'tun	tuban, pastkash	
252.	afzun	ortiq, ziyoda, ko'p; fazilatli, yaxshi	
253.	nang	narsa	
254.	ko'k	ildiz, tomir	
255.	tiriglik	tiriklik, umr, hayot	
256.	yud	ko'tarmoq, chidamoq	
257.	o'k	-gina yuklamasi vazifasidagi qo'shimcha	
258.	yas	zarar	
259.	uzliq	mohirlik, ustalik	
260.	o'sa	o'yla, mulohaza qil	
261.	edgu	ezgu, yaxshi	
262.	ajun et	olamni tuzatmoq, olamni go'zal qilmoq	
263.	ushtmah	jannat	
264.	yag'iz	bo'z rang	
265.	qishig'	qishni	
266.	yashiq	quyosh	
267.	baliq	hut burjining turkiy nomi	
268.	qudrug	quyruq, dum	
269.	qo'zi	burj nomi	
270.	to'rqu	parda, to'siq	
271.	ba	bog'lamoq, to'smoq, tutmoq	

272.	arqish	karvon	
273.	tavg'ach	xitoy, xitoylik, xitoya oid	
274.	etin	tayyorlanmoq, bezanmoq	
275.	yipar	ifor, mushk; qora rang timsoli	
276.	kafur	g'oyatda oq va xushbo'y modda, ya'ni kofur	
277.	qo'p	turmoq, tarqatmoq, to'zg'itmox	
278.	qaranful	chinnigul	
279.	butru	batamom, to'la-to'kis	
280.	qug'u	oqqush	
281.	qaliq	osmon	
282.	yangqula	sayramoq, ovoz chiqarmoq	
283.	esh	esh, sherik, juft	
284.	siliq	muloyim, mayin	
285.	qatg'ur	qah-qah urmoq, qattiq ovoz bilan sayramoq	
286.	sanvach	bulbul	
287.	ilik-kulmiz	kiyik turlari	
288.	sig'un tuyg'aq	bug'u turlari	
289.	tulas	tulga o'xshagan, qora kiyimdagidek	
290.	such	yechmoq	
291.	bul	topmoq, ko'rmoq	
292.	sun	cho'zmoq, uzatmoq, ushlamoq	
293.	ku	ovoza, shuhrat, dovrug'	
294.	qutad	baxtli qilmoq, baxt keltirmoq	
295.	telin	tilinmoq, teshilmoq	
296.	andalib	bulbul	
297.	tarig'chi	dehqon	
298.	qaril	qorishmoq, aralashmoq, qo'shilmoq	
299.	saril	yashamoq, umrguzaronlik qilmoq	
300.	qamug'	barcha, hamma	
301.	sezigsiz	shubhasiz	
302.	qadash	qardosh, qarindosh	

303.	saqinuq	rostgo'y, xudojo'y, pokdomon	
304.	ko'ni	tog'ri	
305.	Bayat	Xudo, Tangri	

## AHMAD YUGNAKIY (XI – XII ASR)

1.	Ahmad Yugnakiyning ismi...	Ahmad	L
2.	Shoirning otasining ismi...	Mahmud	L
3.	Adibning tug'ilgan yeri...	Yugnak	L
4.	Ahmad Yugnakiy haqidagi quyidagi parcha kimning qaysi asaridan olingan?  "Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g'arib (ajoyib, qiziqarli) nimalar ma'quldur (naql qilingan). Derlarki, ko'zлari butov (bitgan, yopiq) ermishki, also zohir ermas ermish. Basir (ko'r maydigan) bo'lub, o'zga basirlardek andoq emas ermishki, ko'z bo'lg'ay. Ammo bag'oyat ziyrak va zakiy va zoid va muttaqiy (taqvodor) kishi ermish. ...haq subhonahu taolo agarchi zohir ko'zin yopiq yaratqondur, ammo ko'ngli ko'zin bag'oyat yoruq qilg'ondur"	Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asaridan	L
5.	Ahmad Yugnakiy asari...	"Hibat ul-haqoyiq"	L
6.	"Hibat ul-haqoyiq"ning qaysi yozuvda ko'chirilgan nusxalari ko'plab tarqalgan?	Uyg'ur va arab harflari bilan yozilgan nusxalari	L

**“Hibat ul-haqoyiq” asari haqidagi  
quyidagi savollarga javob bering**

7.	Asar nomining ma'nosiga qanday nusxasi mavjud?	“Haqiqat sovg'alari”	L
8.	Asosiy g'oyasi?	Ma'rifat tashviqi	L
9.	Asarning hajmi?	14 bob 254 bayt	L
10.	“... ayttim, adab, pand so'zum, So'zum munda qalur, barur bu o'zim”. Nuqtalar o'rnida tushirilgan so'zni aniqlang	Adib Ahmad	
11.	Kitob qo'lyozmasining nechta nusxasi mavjud?	5 ta	
12.	Kitobning qo'lyozma nusxalari haqida ma'lumot bering Zaynul Obidin nusxasida kitobning nomi...	<p>“Hibat ul-haqoyiq” (ma'nosi “Haqiqat armug'oni”) uch nusxada yetib kelgan. Nusxalar bir-biridan kichik farqlarga ega. Ulardan eng eskisi Samarqandda Zaynul Obiddin degan xattot tomonidan uyg'ur yozuvida ko'chirilgan bo'lib, 1444-yilda Turkiyaga borib qolgan. 1480-yilda Abdurazzoq baxshi degan kishi O'rta Osiyodan Turkiyaga borib, ushbu kitobdan arab va uyg'ur yozuvida ikki nusxa ko'chirgan. Har uch nusxa Istanbulda saqlanadi. So'ngra yana ikki nusxasi topilib, hozirda kitob qo'lyozmasining besh nusxasi mavjud.</p> <p>Zaynul Obidin nusxasida kitobning nomi “Atebatul haqoyiq” (“Haqiqatlar eshigi”) deb berilgan. Shu sababli uni Turkiyada ko'proq shu nom bilan ataydilar, ikkinchisida “Hibat ul-haqoyiq” deb yozilgan</p>	
13.	Asarni o'rganishda olimlarimizdan kimlarning xizmatlari katta bo'ldi?	Qayum Karimov, Qozoqboy Mahmudovlarning	

14.	"Hibat ul-haqoyiq" kimga bag'ishlangan?	Dod Sipohsolorbekka	L
15.	Adib "Hibat ul-haqoyiq"ni qanday til bilan yozilganini ta'kidlaydi?	Qoshqarcha til	L

**"Hibat ul-haqoyiq" asarining quyidagi bo'limlari qanday mavzular haqida?**

16.	Birinchi bo'limi...	Ilm manfaati, jaholatning zarari haqida	L
17.	Ikkinchchi bo'limi...	Tilni tiyish va adab-axloq haqida	L
18.	Uchinchi bo'limi...	Dunyoning o'zgarib turishi haqida	L
19.	To'rtinchi bo'limi...	Saxovat va baxillik oqibati haqida	L
20.	Beshinchchi bo'limi...	Tavozelilik manfaati, kibrilik va harislikning zarari to'g'risida	L
21.	So'nggi bo'limi...	Axloqning karomati, harislikni tashlash haqida	L

**"Hibat ul-haqoyiq" asaridan olingan quyidagi parchalarni sharhlang**

22.	Ko'ni so'z asal tek, bu yalg'on basal, Basal yeb achitma ag'iz, ye asal	To'g'ri so'z asal kabidir, yolg'on (so'z) sarimsoq piyozidir, sarimsoq piyoz yeb, og'izni achitma, asal yegin	L
23.	Baholik dinor ul biliklik kishi, Bu johil biliksiz, bahosiz bishi	Bilimli kishi bahosi baland bo'lgan dinor – oltunga o'xshaydi. Johil, bilimsiz odam esa qadri yo'q me- vaga o'xshaydi	L
24.	Biliksiz yiliksiz so'ngaktek xoli, Yiliksiz so'ngakka sunulmas alik	Bilimi yo'q odam ichida iliqi yo'q suyakka nisbat beriladi. Iligi yo'q suyakka qo'l cho'zilmaganidek	L

		(sunulmas alik), bilimsiz odam ham boshqalar e'tiboridan chetda qoladi	
25.	Bu ochun rabot ul tushub ko'shguluk, Rabotqa tushukli tushar ko'shuluk.  O'ng arqish uzadi qo'pup yo'l tutub, O'ngi qo'pmish arqish necha ko'shuluk	Bu dunyo qo'nib yana ketadigan rabotdir, bu rabotga tushib o'tuvchilar qo'nib keta beradi. Oldingi karvon yo'l bosib o'zib ketdi, (shu) oldingi karvon necha manzilni (bosib) o'tdi	L
26.	Yilon tek bu achun yilon o'g'lag'u, Yo'qamaqqa yumshaq ichi pur ag'u.  Yilan yumshaq erkan yovuz fe'l tutar, Yiraq turg'u, yumshaq teb inanmag'u	Bu dunyo avraydigan ilon kabitidir, (uni) yuvosh, yumshoq deb yo'ysang, ichi achchiq ichimlik kabi og'udir. Ilon yumshoq, yuvosh bo'lib ko'rinsa ham, yomon fe'llidir: yuvosh deb inonmasdan undan uzoq turish kerak	L
27.	Ayo mol idisi, axi edgu er, Bayat berdi ersa senga, sen-da ber.  Yirilgan, so'kulgan terip bermagan.  Alal berur ersang necha tersa ter	Ey yaxshi, saxovatli mol egasi, senga tangri bergen bo'lса, sen ham ber. Mol yig'ib birov larga in'om bermaganlar, la'nat va so'kishga sazovordirlar, agar sen in'om qilib tursang, qancha mol-dunyo yig'sang yig'aver	L

**"Hibat ul-haqoyiq" asaridagi quyidagi fikrlarni davom ettiring**

28.	Dunyoda yaxshi, nuqson siz nom saxiyilikdir...	Baxil esa ko'rksiz ot ekanligini bil	L
-----	--	--------------------------------------	---

29.	Ey yaxshi, saxovatli mol egasi, senga tangri bergen bo'lsa, sen ham ber. Mol yig'ib birovlargal bermaganlar, la'nat va so'kishga sazovordirlar...	Agar sen in'om qilib tursang, qancha mol-dunyo yig'sang yig'aver	L
30.	Bu dunyo avraydigan ilon kabitidir, (uni) yuvosh, yumshoq deb yo'ysang, ichi achchiq ichimlik kabi og'udir...	Ilon yumshoq, yuvosh bo'lib ko'rinsa ham, yomon fe'llidir: yuvosh deb inonmasdan undan uzoq turish kerak	L
31.	Bilimli kishi bahosi baland bo'lgan dinor – oltinga o'xshaydi ...	Johil, bilimsiz odam esa qadri yo'q mevaga o'xshaydi	L
32.	Bilimi yo'q odam ichida iligi yo'q suyakka nisbat beriladi...	Iligi yo'q suyakka qo'l cho'zilmaganidek (sunulmas alik), bilimsiz odam ham boshqalar e'tiboridan chetda qoladi	L
33.	Bilimli kishi o'lsa ham, uning nomi o'chmaydi, ilmsiz kishining o'zi hayot bo'lsa ham...	Oti o'likdir	L
34.	Ilmsizga to'g'ri so'z ma'nosizdir...	Unga o'git-nasihat foydasizdir	L
35.	Bir qancha yuviqsizlarga yuvinish uchun buyurilsa, toza bo'lur...	Ammo johil qancha yuvinmasin pok bo'lmaydi	L
36.	Bilimli kishi kerakli so'zni so'zlaydi. Keraksiz so'zni ko'mib yashiradi. Bilimsiz kishi nima gapirsa, nodonligi sababli so'zlaydi...	Shuning uchun uning tili o'z boshini yeysi	L
37.	Bir kishida ikki narsa bo'lsa, u kishiga muruvvat yo'li yopiladi. Bular...	Birinchidan, behuda so'zlar bilan vaysasa, ikkinchidan, bu kishining so'zlari yolg'on bo'lsa	L

38.	To'g'ri so'z asal kabidir...	Yolg'on (so'z) sarimsoq piyoziqidir, sarimsoq piyozi yeb, og'izni achitma, asal yegin	L
39.	Baxillik dori bilan davolab bo'lmas kasallikdir...	Baxilning qo'lli saxovat, hadya uchun yopiqdir	L
40.	Takabbur qilig'i barchaning tilida nafrat qo'zg'atadi, muloyimlik ezgu narsadir. Kimda-kim mamnanlik qilib, o'zini baland tutsa...	Uni na xalq, na Tangri sevadi	L
41.	Kibrlilik libosini kiyib, ko'ksingni xalqqa berib, tiling bilan ozor berishdan saqlan. Mo'minlikning nishoni...	Tavozedir, agar mo'min bo'l sang, tavoze qilgin	L
42.	(Kishilarning) hamma fe'lini tugal kuzatgin, kim karamli, shafqatli bo'lsa, uni er kishi deb hisoblagain. Karamsiz, shafqatsiz kishi...	Mevasiz daraxt kabidir. Mevasiz yog'ochni kesib yondirgin	L
43.	Senga jafo qiluvchiga sen...	Vafo bilan javob qil, qonni qon bilan qancha yuvsa ham, u tozalanmaydi	L
44.	Zinhor kishiga zo'ravonlik va zulm qilma, agar kishi qiyinchilikka tushsa...	Sen unga ko'mak ber	L
45.	Yaxshi, yaroqli oshingni...	Kishiga yedir, yaroqli narsa topsang, yalang'ochlarning yirtilgan kiyimini butla	L
46.	Gunohkor kishining gunohini kechir, adovat ildizini qazib tashla, kes va qo'porib tashla. G'azab o'ti tutab, alangananib yonsa...	Muloyimlik bilan shafqat, marhamat, haqiqat suvini sochib, uni o'chir	L

47.	Ulug'likka yetishsang, yanglishma, agar atlas kiysang...	Bo'z kiyganiningni unutma. Ulug'ligingga yarasha yaxshiroq bo'lib, katta-kichikka so'zingni silliq, muloyim qil	L
48.	"Hibat ul-haqoyiq" qanday ruhdagi asar?	Pand-nasihat tarzidagi didaktik asar	L
49.	So'zni "kasal ruh va dillarga shifo", – degan adib kim?	Ahmad Yugnakiy	

### Quyidagi so'zlarni izohlang

50.	ochun	olam, dunyo	
51.	mavoiz	o'git, nasihat	
52.	osig'	naf, foyda	
53.	ko'ni bo'l	to'g'ri bo'l	
54.	uqush	zehn, idrok	
55.	xirad	aql	
56.	tongsuq	tansiq, nodir	
57.	ediz	baland, yuqori; sharaflı; baland joy, to'r	
58.	belak et	sovg'a qilmoq	
59.	ay	aytmoq, gapirmoq, so'zlamoq	
60.	bul	topmoq, ega bo'lmoq	
61.	baholik	bahoga ega, qimmatbaho	
62.	dinar	dinor, pul birligi	
63.	bishi	bahoga ega bo'l'magan, qadrsiz; bo'sh, bekor	
64.	tishi	ayol, xotin kishi	
65.	so'ngak	suyak	
66.	yilik	ilik	
67.	eran	erkak odam, yigit	
68.	bo'lti	bo'ldi	
69.	teng	teng, barobar	
70.	tenga	tenglashmoq, qadrini bilmoq	
71.	o'sanmoq	g'aflatda qolmoq	
72.	udun	qo'pol, yaramas	

73.	asig'siz	foydasiz
74.	ari	tozalanmoq, pokizalanmoq
75.	kedin	keyin, so'ng
76.	kizla	yashirmoq, berkitmoq, sir saqlamoq
77.	idi	ega, xudo
78.	al	qo'l, barmoq
79.	kudaz	qutqarmoq, asramoq
80.	san	sanamoq, deb hisoblamоq, o'yлamoq
81.	so'z sag'i	so'zning sog'(lom)i, butuni, to'g'risi
82.	o'chuktur	o'chakishtirmoq
83.	safih	aqlsiz, nodon, ahmoq
84.	o'kush	ko'p, talay
85.	bekla	asramoq, yashirmoq, tiymоq
86.	yuknub	yukinib, sig'inib, e'tiqod qilib
87.	bukan	berkilmoq, yopilmoq, berkinmoq
88.	uza	uzra, ustida
89.	inanchlig'	ishonchli, ishonib bo'ladigan
90.	sermaq	saqlamoq, asramoq
91.	raz	roz, sir
92.	esh	yaqinlar, do'st, og'ayni
93.	rabot	karvonsaroy
94.	o'ng	o'ng; oldin, avval
95.	arqish	karvon
96.	tavar	tovar, narsa, mol
97.	chig'ay	kambag'al, hech narsasi yo'q odam
98.	kedgu	kiyiladigan kiyim (narsa)
99.	vabal	ayb, gunoh
100.	tariqliq	tarig'i bor joy, ekinzor
101.	kulchira	kulib boqmoq, yaxshi munosabatda bo'lmoq
102.	baz	yana, tag'in
103.	qash chat	qoshini chimirmoq, achchiqlanmoq, yomon munosabatda bo'lmoq
104.	shahd	asal, bol
105.	tatrit	torttirmoq, mazasini bildirmoq

106.	qat	qo'shmoq, aralashtirmoq	
107.	suchuk	chuchuk, shirin	
108.	ranj	mashaqqat, qiynalish, og'riq; kasallik	
109.	o'g'lag'u	mayin, yoqimli	
110.	yo'qamaq	silamoq, paypaslab ko'rmoq	
111.	pur ag'u	zahari ko'p, zaharga to'la	
112.	tashi	tashqi tomoni, tashqarisi	
113.	hazar	ming-minglab	
114.	naxush	noxush, yoqimsiz	
115.	niqab	niqob, yuzni to'sish, yashirish maqsadida tutiladigan parda	
116.	terk	tez, tezda	
117.	darangsiz	to'xtovsiz, tez, chaqqon	
118.	xali (qali)	agar, mabodo	
119.	axi	axiy, saxiylikning oliy darajasi	
120.	ya	yoy, kamon	
121.	qamug'	hamma, barcha	
122.	sana	maqtov, madh	
123.	idi	ega, sohib	
124.	bayat	xudo, yaratuvchi	
125.	alal	halol	
126.	o'tala	davolamoq	
127.	yig	kasallik, jard	
128.	kuch	zulm, zo'ravonlik	
129.	esiz	yomonlik, nojo'ya ish	
130.	yazug'luq	gunohkor, gunohi bor	
131.	ko'daz	ado etmoq, o'tamoq	
132.	bala	balo, ofat	

**AHMAD YASSAVIY**  
**(1041 – 1166-YILDA VAFOT ETGAN)**

1.	Hikmat yozish an'anasi boshlab bergen ijodkor?	Ahmad Yassaviy	K
2.	"Turkiston mulkining shayxul mashoyixi" kim?	Ahmad Yassaviy (Navoiy, "Nasoyim ul-muhabbat")	K
3.	Ahmad Yassaviy qayerda, qanday oilada tavallud topgan?	Qozog'istonning Sayram viloyatida ma'rifat va javonmardlikka ixlosi baland bo'lgan eng nufuzli Ibrohim ota oilasida (taxminan) 1041-yilda tavallud topgan	K
4.	Yassaviyning ota-onasi haqida ma'lumot bering.	Otasi Ibrohim Turkistonning mashhur shayxlaridan bo'lgan, onasi Muso shayxning qizi Oysha xotun edi. U Qorasoch momo nomi bilan mashhurdir	L, k, 10
5.	Ahmadning yoshligi qanday o'tgan?	Og'ir kechgan, otasi juda erta vafot etgan	L
6.	Yassaviyning ustozlari...	Yirik mutasavvuf olim Arslonbob (7 yoshdag'i ustoz), Buxorodagi Yusuf Hamadoniy	L, k
7.	Ahmad Yassaviy tasavvuf ilmini juda chuqr egallagani uchun xalq orasida qanday naql paydo bo'ldi?	"Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad"	L, 10
8.	Ahmad Yassaviy qachon vafot etgan?	1166-yilda	L, 10
9.	Buyuk ajdoqlarimizdan kim Ahmad Yassaviya alohida e'tiqod bilan qarab, qachon Turkistondagi eski qabri o'rniiga yangidan muhtasham maqbara qurdirgan?	Amir Temur, 1395 – 1397-yillarda	L, 10

10.	Ahmad Yassaviy merosi.jamlangan asar...	"Hikmat"lar	L, 10
11.	"Hikmat"larda she'rlar miqdori...	240 ga yaqin	L, 10
12.	Yassaviy "Hikmat"lari xalq orasida qanday nom bilan mashhur bo'lgan?	"Devoni hikmat"	L, 10
13.	Hikmatlari-ga Ahmad Yassaviy qanday taxalluslar qo'ygan?	"Qul Xoja Ahmad", "Xoja Ahmad", "Xoja Ahmad Yassaviy", "Ahmad ibn Ibrohim", "Sulton Xoja Ahmad Yassaviy", "Yassaviy miskin Ahmad", "Miskin Yassaviy", "Xoja Ahmad", "Ahmad", "Ahmadiy", "Qul Ahrnad", "Miskin Ahmad"	L, 10
14.	Ahmad Yassaviy qaysi yo'nalishda shuhrat qozondi?	Ahmad Yassaviy mutasavvuf shoir. U tasavvufning shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat mohiyatini she'riy misralariga singdirgan. Shu yo'nalishda shuhrat qozongan	L, 10
15.	Adib tasavvuf-ga qanday baho bergen, uning shartlarini qanday anglagan?	Adib tasavvufni inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil deb baho bergen. Tasavvufning maqsadi insoniyatni to'g'ri yo'lga da'vat etishdir. To'g'ri yo'l haqiqatni anglashga olib kelmog'i kerak. Haqiqatni anglash o'zlikni anglashdir. Bunga erishish uchun kishi Xudo yo'liga kirmog'i kerak..."	L
16.	"Buni ko'rmagan kishi bilmas va bunga yetmagan kishi bovar (ishonch) qilmaskim, hijron-u firoq mundin iboratdurdur..." Ishq haqidagi ushbu fikrlar muallifi...	Alisher Navoiy ("Mahbub ul-qulub")	10
17.	Yassaviy ijodidagi tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq obrazlar...	Pir, darvesh, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, iyomon...	L, 10

18.	Yassaviy ijodidagi xalq og'zaki ijodi an'analari bilan bog'liq obrazlar...	Yo'l, rabot, karvon, o'q	L, 10
19.	Qaysi shoir inson yoshi bilan bog'liq to'rtliklar yaratgan?	Ahmad Yassaviy	L
20.	Rivoyat qilishlaricha, payg'ambarimiz: "Mendan keyin Ahmad ismli bir bola dunyoga keladi. Siz, albatta, uni izlab toping va unga bu xurmoni bering, u ummatim islom dinini quvvatlantiruvchi eng yetuk kishi bo'ladi", – deb kimga buyurdi?	Arslonbobga	K
21.	Arslonbob payg'ambarining topshirig'ini bajardimi?	"Hazrati payg'ambarning duosi bilan Arslonbob uzoq umr ko'ribdi va omonatni topshirish uchun ko'p yurtlarni kezib chiqibdi. Ahmadning otasi vafot etgan yili Turkistonga kelib, payg'ambarimiz tavsiflagan bolani ko'ribdi va unga salom beribdi. Salomga alik olgach, bola Arslonbobga qarab: "Bobo, omonatimni bering", – debdi. "Ey valiy, sen buni qaydin bilursan?" – so'radi Arslonbob. "Olloh bildirdi", – deb javob berdi bola. Omonatni topshirgan Arslonbob Olloh huzuriga rixlat qilgan ekanlar"	K
22.	Yassaviyning birinchi ma'nnaviy ustozi...	Arslonbob	K
23.	Yassaviy kimning da'vati bilan Buxoroga boradi?	Ustozi Arslonbobning	K
24.	Yassaviy qaysi tillarni o'rganadi?	Arab, fors tillarini	K
25.	Yassaviy hayotidagi eng muhim voqeа...	Mashhur mutasavvuf olim, shayx Yusuf Hamadoni bilan uchrashgani va unga murid tushgani	K

26.	"Xoja Ahmad Yassaviy – Turkiston multining shayx ul-mashoyixidir. Maqomati oliy va mashhur, karomoti matavoliy (hayratlanarli) va nomahsur (chegarasiz) ermish. Imom Yusuf Hamadoniyning as'habidindur (do'stidur)". Ahmad Yassaviyga berilgan yuqoridaagi ta'rif kimning qaysi asaridan olingan?	Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asaridan	10
27.	Yassaviy qaysi tariqatga asos soladi?	"Yassaviya tariqati"ga	K
28.	Yassaviy tariqati boshqa boshqa tariqatlardan qaysi jihatni bilan farqlanadi?	Ilk marta turkiy tilda talqin etilganligi, islom dini va uning muqaddas kitobi Qur'oni baland rutbada tutganligi, fors tilidagi tasavvuf tajribalaridan foydalanganligi, shuningdek, turkiy axloq, e'tiqod va ishonchni aks ettirganligi bilan boshqa tariqatlardan farq qiladi	K
29.	Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat"ida nimani targ'ib qiladi?	Shariat, tariqat, ma'rifikat, haqiqatni targ'ib qiladi	K, 10

### Tasavvufning bosqichlarini anglatuvchi quyidagi istilohlar qanday ma'nolarni anglatadi?

30.	Shariat	Islom dini qonun-qoidalari va urf-odatlari	K
31.	Tariqat	Tasavvuf maslagi	K
32.	Ma'rifikat	Ishqi ilohiy	K
33.	Haqiqat	Oolloh va unga erishmoq	K
34.	Ahmad Yassaviyning fikricha, haqiqat qayerda bo'ladi?	Haqiqat – qalbda. Qalb esa O'llohning mulki	K
35.	Shoir insondagi qanday xislatni muqaddas deb biladi?	Ruhiy boylikni	K
36.	Illatlar ichida eng xavflisi shoir uchun nima?	Nafs: Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi, Termultirib xaloyiqg'a zor ayladi	K, 10

37.	Rivoyatlarga ko'ra, Yassaviy 63 yoshdan keyin qayerda yashagan?	Yer ostiga hujra qurdiradi va o'sha yerda yashab, yana shuncha yil umr ko'radi	K
38.	"Bismilloh deb bayon aylab hikmat aytib..." misralari bilan boshlanuvchi hikmatning bandlaridagi radif...	"Mano"	K
39.	Zamirida katta yashirin ma'no jamlan- gan, o'ta donishmandlik bilan bitilgan va nazmiy tartibga solingan, ifodasi hamda o'qitish ohangi bilan xalq og'za- ki ijodiga yaqin bo'lgan she'riy asar...	Hikmatlar	K
40.	Hikmatlarda qaysi timsollarning qarashlari ifoda etiladi?	Bir o'rinda <b>orif</b> nomidan, ikkinchi bir shaklda <b>oshiq</b> tilidan, uchinchi bir holatda <b>shayx</b> da'vati tarzida, yana bir o'rinda <b>donishmand</b> g'oyalari sifatida, bir joyda <b>darvesh</b> qarashlari shaklida yangraydi	K

### Hikmatlarda bayon etilishicha, lirk qahramon necha yoshligida quyidagi voqealarni boshidan kechirgan?

41.	... rahmat daryo to'lib-toshdi, Olloh dedim, shayton mendan yiroq qochdi	11 yoshligida	L
42.	... nafs-havoni qo'lga oldim, Nafs boshig'a yuz ming balo qamrab soldim	13 yoshligida	L
43.	Takabburni yerg'a urib bosib oldim	14 yoshligida	L
44.	... Hur-u g'ilmon qarshi keldi, Boshin egib, qo'l qovshurib, ta'zim qildi	15 yoshligida	L

### Quyidagi misralarni davom ettiring

45.	Beshak biling, bu dunyo...	Borchha eldin o'taro	L
46.	Inonmag'il molingga...	Bir kun qo'ldin ketaro	L
47.	Ota-onas, qarindosh...	Qayon ketti, fikr qil	L
48.	To'rt ayog'li cho'bin ot...	Bir kun sanga yetaro	L
49.	Dunyo uchun g'am yema...	Haqdin o'zgani dema	L
50.	Kishi molini yema...	Sirot uzra tutaro	L

51.	Ahli ayol, qarindosh...	Hech kim bo'lmaydur yo'ldosh	L
52.	Mardona bo'l g'arib bosh...	Umring yeldek o'taro	L
53.	Qul Xoja Ahmad toat qil...	Umring bilmom necha yil	L
54.	Asling bilsang, obi gil...	Yana gilga ketaro	L
55.	Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lur...	Yo'ldan ozib, toyib, to'zib rasvo bo'lur	10
56.	Yotsa, qo'psa shayton bilan hamroh bo'lur...	Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor	10

### Quyidagi so'zlarni izohlang

57.	cho'bin ot	bu yerda: tobut	I
58.	gil	tuproq	I
59.	nafs	yemak-ichmak, mol-mulkka xirs qo'yish	k
60.	lomakon	zamon va makondan tashqari, makonsiz, ya'ni xudoning huzuri	k
61.	bob, bobo	ulug' mashoyix, shayx, pir, valiy	k
62.	daftari soniy	ikkinchi daftar	k
63.	diydot talab	xudo diydotini ko'rishga talabgor	k
64.	rang	tomir	k
65.	faqir	musofir odam, sirdosh, maslakdosh topmagan, o'zini begona his etgan kishi, haqparast darvesh	k
66.	habib	do'st. Bu yerda: Xudo	I
67.	karib	yaqinlashgan	k
68.	aqbo	dovon, qiyinchilik	k
69.	mustafo	tanlangan	k
70.	kohil	yalqov	k
71.	"oxiratni sav-do qildi" jum-lasidagi sav-do so'zining ma'nosi...	savdo so'zi bu yerda ikki ma'noda kelgan: a) sotib olish, ya'ni dunyoni oxiratga almashtirdi; b) shaydo, devona bo'lib sevish	I

72.	Fir'avn	qadimgi misr podshohlarining umumiy nomi, dunyoga mehr qo'yib, xudoni esdan chiqargan shoh <b>timsoli</b>	
73.	Qorun	behisob boylik jamlagan xasis boy, xasisligidan uni yer yutgan	
74.	Ayyub	payg'ambarlardan biri, badanini yara bosib, qurtlagan bo'lsa-da, chidagan va Xudoning inoyati bilan tuzalgan, <b>sabr timsoli</b>	
75.	Muso	yahudiy payg'ambarlardan biri, Xudo bilan so'zlashgani uchun uni "kalimulloh" deb ham ataydilar	
76.	Zikriyo	Zakariyo – payg'ambarlardan biri, kofirlar zulmidan qochib, daraxt ichiga yashiringan, kofirlar daraxt bilan birga uni arralaganlarida ham Xudoni tilidan qo'ymagan	
77.	nosih	nasihatgo'y	
78.	zikr	xotirlamoq, tilga chiqarmoq, Xudoning nomi tilga olinadigan duo	
79.	hoy-u havas	ehtiros, aqlni yo'qotish	
80.	moumonlik	xudbinlik, takabburlik	
81.	shokir	shukr etuvchi	
82.	yabon qushi	sahro qushi, yovvoyi qush	
83.	sano	maqtov	
84.	nori saqar	do'zax olovi	
85.	rafiq	do'st, birodar	
86.	zangor	zang, g'ubor	
87.	yitmoq	bitmoq, yo'qolmoq	
88.	uluq	ulug'	
89.	laqa	laqqa	
90.	shikva	shikoyat	
91.	xo'blar	yaxshilar	
92.	duto	bukilgan, egilgan	
93.	badkirdor	yomon ishlar qiluvchi, axloqsiz	

94.	g'orat	talon, barbod bermoq	
95.	murdor	nopok, harom	
96.	marham	yaraga qo'yiladigan dori, malham	
97.	tolib	talab qiluvchi, izlovchi	
98.	muqir	iqror bo'lmoq, bo'yniga olmoq	10
99.	irdi	eridi	10
100.	yozuq	gunoh, ayb, xato	10

### NAJMIDDIN KUBRO (1145 – 1221)

1.	"Muazzam Sharqning ilm-u donishi, ma'naviyatini qancha ko'p va xo'b o'zlashtirsak, fikrimiz shuncha ravshan, ruhimiz shuncha bardam bo'ladi". Ushbu fikrlar muallifi...	Najmuddin Komil	K
2.	Faqat kitoblardagi bilimlarni takrorlaydigan olimlardan farq qilib, olamga boshqacha qaraydigan, erkin, ozod mushohada etadigan, mohiyatni teran idrok etib, buni odamlarga yetkaza oladigan darajaga erishgan olim...	Najmuddin Kubro	K
3.	Najmuddin Kubro qachon qayerda tug'ilgan?	1145-yil Xiva yaqinidagi Sayot qishlog'ida tug'ilgan	K
4.	Nima sababdan Najmuddinga "Kubro" deb ism berilgan?	O'z zamonasi ilm-u urfonida Najmuddin Kubroga teng keladigan birorta olim bo'limgan. Shu bois ham unga "Kubro" deb ism berilgan	K
5.	"Alarg'a kubro ondin laqab bo'ldiki, har kim bila munozara va mubohasa qilsalar ermish, ul kishi g'olib bo'lurlar ermish". Ushbu fikrlar kimning qaysi asaridan olingan?	Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asaridan	K

6.	Kubroning yana qanday nom va laqablari bor?	"Valiytarosh", "Tummatul kubro", "Abuljannob"	K
----	---	---	---

### Quyidagi so'zlarni izohlang

7.	Valiytarosh	Valiylar yetishtiruvchi	K
8.	Tummatul kubro	Balo-qazolarning oldini oluvchi, buyuk bashoratchi	K
9.	Abuljannob	Parhez qiluvchi, dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turuvchi	K
10.	Najmuddin Kubro qanday bilimlarni o'rGANADI?	Dunyoviy bilimlarda yuqori martabaga erishgach, botiniy bilim, g'ayb asrorini o'rGANISHGA kirishadi. Bu nihoyatda mashaqqatli yo'l bo'lib, Najmuddin Kubro bu og'ir sinovlarni ustozlari rahnamoligida yengib o'tdi	K
11.	Xorazmshoh Najmuddin Kubroning qaysi shogirdini qatl ettiradi?	Majididdin Bag'dodiyni	K
12.	"Najmuddin Kubro shogirdlariga qarab: "Endi yurtingizga boring. Sharqdan fitna olovi kelmoqda, ko'p o'tmay u hamma yoqni kuydirib kul qiladi", – deydi. Shogirdlari: "Ustod, duo qiling, bu ofat musulmon olamidan daf bo'lsin...". Hazrat: "...Uni duo bilan qaytarib bo'lmaydi". Shogirdlari: "Unday bo'lsa, sizni ham olib ketaylik". Ustoz: "Men bu jangda shahid bo'laman, menga kindik qonim to'kilgan tuproqni, Xorazmni tark etishga ruxsat yo'q", – deydi". Ushbu parcha kimning qaysi asaridan olingan?	Abdu-rahmon Jomiyning "Nafohot ul-uns" asaridan	K
13.	Najmuddin Kubro bashorat qilgan ofat nima edi?	Gullagan o'lkani vay-ronaga aylantirgan mo'g'ul bosqini	K

14.	Qaysi shafqatsiz xoqon Najmaddin Kubroga o'z yaqinlari bilan shahardan tash-qariga chiqib ketishga ruxsat beradi?	Chingiz-xon	K
15.	Najmaddin Kubro Chingizxonning marhamatini qabul qiladimi?	Shayx bu marhamatni rad etadi. Xorazmshoh tashlab qochgan vatan himoyasiga qilich ko'tarib, shohdan marhamat ko'rмаган pok iymonlilarga bosh bo'lib 76 yoshli Najmaddin Kubro chiqadi	K
16.	Najmaddin Kubro qanday jasorat ko'rsatadi?	Najmaddin Kubro boshchiligidagi jang-chilar bir necha kun Urganch qal'asini dushmanidan saqlab turadilar. Alisher Navoiyning yozishicha, Najmaddin Kubro bir hamlada dushmanning bayrog'ini tortib olgan va o'lganidan keyin ham uni qo'lidan bo'shatmagan. O'n nafar yog'iy harchand urinib bayroqni ololmaganlar. Shunda shahid shayxning barmoqlarini bittalab chopganlar	K
17.	Najmaddin Kubro ulkan olim sifatida nimani o'rgangan?	Kishi ruhiyati, ruhiy xislatlarini chuqr tahlil qilgan. U insонning nozik holatlarini, ruhiy kechinmalarini puxta o'rgangan	K
18.	Najmaddin Kubro nimani kashf etgan?	Inson ruhi ko'zga ko'rmas, latif markazlardan iborat ekanligini kashf etgan, ya'ni "Latoyif nazariyasi"ni ishlab chiqqan	K
19.	"Latoyif nazariyasi" nima?	Bu ong va tuyg'u, ruh va jism o'rtasidagi nafis bir narsa. U shunday nozikki, uni ilg'ash nihoyatda mushkul	K
20.	Inson ruhi bilan bog'liq bu nozik manzaralar G'arb falsafasida qachon o'r-ganilgan?	XIX asriga kelib o'rganilgan (Kafka, Shopengauer, Freyd) bo'lsa, inson qobiliyatining bu mo'jizalari Sharq allomalari tomonidan necha asrlar oldin bayon etib qo'yilgan	K

21.	Najmuddin Kubroning asarlariga misol keltiriting	"Al usul al-ashara" ("O'n usul"), "Risolai Najmuddin"...	K
22.	"Al usul al-ashara" ("O'n usul"), "Risolai Najmuddin" asarlarida shoir o'quvchini nimaga chaqiradi?	O'z-o'zi bilan kurashish, gunoh ishlarni qilmaslik, gunoh lazzatini totgan nafsga mag'lubiyat alamini tottirish, nafsni yengishga va sabr-qanoatli bo'lishga chaqiradi	K
23.	"Bir dev bor ichimda, asti pinhon bo'lmas, Boshini egmak oning oson bo'lmas", misralaridagi dev so'zining ma'nosi...	Nefs	K
24.	Quyidagi misrani davom ettiring. "Ishq dardi g'arib tanimdagijon bo'lg'ay..."	"Dard cheksa kishi axiyri inson bo'lg'ay"	K
25.	Najmuddin Kubro ruboilarini o'zbek tiliga qaysi shoir o'girgan?	Iste'dodli shoir Jamol Kamol	K
26.	"Yo'lingda samar hadis afsona emish, Ko'yingda kezib el bari devona emish, Savdoying ila men kabi ming dilso'xta Ka'ba sarimas, azimi butxona emish". Ushbu ruboyning oxirgi misrasini tahlil qiling	Bu o'rinda ishq dardida o'zligini unutib, butxonada (cherkovda) go'lahlik qilgan shayx San'on nazarda tutilmoxda	K
27.	"Har sabzaki suv yaqosida yuz ochmish, Bir ruhi farishtadir, magar ko'z ochmish" misralarini sharhlang	Suv yoqasida yuz ochmish har qanday sabzaga (o'simlikka) farishtaning ruhi deb qaralgan	K

**Quyidagi so‘zlarni izohlang**

28.	sard	sovuuq	k
29.	diyonat	vijdon, vijdonlilik, insof	k
30.	olamoroy	olam aro	k
31.	tamanno	istash, xohish, orzu	k

**JALOLIDDIN RUMIY (1207 – 1273)**

1.	Ota-bobolari asli xorazmlik, tug'ilishidan ruhiy quvvat sohibi bo'lgan valiy...	Jaloliddin Rumiy	K
2.	“Mavlono Muhammad Jaloliddin Rumiy olti yoshida ekanida uylarining tomida o‘z tengqurlari bilan o‘ynab yurardi. Tengqurlardan biri unga: “Keling, birga tomdan sakraymiz”, – deydi. “Bu – it va mushuklarning ishidir. Agar sizning joningizda quvvate bo‘lsa, osmon tomiga sekreli...” – deydi va shu holatda tomdan havoga ko‘tarilib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Bolalar iztirobdan qichqirishib, yig‘lab qoladilar. Bir lahzadan keyin Jaloliddin Muhammad o’sha tomga tushadi va deydi: “Men siziarga u so‘zlar ni aytib turganimda yashil kistvatlig‘lar (yashil kiyimli farishtalar) meni osmonga eltdilar, ajoyib malaklarni ko‘rsatdilar, sizlarning yig‘i-faryodingiz ko‘kka chiqqach, yana olib tushib qo‘ydilar”. Jaloliddin Rumiy haqidagi ushbu voqeя kimning qaysi asaridan olingan?”	Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridan	K
3.	Jaloliddin Rumiy qayerda tug‘ilgan?	Balxda	K
4.	“Sulton ul-ulamo” darajasiga erishgan olim...	Jaloliddin Rumiyning otasi	K

5.	Jaloliddin Rumiyning otasi haqida ma'lumot bering	Uning otasi – Muhammad Bahouddin Valad zamonasining mashhur kishisi, notiq, voiz (va'zzon). U Najmuddin Kubroning yaqin shogirdlaridan bo'lgan. Mavqeyi baland bo'lgan Muhammad Bahouddin Valad xorazmshoh bilan munosabati buzilgach, oilasi, yaqinlarini olib Balxdan Bag'dodga ko'chib ketadi	K
6.	Uzoq safarlardan so'ng Jaloliddin Rumiy qayerda ya-shaydi va nima ish bilan shug'ulanadi?	Otasi bilan Xuroson, Hijoz, Bag'dod, Shomga qilgan safarlaridan so'ng Mavlono Jaloliddin Ko'niyoda (Turkiyada) qo'nim topadi. Jaloliddin Rumiy otasi vafotidan so'ng uning o'mniga madrasaga bosh mudarris bo'lib tayinlanadi. Shu madrasada fiqh (diniy huquqlar) ilmidan dars bera boshlaydi. U o'qigan va'zlar shuhrati keng tarqaladi	K
7.	Mavlono Rumiy nimaga qarshi kurashgan?	Mavlono Rumiy irqi, tili va diniy mazhabidan qat'i nazar, insonlar tengligini tashviq etgan. U diniy aqidalarga, fikr va tuyg'ularni zanjirband etuvchi urflarga qarshi kurashgan	K
8.	Nima uchun Jaloliddin o'ziga Rumiy taxallusini tanladi?	Jaloliddin ota yurtiga qaytmadi, o'zini anatoliyalik hisoblab, Rumiy (turkiyalik) taxallusini oladi	K
9.	Jaloliddin Rumiyning musulmon olamida mashhur asari...	"Masnaviy"	K
10.	Jaloliddin Rumiyning she'riy devoni...	"Devoni kabir" ("Ulug' devon")	K
11.	"Devoni kabir"da qanday janrlarda bitilgan she'rlar mavjud?	G'azal, masnaviy, ruboiy	K

12.	"Devoni kabir"dagi she'rlarning miqdori...	Uch mingdan ziyod	K
13.	Rumiyning musulmon olamidagi mashhur asari...	"Masnaviy"	K
14.	"Masnaviy" asari necha misradan iborat?	31 000 misradan ortiq	K
15.	"Masnaviy" asarini shoir necha misrasini o'z qo'lli bilan yozgan?	Atigi o'n sakkiz misrasini, qolganlari "kotibi asror"lar tomonidan ko'chada, uyda, majlisi samoda yozib olingan	K
16.	"Masnaviy"-ning yagona nizomi...	Erkinlik. Asar oldindan o'ylangan rejaga ega emas. Fikr, ruh erkin, ifoda erkin, holat-kayfiyat erkin	K
17.	"Masnaviy" asarini avlodlar qanday nomladi?	"Forsiy Qur'on" deb	K
18.	"Masnaviy" – qanday asar?	Olamni egallahga va o'z-o'zini anglashga intilgan inson ruhining taronasi	K
19.	Kimlar "masnaviyxon" nomini olgan?	Asar yozilib, nihoyasiga yetishi bilan uni yodlashga kirishilgan, uni yod bilganlar "masnaviyxon" nomini olgan	K
20.	"Masnaviy" asosida qanday asarlar bitilgan?	O'nlab to'plamlar, arab, fors, turk tillarida yuzlab jild tahlil va talqinlar bitilgan	K
21.	Rumiy "Masnaviy" asaridagi murakkab falsafiy muhokama va mushohadalarni qaysi asarida ravshan va sodda shaklda tushuntirib bergen?	"Ichingdag'i ichingdadir" asarida. Gegel, Kant, Shopengauer, Freydlar falsafasi bilan tanish odam "Ichingdag'i ichingdadir"ni o'qisa, hammasi Sharqda alla-qachon aytib qo'yilgan ekanligiga ishonch hosil qilishi tabiiy	K

22.	Rumiy ruboiylarida qanday tuyg'ular bayon etilgan?	Uning ruboiylari nafaqat falsafiy qarashlarni, balki samimiy his-tuyg'ularni bayon etadi, kishining ko'nglini go'zallikka oshno qiladi. U insonni o'ziga tanishtiradi	K
23.	Jaloliddin Rumiy muhabbatni qanday talqin etadi?	Jaloliddin uchun muhabbat – butun borliqni harakatga keltiruvchi kuch edi. Uning fikricha, don ham, maysa ham, jonivor ham seva oladi. Lekin faqat tana va terisi bilan. Insongina ham jismi, ham aql-idroki, ham xayoli, ham xotirasi ila sevishga qodir	K
24.	Jaloliddin Rumiy ruboiylaridan biri ni aytинг	Sendanmu chu bezor bo'layin? Yo'q, yo'q, yo'q! Bir boshqasiga yor bo'layin? Yo'q, yo'q, yo'q! To bog'i visolingda faqat gul ko'rdim, Guldin kechibon, xor bo'layin? Yo'q, yo'q, yo'q!	K

### Ruboiyning jumlalarini davom ettiring

25.	Ey do'sti azizilarim...	Judolik etmang	K
26.	Ko'p hoy-u havas birla...	Xatolik etmang	K
27.	Bir jumlada so'zlar kabi...	Mardona turing	K
28.	Amr o'ldi vafoki...	Bevafolik etmang	K
29.	Jaloliddin Rumiy ruboiylarini o'zbek tiliga tarjima qilgan shoir...	Jamol Kamol	K

**NOSIRIDDIN RABG'UZIY  
(XIII ASRNING OXIRI XIV ASRNING BOSHLARI)**

1.	Rabg'uziyning asl ismi...	Nosiriddin	9, 11
2.	Rabg'uziyning tug'ilgan joyi...	Xorazmning Raboti O'g'uz dəgan joyi	9, 11
3.	Rabg'uziy yashagan davri...	XIII asrning oxiri XIV asrning boshlari	9, 11
4.	Otasi haqida ma'lumot...	Otasi Burhoniddin O'g'uz Rabotining qozisi, yetuk ulamo va din arbobi bo'lgan	9, 11
5.	Nosiriddin Rabg'uziy qaysi sohalarda yetuk deb tan olingan?	Taniqli tarixchi, yetuk shoir va iste'dodli tarjimon	9
6.	O'zbek prozasida ilk marotaba dialoglar qaysi adib tomonidan keng qo'llangan?	Rabg'uziy tomonidan	11
7.	Bahor vasfiga bag'ishlangan birinchi o'zbek g'azali...	"Kun hamalg'a kirdi ersa..." (Rabg'uziy)	11

**“Qissasi Rabg'uziy”**

8.	Rabg'uziyning odam va olamning yaratilishi, insonning yo'ldan ozishi va komillik sari mashaqqatli hamda uzoq yo'l bosib, borayotganligi haqida g'oyat mantiqli va qiziqarli tarzda hikoya qiluvchi asari...	“Qissasi Rabg'uziy” (“Qissas ul-anbiyoyi turkiy”)	9
9.	“Qissasi Rabg'uziy” qachon yaratilgan?	1309-1310 (hijriy 709-yilda)	9
10.	“Qissasi Rabg'uziy”da asosan qanday mavzu hikoya qilinadi?	Payg'ambarlar hayoti	9, 11

11.	"Qissas ul-anbiyo" (Payg'ambarlar qissasi) nomi bilan mashhur ko'plab asarlar yaratilgan. Lekin asarda yozilishicha, ularning ba'zisi mustaqim (to'g'ri, haqiqiy) bor, ba'zisi nomustaqim. Bir onchasi muqarrar (puxta, tugal) va bir onchasi mubattar (notugal) bor. Shuning uchun ham Rabg'uziyidan "o'qimoqg'a keraklik, o'rjanmakka yarog'liq" payg'ambarlar qissalaridan iborat asar yozib berishni iltimos qilgan bek kim?	Musulmon dinini qabul qilgan e'tiborlibeklardan Nosiriddin To'qbug'a	9, 11
12.	Rabg'uziyning asari qanday nomlar bilan shuhrat topdi?	"Qissasi Rabg'uziy", "Qissas ul-anbiyoi turkiy"	9
13.	Rabg'uziy asarinining avval yozilgan payg'ambarlar hayoti haqidagi hikoyalardan farqli tomoni...	Birinchidan, adib o'zigacha yaratilgan payg'ambarlar haqidagi qissalarni puxta o'rgandi, ularning yutuqlarini umumlashtirdi, rivojlantirdi. Ikkinchidan, salaflari yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatdi, xato va chalkashliklarga barham berdi. Uchinchidan, oldinlari nabiylar haqidagi qissalar arab va fors tillarida yozilgan bo'lsa, Rabg'uziyning turkiy tilda bitilgan qissalari turkiy xalqlarning bebahma'naviy mulkiga aylandi	9
14.	"Qissasi Rabg'uziy"da "... yigitlar ariq (pok)i, ulug' otli, qutlug' zotli, ezgu xulqli, islom yorug'liq, mo'g'ul sanog'liq, musulmon dinli, odamiylar ishonchi, mo'minlar quvonchi, himmati adiz (yuksak), aqli tengsiz bek" deya kim ta'riflangan?	Nosiriddin To'qbug'abek	L, 11
15.	O'zbek nasrining eng qadimiy namunalaridan biri...	"Qissasi Rabg'uziy"	L

16.	Qissalar asosini qanday voqealar tashkil qiladi?	Tarixiy-ilohiy voqealar, ular "Qur'on" va "Hadis"larga, xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi	L, 11
17.	Qissalar kimlar haqida?	Payg'ambarlar haqida	L
18.	Asar nechta qissadan iborat?	72 ta bob (qissa)	L, 11
19.	Qissalarda qaysi payg'ambarlar bilan bog'liq voqealar bayon qilingan?	Nuh, Muso, Iso, Ya'qub, Sulaymon, Dovud, Muhammad payg'ambar va boshqalar	11
20.	Qissalarni qaysi siymo birlashtirib turadi?	Muhammad alayhissalom	9
21.	Qissada: Olloh taolo farishtalariga qarata "... man bilurmankim, Muhammad Mustafo alayhissalom Odam o'g'lonlaridan bo'lg'usi, bul jahonni, ul jahonni, oyni, kunni, qamug' narsalar ni aning sevukligi uchun yaratdim", – deb marhamat qiladi. Ushbu parcha "Qissasi Rabg'uziy"ning nechanchi qissasida yozilgan?	Dunyoning yaratilishi haqidagi birinchi qissada	9
22.	Qaysi payg'ambarlar bilan bog'liq qissalarda xalq og'zaki ijodining bevosita ta'siri ko'ri-nadi?	Sulaymon payg'ambar, Luqmon hakim, Dovud payg'ambar bilan bog'liq qissalarda (tasvirdagi mubolag'a, xayolot (fantastika)ning katta mavqeyi, sehrli hodisalar tavsifi, bayondagi ertakona ohang ana shu og'zaki ijod ta'sirida yuzaga kelgan)	11
23.	"Qissasi Rabg'uziy"ning oxirgi qissasi qaysi payg'ambar haqida?	Muhammad alayhissalom va u zotning oilasi, avlodlari haqida	9

24.	“Qissasi Rabg’uziy”-dan kelib chiqadigan g’oya...	Olamdagi butun mavjudot egasi bo’lgan Olloho ni ulug’laç’, payg’ambarlar hayotiga doir lavhalardan ibratli xulosa chiqarish, ota-onha va farzand muносабатларидаги mehr-oqibat; tinchlik, sevgi-sadoqat, vatan va vatanparvarlik, erk vaadolat, do’stlik va hamjihatlik, axloqiy poklik, ma’naviy barkamollikni, til va qalb pokligi ulug’lash	L
25.	Qissalarning hajmi...	Qissalarning hajmi turlicha. Masalan, “Qissayi Yusuf” salkam yuz sahifani tashkil qilsa, “Lut” haqidagi qissa bir necha sahifalardangina iborat	L
26.	Yusuf qissasida adabiy turning qaysi janrlari mavjud?	Bir necha hikoyat, latifa, bayt, g’azal va boshqa janr namunalari	11
27.	Xalq og’zaki ijodining asosan qaysi janriga xos xususiyatlari “Qissasi Rabg’uziy”ga ko’chadi?	Latifa	L
28.	Rabg’uziy asaridagi qissalarning boshlanishi haqida ma’lumot bering	Qissalarning ko’pi qahramon haqidagi muayyan xabar va she’riy madh bilan boshlanadi, shundan so’ng qissaning asosiy voqealariga o’tiladi	11
29.	“Ortug’ yaroqlig’ siyrati”, “arslon mengizlik savlati”, “ko’rklug sifatlig’ surati”, “tuz so’zlayur so’zni uqa” kabi sifatlar bilan qaysi bek ta’riflangan?	Nosiriddin To’qbu-g’abek	11
30.	Badiiy asarlarda qaysi payg’ambar go’zallik timsoli sifatida tasvirlangan?	Yusuf payg’ambar	
31.	Odam Ato va Momo Havo nima uchun jannatdan quvilgan?	Bug’doy mojarosi bilan (taqiqlangan o’simlikni yeishgan)	9

32.	Avval qil bo'lib, so'ng Misr hukmdori bo'lgan payg'ambar...	Yusuf payg'ambar (qa-hatchilik, ocharchilik tufayli Misr xalqi unga qil bo'lib qoladi)	9
33.	Tangri taolo o'z rasuliga qarab shunday xitob qiladi: "Ey ..., biz seni quliqqa solmasaq erdi, bu kun qullar qadirlar qayda bilgay erding". Nuqtalar o'rniغا tushirilgan ismni qo'ying	Yusuf payg'ambar	9
34.	Iblis kim, nima uchun la'lataldi, Olloh huzuridan quvildi?	Iblis – farishtalarga dars beruvchi ustoz (Azozil). U o'zini ulug' sanab kibrga botdi. (Odamdan o'zini ustun qo'ydi)	9
35.	"Ma'siyat (gunoh)dan yig'ilming, xalq orasida ko'ni (to'g'ri) hukm qiling, kuch qilmang, zino qilmang, qon to'kmang, xiyonat qilmang". Ushbu parcha qaysi asardan olingan?	"Qissasi Rabg'uziy"-dan	9
36.	Rum viloyati od'aticha bebosh tuyalarni qo'lga o'rgatish uchun qanday tadbir qo'llashgan?	Yangi tushgan kelinlarni keltirib, musiqa chaldirib, kuylatishgan, tuyalar ularning ovoziga xushlanib, o'zlarini unutadilar, qo'lga tushadilar	9
37.	"Xalq orasida rasm bor, do'st do'stga safar qilib, yonar (qaytar) bo'lsa, bir hadya ola borurlar". Ushbu parcha qaysi asardan olingan?	"Qissasi Rabg'uziy"-dan	9
38.	"Qissasi Rabg'uziy"-da tibbi-yotga oid qanday ma'lumot uchravdi?	"Savol: O'luk turgizmak mo'jizasi bo'l-g'ay, ammo ko'rnii taqi (yana) pesni o'tachilar o'nglaturlar (tabiblar tuzatadilar) dori birla. Iso duosi birla ne mo'jizasi mo'jiza bo'lur? Javob ul turur: Modarizod (onadan tug'ma) ko'zsuzni Iso duo birla	9

		o'nglatur erdi. Yana pes ikki turluk bo'lur, biriga davo yayar, biriga yaramas. Davo yaragan pes ul bo'lurkim, igna sanchsa qon chiqar. Davo yaramasg'a igna sanchsa qon chiqmas. Iso alayhis-salom andog' pesni yaxshi qiuur erdi"	
39.	Qissalar ichida qaysi tildagi she'rlar bor?	O'zbekcha va arabcha (Rabg'uziy zullisonayn shoir)	9
40.	Asarning ko'p o'rinalarda muallif fikrni dalillash uchun Qur'on oyatlari, payg'ambar hadislari va boshqa mo'tabar manbalardagi ma'lumotlarni qaysi tilda keltirgan?	Arab tilida	9
41.	Rabg'uziy qanday badiiy-tasviri vositalardan foydalangan?	Tashbeh, tanosub, tazod, tajnis, takrir, jonlantirish...	9
42.	Muallif ta'rif-tavsif o'rinalarda asosan qanday badiiy san'atdan foydalangan?	Saj (nasrdagi qofiya)dan	
43.	"... payg'ambar alayhissalom ul umri <u>ukush</u> , diydori <u>ko'shish</u> , Azroilg'a <u>qotishq'an</u> , rizvon birla <u>yanashq'an</u> , dunyodin qushtek <u>uchq'an</u> , tamug'g'a kirib <u>chigg'an</u> . Siroldin yashindek <u>kechaq'an</u> , uchmoh qabug'in <u>ochq'an</u> , o'zi aziz, o'rni adiz, arig' <u>zotlig'</u> , Axnuh <u>otlig'</u> Idris yalavoch". Parchada kim ta'riflangan, qanday badiiy san'at yetakchi?	Idris alayhissalom, saj	

**“Rasul alayhissalom vafoti so‘zlari”**

44.	Kunlardan bir kuni Rasul alayhissa-lom tong namozini o'tab, minbarda sahoalariga va'z va nasihat qildilar. U... keyin: <b>“Ey mo'minlar, menda biror kimning da'vesi va xusumati bormi?”</b> – deb uch marta aytdilar. Shunda payg'ambardan kim qasos tiladi?	Sahoba Ukosha	9
45.	<b>“Ey Ukosha, ul qamchini maning yuzimga, ko‘zimga urg‘il. Rasul alayhissalomning qutlug‘ taniga tegmasun”</b> , – degan qahramon...	Abu Bakr	9
46.	<b>“Meni urg‘il”</b> , – degan qahramonlar...	Umar, Usmon va Ali	9
47.	Sahoba Ukosha nima sababdan qasos tiladi?	Muhammad alayhissalomning yelkasidagi payg'ambarlik muhrini ko‘rish uchun (Ukosha payg'ambarni tuyadan tushirdi, kiyimini yechdirdi, lekin qamchi bilan savalamadi, balki muhrga sajda qildi, undan bo'sa oldi. Boshqa sahobalar xursand bo'ldilar)	9
48.	Sahoba Ukoshaning qasos tilash voqeasini keltirish orqali muallif payg'ambar (a.s) amal qilgan qanday hayotiy tamoyillarni ochib berdi?	1) adolat; 2) tenglik; 3) haqiqat	9
49.	<b>“Bugun diningizni sizlarga mukammal qilib berdim va tamom qilib berdim sizlarga ne'matimni va to'g'ri yo'l ko'rsatadigan din bo'lsin uchun islomni sizga ravo ko'rdirim”</b> . Ushbu xabar kimga kelgan?	Muhammad alayhissa-lomga (vahiy orqali)	9

50.	<p><b>“Bugun diningizni sizlarga mukammal qilib berdim va tamom qilib berdim sizlarga ne’matimni va to’g’ri yo’l ko’rsatadigan din bo’lsin uchun islomni sizga ravo ko’rdim”.</b></p> <p>Bu oyatni eshitib, ko’p sahabalar xursand bo’lishdi, lekin qaysi sahaba chuqur qayg’uga tushdi, nima sababdan?</p>	Abubakr Siddiq, Muhammad alayhissa-lomning insonlar orasidan ketadigan kuni yaqinlashib qol-gani uchun	9
51.	Bir kuni Rasul alayhissalom og’rib qolganlarida namoz o’quvchilarga qaysi sahaba imomlik qildi?	Abu Bakr (Fazl bilan Al Muhammad alayhissa-lomni qo’llaridan tutib masjidga olib borishdi, payg’ambar Abu Bakrga ergashib namoz o’qidi)	9
52.	Bir <b>arab</b> qiyofasidagi farishta Muhammad alayhissalomning qulog’iga shivirladi. Sahobalar: “ <b>Kim u, nima dedi?</b> ” – deb so’rashdi. Shunda payg’ambar qanday javob qildi?	U – Azroil – Malak ul-mavt – qarindoshim. Jabroil bilan birga turibdi. Menga aytdi: “Ummatlaringga salom ayt, bo’g’iz (nafs) uchun iymonni qo’ldan boy bermasinlar.. , gina, nafrat va g’azabdan yiroq tursinlar, dunyoga ko’ngil bog’lamasinlar. Yetimlarga shafqat qilsinlar. Yovuz do’stdan ayrilsinlar. Besh vaqt namozni kanda qilmasunlar...”	9
53.	<b>“Ey olamdagilarning chirog’i, sen bizga ota-onadan mushfiqroq eding. Xaloyiqni shariatga da’vat qilding, ummatga sunnat va farz o’rgatding. O’gsuzlarga otalik qilding, zaiflarga egilding,</b>	Muhammad alayhissa-lomga, tadrij san’ati	9

	<i>muhojirlarni tarbiyalading, odamlar va parilarni Ollohga undading.</i> <i>Yo'lsizlarga yo'l ko'rsatding,</i> <i>mag'rurlarni ko'ndirding. Shirk va fitna tig'ini yerga sanchding,</i> <i>olamni ilm bilan yoritding,</i> <i>Shaytonni adl bilan surding.</i> <i>Mo'jizalar ko'rsatding: oyni etak bilan yopding, qovurilgan baliqni darrov tilga keltirding, qutuq yog'ochga jon kiritding, mevasiz daraxtni duo bilan mevali qilding,</i> <i>ushoq toshni tasbehga keltirding,</i> <i>do'zaxga kiradiganlarni jannat yo'liga boshladning". Ushbu gaplarni sahobalar kimga aytadi? Bu parchada qanday badiiy san'at qo'llangan?</i>		
54.	<i>"Ey Azroil, bu kundan qiyomatgacha mening ummatlarimga jon bermak qattiqligi bor bo'lsa, u qattiqliklarni manga yuklagil, ummatlarimga bo'lmasin", – deb kim aytadi?</i>	Muhammad alayhissa-lom	9
55.	Muhammad alayhissalom bilan qaysi qarindoshlari vidolashdilar?	Oyishai Siddiqa raziyallohu anho, Fotima raziyalohu anho, Hasan va Huseyn raziyallohu anhumo, Jabroyil...	9
56.	Muhammad alayhissa-lomga qarata: "Ey yushmanqoq to'shakda yotmagan, ey tovar to'n kiymagan, ey arpa yemagan, to'q yurmagan", – deb kim yig'lar edi?	Muhammad alayhissalomning qizlari Fotima raziyallohu anho	9
57.	Muhammad alayhissalomga necha yoshida vahiy keldi?	40 yoshida	9

58.	Muhammad alayhissalom necha yoshlarida vafot etdilar?	63 yosh	9
59.	Muhammad alayhissalom haftanining qaysi kunida vafot etdilar?	Dushanba kunida	9

**Quyidagi parchalarda muallif qanday badiiy tasviriy vositalardan foydalangan?**

60.	<i>"Shaytonni, nafs-u havoni izarmasunlar"</i>	Tanosub	9
61.	<i>"Kun kelu og'rig'i ziyoda bo'ldi. Qizil mengizi sarg'ardi, chechaktek englari so'ldi. Jabroil xoja mengizlik bo'lub ustun turur. Azroil bir badaviy arabtek bo'lub kirib keldi"</i>	O'xshatish, sifatlash	9
62.	<i>"Hiqd va hasaddin iroq tursunlar"</i>	Alliteratsiya	9
63.	<i>"O'lumga anuq tursunlar, qiyomat ishin bitursunlar teyu turur"</i>	Tanosub	9
64.	<i>"...Shak va sharika insunlar"</i>	Alliteratsiya	9
65.	<i>"Qul kungni ezgu tutsunlar, darvishlarga rahm qilsunlar. O'gsuz-larga shafqat qilsunlar, qazg'ulug' munuglug'larqa bo'lushsunlar"</i>	Tanosub	9
66.	<i>"Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir". Ushbu fikrlar kimning qaysi asaridan olingan?</i>	Islom Kari-movning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridan	9

**Uzum hikoyati**

67.	Uzumning urug'ini kim o'g'irladi?	Shaytoni mal'un	L, 11
-----	-----------------------------------	-----------------	----------

68.	Shayton uzumning urug'i-ni qaytarib berish uchun qanday shart qo'ydi?	Uzumni uch marta sug'orishini Nuh alayhissalomga aytdi	L, 11
69.	Vaqtiki kemadan chiqdilalar, barcha urug'ni ekdilalar, shaytoni layin uzumni uch marta nimalarning qoni bilan sug'ordi?	Tulkining, sherning, to'ng'izning qoni bilan	L, 11
70.	Nima sababdan har kim uzumdan tayyorlangan sharobni ichsa, avval tulkidek ayyor, so'ng yo'lbarsdek himmatli, keyin to'ng'izdek vahshiy bo'lib ketadi?	Shayton uzumni tulki, yo'lbars, to'ng'iz qoni bilan sug'organi uchun	L, 11
71.	Shayton uzumni sug'organidan so'ng Nuh alayhissalom ikki marta uzumni sug'ordi. Bundan qanday natija bo'ldi?	Nuh alayhissalom uzumni behishti zanjabil va salsabil bilan sug'ordi. Behishti zanjabildan shinni paydo bo'ldi; salsabildan sirka (uksus) paydo bo'ldi	L, 11

### Yilon va qarlug'och hikoyati

72.	Nuh alayhissalom kemasida uch narsa yo'q edi. Bular...	Mushuk, sichqon, qo'ng'iz (bu uchchovi kemada paydo bo'ldi)	L, 11
73.	Kemani qaysi jonivor teshdi?	Sichqon teshdi, kemaga suv to'la boshladi	L, 11
74.	Mushuk qanday paydo bo'ldi? U qaysi jonivorni yedi?	Yo'lbarsning peshonasini silashgan edi mushuk paydo bo'ldi, u sichqonni tutib yedi	L, 11
75.	Suv to'layotgan kemaning teshigini qaysi jonivor yopdi? Evaziga qanday shart qo'ydi?	Ilon yopdi. Evaziga dunyodagi eng shirin go'shtni so'radi	L, 11

76.	Kema teshigini nima bilan yopdilar?	Mum bilan	L, 11
77.	Necha oy suv ichida yurdilar?	Olti oy	L, 11
78.	Ilonning shartini bajarish uchun Nuh alayhissalom dunyodagi eng shirin go'shtni aniqlashga qaysi jonivorni yubordi?	Arini	L, 11
79.	Ari odamning go'shtidan totlig' go'sht yo'q ekanligini aniqlab kelayotgan paytda yo'lidan qaysi qush chiqib qoldi?	Qaldirk'och	L, 11
80.	Qaldirk'och odamning go'shti shirin ekanligini bilgach qanday yo'l tutdi?	<i>"Tilingni chiqar, men ham totib ko'ray"</i> , – deb, arining tilini uzib oldi	L
81.	Nima sababdan Nuh alayhissalom ilonga baqani yeishni buyurdi?	Ari Nuh alayhissalom va ilonning oldiga kelib, g'ing'llab, qaldirk'ochga qaradi. Qaldirk'och aytdiki: – Biyobonda menga uchrab: "Baqaning go'shtidan totlig' narsa yo'q ekan", – deb so'zladi	L, 11
82.	Qaldirk'och kimga do'st, nimaga dushman bo'lib qoldi?	Ilon qaldirk'och nimanidir yashirayotganini bilib, unga dushman bo'lib qoldi. Qaldirk'och odamga do'st bo'lib, bir uyda yashay boshladi	L, 11
83.	"Yilon va qarlug'och" hikoyatidagi voqealar qayerda sodir bo'ladi?	Nuh alahissalomning kemasida	11

### Namrud hikoyasi

84.	Namrud nima sababdan yirtqich qushning to'rtta bolasini tarbiyalay boshladi.	Namrud butlarga sig'indigan kofir hukmdor edi. U Ibrohim alayhissalomning tangrisi – Olloh bilan jang qilish uchun qush bolalarini boqdi	L
85.	Namrud qanday qilib osmonga uchdi va bu uchishidan maqsad nima edi?	Ikki qopqoqlik sandiq yasatdi. Yuqoriga go'sht bog'ladi. Sandiq ichiga xizmatkorlari bilan Namrud joylashdi. Qushlar ni sandiq atrofiga bog'ladi. Go'shtga talpingan och-nahor qushlar sandiq bilan birga havoga ko'tarildi. Ko'kka yuqorilagach, Namrud kamondan osmonga qarata o'q otdi. Shunda Jabroil alayhissalomga farmon bo'ldi. Farmonga ko'ra, o'jni olib, baliqqa sanchishdi, qonga belangan o'jni sandiqqa tashlashdi. Namrud: "Osmon tangrisini o'ldirdim", – deb xursand bo'ldi	L
86.	Ibrohim alayhissalom o'ziga kelgan farmonga ko'ra Namrudga nima qilishini aytdi?	Ibrohim alayhissalom Namrudga jang qilishga hozirlik ko'rishini, qo'shin to'plashini aytdi	
87.	Namrudning son-sanog'i yo'q qo'shini bilan Olloh tomonidan qanday qo'shin jang qildi?	Sovut kiygan qo'shincharga qarshi chivinlar jang qilishdi	
88.	Jangning yakuni...	Chivinlar g'alaba qozonishdi. Namrudning burni orqali miyasiga kirib oldi. Olloh Namrudga to'rt yuz yil umr berdi, to'rt yuz yil miyasini chivin yemirdi	
89.	Namrud o'zini Tangriman derdi. Odamlar uni nima sababdan: "Qanday qilib Tangrilikka yarasin?" – deyishardi?	Sababi: kim oldiga kirsa, Namrud o'zini urishni, boshiga mushtlashni, to'qmoqlashni buyurardi	

90.	Namrud qanday halok bo'ldi?	Bir pahlavon xizmatchi Namrudning boshini urib, yorib o'ldirdi	
-----	-----------------------------	--	--

### Sulaymon va chumoli

91.	Sulaymon payg'ambarga Ollohnimani xizmatkor qilib bergen edi?	Shamolni (Sulaymon payg'ambar oltin va kumush-dan taxt yasab, o'zi sevgan hayvonlarini olib, osmonda sayr qilib yurar edi)	L, 11
92.	Sayr qilib yurgan Sulaymon nima sababdan chumolining oldiga tushdi?	Chumoli mo'rchalarga: "Nobud bo'lasizlar, yerning ostiga kiring, Sulaymonning lashkari kelyapti", – degan ovozini eshitib	L, 11
93.	Chumolining ismi...	Manzara (u oqsoq edi)	L, 11

### Quyidagi Sulaymonning savollariga Manzara qanday javob berdi?

94.	– Nima uchun mo'rchalarни qochirding?	– Siz hammaga podshohsiz. Men o'z qavmimga podshohman. Menga qirq tabaqa yer berilgan. Har tabaqada qirq ming firqa, har firqada qirq ming chumoli bor. Sizning lashkaringiz orasida poymol bo'lsa, uvoli menga bo'lur	L, 11
95.	– Hammasingi qochirib, o'zing nega qochmading?	– Men ularning kattasidirman. Ulug'lar raiyatga (xalqqa) mehribon bo'lur. Baloga ulug'lar o'zlarini ro'baro' qilib, kichiklarni xalos qilsa, yaxshidir.	L, 11
96.	– Qayerdan ta'lif olgansan?	– Hamma ilm o'zimda deb xayol qilurmisiz. Agar ruxsat bo'lsa, bir necha masala so'rasam?	L, 11
97.	– Qanday savolning bo'lsa, so'ragin.	– Haq taolodan nima talab qildingiz?	L, 11

98.	– Bir mulk tiladimki, unday mulk hech kimga berilmagan bo'lsin. Ollohamenga shamolni xizmatkor qilib berdi	– Baxil ekansiz	L, 11
99.	Chumoli shamolni nimaga o'xshatdi?	Umrni yeldek o'tishiga, yelda vujud bo'lmashligiga, hamma ish foniyligiga	L, 11
100.	Sulaymonning uzugini nimaga o'xshatdi?	Dunyo – boylik – bu bir tosh ekan, demak, unga ko'ngil bog'lamaslik kerak	L, 11
101.	Manzara Sulaymondan: "Qorong'u kechalarda sizga mute bo'lgan xalqning holidan xabardormisiz?" – deb so'raganida, Sulaymon: "Yo'q", – deb javob berdi. Manzara esa...	"Men bu zaif holim bilan har kecha uxmlamay, hamma lashkarimning atrofini aylanib, agar bemori bo'lsa, borib ko'rib, sihatligiga munojot qilurman (yolvorurman)"	L, 11
102.	Hazrat Sulaymon Manzaraning gaplaridan so'ng qanday xulosa chiqardi?	"Ilohi, man o'zumni dono biliib yurur erdim. Manim bilganim bu mo'rchaning oldida hech nimarsa ekan", – deb tavba qildilar	L, 11

### Dovud payg'ambar haqida

103.	Dovud yalovoch (payg'ambar) qayerlik edi?	Isroildan	11
104.	Dovud payg'ambarning otalari haqida ma'lumot bering	Otalari Is'hoq otlig'	11
105.	Dovud payg'ambar juda adolatli podshoh edi. U kishilar molini yemaslik uchun qanday hunar o'rgandi?	Temirchilikni "Aymishlar, temir Dovud ilkinda mo'mtek yumshar edi, netakkim xamir o'zgalar ilkinda	11
106.	Sulaymon Dovud payg'ambarning nechanchi o'g'li?	O'n ikkinchi, kenja o'g'li	11

107.	Dovud payg'ambarning podshohligi kimga meros qolgan?	Sulaymon payg'ambarga	11
108.	Sulaymon qaysi kasbni oliy darajaga yetkazdi?	Temirchilik kasbini	11

**Luqmon va uning xojasi**

109.	Luqmonga xojasi: "Borgil, bir qo'y bo'g'izlab, etindin qayu yaxshiroq ersa, manga kelturgil", – dedi. Luqmon qanday et keltirdi?	Qo'yning tili bilan yuragini olib keldi	11
110.	Xojasi Luqmondan so'radi: "Bularni naluk (nima uchun) olib kelturding?	"Tildin, yurakdin yaxshiroq yo'q, agar yovuz ersa, tildin, yurakdin yovuzroq yo'q"	11

**"Kun hamalg'a kirdi..." g'azali**

111.	G'azalning birinchi baytini ayting	"Kun hamalg'a kirdi ersa keldi olam navro'zi, Kechdi bahman zamharir qish, qolmadni qori, buzi"	11
112.	G'azal qofiyalari...	Navro'zi, buzi, yuzi, yozi, tuzi, qo'y-qo'zi, juzi, qo'zi, qunduzi, tun-kunduzi, yulduzi	11
113.	G'azal qaysi vaznda yozilgan?	Aruzning ramaili musammani mahzuf vaznida yozilgan (foilotun, foilotun, foilotun, foilun tarzida: - v - - - v - - - v - - - v - )	11
114.	G'azalda bahor va qishga nisbatan qanday sifatlashlar qo'llangan?	Bahorga nisbatan "olam navro'zi", qishga nisbatan bahman (ayoz, qahraton, izg'irin), zamharir (qirovli, qahraton qattiq sovuq) so'zlari	11

115.	G'azalda qaysi qush-u parrandalar nomi keltirilgan?	Sanduvach (bulbul), tur-na, qug'u (oqqush), qoz (g'oz), qil (qilquyruq), qar-lug'och, to'ti, qumri, bulbul	11
116.	G'azalda qaysi hayvon-jonivorlar nomi uchraydi?	Os (oq suvsar), tiyin (olma-xon), qunduz, qo'y-qo'zi	11
117.	O'zbek adabiyotida maqta'da taxallusni qo'llash ilk bor qaysi shoir ijodida uchraydi?	Rabg'uziy ijodida	

### Quyidagi so'zlarni izohlang

118.	hamal	Quyosh yili hisobida birinchi oy nomi. Hozirgi mart oyiga to'g'ri keladi. Qo'y burjining arabcha nomi. U "Qutadg'u bilig"da qo'zi burji sifatida tilga olingan	11
119.	bahman	Quyosh yili hisobida o'n birinchi oy nomi. Hozirgi 22-yanvar – 21-fevralga to'g'ri keladi	11
120.	zamharir	sovuuq, qahraton	11
121.	badiz	shakl, surat, rasm	11
122.	badizlamoq	rasm solmoq, rasm chizmoq	11
123.	o'rلamoq	y' noq, yuqoriga ko'tarilmoq	11
124.	gulchiramoq	gul ochmoq	11
125.	yig'ach	daraxt	11
126.	sag'roq	idish, jom	11
127.	usrumak	mast bo'lmoq, sarxush bo'lmoq	11
128.	sanduvach	bulbul	11
129.	baqlan	to'qli, yosh qo'zi	11
130.	qug'u	oqqush	11
131.	qil	qilquyruq	11
132.	os	oqsuvsar	11
133.	tiyin	olmaxon	11
134.	kish	olmaxonning bir turi	11

135.	muqri	qiroat qiluvchi, qori	11
136.	huri ayn	oq yuzli, qora sochli, qora ko'zli go'zal qiz	11
137.	oru	ari	11
138.	qarinchg'a	chumoli	11
139.	qo'pti	qo'zg'aldi, o'rnidan turdi	9
140.	mustafo	Muhammad (s.a.v)	9
141.	teva	tuya	9
142.	qish qamchi	egilgan qamchi	9
143.	ucha	orqa, kurak	9
144.	yavloq	yomon	9
145.	izti	yubordi	9
146.	qazg'urmoq	qayg'urmoq	9
147.	qisos	qasos	9
148.	og'urmoq	chiqarmoq	9
149.	yoling	yalang'och	9
150.	cho'g'i	faryod	9
151.	kendu	o'zi(ngiz)cha	9
152.	yarig'u	atalgan	9
153.	ber	o'pmoq	9
154.	o'g'radi	shaylandi, yo'l oldi	9
155.	iqtido qilmoq	ergashib namoz o'qimoq	9
156.	yonmoq	ortga qaytmoq	9
157.	tizin cho'kib	tizzalab	9
158.	ozin-ozin	sekin-sekin	9
159.	o'sh	shu	9
160.	ilik	qo'l	9
161.	izarmoq	o'z qo'liga qo'yamoq	9
162.	shak va sharika insunlar	shubha va shirkdan qaytsinlar	9
163.	ko'ni imonga berk yopishsunlar	to'g'ri (pok) imonga mahkam yopishsinlar	9
164.	hiqd	gina, nafrat	9

165.	qul, kungni ezgu tutsinlar	qul va xizmatkor (joriya)larga yaxshi muomalada bo'lsinlar	9
166.	o'gsuz	yetim	9
167.	qazg'ulug'	qayg'uga botgan	9
168.	anuq	tayyor	9
169.	ektulamoq	boqmoq	9
170.	Hazrat ("Qissasi rabg'uziy"da)	Oolloh	9
171.	bo'ynag'u	mag'rur, nomdor	9
172.	isor	in'om	9
173.	yerga chalmoq	yiqitmoq	9
174.	ernak	barmoq	9
175.	so'klanmish o'g'loqni tarkida so'zlatting	qovurilgan baliqni darrov tilga keltirding	9
176.	yemishsiz yig'och	mevasiz daraxt	9
177.	tamug'	do'zax	9
178.	malak ul-mavt	Azroil	9
179.	dastur	ruxsat	9
180.	emganmoq	qiynalmoq	9
181.	yonar	qaytar	9
182.	sog'din so'lga	o'ngdan chapga	9
183.	aqiru-aqiru	past ovozda	9
184.	ev mungushi	uy ichkarisidan	9
185.	rifq	muloyimlik, mehribonlik	9
186.	azin	boshqa	9
187.	tizmak	to'xtatmoq, ushlab qolmoq	9
188.	yozug'lug'	gunohkor	9
189.	forig' tutmoq	xotirjam bo'lmoq	9
190.	erin	lab	9
191.	sahara	sehrgar, afsungar	9
192.	g'ufron	kechirishlik	9
193.	kemishmoq	tashlamoq, otmoq	9

194.	yalavoch	payg'ambar	9
195.	bir ovuch bulg'anuq	bir hovuch gunoh bilan bulg'angan	9
196.	isborlamoq	topshirmoq, havola qilmoq	9
197.	mal'un	la'natlangan	
198.	vajh	xizmat haqi, naqdina, pul	
199.	layin	la'natlangan	
200.	chog'ir	may, sharob	
201.	og'oz qilmoq	boshlamoq	
202.	nimarsa	narsa	
203.	zanjabil	aslida Hindistonda o'sadigan o'simlik bo'lib, gul va meva qilmaydi, tun va muattar ta'mga ega ekan. u ko'proq oziq- ovqatlarga qo'shilgan, tibbiyotda dori o'rnida ishlatilgan	
204.	salsabil	jannatdagi buloq nomi	
205.	kimarsa	kimsa	
206.	harchand	qanchalik	
207.	karkas	o'laksaxo'r qush	
208.	teva	tuya	
209.	mo'r	chumoli	
210.	charo	nega	
211.	raiya	bir hukmdorga tobe xalq, fuqaro	
212.	musaxxar	fath etilgan, bo'sundirilgan	
213.	foniy	yo'q bo'luvchi, yo'qoluvchi	
214.	markab	ulov, miniladigan hayvon (ot, eshak, xachir, tuya va b.)	
215.	mag'rib	g'arb	
216.	mashriq	sharq	
217.	ag'riq	og'riq, kasallik	

## PAHLAVON MAHMUD (1247 – 1326)

1.	Pahlavon Mahmudning ruboiylari bizgacha yetib kelishida muhim o'rin tutadigan omil nima?	Pahlavon Mahmudning qabri ustiga o'rnatilgan maqbara devorlari, peshtoqlarida ruboiylarining badiiy naqsh sifatida muhrlanganligidir	L
2.	Shoirning asarlari asosan qaysi asrda ko'chirilgan?	Adibning asarlari turli qo'lyozmalar orqali ham yetib kelgan bo'lismiga qaramay, ular asosan XIX asrda ko'chirilgan	L
3.	Pahlavon Mahmud haqida qaysi manbalarda ma'lumotlar mavjud?	Shamsiddin Somiyning "Qomus ul-a'lam", Lutf Alibek Ozarning "Otshkadayı Ozarıy", Kamoliddin Husayn Fanoyiniing "Majolis ul-ushshoq" singari asarlarida, qator lug'atlarda	L
4.	Mahmud nima sababdan "Pahlavon" unvoni bilan mashhur bo'lgan?	Bunga sabab Mahmudning jismoniy jihatdan baquvvatligi, sharqona kurashning katta vakili bo'lganidir. Hatto uni "kuragi yer ko'rмаган" pahlavon sifatida tilga olishadi	L
5.	Pahlavon Mahmudning taxalluslari...	Puryovaliy, Puryorvaliy, Qittoliy	L
6.	"Puryovaliy xorazmlik Pahlavon Mahmudning laqabidir. Bunda kurash ilmidan mahorat qozongan keksa pahlavon, zo'rخона pahlavonlarining boshlig'i nazarda tutiladi. Zero, qaysi bir kurashchi zo'rخонага kirmoqchi bo'lsa, dastlab Puryovaliyning qadamiga (oyog'iga) bosh qo'yadi. Shu	"G'iyos ul-lug'at"dan	

	jihatdan puryovaliy so'zi majozan aziz va mukarram ma'nosini ham bildiradi". Ushbu fikrlar qaysi asardan olingan?		L
7.	Qittol so'zining ma'nosi...	"Bir-biri bilan jang qilmoq, kurashmoq"	L
8.	Mahmud pahlavonligi qaysi shaharlarda ham mashhur bo'lgan?	Eron va Hindistonda	L
9.	Pahlavon Mahmud qaysi shohni o'limdan qutqarib qolgan va evaziga nima so'ragan?	Hind shohi Roy Ropoy Cho'nani qutqargani evaziga xorazmlik asirlarni ozod ettirib, Vataniga olib ketishni	L
10.	Hind shohi Pahlavon Mahmudga molning terisini bergen va: "Shunga siqqanicha asirlarni olib ketaver", – degan. Pahlavon Mahmud nima qilgan?	Tadbirkor, aqli, dono Pahlavon Mahmud terini ingichka qilib kesgan va undan doira hosil qilib, barcha yurtdoshlarini Vataniga olib ketgan	
11.	Pahlavon Mahmud qaysi kasb bilan shug'ullangan?	Po'stindo'zlik, telpakdo'zlik	L
12.	Pahlavon Mahmud-ning qanday asari haqida ma'lumot bor?	"Kanz ul-haqoyiq" masnaviysi	L
13.	Pahlavon Mahmud qaysi asarlari bilan mashhur?	Ruboiylari bilan (Umar Hayyomdan keyin ijodini faqat ruboiy bilan boyitgan shoir Pahlavon Mahmuddir)	L
14.	Pahlavon Mahmud qaysi tilda ijod qilgan?	Fors-tojik tilida	L
15.	Uning ruboiylarini kimlar o'zbek tiliga tarjima qilishgan?	Ulfat (Imomiddin Qosimov), Boqir (Omonulla Valixonov), Muinzoda, Shoislom Shomuhammedov, To'xtasin Jalolov,	

		Vasfiy, Matnazar Abdulhakim, Ergash Ochilovlar	L
16.	Pahlavon Mahmud qaysi tariqatning davomchisi?	Najmiddin Kubro boshlagan javonmardlik tariqatining davomchisi	L
17.	Hayotda mardlik va jasurlikni shior qilgan, muhtojlarga beminnat saxovat ko'rsatgan, o'zi uchun hech narsa ta'ma qilmaslikni targ'ib etgan va botinda ilohiy ma'rifatni kashf etgan, riyoza bilan irfoniy kamolot sari borishni hidoyat etgan shoir kim?	Pahlavon Mahmud	L
18.	Pahlavon Mahmud ruboiyalaridan birida nimalar umrning ma'nosini deydi?	Yo chaqmoq, yo sham, yo parvona	L
19.	Pahlavon Mahmud ruboiyalaridan birida bu dunyoga kimlarni bino qo'ygan deb ta'riflaydi?	Yo go'l, yo mast, yo devona	L

### Pahlavon Mahmud ruboiyalarini davom ettiring

20.	Uch yuz Ko'hi Qofni kelida tuymoq, Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq...	Yoinki bir asr zindonda yotmoq, Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq	L
21.	Borma aytmaganning dasturxoniga, Qo'l uzotsang, qadring ketar, noniga...	Qo'shma o'zgalarning barra kabobin Qotgan non-u sovuq suvning soniga	L
22.	Tuproq to'shagida yotgan ko'p ko'rdim, Qaro yer bag'riga botgan ko'p ko'rdim...	Yo'qlik olamiga ko'z tashlaganda, Kelmagan ko'p ko'rdim, ketgan ko'p ko'rdim	L
23.	Oqil aqli hirsga giriftor bo'lmas, Hasad qilgan bilan tillo xor bo'lmas...	Nomard – it kabidir, mard – buyuk daryo, Daryo it damidan hech murdor bo'lmas	L

24.	Dilim yana dilbar domiga tushdi, Ne dilbar, sitamgar domiga tushdi...	Birining bandidan qutulmay hanuz, Boshqa paripaykar domiga tushdi	L
25.	Gurkiragan olov – dilim yo'ldoshi, To'lqin urgan daryo – ko'zlarim yoshi...	Ko'zagarlar yasayotgan har ko'za – Ko'hna do'stlar hoki – qo'li yo boshi	L
26.	Hamma darddan ko'ra ayriliq yomon, Hamma qayg'udan ham yomondir hijron...	Qo'limdan kelmaydi sendan ayrilmoq, Jonsan, jondan kechish emas-ku oson	L
27.	Toki bor mardlig-u g'ayratdan asar, Ahl-u ayolingni etma darbadar...	Meva shoxi agar devordan oshsa, Yo'lovchilar unga beshak qo'l cho'zar	L
28.	Ey ishq, nechuk o'tsan axir, duding yo'q, Ey g'am, nechuk kuysankim, suruding yo'q?..	Ey orzu, nechuksan, tutqich bermaysan, Ey shodlik, nechuksankim, vujuding yo'q	L

## SAYFI SAROYI

(1321 – 1396)

1.	Sayfi Saroyi qayerda tug'ilgan?	Xorazm qishloqlaridan biri – Qamishli yurtida	L
2.	Qamishli yurt mening tuvg'on elimdi, Biling, g'urbatga kelturg'on bilimdi. Kelib bo'ldum saroyda she'r fidoyi, Saroyning shoiri, elning gadoyi, – misralari muallifi...	Sayfi Saroyi	L

3.	Sayfi Saroyi bilimini oshirish uchun qayerda tahsil oladi?	Oltin O'rda davlatining poytaxti Saroyda. Shu yerda yashab turgan vaqtida "Saroyi" taxallusini olgan	L
4.	"Saroy tutgan o'rni va xalqining juda ko'p bo'lishi bilan eng katta shaharlar-dan birisi edi. U fan markaziga aylandi. Oz vaqt ichida bu yerda ko'plab atoqli, mashhur kishilar to'plandi". Ular orasida Qutbiddin ar-Roziy, Masoid Taftazoniy, Kamoliddin at-Turkmaniy, hofiz Muhammad ibn Bazzoziylar bor edi. Shuning-dek, Kamoliddin Xo'jandiy ham XIV oxirlarida Saroyda yashab ijod etganligi yaxshi ma'lum". Ushbu fikrlar muallifi...	Muhammad ibn Arabshoh	L
5.	Sayfi – shoirning ismi. Sayfi so'zining ma'nosi...	Qilich	L
6.	Sayfi Saroyi umrining oxirlarida Oltin O'rdadan qaysi shaharga ketgan?	Misr – Shomga	L
	O'sib tuprog'im uzra nayzalar men evdin ayrildim, Vatandin benishon o'ldim-da, o'zga yurtda evrildim, Nechun menga falak jabr ayladi, qanday gunohim bor? Iloho, ayla kam jabring, men elga sodiq ul erdim, – misralari qaysi qismatiga ishora?	Oltin O'rdadan Misrga ketishiga	L
7.	"Tuprog'im uzra nayzalar o'sdi" degan jumla zamirida qaysi bosqinchı istilosining oqibatlari nazarda tutilmoqda?	Chingizxon-ning	L
8.	"Topilmas husn mulkida senga teng bir qamar manzar, Na manzar? Manzari shohid. Na shohid? Shohidi dilbar", – misralarini sharhlang	Husn mulkida senga teng bo'igan oy yuzli go'zal topilmaydi	

9.	"Suhayl va Guldursun" dostoni qachon yaratilgan?	1394-yilda	L
10.	Sayfi Saroyi qaysi asarida ijodkorlarni bulbul, zog', taqlidchilarini to'tiga ajratgan?	"Vasful shuaro" – "Shoirlar vasfi" masnaviysida	L
11.	Jahon shoirlari, ey gulshani bog', Kimi bulbul durur so'zda, kimi zog', – misralarida qanday ma'no bor?	Sayfi Saroyi ijodkorlarni bulbul, zog', taqlidchilarini to'tiga ajratgan	L
12.	"Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur, Bo'yina oshiq sanavbar, yuzina gul zor erur". G'azalning ushbu baytida qanday badiiy san'atlar qo'llangan?	Tanosub, tashbeh, tashxis, tajnis	L
13.	"Suhayl va Guldursun" dostoni necha bayt necha misradan iborat?	82 bayt, 164 misra	L
14.	Sayfi Saroyi kimning qaysi asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan?	Sa'diy Sheraziyning "Guliston" asarini "Gulistoni bit-turkiy" nomi bilan o'zbekchalashitrgan	L
15.	"Joh bir kun eshikdan chiqib ketar dag'l olunni, kumushni safarda haromiy olur, yo shaharda o'g'ri, yo sohibi yeb tugar tur, ammo erdam eyasi davlatindan tushsa, qayg'usi yo'q turur". Ushbu parcha qaysi asardan olingan?	"Gulistoni bit-turkiy"-dan	L
16.	Sayfi Saroyi "Gulistoni bit-turkiy" ("Turkiy guliston") asarini kimga bag'ishlagan?	Misr amiri Batxasbekka	L
17.	"Gulistoni bit-turkiy" ("Turkiy guliston") qachon yozilgan?	1391-yilda (Bu Sa'diy Sheraziyning "Guliston" asarining tarjimasi)	L
18.	"Gulistoni bit-turkiy" necha bobdan iborat?	8 bob	

**“Gulistonni bit-turkiy” 8 bobida qanday mavzudagi hikoyatlar o’rin olgan?**

19.	1-bob	“Sultonlar haqidagi hikoyatlar”	
20.	2-bob	“Faqirlar axloqi haqidagi hikoyatlar”	
21.	3-bob	“Qanoatning foydasi haqidagi hikoyatlar”	
22.	4-bob	“Sukutning foydasi haqidagi hikoyatlar”	
23.	5-bob	“Ishqdagi yigitlik sifati haqidagi hikoyatlar”	
24.	6-bob	“Qarilikdagi zaiflik sifatlari haqida”	
25.	7-bob	“Tarbiyaning ta’siri haqida”	
26.	8-bob	“Suhbat odoblari haqida”	

**“Gulistonni bit-turkiy”**

27.	Bir sultonning uch o’g’li bor edi. Ikkisi uzun bo’yli sohib-jamol, biri qisqa bo’yli edi. Bir kuni sulton qisqa bo’yli o’g’liga haqorat ko’zi bilan boqdi. Shunda kichik o’g’li nima dedi?	“Ey ota uzun bo’yli ahmoqdan, qisqa bo’yli oqil yaxshi. Zaif tozi it eshakdan yaxshi	L
28.	No’shiravoni odil kiyikni tuzlash uchun qulni tuzga yubordi va: “Egasini rozi qilib olib kelgin”, – dedi. Ushbu hikoyat yakunida qanday xulosa chiqadi?	Barcha ishda rahbar o’zi o’rnak bo’lishi kerak degan fikr bor	L
29.	Bir kurashchi pahlavonning sohibjamol shogirdlaridan biri: “Ustozimni yengaman”, – deb da’vo qildi. Lekin nima uchun yengolmadidi?	Ustozi 360 ta usulni bilar edi. Shogirdiga 359 ta usulni o’rgatgan edi. Ustozi 360-usul bilan dimog’dor shogirdni yengdi	L
30.	Ustoz va shogird hikoyasidan qanday xulosa chiqadi?	Do’stingga barcha siringni aytmaginki, bir kuni dushman bo’lib qolishi mumkin	L

31.	Ikki xurosonlik sayohatda yurishar edi. Ularni josus deb tuhmat bilan qamab qo'yishdi. Bir haftadan keyin ulardan biri o'lib qoldi. O'limining sababi nima?	Tirik qolgan odam kam ovqat yer edi. O'lgan odam ko'p ovqat yer edi, shuning uchun ochlikka toqat keltiro!madi, mashaqqatga sabri chidamadi	L
32.	Bir o'g'ri tilanchiga: "Birovning oldiga borib qo'lingni cho'zgani uyalmaysanmi?" – deb so'radi. Tilanchi qanday javob qaytardi?	Senga o'xshab o'g'irlilik qilsam, ikki dirham uchun qo'limni kesishadi, undan ko'ra tilanchilik qilganim yaxshi-ku	L
33.	Bir odamning o'g'li ko'p ilm-u hunarni o'rganib, uni albatta, hayotga tatbiq qilish kerak, foydali ishlarga sarflash kerak, qo'lidan kelmagan ishga ishga esa bel bog'lamaslik kerak, ilm-u hunarni eng nozik jihatlarigacha mukammal o'rganish kerak, degan xulosa chiqadi?	Ilm-u hunarni o'rganib, uni albatta, hayotga tatbiq qilish kerak, foydali ishlarga sarflash kerak, qo'lidan kelmagan ishga ishga esa bel bog'lamaslik kerak, ilm-u hunarni eng nozik jihatlarigacha mukammal o'rganish kerak, degan xulosa chiqadi	L
34.	Bir kuni Rustam onasini ranjitdi. Onaning dili og'ridi. Onasi Rustamga nima dedi?	– Magar kichikligingni unuttinkim ulug'luq etarsan	L

### "Suhayl va Guldursun" dostoni

35.	Urganjga kim lashkar tortib keldi?	Temur	
36.	Temur jangda kimni o'ldirdi?	To'xta-mishxonni	
37.	Yusuf sifatli chiroyli yigit asir tushadi va chohga tashlanadi. Uning ismi...	Suhayl	
38.	Shoh qizining ismi...	Guldursun	

39.	Suhayl tushida ko'rgan pari...	Guldursun	
40.	Shoh qizi Guldursun Kimni sevib qoladi?	Chohda yotgan Suhaylni	
41.	Suhayl va Guldursun- ning taqdi- ri...	Suhayl va Guldursun qochishadi. Ja- zirama sahroda suvsizlik va ochlikka duchor bo'lishadi. Guldursunni yolg'iz tashlab ketolmagan Suhayl o'zini o'lди- radi. Bo'ron boshlanib ikkisini ko'mdi	

### Quyidagi so'zlarni izohlang

42.	mukarrar	takror-takror	
43.	kunash	quyosh	
44.	musaxxar	taslim	
45.	farah	shodlik, quvонch	
46.	musavvar	mujassam, tasvir etilgan	
47.	elinda	qo'lida	
48.	dafotir	daftarlar	
49.	mufassar	tafsir, sharh	
50.	zog'	qarg'a	
51.	bikin	kabi, -day	
52.	durar	durlar, marvardilar	
53.	mavzun	vaznli	
54.	san'at kuzatur	san'atni ko'zlaydi, san'atbozlik qiladi	
55.	xoki poyi	oyoqlari ostining tuprog'i	
56.	mushtari	talabgor	
57.	og'labon	yig'lab, achinib	
58.	qo'zutti	qo'zg'atti	
59.	oqitti	oqizdi	
60.	tekin	kabi	
61.	ekinchi	dehqon	
62.	buday	bug'doy	
63.	qattি	qattiq	
64.	so'g'ish	jang	
65.	tiri	tirik	
66.	yora	yara, jarohat	

67.	ol	qizil	
68.	ardam	fazilat, oliy xislatlari	
69.	una	unga	
70.	mutrib	kuychi, ashulachi	
71.	yetib	pishib, yetilib	
72.	mashoqlar	yig'ib oladilar, xirmon qiladilar	
73.	og'ochlar	daraxtlar	
74.	yemishlar	mevalar	
75.	ellari	xalqi, odamlari	
76.	ujmoh	jannat	
77.	namgin	namlı, yoshli	
78.	besha	o'rmon	
79.	poyu	oyoq	
80.	og'ochnida	yog'och taxtakachda	
81.	choh	quduq	
82.	go'sh	qulqoq	
83.	gunash	quyosh	
84.	erdam	nomusi, ori	
85.	urlug'	urug'	
86.	elingi	elingni, yurtingni	
87.	g'azol (g'izol)	ohu, jayron	
88.	ruxsori moh	oy yuzli, yuzi oyday	
89.	yugribon	yugurib borib	
90.	uyonib	uyg'onib	
91.	xayma	chodir, o'tov	
92.	evrilmas	aylanmas	
93.	sifoti(n)	sifatlarini	
94.	tengiz	dengiz	
95.	mahram	dugona, kanizak	
96.	aylandi birtek	hayron bo'lib aylanaverdi	
97.	qisin	qilsin	
98.	kejib	kechib	
99.	g'urniq	qulf, zanjir	
100.	o'ldi ko'rmak	ko'rmoqchi bo'ldi	
101.	kechin	kech	

102.	o'tru	1) o'tirib; 2) qarshisida	
103.	epi	sharob, bo'za	
104.	isrigach	mast bo'lgach	
105.	og'lab	yig'lab	
106.	g'ulg'u	judolik	
107.	oez	vaqt, kez, payt	
108.	avad qumosh	ayollar kiyimi	
109.	o'tmak	yemaklik, ovqat	
110.	o'lurmu	bo'ladiimi	
111.	bitik	yozuv, asar	
112.	yedi	etti	
113.	xatm etti	tugatdi, tamomladi	
114.	oriq	toza, pokiza	
115.	tavila	otxona	
116.	shishlamoq	sixga tortmoq, sixlamoq	
117.	mazid	ortiq, ko'p	
118.	yumurtqa	tuxum	
119.	umaro	amirlar	
120.	vuzaro	vazirlar	
121.	usruk	mast	
122.	g'irev	shovqin-suron, qiyqiriq	
123.	yori	yordam	
124.	zaif	kuchsiz, ojiz	
125.	qaviy	kuchli, baquvvat	
126.	uruj	ro'za	
127.	xilofa	aksi, teskarisi	
128.	beslamoq	parvarish qilmoq	
129.	o'g'ramoq	uchramoq, duch kelmoq	
130.	tekma	har qanday	
131.	buchuk	kamgina, ozgina	
132.	habba	don	
133.	yuz suvi	obro'	
134.	diram	pul birligi	
135.	so'fi	taqvodor	

136.	baytor	hayvonlarni davolovchi tabib, veterinar	
137.	tekin	kabi, o'xhash	
138.	roz	sir, maxfiy gap	
139.	erdam	hunar	
140.	joh	mol-mulk, boylik	
141.	haromiy	kimsaning moliga, harom narsaga qo'l uradigan odam, o'g'ri	
142.	Shom elinda	Suriya davlati va Damashq shahrining qadimiy nomi	
143.	talaf	nobud, halok, yo'q bo'lish	
144.	yosamin	xush isli oq va sariq tusli gul	
145.	qamar	oy	
146.	shams	quyosh	
147.	besla	asramoq, parvarish qilmoq	
148.	mufarrih	xursandchilik beruvchi	
149.	malih	go'zal, chiroylı	
150.	muhanbar	anbar surtilgan, xushbo'y	
151.	asvat	o'rta, o'rtacha	
152.	ihtiroq	əlov, alanga	
153.	fastuq	pista	
154.	chovi	shuhrati, ovozasi	
155.	alchin	makkor, ustomon	

## XORAZMIY (XIV ASR)

1.	Xorazmiy qaysi asrda yashagan?	XIV asrda	L
2.	Xorazmiy qaysi tilda ijod qilgan?	Turkiy va forsiy tilida ijod qilgan zullisonayn shoir	L
3.	Bizga Xorazmiyning qaysi asari yetib kelgan?	Birgina "Muhabbatnoma" asari	L
4.	Xorazmiyning asli ismi...	Bizga ma'lum emas	L

5.	"Muhabbatnoma" asarining yozilishiga kim sababchi bo'lgan?	Muhammad Xojabek (Oltin O'rda xoni Jonibekxonning Sirdayo muzofotidagi hukmdorlaridan biri)	L
6.	"Ko'ngul bahrinda ko'p gavharlaring bor, Ochunda porsiy daftarlaring bor.  Muhabbat nardini ko'plardin utting, <u>Shakartek til</u> bila olamni tutting.  Tilarmenkim, bizning til birla paydo Kitobe aylasang bu qish qotimdo, –  Kim ush yeldek kechar ayyomi foni, Jahonda qolsa bizdin armug'one".  Xorazmiydan: "Bu qish mening yonimda yurib, bizning tilda (ya'ni turkiyda) bir kitob yozsang", – deb iltimos qilgan hukmdor kim?	Muhammad Xojabek	L
7.	"Muhabbatnoma" qachon yaratilgan?	1353-yilda (hijriy 754-yilda)	L
8.	Xorazmiyni qayerlik deb taxmin qilish mumkin?	Xorazmlik	L
9.	"Muhabbatnoma" kimning iltimosiga ko'ra yaratilgan?	Muhammad Xojabekning	L
10.	"Muhabbatnoma" qayerda bitilgan?	Sirdaryo yoqalarida	L
11.	"Davlat humoyi", "Sohibqiron" deb ta'riflangan hukmdor...	Muhammad Xojabek	L
12.	Uza jonsiz tan erdi mulk sensiz, Shahanshoh Jonibekxonga yetansiz, – deb Oltin O'rda xoni Jonibekxon bilan qiyoslangan hukmdor kim?	Muhammad Xojabek	L

13.	Jonibekxonning O'ltin O'r-dadagi hukmronlik yillari...	1342 – 1375-yillar	L
14.	Muhammad Xojabekning o'zbeklarning qaysi urug'iga mansub?	Qo'ng'irot urug'iga	L
15.	"Muhabbatnoma" necha nusxada yetib kelgan?	2 nusxada: arab va uyg'ur yozuvida ko'chirilgan nusxasi	
16.	"Muhabbatnoma"ning milodiy 1432-yilda Yazd shahrida Mir Jaloliddin degan kishi taklifi bilan Boqi Mansur degan xattot tomonidan ko'chirilgan nusxasi. Bu matnda ayrim qisqarishlar uchraydi. Ushbu nusxa qaysi yozuvda		Uyg'ur yozuvida
17.	"Muhabbatnoma"ning milodiy 1508-1509-yillarda turkiy alifboda ko'chirilgan, nisbatan to'laroq – jami 473 baytdan iborat nusxasi. Ushbu nusxa qaysi yozuvda		Arab yozuvida
18.	"Muhabbatnoma"ning necha misrasi o'zbekcha, necha misrasi fors-tojikcha?	946 misraning 634 misrasi o'zbek, 312-misrasi fors-tojikcha	
19.	Asarning ikkala nusxasi qayerda saqlanadi?	Londondagi Britaniya muzeyida	
20.	Asar necha bobdan tashkil topgan?	10 bob	L
21.	Asar necha nomadan tashkil topgan?	11 nomadan	
22.	Asarning asosiy yo'nalishini belgilab turuvchi janr...	Noma	
23.	"Muhabbatnoma"da qanday janrlar jamlangan?	Noma, g'azal, soqiynoma, munojot, qit'a, masnaviy, fard kabi	L
24.	Muallif asarda o'z fikrlarini qay tarzda bitadi?	Nomalar tarzida	
25.	Noma janrining o'zbek adabiyotida shakllanishi va rivoji kimning nomi bilan bog'liq?	Xoraz-miyning	

26.	Nomalar qanday shaklda bitilgan?	Masnaviy shaklida	
27.	"Qiloyin ikki bobin porsiy ham, – Kim atlas to'n yaroshur bo'lsa mu'lam". Muhabbatnomaning qaysi qismlari forsiy tilda bitilgan?	To'rtinchi, sakkizinchi nomalar, ulardan keyingi masnaviyilar, dastlabki g'azal forsiy tilda bitilgan	
28.	Xorazmiy qaysi janrlarning XV asr o'zbek adabiyoti uchun dastlabki namunalarini ijod qildi?	G'azal, qit'a, fardning	
29.	O'zbek adabiyotida g'azalning paydo bo'lishi qaysi shoirlar nomi bilan bog'liq?	Xorazmiy va Rabg'uziy	
30.	"Muhabbatnoma"ning madh qismidagi qaysi janrlarda Muhammad Xojabek ochiq maqtaladi?	Masnaviy va g'azallarda	
31.	Asardagi asosiy maqsad...	Real shaxs timsolini yaratish	
32.	"Yaratqonkim, tan ichra jon yaratti, Seni ko'rkluklar uzra xon yaratti". Baytdagi tahsin kimga bag'ishlangan?	Muhammad Xojabekka	L
33.	"Muhabbatnoma" da Muhammad Xojabek qanday tasvirlangan?	"Olam podshohi", "Qamuq ko'rkliklari uzra podshosen", "gulchehralar molik riqobi", "shohi qaboyil", "ohu nazarlar shahriyori"	
34.	"Muhabbatnoma"da ishq kimga qaratilgan?	Hukmdorga, undan sevikli yorga, undan Ollohga	
35.	"Muni kim ishq birla o'qug'ay, Haqiqat olamini munda bilg'ay", – misralaridagi haqiqatni sharhlang	Tasavvufda haqiqat – Ollohga yetishishni anglatadi	

36.	"Aningkim ol enginda meng yaratti, Bo'yi birla sochini teng yaratti". Xorazmiy "Muhabbatnama"ning ushbu bayti Navoining qaysi asarida keltirilgan?	"Muhokamat ul-lug'atayn"da	
37.	"Aningkim ol enginda meng yaratti, Bo'yi birla sochini teng yaratti". Misrani sharhlang	Kecha va kunduz bir chiroyli qiz yoki kelinchak, Olloh uning qizil yuzida meng, ya'ni katta xol yaratdi, shuningdek, bo'yi bilan sochini teng yaratdi. Bundagi "qizil yuz" ("ol eng") va "bo'y" ramzan – kunduzni, "meng" va "soch" – kechani bildiradi. Xudo kunduz bilan kechani teng qildi, – demoqchi	
38.	Turkiy she'riyatga Xorazmiy qo'shgan go'zal ifodaviy topilma...	"Bo'yi birla sochini teng yaratti"	
39.	"Vasl aro ko'rдум teng emish bo'yi-yu sochi, Tun-kun teng ekan, zohir o'lur bo'ldi chu Navro'z". Bu bayt kimning qalamiga mansub? Qaysi shoir baytidan ijodiy foydalarilgan?	Bu misralar Navoiy ijodidan. Bu yerda Xorazmiy baytidan ijodiy foydalarilgan	
40.	Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dos-tonining 17-bobi boshlanmasi qaysi asar ta'sirida bitilgan?	"Muhabbatnama" ta'sirida	
41.	1: Aningkim ol enginda meng yaratti, Bo'yi birla sochini teng yaratti. 2: Qilur tun birla zulf-u kun bila eng, Etar lekin bo'yi birlan sochin teng. 3: Qaro tuproqdin sunbul to'ratti, Tikanlar orasinda gul to'ratti. 4: Rutubat yetkurib har sori yog'in, Tar aylab qatradin gullar dimog'in. Ushbu misralar muallifi...	1,3-baytlar muallifi – Xorazmiy, 2, 4-baytlar muallifi – Navoiy	

42.	Navoiy Navro'zni kimga o'xshatgan?	Dunyo kelinchagiga	
43.	Arusi dahr nima?	Dunyo kelinchagi	
44.	"Muhabbatnoma"ning vazni...	Hazaji musammani mahzuf	

**"Muhabbatnoma" dan olingan quyidagi misralarni davom ettiring**

45.	Sanodin o'zga nav' atlas to'qiyun...	Qish o'rtasida bahoriyot o'qiyun	L
46.	Kim uchmohtur sening bazming binosi...	Hamisha yoz erur jannat havosi	L

**Quyidagi noma janridagi asarlar mualliflarini aniqlang**

47.	"Latofatnoma"	Xo'jandiy	L
48.	"Dahnoma"	Yusuf Amiri	
49.	"Taashshuqnama"	Said Ahmad ibn Mironshoh	L
50.	"Haqiqatnoma"	Said Qosimiy	
51.	"Sadoqatnoma"	Said Qosimiy	
52.	Salohiddin Toshkandiying "Temurnoma", Zahiriddin Muhammad Boburnaming "Boburnoma", Gulbadanbeginning "Humoyunnama" asarlari ham noma janrida yozilganmi?	Bu asarlarda noma so'zi qo'llangan bilan ular noma emas, sarlavhada qayd etilgan shaxs hayoti bilan bog'liq tarixiy asar ma'nosini anglatadi	

**Quyidagi so'zlarni izohlang**

53.	shodirvon	chodir	I
54.	og'oz	boshladi	I
55.	ochun	dunyo	I
56.	porsiy	forsiy	I
57.	utting	yutding	I
58.	qotimdu	yonimda	I

59.	ayyomi fonyi	o'tkinchi dunyo
60.	yoqtu	yorug', munavvar
61.	Aflatun	Platon, yunon faylasufi
62.	humo	baxt qushi
63.	buqo	to'n
64.	jov	ovoza, ta'rif
65.	qamuq	hamma
66.	davisqincha	oxirigacha
67.	go'sh	qulqoq
68.	qo'sh tutish	qadah uzatish
69.	javrildi	aylandi
70.	may boshqa mindi	may qizitdi
71.	Yazdon	Xudo, Olloh
72.	ta'biya	joy
73.	zihi	ey, ofarin
74.	tag'i (dag'i)	yana
75.	anjom	oxir
76.	shom	suriya
77.	saloyi oma	ommaga ovoza, xalqqa targ'ib
78.	mu'lam	rangli, nishonalik
79.	ayoyin	aytayin
80.	o'sh andin	shundan keyingina
81.	ma'dan	kon
82.	ganj	xazina, boylik
83.	kunj	burch, sayyoralar qo'nadigan manzil
84.	taqviyat	quvvat
85.	Faridun	qadimgi Eron podshohi
86.	Sulaymon	qadimgi yahudiy podsholaridan
87.	Masih	Iso payg'ambarning laqabi, masih anfoslik – Isonafas
88.	Yusuf	payg'ambar
89.	liquo	yuz
90.	tirilsa	yashasa
91.	tafovul	yaxshilik foli, bashorati

92.	Mushtariy	Yupiter (sayyora)	
93.	jud	saxovat	
94.	pesha	odat, rasm	
95.	razm	urush, jang	
96.	chokar	xizmatkor	
97.	da:	kotib, ko'k dabiri – Atorud sayyorasi	
98.	jovud	abadiy	
99.	tobonda	porlovchi, nurli	
100.	yeti	yetdi	
101.	karam	saxiylik, mehr-shafqat	
102.	ato	tuhfa, in'om	
103.	sano	maqtov, madh	
104.	qish o'rtada	qish o'rtasida	
105.	bahoriyat	bahor ta'rifiga bag'ishlangan she'rlar	
106.	uchmoh	jannat	
107.	chavruldi	aylandi	
108.	roh	bu o'rinda may	
109.	farrosh	supirib-sidiruvchi	
110.	chimg'on	o'tloq, sabzavor	
111.	o'kush	ko'p	
112.	sandon	temir kunda	
113.	inlanur	yo'qolur (sandonnei teshadi)	
114.	sohibqiron	baxtli yulduz egasi, saodatli shoh	
115.	adu	dushman	
116.	vasf ul hol	hol ta'rifi	
117.	nuql	ovqat	
118.	asru	juda	
119.	jovidona	abadiy	
120.	ulus	el, xalq	
121.	barxurdor	baxtli, bahramand	
122.	ijobat	qabul	
123.	sipoh	lashkar	

124.	ruxsora	yuz
125.	ko'rkaboy	go'zal
126.	bayram oyi	yangi chiqqan oy
127.	meng	xol
128.	ol	qizil
129.	yangoq	yanoq
130.	adoq	oyoq
131.	sarv-u sanubar	chiroyli daraxtlar turi
132.	aqiq	qizg'ish rangli qimmatbaho tosh, "muhabbatnoma"da lab ma'nosida
133.	qamar	1) qamashtirdi; 2) oy
134.	nargis	oq rangli gul, asarda ko'z
135.	novak	o'q kiprik
136.	arg'uvon	tanasi pushti, qizg'ish bo'lgan, qizil gullaydigan daraxt
137.	nor	o't, olov
138.	sim (siym)	kumush
139.	saroy	saroy shahri, oltin o'rda
140.	Chin	Xitoy, Mochin – Sharqiylar Turkiston yerkari
141.	choving	ovozing
142.	sipahlar	lashkar yubordi
143.	qoting	olding, yoning
144.	besar-u poy	oyoq-qo'lini yo'qotgan, besaranjom
145.	bilurg'ay	bilinadi, ko'rindi
146.	telurg'oy	tilaydi
147.	suyurg'ab	mukofot
148.	firdavsi a'lo	jannat
149.	kavsar	jannat bulog'i
150.	buloshqay	buloqday oqadi
151.	ern	lab
152.	nobat	novvot
153.	Xizr	abadiy barhayot payg'ambar

154.	darig'o	e voy, afsus	
155.	asra	saqla	
156.	axtar	yulduz	
157.	bodayi nob	qizil sharob	
158.	as'hob	do'stlar, jo'ralar	
159.	nadim	xizmatkor	
160.	aysa	aytsa	
161.	yorur	yorishmoq	
162.	obi baqo	hayot suvi, abadiy tiriklik suvi	
163.	tubiy	jannat daraxti	
164.	tiboq	misol	
165.	qaroqlari	qorachiqlari	
166.	miskin	bechora, faqir, notavon	
167.	engay	kelish, ko'rish, mehmon bo'lish	
168.	ev	uy	
169.	yoqtu	yorug'	
170.	olamoroy	olamni bezatadigan	
171.	no'sh	ichish	
172.	madhush	behush	
173.	farkunda	saodatmand, yaxshi, muborak	
174.	hazrat	dargoh, huzuri	
175.	o'ramung	izing, makoning	
176.	xun bahosi	o'ldirilgan kishi uchun tovon puli	
177.	yovutmon	yaqinlashtirmayman	
178.	maqsud	maqsad, istak	
179.	tabqu	yoningda, vaslingda	
180.	mashriq	sharq	
181.	jomi jam	afsonaviy podshoh Jamshid ixtiro qilgan jom, ichidagi mayi tugamaydigan va olamni ko'rsatib turadigan jom	
182.	yur	yuvadi, yuvar	
183.	ihtiroy	yonish, alanga	
184.	sabur	sabrli, chidamlı	
185.	Allahu akbar	Allah buyuk	

186.	ishkol	qiyinchilik, mushkullik	
187.	mardum	qorachiq	
188.	ruh	yuz	
189.	may	bu asarda ilohiy fayz timsoli	
190.	soqiy	pir ma'nosida	
191.	bulmoq	topmoq	
192.	tahayyur	hayronlik	
193.	qurtuloyin	qutilay	
194.	rikob	uzangi	
195.	maoni	ma'nolar, mazmun, siyrat	
196.	xuld	jannah	
197.	Zuhra	sayyora nomi	
198.	Xorut	yerdagi ayolga oshiq bo'lgani uchun xudoning g'azabiga uchragan farishta	
199.	muhtasham	boy, hashamatli	
200.	sabo	sharqdan esadigan tong shamoli	
201.	eng	yuz	
202.	kamand	argon	
203.	tabqu	xizmat	
204.	bul	qo'lga kiritmoq, ega bo'lmoq	
205.	qo'sh	qadah	
206.	tazarv	tustovuq, qirg'ovul	
207.	saqoq	iyak	
208.	kisvat	kiyim	
209.	tuz	loyiq, tekis	
210.	durj	durlar, qimmatbaho toshlar	
211.	tekma	har qaysi, har biri	
212.	a'mo	ko'r	
213.	yiltek	buloqdek, chashmadek	
214.	to'ngar	xiralashadi	
215.	yulo	yolqini, olovi	
216.	huvaydo	paydo ko'rinish	
217.	xoliq	yaratuvchi, tangri	
218.	ushshoq	oshiqlar	

219.	kimyo	yonish ilmi, misning olov ta'sirida oltinga aylanishi	I
220.	xoma	qalam	I
221.	sabuhiy	tong saharda ichiladigan may	
222.	futuh	g'alaba, xushnudlik	
223.	ta'xir	oxirlandi, oxirda qoldi	I
224.	yoqtu	pokiza, pok; uchta forsiy noma qoldirildi	I
225.	xalal	zarar,	I
226.	soniy	ikkinchi	I
227.	bikr	qiz bola	I
228.	xarobot	xarob yer, asarda uzlat, go'sha, joy ma'nosida	I
229.	rind	olam ishlaridan chekinib, xudo yodida sarxush yuradigan kishilar	I
230.	porso	taqvodor kishi	I
231.	tekin	-gacha	I
232.	aytmoq	tugatmoq	I
233.	Osaf	Sulaymon payg'ambarning dono vaziri	I
234.	musharraf	sharafli, sharaflash	I
235.	ravon	jon, ruh	I
236.	niyoz	tilak, iltimos	I
237.	bahri xudoro	xudo haqqi	I

### XO'JANDIY (XIV asrning oxiri XV asrning birinchi yarmi)

1.	Xo'jandiy qayerda tug'ilgan?	Taxallusiga qarab, uni Xo'jand shahrida tug'ilgan deyish mumkin	L
2.	Xo'jandiyning bizgacha yetib kelgan asari...	«Latofatnoma»	L

3.	Xo'jandiy «Latofatnoma»ni kimning asaridan ilhomlanib, unga javob – nazira tarzida yozgan?	Xorazmiyning «Muhabbatnoma»sidan	L
4.	«Latofatnoma» kimga bag'ishlangan?	O'sha davrdagi hukmron Mahmudxon sultonga	L
5.	Mahmudxonning o'zi va shajarasi haqida ma'lumot bering	Mahmudxon kichik Muhammadning o'g'li bo'lib, u Tog'ay Temur- ning avlodlaridan bo'lgan. Tog'ay Temur Xorazm xoni Jo'jining 13-o'g'li edi. Mah- mudxonning ikki marta taxt tepasiga kelgani malum	L
6.	Maxmudxon qaysi yillarda Xorazm taxtida bo'lgan?	1411-yilda, 1422 – 1424-yillarda	L
7.	«Muhabbatnoma»ga javob –nazira tarzida yozilgan asar...	«Latofatnoma»	L
8.	«Muhabbatnoma» dan «Latofatnoma»ning farqi...	«Latofatnoma» boshdan- oyoq masnaviy shaklida yozilgan (boshqa janrlar uchramaydi)	L
9.	«Latofatnoma» da Xo'jandiy qanday she'riy san'atni ko'p qo'llagan?	Tajnisni	L
10.	«Saxovat bobida chun Hotami Tay, Shijoat mulkida chun Kovus-u Kay» baytida qanday she'riy san'at qo'llangan?	Talmeh	L
11.	Muhabbat jomidin ichsang sharobe... Ushbu misrani davom ettiring	«Muhabbatnoma»ga aylasang javobe	L

### Quyidagi so‘zlarni izohlang

12.	sultoni xovar	sharq sultoni, ya’ni quyosh	
13.	xusrav	shoh, hukmdor	
14.	Chin	Xitoy	
15.	qavdi	quvди	
16.	shahi mashriq	sharq shohi, ya’ni quyosh	
17.	alam	bayroq	
18.	sipoh	askar	
19.	zangi	habash, qora tanli	
20.	habash sultoni	qorong’ilik shohi, tun, zulmat	
21.	turk	qorong’ilik ma’nosida	
22.	xurusi subhdam	sahar, tong	
23.	kecha zog’i	qora qarg’a, qorong’ilik	
24.	javon	yosh, yosh yigit	
25.	uz	mohir, mahoratlì	
26.	fasod	buzuqlik, buzuqchilik	
27.	salohiyat	qobiliyat, layoqat, tiriklik, to’g’rilik	
28.	bahr	katta daryo, dengiz	
29.	hijob	parda, to’siq	
30.	javhar	gavhar, qimmatbaho tosh	
31.	riyozaт	mashaqqat	
32.	xoma	qalam	
33.	ajun	olam, dunyo	
34.	edgu	ezgu, yaxshi	
35.	xirad	aql	
36.	taxxon	o’zbek urug’laridan biri, soliqlardan ozod qilingan kishi	
37.	salotin	sultonlar	
38.	qamug’	barcha	
39.	pesha	hunar, kasb, odat	
40.	mafخار	shon-shuhrat, faxrlanish	
41.	ma’oni	ma’nolar	
42.	hotami toy	saxovati bilan dong chiqqargan afsonaviy qahramon	

43.	Zol	rustamning otasi	
44.	inzol	biror narsani balanddan pastga tushirish	
45.	xurshed	quyosh	
46.	shatranj	shaxmatga o'xshash sport o'yini	
47.	utting	yutding	
48.	bikin	kabi, singari	
49.	mo'r	chumoli	
50.	chevurtka	chigirtka	
51.	joh	mansab, martaba, amal; boylik	
52.	jalol	ulug'lik, viqor	

## SAKKOKIY

**(XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr)**

1.	«Uyg'ur iborotining fusahosiddin va turk alfozining bulag'osidin Mavlono ... va Mavlono ... kim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda beg'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur ham devonlari mavjud bo'lgay». Ushbu ta'rif muallifi kim? Qaysi shoirlarga baho berilgan?	Navoiy Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiyya baho bergan	L
2.	«Samarqand ahli onga ko'p mu'taqiddurlar (e'tiqod qo'yganlar)». Sakkokiy haqidagi ushbu fikrlar qaysi shoir asarida uchraydi?	Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asarida	
3.	Sakkokiyning ismi...	Ma'lum emas	L
4.	Sakkokiy so'zining ma'nosi...	Pichoqchi (adib shug'ullan-adigan kasbga ishora)	L

5.	Sakkokiy kimlarga bag'ishlab qasidalar yozgan?	Xalil Sultan, Arslon Xo'ja Tarxon, Xo'ja Muhammad Porso, Ulug'beklarga	L
6.	Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarini ko'chirtirgan shaxs kim?	Arslon Xo'ja Tarxon (1444-yilda Samarqandda)	L
7.	Xalil Sultonga bag'ishlab Sakkokiy qaysi yillarda qasida yozgan?	1405 – 1409-yillarda	L
8.	Sakkokiy ijodini gurkirab o'sib ketishiga sabab bo'lgan muhim omil...	Xalq og'zaki ijodi	L
9.	Sakkokiy qanday asarlari bilan mashhur?	G'azallari va qasidalari	L
10.	Sakkokiy Ulug'bekni sharaflab nechta qasida yozgan?	4 ta	
11.	«Shaho, lutfingni topqom deb duochi banda Sakkokiy, Belin joni bila bog'lab, bu xizmatga ravon keldi». Bu bayt Sakkokiyning qaysi asaridan olingan?	Mirzo Ulug'bekka bag'ishlan-gan qasidasidan	L
12.	«Ey sarvinoz, mening ko'z yoshlariimga nazar sol. Oqar suvgaga qarasa, ko'ngil ravshan bo'ladi, deydilar-ku». Ushbu tasvir qaysi shoir ijodida uchraydi?	Sakkokiy	
13.	«Raiyat qo'y erur, sulton anga cho'pon yo bo'ri...»	«Bo'ri o'lg'o-yu qo'y ting'oy, chu Musotek shubon keldi»	L

### Quyidagi so'zlarni izohlang

14.	iborot	iboralalar, matnlar	
15.	fusaho	ochiq, ravshan, ravon, yoqimli	
16.	alfoz	so'zlar	
17.	bulag'o	balog'at egalari	
18.	abyot	baytlar	

19.	ishtihor	shuhrat topish	
20.	intishor	yoyilish, tarqalish	
21.	azin	boshqa, bo'lak	
22.	ruxsora	yuz, chehra	
23.	safo	poklik, tozalik	
24.	g'izo	ozuqa	
25.	ern	lab, dudoq	
26.	ushshoq	oshiqlar	
27.	habashiy	qora rangga oid	
28.	namak	tuz	
29.	kahrabo	sariq rang timsoli	
30.	baqir	mis	
31.	O'g'on	Yaratgan, Xudo	
32.	mavkib	podshoh yonidagi suvoriyalar guruhi, mulozimlar	
33.	No'shiravon	adolati bilan shuhrat qozongan podsholardan	
34.	adu	dushman, yov	
35.	raiyat	xalq	
36.	Muso	qur'onda tilga olingan payg'ambarlardan biri	
37.	xurshid	quyosh	
38.	a'do	dushman	
39.	sinon	nayza	
40.	getisiton	gurzi	
41.	qaviy	kuchli	
42.	marham	davo, em	
43.	parniyon	ipakdan to'qilgan yupqa, guldor mato	
44.	taqsir	sustlik, kamchilik, yengilish	
45.	zimon	kafil, kafillik	
46.	kayvon	Zuhal (saturn) yulduzi	
47.	shaqovat	baxtsiz, omadsiz; yaramas, buzuqi	

## ATOIY (XV ASR)

1.	Atoiq qayerda tavallud topgan?	Balxda (hozirgi Shimoliy Afg'onistonidagi ko'hna shahar)	10
2.	Atoiyni kim «Turkona aytur edi», – deb ta'riflaydi?	Navoiy («Nasoyim-ul muhabbat»)	L, 10
3.	Atoiyni Ahmad Yassaviya qanday qarindoshligi bor?	Atoiyning otasi Ismoil ota Ahmad Yassaviyning inisi Ibrohim otaning o'g'li (A.Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»)	10
4.	«Mavlono Atoiq Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota farzandlaridandur, darveshvash va xushxulq, munbasit (oq ko'ngil) kishi erdi. O'z zamonida atrok (turkiylar) orasida ko'p shuhrat tutti». Atoiq haqidagi ushbu fikrlar kimning qaysi asaridan olingen?	Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asaridan	10
5.	Navoiy Atoiyni qanday ta'riflagan?	«Turkona aytur edi» deya	L
6.	Atoiq qaysi shoh saroyida xizmat qilgan?	Mirzo Ulug'bek saroyida	10
7.	Atoiqga nisbat berilgan qabr qayerda?	Hozirgi Qozog'istonning Turbat qishlog'ida	10
8.	Atoiq qaysi tillarda ijod qilgan?	Turk va fors tillarida	10
9.	Atoiq taxallusining ma'nosi...	Mashhur shayx otabobolariga ishora – «Ato» («Ota»)	10
10.	Atoiq devoni haqida ma'lumot bering	Bizgacha shoirning bir devoni yetib kelgan bo'lib, 260 g'azalni o'z ichiga olgan. Atoiq devonidagi g'azallar 5 baytdan 14 baytgacha bo'lib, ularning ko'pchiligi 7 baytdan iborat. Shoirning g'azallari 1958-yilda nashr etilgan	10

11.	Atoiy devoni qo'lyozmasining oxiridagi «Devo-ni Shayxzoda Atoyi» degan yozuv nimaga ishora?	Atoiyning shayxlar oilasidan kelib chiqqanligiga dalolat	10
12.	Devonning taxminan XVI asrda ko'chirilgan, 260 g'azalni o'z ichiga olgan qo'lyozma nusxasi qayerda saqlanadi?	Sankt-Peterburgda	10
13.	Atoiy qaysi janrda alohida o'rin tutadi?	G'azalchilikda	L
14.	Atoiy qaysi mavzularda g'azallar yaratgan?	Muhabbat mavzusi bilan bir qatorda, hayot zavqi, uning barcha go'zalliklari va lazzatlari may timsolida vasf etilgan	10
15.	Atoiy g'azallari qaysi vaznda yozilgan?	Ko'proq aruzning ramal bahrida	10
16.	Atoiy g'a-zallarining xususiyati...	Uslubi sodda va ravon, so'zlari oddiy, misralari qisqa, vazni yengil va o'ynoqi, tasviri quyma va nafis, ohangi dilbar, badiiyati yuksak	10
17.	Atoiy she'rlarida badiiy san'atning qaysi turlari ko'proq qo'llangan?	Tajohil ul-orif, laff va nashr kabi tasvir usullari	10
18.	Atoiyning qaysi g'azallarida inson ko'nglining nozik nuqtalari, ehtirosli kechinmalari ko'proq aks etgan?	«Qon bo'ldi ko'ngil...», «Ul sanamkim...», «Ko'ngil olding...» kabi g'azallarida	L
19.	«Gar o'qur majlisda xonanda Atoiy she'rin, Zuhra chang qo'psor, qilur shams-u qamar zavq-u charoh» misralarining muallifi...	Atoiy	L

20.	Atoiy o'z she'rlarida yorning husni, xoli, sochi va yuzini nimaga o'xshatgan?	Husnni «Mus'haf» («Qur'on»)ga, meng (xol) ni oyatga, yorning qop-qora sochini laylat ul-qadrga, oppoq yuzini esa subhi sodiqqa o'xshatgan	10
21.	Shoirning go'zal, esda qoladigan o'xshatishlar, kutilmagan mubolag'ali tasvirlar yaratishiga misol keltiring	Atoiy bir she'rida yorini sog'ingan oshiqning ko'zidan yosh emas, daryo oqayotgani, u kipriklaridan sol yasab, shu daryoda suzayotgani manzarasi chiziladi	10
22.	Shoir bir she'rida kipriklarini supurgi («jorub»), yuzini yokandoz qilishga tayyor, yor xizmatiga olinsa bo'lganini ta'kidlaydi, hatto yor u yoqda tursin, uning farroshligiga – «qul»likka qabul qilsa ham o'zini baxtli hisoblaydi. Atoiy qaysi she'rida yorni mana shunday yuksaklikka ko'taradi?	«Begim» radifli she'rida	10

### Atoiy qalamiga mansub quyidagi baytlarni sharhlang

23.	Gahiki, bossa oyog'in yuzumga , noz ila der: «Ayog'im og'ridi, ne bo'yro emishtuksen!»	Go'zal yor xokisor oshiqning yuziga oyoq bosar ekan, oyog'i og'riydi, «yuzing buncha bo'yradek dag'al bo'lmasa» deb nozlanadi. «Bo'yra» – qamishdan to'qiladigan, gilamning tagiga solinadigan ashyo.	10
24.	Manga sensiz tirilgandin o'lum yuz qatla ortuqdur, Bu so'zda, haq bilur, ko'nglum tilim birla muvofiqtur	Shoirning oshiqligi shu darajadaki, u ma'shuqasiz hayotdan o'limni afzal biladi va bu gapni chin dildan izhor etadi	10

25.	Bu kun vaslingni tark aylab, tilar jannatni zohidlar, Berurlar nasyag'a naqdni, bu ne nodon xaloyiqtur?	Bu baytda so'fiyona ruh yaqqol sezila-di. Chunki tariqat ahli, ya'ni mutasavvuflar Allohniga jannatga kirish uchun emas, balki o'n sakkiz ming olamning yaratuvchisi, butun borliqning moyasi bo'lgani uchun, jamolini ko'rish uchun sevish lozim deb hisoblaydilar. Ular qiyomatda yaxshi qismatga ega bo'lish, ya'ni oshiq hech narsa ta'ma qilmay, Yaratganga ko'ngil bog'lashi lozim deb hisoblashadi. Atoiyning nazdida jannatga kirish uchun Allahga muhabbat qo'ygan kimsa naqdni nasiyaga almashgan nodon kabidir	10
26.	Imonim o'shal moh degumdur dag'i o'lgum...	Atoiyning «Hajringda begin, oh degum-dur dag'i o'lgum» deya boshlanadigan bu g'azali ham oshiqona bo'lib, suyuklisiga muhabbatni olamdag'i hamma narsadan ortiq ko'radigan oshiq holati ifoda etilgan. Shoir uchun ma'shuqa shunchaki qiz emas, balki imon ham. Shu o'rinda islomda har bir musulmon o'limi oldidan kalimayi shahodatni qaytarishi kerakligi ham hisobga olingan. U o'limiga rozi. Shu bois imon keltirishga ham tayyor. U: «Lo iloha illalloh» («Allohdan o'zga iloh yo'q»), – deb emas, balki «Imonim o'shal moh (Allah)», – deya kalima qaytarmoqchi	10
27.	Jannatda-kim, el onda bo'lur zin-dayi jovid, Sensiz oni g'amgoh degumdur dag'i o'lgum	Shoirning sanamidan ajralishiga toqati yetmaydi. Chunki inson abadiy rohatda bo'ladijan jannat ham ma'shuqasiz «g'amgoh»dir. Oshiqning muhabbat shu qadar teran va azaliyki, u yor ko'yida o'lib ketsa ham, uning ruhi qiyomatga qadar ma'shuqaga hamroh bo'ladi	10

28.	<p>Mengiz yo ravzayi riz-vonmudur bu?</p> <p>Og'iz yo g'unchayi xandon-mudur bu?</p>	<p>Shoir malaksiymo qizning chiroyidan hayratga tushadi. U shu qadar barkamolki, oshiqning muhabbatи kuchayib boraveradi. Ma'shuqaning yuzi (mengiz) jannat bog'ini esga tushirsa, og'zi «g'unchayi xandon»ni yodga soladi</p>	10
29.	<p>Qaroqchi ko'zlarin kim ko'rsa aytur:</p> <p>«Ajab ayyori Turkistonmudur bu?»</p> <p>(Chiqar har lahza yuz sheva birla,</p> <p>Maloyik xo'yluq (farishta axloqli) insomudur bu?</p> <p>Jahonni tutti Yusufdek jamoli,</p> <p>Malohat Misrida sultonmudur bu?</p> <p>Xatikim (labi), sahfa (yuzi) gul uzra ko'rinar,</p> <p>G'ubori xatmu yo rayhonmudur bu?</p> <p>Mudavvar (yumaloq) go'yи siymin (kumush koptok), yo zanahdon (iyak)?</p> <p>Muanbar (xushbo'y) zulf yo chavgonmudur (koptok surib o'ynaydigan uchi egi tayoqcha) bu?</p> <p>Atoiyni ko'rub ko'yinda aytur: «Hamul miskini sargardonmudur bu?»)</p>	<p>Ma'shuqaning qora ko'zları qaroqchini, chiroyi esa Turkiston parisini xotirga keltiradi. (G'azal davomida yor o'zini turfa holatlarda ko'rsatishga mohir. Shu bois farishta sifatli bo'lib ham ko'rindi. Malohatda tengsiz sanamning xati – labi ustidagi mayin tuklar rayhon singari xush bo'y taratadi. G'azal to'lig'icha parichehranining portretini chizishga bag'ishlangan. Shoir oxirgi baytda o'zining miskin va sargardon holatini bir og'izgina qayd etish bilan ma'shuqaning shafqat bilmaydigan siyratini ham chizib berishga erishgan)</p>	10

30.	G'uncha sevunub to'nig'a sig'mas, O'x-shatsam, o'qing bashoqi birla	Shoir nazdida yorning kiprigi kamon o'qining uchiga o'xshaydi. Chunki kiprik o'qqa ikki jihat bilan o'xshaydi, avvalo, kiprik ham o'qday tik. Ikkinchidan, o'q yovni yaralasa, yor kiprigi oshiq yuragini nishonga oladi. Shu bois ochilmagan gulg'uncha o'zining yor kiprigiga o'xhash ekanini eshitib, «to'niga sig'may» ketdi, ya'ni ochildi	10
31.	Ey orazi shams-u qamarim, netti, ne bo'ldi? V-ey tishlari durr-u gavharim, netti, ne bo'ldi?	Ma'shuqa achchiqtiziqlaridan, nozlaridan hayratga tushgan oshiq holati ifoda etilgan. U yor g'azabiga duchor bo'ldi, lekin aybi ne ekanini bilmaydi. Shu bois uni savollar qiyinaydi	10
32.	Sen bor ekan o'zga kishiga nazar etsam, Chiqsun bu mening diydalarim, netti, ne bo'ldi?	Oshiq o'zini gunohkor sanaydi. Ammo aybi nimadaligidan xabari yo'q. U ma'shuqa meni rashk etayotirmikan degan o'yga boradi va «Sen bor ekan o'zgaga nazar solsam, ko'r bo'lay», – deb aytadi	10
33.	Gah javr bilan o'ltur meni, gah noz ila sendin, Haqqoki, mening yo'q guzarim, netti, ne bo'ldi?	Lirik qahramon chorasisiz, u ishq yo'lida qurban bo'lishga tayyor. Shu bois qay tarzda, qanday yo'l bilan o'ldirilishi uni ko'pda qiziqtirmaydi. Uning jon saqlash uchun yor qoshidan ketgisi yo'q	10
34.	«Netti, ne bo'ldi?» radifli g'azal qaysi vaznida yozilgan?	Aruz vaznining hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida yozilgan	10

**«UI sanamkim, suv yaqosinda paritek o'lturur...»**

35.	«To magarkim salsabil obina javloni qila, Keldi jannat ravzasindin obi Kavsar sori hur», – baytini sharhlang	Ma'shuqaning bog' ichidagi ariq bo'yiga kelishi go'yo jannat bog'idagi Kavsar suvi (hovuzi) yoniga hur-u parining kelishiga o'xshaydi	10
36.	«UI ilikkim, suvdin oriqtur, yumas oni suvda, Balki suvni pok bo'lsun deb iliki birla yur», – baytini sharhlang. G'azal-dagi «suv parisii»ga o'xhash sanamni shoir qanday tasvirlaydi?	«Qizning go'zalligi, pokizaligi, tiniqligi shunchalikki, u qo'lini suvda yuvib tozalamaydi, balki qo'lini yuvib suvni poklaydi», – deya tasvirlangan	L, 10
37.	Ushbu g'azalda dunyoviy ishq kuylanganmi yoki haqiqiy ishqmi?	Bu she'rda real yor, dunyoviy ishq, ya'ni insonning insonga bo'lgan muhabbatini ko'rish mumkin	10
38.	«Qoshlaring yosin Atoyi ko'rgali husn ichra toq, Subhidam mehroblarda surayi yosin o'qir» baytida badiiy san'atning qaysi turi qo'llangan?	Tajnis san'ati: 1) qoshlaring yosin – qoshlaring yoydek egilgan; 2) yosin o'qir – yosin surasini o'qiydi	10

**«Jamoling vasfini qildim chamanda...»**  
**Quyidagi baytlarni sharhlang**

39.	Jamoling vasfini qildim chamanda, Qizordi gul uyottin anjumanda	Lirik qahramon guizorga kiradi, gullar anjumanida – yig'ilishida shoir yorning go'zalligini ta'riflar ekan, gullar ma'shuqadan xunukroq ekanliklaridan uyalib, xijolatdan qizarib ketibdi. She'rda qizarishning o'z va ko'chma ma'nolaridan foydalanilgan	10
-----	---	---	----

40.	Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum, Kishi bilmas oni kim qoldi qanda	Mumtoz adabiyotda ma'shuqaning go'zalligini anglatuvchi belgilardan biri uning la'li labining kichikligidir. Oshiq yorning og'zini ko'rmoqchi edi, lekin u shunchalar kichik ekanki, qayerdaligini hech kim bilmadi	10
41.	Chu jonimdin aziz jonona sensan, Kerakmas jon manga sensiz badanda	Oshiq uchun yor jonidan aziz, hatto yorsiz tiriklik – hayot ham ma'nosiz	10
42.	Manga ul dunyoda jannat ne hojat, Eshiging tuprog'i basdur kafanda	Shoir u dunyodagi jannatdan yor eshidagi tuproqni afzal bilmoqda	10
43.	Solib borma meni, ey Yusufi husn, Bukun Ya'qubtek bayt ul-hazanda	Yusuf payg'ambar – adabiyotda go'zallik timsoli. Oshiq uchun ma'shuqaning go'zalligi beqiyos, uni faqat Yusufga o'xshatish mumkin. Shoir yorini «Yusufi husn» deya ta'riflab, Ya'qubning ahvoliga tushib qolishdan xavotir olmoqda. Yusuf haqidagi rivoyatlarga ko'ra, u Ya'qubning sevikli o'g'li. Akalari bunga hasad qilib, otasi oldidan aldab	
		dalaga olib chiqadilar va quduqqa tashlaydilar. So'ng «Bo'ri yedi!» – deb yolg'on ovoza tarqatadilar. O'g'lining hajrida yig'layverganidan Ya'qubning ko'zlar ko'r bo'lib qoladi. Mumtoz adabiyotimizda Ya'qubning hayoti «Bayt ul-hazan» («g'am uyi») sifatida tilga olinadi	10
44.	Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni, Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda	Oshiqning ko'ngli yorning uzun sochidan uzilmaydi. Oshiq boshini uning oyog'iga urishga ham tayyor	10

45.	Tilar el mansabi oliy va lekin Atoyi sarvi ozodingg'a banda	Oshiq uchun el tilagan oliy mansablar, yuqori la- vozimlarni egallash emas, balki o'z ma'shuqasining go'zalligiga qul bo'lish afzal	10
46.	«Chohi zaqan» birikmasini ifodalang	Akalari Yusufni quduqqa tashlashadi. Yusuf tashlangan quduq esa uning husni tufayli yorishib turar edi. Mumtoz she'riyatimizdagi «chohi zaqan» (iyak ostidagi chuqurcha) shunga ishora qiladi	10

**Quyidagi baytlarda badiiy san'atning  
qaysi turlari qo'llangan?**

47.	Jamoling vasfini qildim chamanda, Qizordi gul uyottin anjumanda	Husni ta'lil, tashxis	10
48.	Solib borma meni, ey Yusufi husn, Bukun Ya'qubtek bayt ul-hazanda	Talmeh	10
49.	Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni, Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda	Ishtiqoq, tazod	10
50.	Tilar el mansabi oliy va lekin Atoyi sarvi ozodingg'a banda	Tazod (qizning qaddi- qomati <b>ozod</b> sarvdek tik, oshiq esa banda, yani qul)	10

**«Ey do'st» radifli g'azal  
G'azal baytlarini sharhlang**

51.	Sensiz bu jahon ayshu alamdur manga, ey do'st, Shodlig'i ham mehnat-u g'amdur manga, ey do'st	Do'st – ko'ngil talpingan inson timsoli. Lirik qahramon do'st qiyofasida ko'ngliga taskin va tasalli, orom va huzur topadi. Shunga ko'ra do'stsiz holat unga alam, mehnat, g'am keltiradi	10
-----	--	---	----

52.	Lutf-u karamingni sen agar mendin ayasang, Javr-u sitaming lutf-u karamdur manga, ey do'st	Hatto do'stning jabr-u sitamlari ham unga lutf-u karam bo'lib tuyulaveradi	10
53.	Diydor ila qoni'emас erdim esa, hajring Bisyor jafo ayladi, kamdur manga, ey do'st	Lirik qahramon do'st diydoridan qanoat topmaydi. Uning qadri hijronda bilinadi. Ana shundagina u «bu jafolar ham menga kam» deya nadomatlar chekadi	10
54.	Ko'nglum yuzini javr ila chun sendin uyurmon, Oxir necha bu javr-u sitamdur manga, ey do'st	Lekin u o'z qarorida muqim va sobit. Barcha jabr-u sitamlar ham uni o'z yo'lidan qaytarolmaydi	10
55.	Odamg'a seni o'xshata bilmونki, parisen, Nortek yanoqing bog'i Iramdur manga, ey do'st	Lirik qahramon do'stni pariga o'xshatadi, uning nortek (olovdek) yanog'ini (yuzini) bog'i Eramga qiyoslaydi. Chunki afsonalarda parilarning yashash joyi bog'i Eramdir	10
56.	Qo'y qissayi Jamshedni jomi ilgingdin, Gar bo'lsa dame mulkati Jamdur manga, ey do'st	Jamshid – mumtoz adabiyotda afsonaviy qahramonlardan biri. U boylik, farovonlik timsoli. Ammo lirik qahramon uchun «do'st» bilan bo'lgan dam Jamshid mulkidan ko'ra ko'proq huzur beradi	10
57.	Og'zingg'a fido jonki, tabassum qilib aytur: «Har lahza Atoyi ne adamdur manga, ey do'st»	Do'stning tabassumida yumor bor, ya'ni kinoya, istehzo: «Yo'q jonni qanday fido qilasan?» degan ma'noda tushunish mumkin	10

58.	Atoiyning ushbu g'azalida maqtadan tashqari barcha baytlarda she'riy san'atning qaysi turi mujassam?	Tazod	10
-----	--	-------	----

### Quyidagi misralarni davom ettiring

59.	Jamoling vasfini qildim chamanda...	Qizordi gul uyottin anjumanda	L
60.	Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum...	Kishi bilmas anikim, qoldi qanda	L
61.	Chu jonimdin aziz jonona sensen...	Kerakmas jon manga sensiz badanda	L
62.	Manga ul dunyoda jannat ne hojat...	Eshiking tuprog'i basdur kafanda	L
63.	Solib borma meni, ey Yusufi husn...	Bu kun Yaqubtek bayt ul-hazanda	L
64.	Uzun sochindin uzmasmen ko'ngulni...	Oyog'ing qanda bo'lsa, boshim anda	L
65.	Tilar el mansabi oliy, valekin...	Atoi yarvi ozodingg'a banda	L
66.	Ey orazi shams-u qamarim, netti, ne bo'ldi?	Vey tishlari dur-u guharim, netti, ne bo'ldi?	L
67.	Atoi yarvi ozodingg'a banda	«Latofatnoma»din kechgay Xo'jandiy	L
68.	Zulfiqar borma meni, ey Yusufi husn...	Kuydi jonim ishtiyoqi birla	L
69.	Oldi ko'zung ittifoqi birla	Oldi ko'zung ittifoqi birla	L
70.	Ey begin, ushbu yuz degil, shams bila qamarmudur?..	Ey begin, ushbu so'z degil, shahd bila shakarmudur?	L
71.	Jon tomurin qiyor uchun tig'mu yo nazarmudur?	Ko'z uchidan qyoy-qyoya boqishlar...	L
72.	G'oyati nozuklukindin suv ila yutsa bo'lur	Ul sanamkim, suv ya-qosinda paritek o'l turur...	L
73.	Og'iz yo g'unchayi xandonmudur bu?..	Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu?..	L

74.	Qaroqchi ko'zlarin kim ko'rsa aytur...	«Ajab ayyori Turkistonmudur bu?»	L
75.	Jahonni tutti Yusufdek jamoli...	Malohat Misrida sultonmudur bu?	L

### Quyidagi so'zlarni izohlang

76.	Zuhra	Cho'lpon yulduzi (Venera)	
77.	chang	bosh tomoni egik cholg'u asbobi	
78.	qo'psor	chalmoq, ijro etmoq	
79.	qamar	oy	
80.	anjuman	yig'in	
81.	tamanno	orzu	
82.	la'l	lab	
83.	Yusuf	go'zalligi va haqiqatparastligi, to'g'riliqi bilan shuhrat qozongan payg'ambar	
84.	Yaqub	payg'ambarlardan birining nomi, Yusufning otasi	
85.	bayt ul-hazan	g'am uyi	
86.	sarvi ozod	baland qad	
87.	shams-u qamar	quyosh-oy	
88.	guhar	gavhar	
89.	marham	davo, em	
90.	diyda	ko'z	
91.	haqqo	haqiqatda	
92.	guzar	o'tish, kechish	
93.	lu'bat	qo'g'irchoq; (ko'chma ma'noda: chiroqli, go'zal)	
94.	mengiz	yuz, chehra	
95.	shahd	asal, bol	
96.	chuchuk	shirin	
97.	kamand	argon, ip	
98.	parishon	tarqoq, sochilgan, yoyilgan	
99.	daf	qaytarish, rad etish, ketkazish	

100.	xumor	mastlikning tarqalishi	
101.	ma'jun	turli giyohlardan tayyorlanadigan ichimlik	
102.	hamin bas	shu yetarli	
103.	lavand	dangasa, yalqov	
104.	firoq	ayriliq	
105.	cherik	lashkar, qo'shin	
106.	mulk (zulfing cheriki jamol mulkin oldi ko'zing ittifoqi birla)	bu yerda: mamlakat, yurt ma'nosida (baytning mazmuni: zulfing –sochingning lashkari ko'zing bilan ittifoq tuzib, go'zallik mamlakatini egallab oldi)	
107.	o'q	kiprik, boshoq	
108.	quyidagi bayt- ni sharhlang: «guncha sevunub to'nig'a sig'mas, o'xshatmas o'qung basho- qi birla»	agar sening kiprigingni uchi biran birga qo'shib, g'unchaga o'xshatsam, g'uncha quvonganidan terisiga (to'niga) sig'maydi, ya'ni ochiladi	
109.	chog'ir	may, bo'za	
110.	usursa	mast bo'lса	
111.	jomi jamoli soqiy	soqiy jamolining jomi, ya'ni piri komil yoki ma'shuqa yuzini ko'rib, shavqidan mast bo'laman	
112.	to'squ	boshqa, ortiqcha	
113.	sog'in	qadah; sog'inmoq, o'ylamoq	
114.	davr	davra ma'nosida va g'am, falak	
115.	ayoq	qadah, soqiy va oyoq ma'nolarida kelgan	
116.	uttilar	yutdilar, oldilar	
117.	asru	juda ko'p, ortiq, benihoya	
118.	dag'i	yana	
119.	yasоq	nizom, qoida	

120.	degul	emas	
121.	qiyor	qirqish	
122.	Sabo	Sulaymon payg'ambarning sevgili-si Bilqis yashagan afsonaviy shahar nomi	
123.	hudhud	sassiqpopushak	
124.	sihi	tik, baland	
125.	zog'	qarg'a	
126.	abir	xushbo'y modda, anbar	
127.	tar	ho'l	
128.	dardisar	boshog'riq	
129.	guzar aylamoq	kechmoq	
130.	sanam	go'zal	
131.	salsabil	jannat arig'i	
132.	«Salsabil obina javlone qila»	Salsabil suvida javlon qilib	
133.	ravza	bog'	
134.	obi Kavsar	Kavsar hovuzining suvi	
135.	hur	jannat qizi	
136.	«to magarkim, salsabil obina javlone qila, keldi jannat ravzasindin obi kavsar sori hur». baytni izohlang	jannat qizi salsabil arig'ida nozlanib, cho'milib, shu ariq orqali jannat bog'idan o'tib, kavsar hovuziga qarab suzib keldi, shekilli.	
137.	orig	toza, pok, pokiza	
138.	subhidam	tong	
139.	Yosin	«Qur'on»ning 36-surasi	
140.	iso	she'riyatda o'likni tiriltiruvchi kuch timsolini anglatadi	
141.	qo'sh	doira, o'ziga tegishli bo'lgan joy; omochga qo'shilgan bir juft (yoki bitta) ho'kiz yoki ot	

142.	enchu	enchi (ota tomonidan farzandga ajratib berilgan jonivor)	
143.	sa'y	tirishish, harakat qilish, urinish	
144.	talab	so'rash, istash, xohish, mayl	
145.	holo	hozirda, shu paytda	
146.	moh	oy	
147.	zə:nona xo'blari	zamonaning yaxshilari, go'zellari, chiroyllari	
148.	Ruhulloh	Iso payg'ambarning laqabi	
149.	dilxoh	ko'ngil istagan, ko'ngil tortar	
150.	ev	uy	
151.	oq ev	chodir	
152.	xirgoh	chodir	
153.	koh	somon	
154.	sazo	jazo, mukofot, yaxshilik yoki yomonlikning badali; mos, munosib	
155.	gah	goh, ba'zan	
156.	bo'ryo	bo'yra, qamishdan to'qilgan to'shama	
157.	tika	tikka, tikilib	
158.	ravzayi rizvon	jannat bog'i	
159.	sheva	odat, ravish, tarz, uslub; noz, ishva, ado	
160.	maloyik xo'yluq	farishta axloqli	
161.	xat	yuzning tuklari, mo'ylar	
162.	safha	bet	
163.	g'ubor	gard, chang, to'zon	
164.	mudavvar	aylana, yumaloq	
165.	go'yи siymin	kumush koptok	
166.	zanaxdon	bag'baqa, saqoq	
167.	muhanbar	xushbo'y anbarli	
168.	chavgon	koptok surib o'ynaydigan uchi egri tayoqcha, klyushka	
169.	hamul	xuddi, o'sha, hamda	

**GADOIY (XV ASR)**

1.	«Muhabbatnoma» muallifi Xorazmiy an'analarini davom ettirgan zullisonayn shoir...	Gadoiy	L
2.	Kimning qaysi tazkirasida Gadoiyning fors-tojik tilida yaratilgan g'azali uchraydi?	Faxri Hirotiyning «Radoyif ul-ash'or» tazkirasida	L
3.	«Mavlono Gadoiy turkigo'ydir, balki mashohirdindur. Bobur Mirzo zamonida she'ri shuhrat tutti....». Gadoiy ijodiga berilgan ushbu baho kimning qaysi asaridan olingan?	Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasidan	L
4.	Qaysi asarlarda shoir Gadoiy haqida ma'lumotlar mavjud?	Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasida hamda «Mahbub ul-qulub» asarida	L
5.	Gadoiy devon tuzganmi?	Gadoiy devon tuzgan	L
6.	Gadoiy devonida qaysi janr asosiv o'r'in egallaydi?	G'azallar	L
7.	Gadoiy devonida yana qanday janrlar mavjud?	Mustazod, qit'a...	L
8.	G'azallari...	«Mubtalo bo'ldi yana», «Unutma», «Sanga», «Yoz fasli», «Yana yoz bo'ldi-yu»...	L
9.	Gadoiy to'qson yoshdan o'tib, uzoq umr ko'rganini qaysi shoir yozib qoldiradi?	Navoiy	L
<b>Quyidagi misralarni davom ettiring</b>			
10.	Ohkim, devona ko'nglum mubtalo bo'ldi yana...	Bu ko'ngulning ilgidin jonga balo bo'ldi yana	L

11.	Dilrabo, sensiz tiriklik bir baloyi jon emish...	Kim aning dardi qoshida yuz o'lum hayron emish	L
-----	---	--	---

### Quyidagi so'zlarni izohlang

12.	turkigo'y	turkiy tilda aytuvchi yoki yozuvchi	
13.	mashohir	mashhurlar, atoqlilar	
14.	matla'	1) chiqadigan joy, quyoshning chiqish joyi; 2) g'azalning avvalgi ikki misrasi.	
15.	mustahzod	She'riy shakklardan biri. Uning qofiyalanish shakli g'azalniki kabidir. Faqt unda qo'shimcha misralar bo'lib, ular ham o'zaro qofiyalanib keladi	
16.	jafogustar	jafo qiluvchi, jafokor	
17.	ravo	mumkin, munosib, mos, loyiq	
18.	g'ubori xotir	xotira (ko'ngil g'ashligi)	
19.	sofiy	sof, toza, soflik, tiniqlik	
20.	hamgomgi safo	soflik vaqtি	
21.	oyo	mabodo, yoki, balki, magar	
22.	pari paykar	pari suratli, go'zal, chiroyli	
23.	guldasht	1) gulzor sayri; 2) go'zal bog'.	
24.	dilkusho	ko'ngil ochuvchi, ko'ngilni shod etuvchi, yoqimli	
25.	shukrilillah	Xudoga shukr	
26.	zulf	soch, kokil	
27.	dam ur	gapirmoq	
28.	abir	anbar, ifor; (ko'chma ma'noda: yoqimli hid)	
29.	gulbuni umid	umid niholi	
30.	bobarg	bargli	
31.	buti siyminbar	kumush tanli sanam	
32.	mohpaykar	oy suratli, oyday go'zal	
33.	toroj	o'g'rilik	

34.	g'oratgar	talonchi, qaroqchi	
35.	kofar	inkor etuvchi, tonuvchi; ko'chma ma'noda: rahmsiz	
36.	alhaq	haqiqatdan, to'g'risi, chindan	
37.	kishvar	vatan, o'lka, mamlakat, viloyat	
38.	had	bu o'rinda: daraja, martaba	
39.	degin	qadar, -gacha	
40.	hamroz	sirdosh	
41.	oshuftahol	parishonhol	
42.	purxam	buram-buram, gajak, jingalak	
43.	kunj	burchak	
44.	saqf	ship, uy tepasi, gumbaz; yuqori, osmon	
45.	mino	shisha, rangli shisha	
46.	riqqat	ingichkalik, noziklik, yumshoqlik	
47.	nahs	shum, yaramas	
48.	nash'u namo	o'sish va kun kechirish	
49.	hayra maqdam	qadaming qutlug' bo'lsin	
50.	rizvon	sakkiz bihishtning biri, rozilik va mamnuniyat jannati	
51.	jonfizo	jonne quvvatlantiruvchi	
52.	asru	juda ko'p, ortiq, benihoya, g'oyat, talay	
53.	tirguz	tiriltir, tiriltirilgan	
54.	itob	ta'na, malomat; qahr, g'azab	
55.	habib	sevikli; do'st	
56.	ravon	tez, tezda	
57.	miskin	faqir, hech narsasi yo'q, bechora, ojiz	

## LUTFIY (1366 – 1465)

1.	Lutfiyni el orasida qanday nom bilan ulug'lashgan?	«Malik ul-kalom» («so'z podshosi»), «Mavlono» («ulug' ustod»)	8
2.	«Mavlono Lutfiy o'z zamonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi va turkcha devoni mashhurdur». Lutfiy haqidagi bu iliq fikrlar kimning qaysi asaridan olingan?	Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois»	8
3.	«...To'qson to'qqiz yoshida olamdin o'tdi. Qabri Dehikanordadur, o'z maskani erdi». (Dehikanor Hirot yaqinida bo'lган) Lutfiyning uzoq umr ko'rgani haqidagi ushbu ma'lumot kimning qaysi asaridan olingan?	Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat»	L, 8
4.	Lutfiy haqida: «Bu faqir borasig'a ko'p iltifoti bor erdi va fotihalar o'qur erdi», – deya qaysi ijodkor eslaydi?	Alisher Navoiy	L
5.	Lutfiyning asl nomi...	Lutfulla	L
6.	Lutfiyning Toshkentda tavallud topgan bo'lishi mumkinligi haqida qanday ma'lumot bor?	Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda yashab ijod etgan o'zbek adabiyotshunosi Ahmad Taroziyining keyingi yillarda AQSHdan topilgan «Funun ul-balog'a» asarida bu shoir «Lutfiy Shoshiy» deb tilga olganiga asoslangan olimlar uning Toshkentda tavallud topgan bo'lishi mumkinligini aytishgan	L, 8
7.	Lutfiy dunyodan o'tganida Alisher Navoiy necha yoshda edi?	24 yoshda	8
8.	Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Xalqaro jamg'arma uyuştirgan ilmiy-ijodiy ekspeditsiya a'zolari qachon Lutfiy dafn etilgan muqaddas qadamjoga o'zbek milliy an'analarini asosida maqbara o'rnatib qaytishdi?	2006-yilning may oyida	8

9.	Qaysi shoh davrida Lutfiy she'rlari juda mashhur bo'ldi?	Sulton Ibrohim Mirzo zamoni	
10.	«Bu faqir borasig'a ko'p iltifoti bor edi va fotihalar o'qur edi». Lutfiyning bu katta muhabbati kimga nisbatan edi?	Navoiyga	L
11.	Qaysi tarixchi o'zining asarida Lutfiyni turkiy tilda Navoiygacha bo'lgan davrda ijod qilgan eng yirik shoir sifatida ta'riflaydi?	Xondamir «Makorim ul-axloq» asarida	L
12.	Yosh Alisher Lutfiy huzurida ushbu matla bilan boshlanadigan g'azalni o'qiydi: «Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har lahza yosh, Bo'yakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh». «Mavlaviy janoblari, – deb yozadi tarixchi, – bu ravshan va yorqin g'azalni eshitib, hayronlik dengiziga tushdi va shunday dedi: «Qasam tangrigaki, agar mumkin bo'lsa edi, men o'zimning fors va turk tillarida aytgan 12 ming baytimni shu g'azalga almashar edim». Lutfiyning hassos qalbi va o'ta kamtarinligi ta'kidlangan bu voqeа qaysi tarixchining asari orqali yetib kelgan?	Xondamir-ning «Makorim ul-axloq» asari orqali	L
13.	«... Bir Mavlono Lutfiydin o'zgakim, bir necha matla'lari borkim, ta'b ahli (nozik didli adabiyotchilar) qoshida o'qisa bo'lur» deb Lutfiyya qaysi alloma baho bergan?	Navoiy	8
14.	XV asrning birinchi yarmida yaratilgan «Gul va Navro'z» dostoni sho'rolar davrida uzoq yillar Lutfiyning asari sifatida xato taxmin etib kelingan edi. Aslida bu doston qaysi shoir qalamiga mansub ekan?	Haydar Xorazmiyning	8

15.	Lutfiy kimning qaysi asarining tarjimasini boshlab qo'yan edi?	Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarining	L
16.	Bizgacha Lutfiy turkiy devonining XVI – XX asrlar mobaynida ko'chirilgan jami necha nusxasi yetib kelgan?	33 nusxasi	8
17.	Lutfiy merosining umumiy miqdori...	2774 baytdan ortiq	8
18.	Lutfiy lirkasining 60 foizi qaysi janrdan iborat?	G'azallardan (2086 bayt)	8
19.	Lutfiy o'zbek adabiyotini qaysi janrlar bilan boyitgan?	G'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, fardlari bilan	8
20.	Lutfiy qaysi tillarda ijod qilgan?	Turkiy va fors-tojik tillarida, zullisonayn shoir	8
21.	Lutfiy lirkasi qaysi xalq shoirlari ijodiga sezilarli ta'sir o'tkazgan?	O'zbek, turkman, ozarbayjon, usmonli turk shoirlari ijodiga	8
22.	Lutfiyning qaysi g'azalining har bir baytida bit-tadan maqol qo'llangan?	«Ayoqingg'a tushar har lahza gisu»	8
23.	Lutfiyning «Ko'rgali la'li aqiqin» deb boshlanuvchi g'azalining radifi...	Tortadur	L
24.	Lutfiyning «To'nga sig'masmen farahdin gul kabi, Kelsa ul sarvi ravon bir-bir manga» deb boshlanuvchi she'ri qaysi janrga mansub?	Qit'a	L
25.	Nima uchun mumtoz she'riyatning asosiy tasvir manbayi ko'ngil hisoblanadi?	Chunki, tasavvuf ta'lilotiga ko'ra, Alloh kishining ko'nglidagina aks etadi. Ishq ham ko'ngil ishi	8
26.	Turkona degan tushunchani izohlang	She'rda o'zbekcha so'z va iboralar qo'llash asosiy o'rincutishi	8

27.	Asarda biror voqeа-hodisa, tarixiy fakt, adabiy yoki afsonaviy qahramon nomi tilga olinsa, bu qanday badiiy san'at hisoblanadi?	Talmeh san'ati	8
-----	---	----------------	---

### «Xoh inon, xoh inonma» g'azali

28.	G'azal qanday ruhda bitilgan?	Turkona ruhda	8
29.	G'azalda qaysi tildagi so'zlar uchraydi?	Sof o'zbekcha bo'lgan so'zlardan tashqari forstojikcha va arabcha so'zlar ham ko'p uchraydi	8
30.	G'azal necha baytdan iborat?	7 bayt	8
31.	G'azalning mavzusi...	Ishq, biroq bu yerda zimdan ilohiy ishq ko'zda tutilgan	8
32.	G'azalning vazni...	Hazaji musammanı axrabi məkfufi mahzuf (yoki maqsur), ya'nı ma'uvlu – mafoiylu – mafoiylu – faulun (yoki mafoiy)	8
33.	G'azal taqtesi...	-V / V – –V / V– – V / V – – (yoki V – )	8
34.	Qo'shiyasi	Sevarim, jigarim, saharim, guzarim, xabarim, basarim, nazarim, siymbarim	8
35.	Radifi...	Xoh inon, xoh inonma	8
36.	G'azalning ohang ustuvorligini kuchaytirgan holat...	Radifning to'rt so'zdan tashkil topgani, amalda sakkiz misrada ularning qaytarilishi	8
37.	Radifning o'zida qanday badiiy san'at bor?	Tazod	8
38.	Lutfiyning qaysi g'azalida radifga olingan so'z hozir ham Afg'oniston va Buxoro viloyatidagi ayrim o'zbeklar shevasida XV asr shaklidagi kabi saqlangan?	«Xoh inon, xoh inonma»	8
39.	Bu g'azal qanday usullarda ashula qilingan?	Ham mumtoz yo'lida, ham estrada usulida	8
40.	Matlada radifdan tashqari nechta so'z ishtirok etgan?	To'rtta	8

41.	«Guzar» so'zining ma'nosi...	O'tish (g'azalda ketish ma'nosida)	8
42.	G'azalning nechanchi baytida talmeh san'ati qo'shangan?	Beshinchi baytida (Yoqub payg'ambar nomi tilga olingan)	8
43.	Yo... payg'ambarning ko'zi... nima uchun ko'r bo'lib qoladi?	Yusuf degan o'g'lidan ayrilib, yig'lab, qattiq siqilgani uchun	8
44.	Lutfiyning «Xoh inon, xoh inonma» g'azali ta'sirida qaysi shoir bir g'azal yaratgan?	Boborahim Mashrab	8
45.	«Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi, Ey siymbirim, xoh inon, xoh inonma». Baytni sharhlang	Lutfiyning yuzi azbaroyi hijron azobini chekaver-ganidan sarg'ayib ketib, oltinni yashiradigan darajaga yetdi, ya'ni shunchalik sarg'aydiki, buning oldida tilloning sariqligi hech narsa bo'lmay qoldi!	8

### «Bu ko'nguldur, bu ko'ngul» g'azali

46.	G'azalning mavzusi...	Ishqiy	8
47.	G'azal necha baytdan iborat?	Yetti baytdan iborat	8
48.	G'azal vazni...	Ramali musaddasi mahzuf (yoki maqsur), ya'ni foilotun – foilotun – foilotun – foilotun (yoki foilon)	8
49.	Taqtesi...	– V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V 7)	8
50.	Radif nechta so'z...	Beshta	8
51.	G'azal radifi...	Qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul (barchasi turkiy so'z)	8
52.	Radifdagi barcha so'zlar qaysi tilga mansub?	Barchasi turkiy so'z	8
53.	Qofiyasi...	Shaydo, rasvo, tamanno, taqozo, savdo, po, daryo (arabiy va forsiy so'zlar)	8

54.	Qofiyadagi so'zlar qaysi tilga mansub?	Arabiya va forsiy so'zlar	8
55.	Mumtoz she'riyatning asosiy tasvir manbayi...	Ko'ngil	8
56.	Lirik qahramon ishq bobida barcha aybni nimaga qo'yadi?	Ko'ngilga	8
57.	«Bu ko'nguldur, bu ko'n-gul» g'azaliga qaysi ijod-kor o'xshatma yozgan?	Oradan 400 yil o'tib, XIX asrning birinchi yarmida Nodira yozgan	8
58.	G'azalda mashuqa sochi tolasining bahosi...	Oshiq jonini fido qilishiga teng	8
59.	Tasavvuf ta'llimotiga ko'ra Alloh qayerda aks etadi?	Kishining ko'nglidagina	8

### «Ayoqingg'a tushar har lahza gisu»

60.	Lutfiyning qaysi g'azali irlisol masal san'ati asosiga qurilgan?	«Ayoqingg'a tushar har lahza gisu»	8
61.	G'azal necha baytdan iborat?	5 baytdan	8
62.	Har bir baytning ikkinchi misrasi qanday yakunlanadi?	Bir maqol bilan	8
63.	G'azal vazni va taqtesi...	Hazaji musaddasi mahzuf (yoki maqsur), ya'ni mafoiyun, mafoiyun, faulun (yoki mafoiy) vaznida, taqtesi: V--- / V--- / V--	8
64.	G'azaldagi maqollarni ketma-ket ayting	1. «Charog' tubi — qorong'u». 2. «Oqqan ariqqa oqar su(v)». 3. «Kishining ko'zidur, ore, taruzu». 4. Qo'rqrar, qaydakim qon ko'rsa, hindu». 5. «Tiloganni — tilogu»	8

### G'azalning quydagicha boshlanuvchi baytlarida qaysi maqol qo'llangan?

65.	«Tutarmen ko'zki, ko'rsam orazingni...»	«Oqqan ariqqa oqar suv»	8
66.	«Yuzingni tuttum ortiq oy-u kundin...»	«Kishining ko'zidur, ore, taruzu»	8

67.	«Ko'zing qonimdin iymanmas, ajabtur...»	«Qo'rqrar, qaydakim qon ko'rsa hindu»	8
68.	G'azalning matla'sida qaysi maqol qo'llangan?	«Charog' tubi qarong'u»	8
69.	G'azalning maqtasida, ya'ni so'nggi baytida qaysi maqol qo'llangan?	«Tilaganni tilogu»	8
70.	O'zbek xalq maqollari asosiga qurilgan g'azal...	«Ayoqingg'a tushar har lahza gisu»	8

### «Haq ul kunkim, jamoling bor etibdur»

71.	G'azal necha baytdan iborat?	Yetti baytdan	8
72.	Vazni...	Hazaji musaddasi mahzuf, ya'ni mafoiyun, mafoiyun, faulun vaznida, taqtesi: V - - - / V - - - / V - -	
73.	Ajratib turuvchi o'ziga xosligi...	Uning qofiyasi turkona, ya'ni barchasi o'zbekcha so'zlardan tashkil topgan	
74.	Qofiyalari...	Etibdur, beribdur, enibdur, chiqibdur, ketibdur, kelibdur, olibdur, oshibdur	8
75.	Manzar...	Go'zal yor	
76.	G'azalda qanday ishq kuylangan?	Ilohiy ishq	
77.	To'rtinchi baytning asosiy tasvir manbayi...	Yuz	8

### «Ne bo'lursan?» g'azali

78.	G'azal necha baytdan iborat?	Besh baytdan	8
79.	G'azalning radifi...	Sof turkiycha «ne bo'lursan» so'zi	8
80.	G'azaldagi qaysi jarayon hayajonni, qalamga olinayotgan masala yo voqeа-hodisaga hissiy (shaxsiy) munosabatni kuchaytiradi?	She'r qofiyasi va radifining so'roq bilan tugashi	8
81.	G'azalni boshqarib turuvchi jumla...	Ne bo'lursan	8
82.	G'azalda qanday ishq kuylangan?	Ilohiy ishq	8

83.	Lirk qahramon yorini nimalarga va kimlarga yaqinligini (ya'ni kim bo'lishini) so'raydi?	Pari, gul barg, qamar (oy), kabki (kaklik), Misr novvoti va shakari, Xitoy xo'blari (go'zallari)ga	8
84.	G'azaldagi asosiy badiiy san'at...	Talmeh va tanosub	8
85.	Chin, so'yla, Xito xo'blarig'a kim bo'lursan? – misrasida qanday she'riy san'at qo'llangan?	Iyhom	8

### Tuyuqlari

#### Ushbu tuyuqlardagi tajnis san'atini yuzaga ketiruvchi shakldosh va omonimiga o'xhash so'zlarni izohlang

86.	Ko'ngluma har yonki boqsam <b><u>dog'i bor</u></b> . Har necha dardimni desam <b><u>dog'i bor</u></b> . Qilcha tanga bori ishqing yor edi, Bir sori bo'ldi firoqing, <b><u>dog'i bor</u></b>	1. Dog'i bor. 2. Otashi bor. 3. Yana (tag'in) bor	L. 8
87.	Men sening ilkingdin, ey <b><u>dil, bandamen</u></b> . Vah, qachon yetkaymen ul <b><u>dilbanda men</u></b> . Bevafolarga meni qilding asir, Sen menga sultonsen, ey <b><u>dil, banda men</u></b>	1. Yurak, (men) bandaman (bog'lanib qolganman). 2. Dilbandga (dilimni asir qilib olgan yorga) men. 3. Yurak, banda (inson) man	8
88.	Charxi kajraftor elidin <b><u>yozamen</u></b> . Chiqmadim hijron qishidin <b><u>yoza men</u></b> . Bir meni yorliq bila yod etmas ul, Har necha ul shahg'a qulluq <b><u>yozamen</u></b>	1. Yozg'iraman (shikoyat qilaman, noroziman). 2. Yozga men. 3. Yozaman (bitaman)	L. 8

89.	Qomatimni necha qoshing <b><u>yo qila</u></b> . Necha hajr o'ti jonomda <b><u>yogila</u></b> . G'amza birla to'kti qonim ul sanam, To hinotek qon elina <b><u>yogila</u></b>	1. Yo'y (kamon) qiladi (bukadi, egiltiradi). 2. Yoqiladi. 3. Surtiladi	
90.	Ey ko'ngul, yorsiz sanga ne <b><u>bor, bor</u></b> . Qaydakim ul zulfi anbar <b><u>bor, bor</u></b> . Chek jafo-u javr-u nozin borini, Bir kun o'lga'ykim, degaylor: <b>«Bor-bor!»</b>	1. Mavjud, mavjud. 2. (anbar hidli bo'lsa) bor, (yoniga) bor (gin). 3. «Jo'na, jo'na!»	L, 8
91.	Qoshlaring xush lojuvard-u <b><u>tog erur</u></b> . Xush ichinda benazir-u <b><u>tog erur</u></b> . Torta olmasman firoqing, netayin, Qilcha tanga bori ishqing <b><u>tog erur</u></b>	1. Toqdir (yolg'izdir). 2. Yakka-yu yagonadir. 3. (Toqatim) toqdir	
92.	Ko'z yoshim tuproq ila gar <b><u>gotila</u></b> , Kelmagayman javridin. Haq <b><u>go, tila</u></b> . G'amzasi o'lturdi-yu ul bexabar, Men agar o'lsam, ne g'am ul <b><u>gotila?</u></b>	1. Qo'shiladi, qoriladi. 2. Xudoyo, tilasang ham. 3. Qotilga	L, 8
93.	Kechti umr tushmadi ul <b><u>yor ila</u></b> . Qo'rqaram ko'nglum bu g'amdin <b><u>yorila</u></b> . Bu vafosizliqliki, sendin ko'rmisham, E'tiqodim qolmadi hech <b><u>yor ila</u></b>	1. Suyukli. 2. Yoriladi. 3. Do'st, yor-u do'st	8
94.	Bir nazar qildim, qul o'ldum <b><u>Oya men</u></b> . Ul sababdin jon-u dilni <b><u>oyamen</u></b> . Gar meni shohimg'a yetkursa Xudoy, Hazratingda sarguzashtim <b><u>oyamen</u></b>	1. Oyga men. 2. Ayamayman. 3. Aytaman	8
95.	To ishim tushti bir og'zi <b><u>tor ila</u></b> . Ko'nglimi asrar g'ami bir <b><u>tor ila</u></b> . Ko'z tutarmenkim, ko'zumning suyidin Ko'ngli, vah, tuxmi muhabbat <b><u>torila</u></b>	1. Tor (sifat – shakl) 2. Tola, ip. 3. Taraladi	8

**Quyidagi misralarni davom ettiring**

96.	Ayoqingga tushar har lahza gisu...	Masaldurkim: «Charog' tubi – qorong'u»	8
97.	Tutarmen ko'zki, ko'rsam orazingni...	Ki derlar: «Oqqan ariqqa oqar su(v)»	8
98.	Yuzungni tuttum ortiq Oy-u Kundin...	«Kishining ko'zidur, ore, tarozu»	8
99.	Ko'zing qonimdin iymanmas, ajabtur...	Ki: «Qo'rqrar, qaydakim qon ko'rsa, hindu»	8
100.	Tilar vaslingni, Lutfiy, qil ijobat...	Ki ayturlar: «Tiloganni! – tilogu»	8
101.	Quyosh oydek yu- zungning xijlatidin...	Qochib to'rtinchchi ko'k uzra chiqibdur	8
102.	Sendek saname ko'rman Lutfiy Chig'atoysa...	Chin so'yla, Xito(y) xo'blarig'a ne bo'lursan	8
103.	Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi...	O'z haddini bilib, belidin o'liturur quyi	8
104.	Agar sen bo'lmasaang guldek chamanda...	Kishi netgay o'shal bayt ul- hazanda?	L
105.	Jonim chiqadur dard ila jononima aytинг...	Men xasta gado holini sultonima aytинг	L
106.	Nigoro, sensizin mandin ne hosil?..	Agar jon bo'lmasa, tandin ne hosil?	L

**Quyidagi so'zlarni izohlang**

107.	masal	maqol	8
108.	muravvaq	tozalangan, sof	8
109.	obi hayvon	abadiylik suvi, obi hayot	8
110.	mayi gulgom	gul rangli (qizil) may	8
111.	maqar -mi so'roq yuklamasiga to'g'ri keladi		8
112.	xirad	aql	8
113.	qamar	oy	8
114.	yak	bir	8
115.	tamanno	talab, orzu	8
116.	gisu	soch	8

117.	xomayi sun	yaratish qalami	8
118.	taqsir	qusur, xato, nuqson	8
119.	taqrir	tasdiqlash, so'zlash, bayon etish	8
120.	kalom	so'z	8
121.	shabgir	tong sahar	8
122.	yamon andishaliq	yomon fikrli, badniyatli	1
123.	go'iyo	go'yo, xuddi	1
124.	anbarafshon	anbar sochuvchi	1
125.	ikki yo	ikki yoy (kamon)	1
126.	masti lo'yaqil	hushsiz mastlar	1
127.	dilafgor	dil xasta, ko'ngli vayron	1
128.	dod	adolat	1
129.	fan tutmoq	odatlanmoq, o'rganmoq	1
130.	xurshed	quyosh, oftob	1
131.	yozg'urma	gunohkor qilma, ayblama	1
132.	damo-dam	uzluksiz, ketma-ket	1
133.	tori mo'yi	soch tolasi	1
134.	gisu	o'rilgan soch	1
135.	ore	rost, to'g'ri, shubhasiz	1
136.	tilogu	ehtirom qilish, bag'ishlash	1
137.	bayt ul-hazan	g'am uyi	1
138.	irn	lab, dudoq	1
139.	g'amza	ko'z ishorasi, ko'z bilan ishora qilish	1
140.	mushk	qora tusli xushbo'y modda	1
141.	band-band	kishanlamoq	1
142.	gesu	soch	1
143.	shikasta	halqa-halqa, buramli	1
144.	oylarda	ikki xil ma'no: 1) bir necha oy davomida; 2) oyday go'zallarda	1
145.	muqbil	baxtli	1
146.	minqor	qush tumshug'i	1
147.	uyi	uxla	1
148.	farah	xursandchilik, shodlik	1
149.	sheva	noz, ishva, ado	1
150.	darig'	hayf, afsus; attang	1
151.	haqqo	haqiqatda	1
152.	kajraftor	teskari yuruvchi; makkor, hiylagar	1

## MUNDARIJA

	<b>MAVZULAR NOMI</b>	Sahifa raqami	Savol- lar soni
	<b>ADABIYOTSHUNOSLIK</b>		
	<b>KIRISH</b>		
1.	Adabiyot – so'z san'ati	3	16
2.	Ma'naviyat xazinasi	5	8
3.	Badiiy so'z qudrati	6	19
4	Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga e'tibor	11	9
5.	Ruhiy kamolot vositasi	13	12
6.	Badiiy adabiyot namunalari tarbiya vositasi sifatida	15	1
7.	Didaktik adabiyot haqida tushuncha	15	11
8.	Hikmatli so'zlar	17	15
9.	Adabiyot – ma'naviyatni yuksaltirish vositasi	18	7
10.	Badiiy asar tili	19	5
11.	Badiiy asarda milliy ruh ifodasi	20	2
12.	Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili	21	5
13.	Badiiy asar pafosi	22	3
14.	Hajviy asar	22	26
15.	Badiiy obraz va mubolag'aviy tasvir	25	11
16.	Ramziy obrazlar	27	9
17.	Komil inson g'oyasi	27	23
18.	Tasavvuf adabiyoti	30	38
	<b>ADABIY TUR VA JANRLAR. LIRIK TUR</b>		
1.	She'r haqida tushuncha va she'riy vaznlar	33	116
2.	Ijtimoiy va intim lirika	47	6
3.	Lirik qahramon	48	5
4.	Qofiya va radif	49	36

5.	G'azal	54	59
6.	Qit'a	61	29
7.	Ruboiy	63	9
8.	Tuyuq va tajnis	64	24
9.	Chiston	68	12
10.	Qasida	69	6
11.	Sayohatnama	70	7
12.	Ballada	71	10
<b>EPIK TUR</b>			
1.	Memuar asar	71	9
2.	Hikoya	72	4
3.	Qissa	73	10
4.	Sarguzasht asar	74	2
5.	Roman	74	51
6.	She'riy roman	80	11
7.	Ertak-doston	81	11
8.	Masal	83	21
<b>DRAMATIK TUR</b>			
1.	Dramatik tur. Tragediya	85	41
2.	Tragik obrazlar va hayot haqiqati	88	5
1.	<b>SHE'RIY SAN'ATLAR</b>	89	316
<b>XALQ OG'ZAKI IJODI</b>			
1.	Xalq og'zaki ijodi janrlari	137	9
2.	Xalq qo'shiqlari	138	82
3.	Ertak	152	64
4.	Xalq dostonlari va ularning turlari	157	71
5.	Ishqiy-qahramonlik dostonlari	165	5
6.	Maqollar	165	19
7.	Topishmoqlar	167	25
<b>ERTAKLAR</b>			
1.	"Uch og'a-ini botirlar" ertagi	170	52
2.	"Susambil" ertagi	174	25

<b>DOSTONLAR</b>			
1.	"Alpomish" dostoni	177	317
2.	"Kuntug'mish" dostoni	208	144
3.	"Ravshan" dostoni	224	172
4.	"Rustamxon" dostoni	236	52
5.	"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni	241	130
<b>ENG QADIMGI DAVR YODGORLIKHLARI</b>			
1.	"Avesto"	256	151
2.	"O'rxun-Enasoy yodgorliklari". "To'nyuquq", "Kultigin", "Bilga xoqon" bitiktoshlari	270	124
1.	<b>HADIS HAQIDA TUSHUNCHА</b>	282	33
2.	<b>IMOM AL-BUXORIY</b>	285	90
<b>XI – XII ASR ADABIYOTI</b>			
1.	Mahmud Koshg'ariy	299	197
2.	Yusuf Xos Hojib	318	305
3.	Ahmad Yugnakiy	344	132
4.	Ahmad Yassaviy	353	100
<b>XII – XIII ASR ADABIYOTI</b>			
1.	Najmiddin Kubro	360	31
2.	Jaloliddin Rumiy	364	29
3.	Nosiriddin Rabg'uziy	368	217
4.	Pahlavon Mahmud	388	28
5.	Sayfi Saroyi	391	155
6.	Xorazmiy	399	237
<b>XIV – XV ASR ADABIYOTI</b>			
1.	Xo'jandiy	410	52
2.	Sakkokiy	413	47
3.	Atoiy	416	169
4.	Gadoiy	431	57
5.	Lutfiy	434	152

**Nilufar RASULOVA**

**ADABIYOTDAN  
MUKAMMAL SAVOL-JAVOBLAR  
1-kitob**

**Muharrir:**

Xurshidbek IBROHIMOV

**Texnik muharrir:**

Abduqodir YULDASHEV

**Dizayner va sahifalovchi:**

Xurshidbek IBROHIMOV

«Nurafshon ziyo yog'dusi» nashriyotida tayyorlandi.  
Toshkent shahri Chilonzor tumani Cho'ponota ko'chasi 28-A uy.

**Murojaat uchun telefonlar:**

(+998 93) 181-10-04, (+998 93) 183-10-04,  
(+998 94) 695-11-44, (+998 94) 653-11-44

Nashriyot litsenziyasi: AI №300 22.05.2017

Bosishga ruxsat etildi: 08.10.2018

Gazeta qog'oz. Qog'oz bichimi: 84x108 <sup>1/32</sup>  
Arial garniturasi. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t.: 13,33. Sharqli b.t.: 23,52.  
Adadi 5000 nusxa.  
Buyurtma № 64.

«Nurafshon ziyo yog'dusi» MChJ bosmaxonasida muqovalandi.  
Toshkent shahri Chilonzor tumani Cho'ponota ko'chasi 28-A uy.

«Yosh kuch press matbuoti» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri Chilonzor tumani Chilonzor ko'chasi 1-A uy.